

O'zbek tili
DARSLIK

B2

O'rtadan yuqori daraja



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI


AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

Shaxlo Shukurlayevna Yuldasheva,
Durdona Satimovna Kabulova,
Gulara Ataxanovna Yusupova

O‘ZBEK TILI

Ta’lim qardosh tillarda olib boriladigan bakalavr ta’lim
yo‘nalishlari /B2. O‘rtadan yuqori daraja / uchun darslik

Toshkent – 2020



BBK 81.2 uzb -92.3

UDK 811.512

Yu -92

O'zbek tili /darslik. Yuldasheva Sh.Sh., Kabulova D.S.,
Yusupova G.A. – Toshkent, 2020. – 288 b.

Xorijiy tajribalarga tayangan holda yaratilgan mazkur darslik bakalavr yo'nalishlarining ta'lim qardosh tillarda olib boriladigan guruhlarida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan. Darslik kundalik, o'quv, ishlab chiqarish va madaniy hayotda o'zbek tilida muloqot qilish, ilmiy va kasbiy faoliyat olib borishga nazariy, amaliy tayyorlash uchun xizmat qiluvchi matnlar, audio va videotasmalardagi yozuvlar, mashq hamda topshiriqlarni jamlagan. U bo'lajak mutaxassislar va mehnat faoliyatida band bo'lgan xodimlarning nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Darslikdan o'zbek tilini B2 darajada bilishni sertifikatlashtirish uchun imtihonlarga tayyorlanishda ham foydalanilishi mumkin.

Данный учебник, созданный с опорой на зарубежные опыты, рекомендован для студентов в группах с обучением на родственных языках направлений бакалавриата. Учебник состоит из текстов, аудио и видеозаписей, упражнений и заданий, служащих для теоретической, практической подготовки для общения, ведения научной и практической деятельности на узбекском языке в повседневной жизни, учебном процессе, производстве и культурной жизни. Он служит для формирования речевой и лингвистической компетенций будущих специалистов и сотрудников, занятых трудовой деятельностью. Учебником можно пользоваться и при подготовке к экзаменам для сертификации знаний уровня B2.

The presented course book is written on the basis of abroad experiences and is designed for the bachelor degree students of other Turkish languages, who learn the Uzbek language.

The course book includes texts, audios, and video materials, exercises and tasks aimed to develop learners communicative competences, which give them opportunity to use the language in their everyday life, in studies, in their future professional field, as well as in scientific works.

The book focuses on developing students, linguistic competences and spoken and interaction and production which will be necessary for both pre-service and in service professionals.

The course book is also helpful for the learners who wish to take an exam for having B2 level of the Uzbek language.

Mas'ul muharrir – dotsent Eshboy Xo'janiyozov
Taqrizchilar: Filologiya fanlari doktori X.Xamrakulova
Falsafa doktori (PhD) N.Yangiboyeva
Pedagogika fanlari nomzodi Sh.Buranova

Darslik Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Kengashining 2020-yil 31- yanvardagi 6-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

2020-yil

Shartli belgilar:

	Tinglang
	Ko'ring
	Gapiring
	O'qing
	Yozing
	Javob bering
	Muhokama qiling
	Bilganingdan bilmaganing ko'p!
	Hamkorlikda ishleng.
	Mashqlarni bajaring.
	Mavzuga kirish
	Nazariy qism
	Adabiy o'qish
	Mustaqil ish topshiriqlari.

MUNDARIJA

VATANNI SEVISHGA CHORLOVCHI DARSLIK

I MODUL. VATAN VA VATANPARVARLIK

Vatan ostonadan boshlanadi

O'zbek tili alifbosi, tovushlar tizimi, to'g'ri talaffuz va imlo masalalari

Adabiy o'qish: H.Olimjon. "O'zbekiston"

II MODUL. OILA, Qadriyatlar, Urf-Odatlar

Muqaddas tushunchalar

So'z va uning ma'nolari

Adabiy o'qish: O'.Hoshimov. "Dunyoning ishlari"

III MODUL. TIL BILGAN EL BILADI

Til – xazina

Leksik qatlamlar, o'zbek iboralari

Adabiy o'qish: Eshqobil Shukur "Boboso'z izidan"

IV MODUL. TARIX – MURABBIY

Tarix va zamonamiz

So'z tarkibi, so'z yasalishi

Adabiy o'qish: A.Qodiriy. "O'tgan kunlar"

V MODUL. MADANIYAT, TURIZM

Madaniy maskanlar

Morfologiya

Adabiy o'qish: O'.Hoshimov. "Daftar hoshiyasidagi bitiklar"

VI MODUL. SAVDO VA XIZMAT KO'RSATISH

Iqtisod va hayot

Sodda gap sintaksisi

Adabiy o'qish: X.Do'stmuhammad. "Bozor"

VII MODUL. TA'LIM VA TARBIYA

Zamonaviy dunyoda ta'lim

Qo'shma gap sintaksisi, matn


Adabiy o'qish: M.Ali. "Sarbadorlar"

VIII MODUL. KASB-HUNAR

Ustoz maktabi

Nutq uslublari.

Adabiy o'qish: A.Suyun. "Ustod va shogird"



IX MODUL. KITOB MUTOLAASI

Adabiyot – ma'naviyatni yuksaltiruvchi manba

Badiiy uslub

Adabiy o'qish: Oybek. "Navoiy"

X MODUL. NUTQ ODOBI VA ETIKET

Nutq odobi va kasb etikasi

So'zlashuv uslubi

Adabiy o'qish: E.Vohidov. "Hozirgi yoshlar"

XI MODUL. OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI, INTERNET

Axborot asri: Internet hayotimizda

Publitsistik uslub

Adabiy o'qish: O'.Hoshimov. "Nur borki, soya bor"

XII MODUL. INSON, TABIAT, EKOLOGIYA

Tabiat – uyimiz

Atamalar

Adabiy o'qish: O.Matjon. "Orolga yordam"

XIII MODUL. SPORT VA SALOMATLIK

Inson va salomatlik

Ilmiy-publitsistik uslub

Adabiy o'qish: Tog'ay Murod. "Yulduzlar mangu yonadi"

XIV MODUL. FAN VA INNOVATSIYALAR

Sharq akademiyalari va innovatsiyalar

Ilmiy uslub

Adabiy o'qish: O.Yoqubov. "Diyonat"

XV MODUL. ISH YURITISH TILI VA USLUBI


Xizmat safari

Rasmiy-idoraviy uslub

Adabiy o'qish: A.Qodiriy. "Mehrobdan chayon"

Foydalanilgan adabiyotlar

ILOVALAR



ОГЛАВЛЕНИЕ

УЧЕБНИК, ПРИВИВАЮЩИЙ ЛЮБОВЬ К РОДИНЕ

I МОДУЛЬ. РОДИНА И ПАТРИОТИЗМ

Родина начинается с порога

Узбекский алфавит, звуковая система, правильное произношение и орфография

Литературное чтение: Х. Алимжоджан. "Узбекистан"

II МОДУЛЬ. СЕМЬЯ, ЦЕННОСТИ, ТРАДИЦИИ

Сакральные понятия

Слово и его значения

Литературное чтение: У. Хашимов. "Дела земные"

III МОДУЛЬ. ЗНАНИЕ ЯЗЫКА – ПОЗНАНИЕ МИРА

Язык – это сокровище

Лексические слои, узбекские фразы

Литературное чтение: Эшқобил Шукур "По следам Бобосоза"

IV МОДУЛЬ. ИСТОРИЯ – НАСТАВНИК

История и современность

Структура слова, словообразование

Литературное чтение: А.Кодирий. "Минувшие дни"

V МОДУЛЬ. КУЛЬТУРА, ТУРИЗМ

Культурные достопримечательности

Морфология

Литературное чтение: У. Хашимов. «Надписи на обложке тетради»

VI МОДУЛЬ. ТОРГОВЛЯ И СЕРВИС

Экономика и жизнь

Синтаксис простого предложения

Литературное чтение: Х. Достмухаммад. «Рынок»

VII МОДУЛЬ. ОБРАЗОВАНИЕ И ОБУЧЕНИЕ

Образование в современном мире

Синтаксис, текст

Литературное чтение: М.Али. "Сарбадары"

VIII МОДУЛЬ. ПРОФЕССИЯ И НАВЫКИ

Школа учителя

Стили речи.

Литературное чтение: А.Суюн. "Мастер и ученик".



IX МОДУЛЬ. ЧТЕНИЕ КНИГИ

Литература - источник духовности

Художественный стиль

Литературное чтение: Айбек. «Наваи»

X МОДУЛЬ. КУЛЬТУРА РЕЧИ И ЭТИКЕТ

Речевой этикет и профессиональная этика

Разговорный стиль

Литературное чтение: Э. Вахидов. "Современная молодежь"

XI МОДУЛЬ. СМИ, ИНТЕРНЕТ

Информационный век: Интернет в нашей жизни

Журналистский стиль

Литературное чтение: У. аошимов. «Свет не без тени»

XII МОДУЛЬ. ЧЕЛОВЕК, ПРИРОДА, ЭКОЛОГИЯ

Природа наш дом

Термины

Литературное чтение: О.Матджан. «Помощь Аралу»

XIII МОДУЛЬ. СПОРТ И ЗДОРОВЬЯ

Человек и здоровье

Научно-публицистический стиль

Литературное чтение: Тогай Мурад. "Звезды горят вечно"

XIV МОДУЛЬ. НАУКА И ИННОВАЦИИ

Восточные академии и инновации

Научный стиль

Литературное чтение: А. Якубов. «Вероисповедание»

XV МОДУЛЬ. ЯЗЫК И МЕТОД ДЕЛОПРОИЗВОДСТВА


Командировка

Формально-административный стиль

Литературная экспансия: А.Кадири. "Скорпион из алтаря"

Использованные источники

ПРИЛОЖЕНИЯ



CONTENTS

THE TEXTBOOK THAT ENCOURAGES LOVE OF COUNTRY

I MODUL. MOTHERLAND AND PATRIOTISM

The Motherland starts at the threshold

Uzbek alphabet, sound system, correct pronunciation and spelling

Literary reading: H.Olimjon. "Uzbekistan"

II MODUL. FAMILY, VALUES, TRADITIONS

Sacred concepts

The word and its meanings

Literary reading: O. Hoshimov. "Earthly Affairs"

III MODUL. LANGUAGE IS THE ROAD MAP OF A CULTURE

Language is a treasure

Lexical layers, Uzbek phrases

Literary reading: Eshqobil Shukur "In the footsteps of Bobosoz"

IV MODUL. HISTORY – MENTOR

History and modernity

Word structure, word formation

Literary reading: A.Qodiriy. "Days Gone By"

V MODUL. CULTURE, TOURISM

Cultural sites

Morphology

Literary reading: O. Hoshimov. "Writings on the margin of the notebook"

VI MODUL. TRADE AND SERVICES

Economy and Life

simple sentence syntax

Literary reading: H. Dostmuhammad. "The Market"

VII MODUL. EDUCATION AND TRAINING

Education in the modern world


Syntax, text

Literary reading: M.Ali. "Sarbadorlar"

VIII MODUL. SKILLS AND PROFESSION

Teacher's school

Speech styles.



Literary reading: A.Suyun. "Master and student"

IX MODUL. READING A BOOK

Literature is a source of spirituality

Artistic style

Literary reading: Oybek. "Navoi"

X MODUL. SPEECH ETIQUETTE AND ETHICS

Speech etiquette and professional ethics

Conversational style

Literary reading: E.Vakhidov. "Today's youth"

XI MODUL. MEDIA, INTERNET

Information age: The Internet is in our lives

Journalistic style

Literary reading: O. Hoshimov. "As long as there is light, there is shadow"

XII MODUL. HUMAN, NATURE, ECOLOGY

Nature is our home

Terms

Literary reading: O.Matjon. "Help for the ARAL"

XIII MODUL. SPORTS AND HEALTH

Human and health

Scientific and journalistic style

Literary reading: Togay Murad. "Stars burn forever"

XIV MODUL. SCIENCE AND INNOVATION

Oriental academies and innovations

Scientific style

Literary reading: O. Yakubov. "Religion"

Adabiy o'qish: O.Yoqubov. "Confession"

XV MODUL. OFFICE-LANGUAGE AND METHODS

Business trip

Formal-administrative style

Literary reading: A.Qodiriy. "The Scorpion from the Altar"

References


APPENDICES



VATANNI SEVISHGA CHORLOVCHI DARSLIK

O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida jamiyatning barcha jabhalarini zamonaviylashtirish, xalq xo'jaligini, ishlab chiqarishni, sanoatni, xizmat ko'rsatish sohalarini takomillashtirish, hayotimizning barcha tarmoqlarini tiklash, yangi sifat bosqichiga olib chiqish, xalq turmushini farovonlashtirishga yo'naltirish eng muhim ishga aylanib bormoqda. Ushbu talablar qamrovidan ta'lim tizimi, o'qitish-o'rgatish ishlari, ta'lim-tarbiya, ta'limning yangilangan vositalari, darsliklar, o'qitishning yangi usul va texnologiyalari ham chetda qolishi mumkin emas. Ayniqsa, oliy ta'limni yangi sifat bosqichiga ko'tarishga intilayotgan soha xodimlari o'z faoliyatlarida ta'lim vositalarini takomillashtirishga, ta'lim oluvchilarning oson o'zlashtirishlari uchun qulay va samarali qilib yaratishga, har bir yosh avlod qalbida Vatanni sevish, ona-yurtga sadoqat hissini barqaror qilishga, xalq farovonligi, ozod va obod mamlakat istiqboli uchun kurashga safarbar qilish ruhida tarbiyalashga xizmat qiluvchi mo'tabar vositaga aylantirishga harakat qilishmoqda. Qo'limizdagi "O'zbek tili" darsligining mualliflari ham oliy o'quv yurti talabalarini milliy istiqlol mafkurasi, umuminsoniy qadriyatlarni bilish asosida, mustaqillik g'oyalariga sadoqat, Vatanga, oilaga, atrof-muhitga muhabbat ruhida tarbiyalashga ko'maklashuvchi, yuksak ma'naviy va axloqiy sifatlarga ega bo'lgan yosh avlodni kamol toptirishga xizmat qiluvchi, zamon talablariga javob beruvchi qo'llanmaga aylantirishga harakat qilganlar.


Mazkur darslik oliy ta'lim bakalavr yo'nalishlarining ta'lim qardosh tillarda olib boriladigan guruhlarida tahsil olayotgan talabalarga o'zbek tili (davlat tili)dan saboq berishga mo'ljallangan. Unda o'zbek tilining lisoniy boyliklari, grammatik qurilishi, nutq tuzilishi, nutq uslublari, o'zbek tilida ish yuritishning rasmiy vositalari, kurs ishi, referat, taqriz yozish qoida-qonunlari bayon qilingan. Ushbu nazariy va amaliy tushunchalarni ta'rif-u tavsif va tahlillar qilish barobarida Vatanimiz – O'zbekistonning tabiati, iqlimi, qazilma boyliklari, aholisi, tarixi, urf-odatlar, mashhur kishilari, milliy qadriyatlari, san'ati, transporti haqida ma'lumotlar beriladi. Har bir bo'limga O'zbekistonning viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi to'g'risidagi ma'lumotlar ilova qilingan. Bundan tashqari buyuk allomalar, O'zbekiston Qahramonlari, amalga oshirilgan kashfiyotlar,



ma'rifat o'choqlari, ilm-fan, kitoblar olami haqidagi matnlar nazariy ma'lumotlarga ilova qilingan. Bularning barchasi Vatanimiz O'zbekiston bilan faxrlanish tuyg'usini, uning shukuhi bilan yashash hissini qaror toptirishi shubhasiz. Zotan, Vatanparvarlik 3 ta bosqichda namoyon bo'ladi: 1) bilim – Vatanga xos qadriyatlarni anglash va egallash; 2) e'tiqod, qadriyatlar to'g'risida olgan bilimlarni e'tiqodga aylantirish; 3) harakat – bu e'tiqodni amaliy ishlar orqali namoyon etish¹. Kitobdagi barcha mavzular kelajak avlodda Vatanparvarlik hissini qaror toptirishga yo'naltirilgan. Shu ma'noda ushbu kitob Vatanni sevishga chorlovchi darslik sifatida taassurot qoldiradi va yoshlarni Vatanimiz kelajagiga buyuk ishonch ruhida tarbiyalashiga sidqidildan aminmiz.

F.f.n., dots. Eshboy Xo'janiyozov.

¹ Shermonov E. Daxlsizlik tuyg'usi // Ma'rifat – Toshkent, 2012. – 18-avgust.



I MODUL

Vatan va vatanparvarlik

Vatan ostonadan boshlanadi

*O'zbek tili alifbosi, tovushlar tizimi,
to'g'ri talaffuz va imlo masalalari*

H.Olimjon. "O'zbekiston"



Vatan ostonadan boshlanadi

Tuxm yerga kirib chechak bo'ldi,

Qurt jondin kechib ipak bo'ldi.

Lola tuxmicha g'ayrating yo'qmu?!

Pilla qurticha himmating yo'qmu?!

Alisher Navoiy



Vatan (a. – tug'ilib o'sgan joy,

Vatan (a. – tug'ilib o'sgan joy, yurt) 1 Kishining tug'ilib o'sgan o'lkasi, shahri yoki qishlog'i; yurt, diyor. Bulbul chamanni sevar, odam – vatanni. Maqol. 2 Kishi tug'ilib o'sgan va o'zini uning fuqarosi hisoblagan mamlakat; ona yurt. Ona vatan. Ulug' vatan. 3 Turarjoy, boshpana, maskan, uy. Yoshi yigirma beshni qoraladi. Lekin boshida na bo'yradek vatani bor, na jonida halovati. S. Siyoev, Avaz. 4 O'simlik va sh. k. larning asli kelib chiqqan yerini bildiradi. Uy limoni – rutaqullilar oilasiga mansub, doim yashil subtropik o'simlik. Vatani – Xitoy, Yaponiya, Sharqiy Hindiston. «Uy-ro'zg'or ensiklopediyasi».

Vatan qilmoq Yashash joyi qilib o'rnashmoq. Taqdir qilgan joyga vatan qilamiz, Ajal yetgan joyda bir kun o'lamiz. «Yusuf va Ahmad».

Vatanparvarlik

Vatanparvarlarga xos ish, xatti-harakat, xislat. Vatanparvarlik burchi.

Vatanparvar (a.+f. – g'amxo'rlik qiluvchi) O'z vatanini, ona yurtini, xalqini cheksiz sevuvchi, vatan manfaatlari uchun jonbozlik ko'rsatuvchi.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”

Yigit kishining uchta yurti
bo'ladi, deb eshitganmisiz?
Ota makoni, doyi (tog'a) yurti,
qayin yurti haqida nima bilasiz?

Kim o'z yurtini sevmasa, u hech
nimani seva olmaydi.
(Jorj BAYRON, ingliz shoiri)



**Mavzuni o'rganishda quyidagi so'z va so'z birikmalariga
e'tibor qarating:**

<i>andoza</i>	<i>Baynalmilal</i>	<i>Birlashgan Millatlar</i>
<i>daxldor</i>	<i>dunyo hamjamiyati</i>	<i>Tashkiloti</i>
<i>hamkorlik</i>	<i>Harakatlar</i>	<i>elchixona</i>
<i>istiqlol</i>	<i>strategiyasi</i>	<i>islohot</i>
<i>ma'naviy</i>	<i>jahon hamjamiyati</i>	<i>mafkura</i>
<i>mustaqillik</i>	<i>meros</i>	<i>milliy ruhiyat</i>
<i>totuvlik</i>	<i>ostona</i>	<i>siyosiy</i>
<i>xalqaro tashkilotlar</i>	<i>ustuvor</i>	<i>valuta</i>
	<i>xalqchil</i>	<i>yil dasturi</i>



“Vatan” filmidan parcha.

1) Polilog ishtirokchilari kimlar?

- ☐ ota-bola
- ☐ ota-bola, nevara
- ☐ ota-bola, do'st

2) 2-suhbatdoshning ketib qolishi
1-suhbatdoshni...

- ☐ asabiylashtiradi.
- ☐ hayratlantiradi.
- ☐ o'ylantiradi.





3) 1-suhbatdoshning “Vatan emish!?” degan gapiga qanday javob beriladi?

- ☐ Bu sening ham Vataning, bolam.
- ☐ Butun hayotim barbod bo‘lgan.
- ☐ Vatan ham onaday. Undan ta’ma qilish gunohi azim.

4) 1-suhbatdosh “Vatan” so‘zini eshitib...

- ☐ 2-suhbatdosh boshidan o‘tkazgan azob-uqubatlarni eslaydi.
- ☐ O‘z boshidan kechirgan mudhish voqealarni eslaydi.
- ☐ O‘zining ish yuzasidan uchrashuvlarni bekor qilganini o‘ylab qoladi.

5) 3-suhbatdosh suhbatga aralashib...

- ☐ do‘stiga maslahat beradi
- ☐ do‘stini fikridan qaytaradi
- ☐ do‘stini ma’qullaydi

6) “Vatan! Mana bu moviy osmon, manavi yer..” degan gaplar 1-suhbatdoshga qanday ta’sir qildi?

- ☐ U kechirim so‘raydi, xatosini tushunib yetadi.
- ☐ O‘z fikrida qat’iy qoladi.
- ☐ Bir qarorga kelmaydi.

7) Bu suhbatdagi 2-suhbatdoshning nutqi ...

- ☐ Vatan va zamon hodisalarini chalkashtirmaslikka o‘rgatadi
- ☐ Vatan va zamon hodisalari haqida bahsga chorlaydi
- ☐ Ota-bola munosabatlari haqida




Suhbat sizda qanday hissiyot paydo qildi? Siz Vatanni qanday ta’riflagan bo‘lar edingiz?



1	Baliq suv bilan tirik, odam-chi?	
2	Vatan gadosi nimaning gadosi?	
3	Vatan qadrini bilmagan nimaning qadrini bilmas?	
4	Ona yerning tuprog‘i nimadan aziz?	
5	Dindan chiqsang ham nimadan chiqma?	
6	Tuqqan elga jon tortmasa ham nima tortadi?	
7	Ursa ham, so‘ksa ham nima yaxshi?	
8	Elga qo‘shilgan moy yutar, eldan ayrilgan-chi?	
9	Yaxshi yigit yurt tuzar, yomon yigit-chi?	
10	Qurigan yurtda kim oqsoqol bo‘ladi?	





O'ZBEKISTON

O'zbekiston Respublikasi aholisi 34 mln. kishini tashkil qiladi. Mazkur aholining yarmidan ortig'i shaharlarda yashaydi.

Yer maydoni (448,97 km²) bo'yicha dunyo mamlakatlari ichida 55-o'rinda turadi.

Hududi g'arbdan sharqqa – 1425 km, shimoldan janubga qadar – 930 km. Shimolda va shimoli-sharqda Qozog'iston, sharqda va janubi-sharqda Qirg'iziston va Tojikiston, g'arbda Turkmaniston bilan, janubda esa Afg'oniston bilan chegaradoshdir.

Respublika hududining katta qismini pasttekisliklar tashkil etadi. Ulardan eng asosiysi Turon pasttekisligidir. Mamlakat sharqi va shimoli-sharqida Tyan-shan va Pomir tog' tizmalari joylashgan. Mamlakatning markaziy qismi shimolida dunyoning eng yirik cho'llaridan biri – Qizilqum, g'arbida – Qoraqum sahrosi joylashgan.

O'zbekiston Respublikasida 119 ta shahar, 1071 ta shaharcha va 11006 ta qishloq aholi punktlari mavjud.

O'zbekistonning eng yirik daryolari – Sirdaryo va Amudaryo bo'lib, ularning uzunligi mos ravishda 2137 kilometr va 1437 kilometrni tashkil etadi.



2-iyul – O'zbekiston Respublikasining davlat gerbi qabul qilingan kun (1992-yil)



8-dekabr – O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan kun (1992-yil)



18-noyabr – O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i qabul qilingan kun (1991-yil)



10-dekabr – O'zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi qabul qilingan kun (1992-yil)



O'zbekiston haqidagi qiziqarli ma'lumotlarni davom ettiring.



(qisqa ma'lumotlarni almashing) Masalan:

- O'zbekiston ko'p millatli mamlakat, uning hududida 130dan ziyod millat va elatlar yashaydi.
- 2018-yil 6-sentabr Xalqaro maqom san'ati anjumani o'tkazildi.
- Xalqaro baxshichilik san'ati festivali bo'ldi. (2019- yil 6 – 10 aprel)
- Xalqaro hunarmandchilik festivali ham dunyo xalqlarini O'zbekistonga to'pladi (2019-yil 10 – 15 sentabr)



1-mashq. Bir yoki bir nechta to'g'ri javobni tanlang.

milliy ru...iyat	da...ldor	ma...kura						
xalq...il	ma...naviy	ja...on hamjamiyati						
...alqaro tashkilotlar	val...uta	el...ixona						
x	h	v	f	sh	ch	y	v	f

2-mashq. Bir yoki bir nechta to'g'ri javobni tanlang.

ust...vor	isloh...t	...arakatlar strategiyasi							
yil dast...ri	ma...naviy	dunyo ...amjamiyati							
baynalmi...al	siyosi...	xilma...xil							
i	u	h	H	n	l	y	-	i	e



3-mashq. Matnda 9 ta so'z xato yozilgan. Ularni to'g'rilab yozing.

Vatanga bo'lgan muhabbatm meni xorijylar yutig'idan ko'z yumushga majbir qlmaydi. Aksincha, vatanga muhabbatim qanchalk kuchli bo'lsa, vatanimni johondagi g'aznalar bilan yana-da shunchalk boyitgim keladi. (F.Volter)


_____	_____	_____
_____	_____	_____
_____	_____	_____

4-mashq. Matnda 5 ta so'z xato yozilgan. Ularni to'g'rilab yozing.

Insanning ayag'i o'z yurti zaminiga tamir otishi kerak, lekin nigahi butin dunyoni kuzatsin. (J.Santayana)

_____	_____	_____
_____	_____	

5-mashq. Moslikni aniqlang.



6-mashq. Bo'sh o'ringa qoidaga mos javobni tanlang.

Ia, io, ai, oi, ea, ae, oe kabi yonma-yon kelgan unlilar orasida y tovushi talaffuz qilinadi. Yozuvda yozilmaydi.



7-mashq. Bo'sh o'ringa qoidaga mos javob tanlang.

Muh...m, mud...r, muq...m, mumk...n, mun...s kabi sozlarning ikkinchi bo'g'ini urg'u oladi. Talaffuzda ... aytilsa ham ... yoziladi.

8-mashq. Qolipga mos gapni tanlang. *Ega+to'ldiruvchi+kesim*

*Elga qo'shulg'on esh
topti.*

(A. Navoiy)

*Begona yurt vatan
bo'la olmaydi.*

(I. Gyote)

9-mashq. Qolipga mos gapni aniqlang. *Aniqllovchi +ega+ kesim*

*Vatanning tutuni ham shirin.
Vatan gadosi – kafan gadosi.*

10-mashq. Topishmoqlarga qo'shma so'z bilan javob bering.

*Bir tepada olti qo'chqorning shoxi almashib yotir,
Yetti qo'chqorning shoxi yalmashib yotir.*

11-mashq. Matnda 26 ta so'z xato yozilgan. Ularni to'g'rilab imlo qoidalariga muvofiq yozing.

O'zbekiston davlati 1991 yil 21 dekabrda Mustaqil davlatlar hamdo'stligiga, 1992 yil 2 martda Birlashkan millatlar tashkiloti va bochqa xalqaro tashkilotlarga a'zo boldi.

O'zbekiston respublikasini 200 ga yaqin davlat tan oldi, 130 mamalakat blan rasmi diplomatiya aloqalari ornatildi. 50 dan ortiq davlat O'zbekistonda oz elshihonalarini ochti.

Mustaqillik o'zbek xalqiga oz tarixiga terang nazar tashlash, otababalardan kelayotgan ulug' mirosni qadrlash, oz milliy madaniyati va ananalarini rivojlantirish, dunyo xamjamiyatida munosib orin igallash imkoniyatini berdi.

1991-yil,

.....

.....

.....

.....

12-mashq. Quyidagi so'zlarni sharhlang va ona tilingizga tarjima qiling. 

rasmiy	
diplomatiya	
elchixona	
imkoniyat	

13-mashq. Quyidagi so'zlarni o'zak va qo'shimchalarga ajrating. 

tasdiqlandi

aloqalari

elchixonalarini

hamdo'stligining

tashkilotlarga

xaritasida



O'zbekiston haqida gazeta va jurnallar, internet sahifalaridan o'qib borasizmi? Quyidagi internet xabari bilan tanishing.

“Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tomonidan o'tkazilgan so'nggi ijtimoiy so'rov natijalariga ko'ra, o'zbek yoshlari o'z vatanlari bilan faxrlanishadi.



"Yoshlarning aksariyati (94,3 foizi) mustaqillik yillarida yosh avlod vakillarining vatanparvarlik tuyg'usi mustahkamlanganini ta'kidladi, deb bu haqda xabar tarqatgan O'zbekistonning asosiy davlat axborot agentligi O'zA.

Ushbu xabar Internet ijtimoiy tarmoqlarida ham turli bahsmunozaralarga sabab bo'ldi. Facebook tarmog'idagi "Novosti Uzbekistana" guruhi foydalanuvchilarining ba'zilar so'rov chindan ham o'tkazilganiga shubha bilan qarashgan bo'lsa, ba'zilar "vatanparvarlik" tushunchasi keng qamrovli ekanini ta'kidlashgan.

"Men va mening tanishlarimdan hech kim so'rovda qatnashgani yo'q, ular qaysi mamlakatda bunday so'rovni o'tkazishadi?" – deya savol bergan Xamza Metrov.

"Gastarbayerlardan so'ratingizmi?" – deb kinoyali savolni qo'ygan Kamila Alieva.

Kamilla Idiatulina ismli foydalanuvchi esa aholining hammasi ham jamoatchilik fikrini o'rganishda qatnashmaganligiga ishora qiladi.

"U yerda bizning baxtiyor vatanimizdagi barcha aholi so'rov qilingan, deb yozilmagan-ku. Boshida go'yo hamma so'rovda qatnashgan-u, bir men qolib ketgandek yolg'on his paydo bo'ladi", – deb yozgan u.

Biroq fikr qoldirganlar orasida ijtimoiy-iqtisodiy muammolariga qaramasdan, O'zbekistonni sevadiganlar ko'p ekani anglashiladi.

"O'z mamlakatimizni qanchalar so'kmaylik, nimadandir norozi bo'lmaylik, baribir, har birimiz qalbimiz tubida o'z vatanimizni sevamiz, har kim o'zicha, agar biror yomon narsani ko'rsak, har birimizning vatanimiz uchun ichimiz achiydi, lekin baribir uni sevamiz, bu inson uchun odatiy tuyg'u, vatanni sevish va uning muammolaridan azob chekish", – deydi Karina Sardarova. Ushbu fikrga qo'shilib, Azamat Abdullaev shunday yozadi: "Biz o'z Vatanimiz bilan faxrlanamiz, hozir kunlar og'ir va iqtisod kuchsiz, lekin qanday yashamaylik, biz o'z yurtimizni sevamiz".

Ayrim foydalanuvchilar "Vatan" va "hukumat", "Vatan" va "amaldor" tushunchalarini chalkashtirmaslikka chaqirganlar.

"Siz nima deb o'ylaysiz, agar kimdir O'zbekistonni sevsa, lekin mansabdorlarni va hukumatni sevmasa, u ham vatanparvarmi?" degan savolni o'rta tashlagan Nikolay Davis.

"Ha, vatanparvar, hukumatdan tashqari, vatanini juda ko'p jihatlari uchun sevishi mumkin, xalq, madaniyat, urf-odatlar, tabiat va o'zaro



munosabat, vatan ona kabi, uni tanlamaydilar, albatta, tushunarliki, unchalik to'g'ri bo'lmagan narsalarning yuz berayotganidan ko'pchilikning ko'ngli og'riydi, vatanparvarlik bu har bir insonga xos subektiv hissiyot" – deya bunga munosabat bildirgan Karina Sardarova.

"Bizda kimki davlatni tanqid qilsa, u vatanparvar emas, degan tushuncha bor. Davlatga muhabbat va Vatanga muhabbat – bu ikki xil narsa", – deb davom etgan Nikolay Davis,

"Menimcha, yana vatanparvar bu o'z yurtidagi hayotni yaxshilashni chindan xohlaydigan va yuqoridagilarni tanqid qilishdan qo'rqmaydigan odam. Albatta, tanqid joyida bo'lsa".

Matnga qanday sarlavha qo'yish mumkin? Matndagi asosiy fikrni aniqlang.

Matnda ko'rsatilgan vaziyat, muammo yoki fikr matnning mavzusidir. Matn mavzusini topish uchun bir savol berishimiz kerak: Bu matnda nima tushuntirilyapti?

 **1-vaziyat.** Siz o'qiydigan/ishlaydigan muassasa xalqaro anjuman o'tkazmoqchi. U 2020- yil 20- aprelda o'tkaziladi. Ishchi guruh tuzilgan. Jamoaga topshiriladigan vazifalarni taqsimlash bo'yicha majlis haqida xabardor qilish sizga topshirildi. Hujjatni rasmiylashtirish talablari bo'yicha to'g'ri javoblarni tanlang. Shunga asoslanib hujjatni rasmiylashtiring.

- | | | | |
|---|--------------|---|---|
| 1 | Hujjat nomi | A | Tushuntirish xati |
| | | B | E'lon |
| | | C | Bildirgi |
| | | D | Ma'lumotnoma |
| 2 | Tadbir vaqti | A | 20.04.2020da |
| | | B | 2020-yil 20-aprelda |
| | | C | 20.04.2020. |
| | | D | 2018.20.04. |
| 3 | Tadbir nomi | A | Anjuman |
| | | B | Ishchi guruh majlisi |
| | | C | Kengash |
| | | D | Hisobot yig'ilishi |
| 4 | | A | ... o'tkaziladigan xalqaro anjuman haqida |



	Tadbirning mavzusini aks ettiruvchi matn	B	... o'tkaziladigan xalqaro anjumanga tayyorgarlik haqida
		C	... o'tkaziladigan xalqaro anjumanni tashkil qilish haqida
		D	... o'tkaziladigan xalqaro anjumanga tayyorgarlikning borishi haqida
5	Asosiy matn mazmuni	A	Taklif
		B	Iltimos
		C	Shikoyat
		D	Xabar berish



2-vaziyat. Siz quyidagi ma'lumotga egasiz. Tutash matnni exsel dasturidan foydalanib diagrammada aks ettirib bering.

O'zbekiston aholisi 34 million kishidan oshdi. O'zbekistonning doimiy aholisi soni 18 fevral holatiga ko'ra, 34 002 410 kishini tashkil etdi. Bu haqda Davlat statistika qo'mitasi saytida ma'lum qilindi. O'zbekiston aholisining 17 093 151 nafari erkaklar, 16 909 537 nafari esa ayollar tashkil qiladi. 2020- yil boshidan beri 127 133 kishi tug'ildi, 29 135 kishi vafot etdi. Respublikaga 23 570 kishi ko'chib keldi, 24 679 kishi O'zbekistonni tark etdi.



3-vaziyat.

Siz xalqaro anjumanda ishtirok etmoqchisiz. Sizga internet orqali ma'lumotlarni to'ldirish tavsiya qilindi.

Konferensiya va ilmiy jurnallarga maqolalarni elektron qabul qilish

Familiyasi, Ismi, Otasining ismi*

Elektron pochta*

Telefon*

Fayl*

Выберите файл Файл не выбран

SPAM nan himoya kodi* **Z 4 H X**

Jo'natish





O'ZBEK ALIFBOSI, TOVUSHLAR TIZIMI, TO'G'RI TALAFFUZ VA IMLO MASALALARI

O'zbek tilining lotin yozuvi asosidagi alifbosida 26 harf 3 harfiy birikma bo'lib, ular 30 ta tovushni (J harfi 2 ta tovush uchun) ifodalaydi.

Agar qardosh tillar alifbolarini qiyoslasak, turkman tilida 9 ta unli (çekimli sesler), 21 undosh (çekimsiz sesler) mavjud bo'lib, harf va tovushlar miqdori tengdir. Qoraqalpoq tilida 9 unli, 25 undosh, qozoq tilida 12 unli, 26 ta undosh mavjud.

Qardosh tillardagi unli va undoshlar

Tillar	Unlilar	Undoshlar
<i>O'zbek tili</i>	a, o, o', u, i, e (6)	b, d, f, g, h, j (vijdon), j (jo'ja), k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g', sh, ch, ng (24)
<i>Qoraqalpoq tili</i>	a, á, e, i, i, o, ó, u, ú (9)	b, d, f, g, g, h, x, j (vijdon), k, q, l, m, n, n, p, r, s, t, v, w, y, z, sh, c, ch (25)
<i>Qozoq tili</i>	a, a, e, u, o, o, ʏ, y, y, ʉ, i, ə (12)	б, в, з, з, д, ж, з, ӱ, к, қ, л, м, н, ң, п, с, т, у, ф, х, һ, ӳ, ӱ, и, и. (26)
<i>Turkman tili</i>	a, ä, o, ö, u, ü, y, i, e (9)	b, w, g, d, z, j, z, ý, k, l, m, n, ň, p, r, s, t, f, h, ç, ş (21)

Tovush, qo'shimcha va so'zlar og'zaki nutqda har xil talaffuz qilinishi mumkin, adabiy til uchun esa to'g'ri talaffuz me'yori mavjud. Mas., o'zbek shevasida bir so'z turlicha talaffuz qilinadi: *yo'q* – *jo'q*, *ko'z* – *go'z*, *ota* – *ata*, *aka* – *oka*, *anor* – *onar* kabi. Hozirgi zamon davom fe'li qo'shimchasi shevada *-yap(ti)*, *-op(ti)*, *-ut(ti)*, *-vot(ti)* shaklida qo'llanadi: *boryapti*, *boropti*, *borutti*, *borvotti* kabi. Adabiy tilda shulardan *yo'q*, *ko'z*, *ota*, *aka*, *anor*, *boryapti* variantlari adabiy talaffuz me'yori (orfoepik norma) sifatida saralangan. **To'g'ri talaffuz** (orfoepiya) **imlo** (orfografiya) bilan bog'lanadi. Yozuvda bor ayrim tovush sezilar-sezilmas aytilishi, umuman tushirilishi yoki, aksincha, orttirilishi mumkin. Nutqda tovush almashtirilishi ham ko'p uchraydi. Mas., *adabiyotchchi* (adabiyotchi), *badbax* (badbax), *ussum* (uch so'm), *issiz* (izsiz), *xursan* (xursand), *go'sh* (go'sht), *bo'sa* (bo'lsa),



kesa (kelsa) kabi. Bular yozuv bilan mos kelmasa-da, adabiy talaffuz me'yori hisoblanadi. Lekin *oshshi* (oshni), *ishshi* (ishni), *yuzzi* (yuzni), *o'tta* (u yerda), *aqqa* (u yoqqa), *baqqa* (bu yoqqa) kabi so'zlarda adabiy me'yordan chekinish ro'y bergan. O'zbek adabiy tilining asosiy orfoepik qoidalarini **unli talaffuzi**, **undosh talaffuzi**, **asos va qo'shimcha talaffuzi** hamda **boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'z talaffuzi** tarzida o'rganish mumkin.

AYRIM TOVUSH, SO'Z VA QO'SHIMCHALARNING TO'G'RI TALAFFUZI VA IMLOSI

Talaffuz	Imlo	Izoh
kitop, hisop, maktab, opti, bo'pti	kitob, hisob, maktab, olibdi, bo'libdi	b undoshi jarangsizlashadi
ushta	uchta	ch < sh
Samarqan (Samarqant), xursan, go'sh	Samarqand, xursand, go'sht	d, t undoshlari so'z oxirida tushadi
bo'sa, kesa, bo'gan, kegan	bo'lsa, kelsa, bo'lgan, kelgan	l undoshi tushadi
chirog', oyog', yanog'	chiroq, oyoq, yanoq	q < g'
tlak, dl,tl	tilak, dil,til	i qisqa aytiladi
qovin, sovin, toviq	qovun, sovun, tovuq	u < i
televidineya	televidenie	e < a
Sharof o'f, Tilavo'f	Sharofov, Tilavov	Familiya yasovchi qo'shimchalar talaffuzi
mixmon, miymon	mehmon	h < x, h < y
oka, ako; bala, bohor, dovlat	aka, bola, bahor, davlat	a < o
muhum	muhim	u < i
o'naki, o'n ekki	o'n ikki	i < e
shuniy chun	shuning uchun	
obot	obod	d undoshi jarangsizlashadi



vogzal, egzamen	Vokzal, ekzamen	k < g
bi:ron, si:rak, ti:yn	biyron, siyrak, tiyin	i cho'ziq talaffuz qilinadi
Navoi: Muqimi: ijodi: ilmi: tarbiyavi	Navoiy, Muqimiy, ilmiy, ijodiy, tarbiyaviy	y undoshi tushadi
tilifon, tiligraf, adris, tilivizor	telefon, telegraf, adres, televizor	e < i

Imlo, ya'ni orfografiya – (yunon. *orphos* – «to'g'ri», *grapho* – «yozmoq») – so'z o'zak-negizi va qo'shimchasini yagona tarzda yozish haqidagi qoidalarni o'rganuvchi tilshunoslik sohasi. Orfografiya adabiy tilning yozma shakliga xos, orfoepiya va alifbo (grafika) bilan uzviy bog'liq. Bu bo'limda **so'zning tovush tarkibi, so'z va uning morfologik tarkibi imlosi, qo'shib yoki ajratib yozish, bosh harflarni qo'llash qoidalari, bo'g'inga ajratish, satr ko'chirish qoidalari** o'rganiladi. Orfografiya qoidalari til va jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda yangilanib borishi mumkin.

Orfografiya tamoyili. O'zbek yozuvi besh tamoyil asosida ish ko'radi: 1) fonetik yozuv; 2) morfologik yozuv; 3) shakliy yozuv; 4) tarixiy-an'anaviy yozuv; 5) farqlash yozuvi.

Bu tamoyillar yozilishi va talaffuzi muvofiq kelmaydigan holat uchun ishlatiladi. Mas., *kitob* so'zining talaffuzida *b* tovushi *p* tarzida eshitiladi. Demak, so'zdagi tovushning asli va talaffuzi farq qilganligi va so'z o'zlashma bo'lganligi uchun imloda shakliy yozuv qoidasiga tayaniladi. Yoki *men* so'ziga *-ning* qo'shilganda asl holat *menning* bo'lishi kerak edi. Talaffuz esa *mening* ko'rinishida. Demak, bunda tovushni tushirib yozishga asos bo'lgan qoidaga tayaniladi. Talaffuzi va imlosi bir xil so'zga yozuv qoidasi ishlatilmaydi.



1940-yil 8-mayda O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarori bilan kirill yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosi qabul qilindi. Ushbu alifbo asosida "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" 1956-yil 4-aprelda tasdiqlangan edi.

1993-yil 2-sentabrda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" Qonun qabul qilindi. Yangi alifboga kiritilgan o'zgarishlar asosida "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" ishlab



chiqildi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1995-yil 24-avgustda tasdiqlandi.



Shaxnoza Otaboeva ijrosidagi qo'shiqni tinglang. H.Olimjonning "O'zbekiston" she'ridan qaysi bandlar qo'shiq matni uchun tanlab olinganligini toping.



O'ZBEKISTON

Hamid Olimjon

Vodiylarni yayov kezganda,
Bir ajib his bor edi manda...
Chappar urib gullagan bog'in,
O'par edim vatan tuprog'in.
Odamlardan tinglab hikoya
O'sar edi shoirda g'oya.
Daryolardan kuylab o'tardim,
Ertaklarga quloq tutardim.
Hammasini tinglardim, ammo,
O'xshashini topmasdim aslo.

O'xshashi yo'q bu go'zal
bo'ston,
Dostonlarda bitgan guliston, —
O'zbekiston deya atalur,
Uni sevib el tilga olur.
Chiroylidir go'yo yosh kelin,
Ikki daryo yuvar kokilin;
Qorli tog'lar turar boshida,
Gul vodiylar yashnar qoshida.
Chor atrofda yoyganda gilam,
Aslo yo'qdir bundayin ko'klam.
Tog'lardagi qip-qizil lola
Bo'lib go'yo yoqut piyola,
Buloqlardan uzatadi suv,
El ko'zidan qochadi uyqu.
Dalalarda boshlanadi ish,
Boshlanadi ijod va turmush.

Olmazorlar gulin to'kadi,
Meva bog'lab shoxin bukadi.
Shaharlarda ishga chiqib el,
Odam bilan to'lar Tekstil'.
Hammasining bir istagi bor,
Hammasi ham xursand,
baxtiyor.

Bu o'lkada har narsa bordir,
Ko'rmaganlar doim xumordir.
Amu bilan Sirdan suv ichgan,
Zarafshonni loylatib kechgan
Chavandozlar bordir bu elda.
Bahor chog'i pishqirgan selda
Arg'umoqlar qo'shig'i bordir,—
Bu shundayin ajib diyordir,
Dalasida o'smas tikanlar,
Cho'llarida chopmas ilonlar;
Qush uchganda kuymas qanoti,
Odam o'tsa qurimas zoti;
Chanqov qolib yo'lovchi o'lmas,
Xar burchakda boshkesar
bo'lmas.

Kulbalarni kelib bosmas qum,
Go'daklarni yutmas och o'lim.
Odamga baxt va tole yordir,—
Bu shundayin ajib diyordir.
Bunda bulbul kitob o'qiydi,
Bunda qurtlar ipak to'qiydi,



Bunda ari keltiradi bol,
Bunda qushlar topadi iqbol,
Bunda qorning taglarida qish.
Bahor uchun so'ylaydi olqish.
Bir o'lkaki husnga boydir,
Buning eng zo'r ko'zgusi oydir;
Bir parcha o't bo'lib bunda kun
Paxtasiga ishlaydi har kun.
Botirlari kanal qazadi,
Shoirlari g'azal yozadi,
Kuychilari o'qiydi yalla.
Juvonlari aytadi alla,
Pazandasi yopadi shirmon,
Qarilari kutadi mehmon, —
Bu shundayin ajib diyordir.

Shunday o'lka doim bor bo'lsin,
Shunday o'lka elga yor bo'lsin.
Omon bo'lsin og'aynilari,
Omon bo'lsin do'stlarning bari.
Doim bo'lsin Vatanim omon,
Shunday bo'lsin bu butun jahon.

Shaftolizor bog'larni ko'rdim,
Gul ko'kargan tog'larni ko'rdim,
Mehr qo'yib o'pgan sari oq,
Oppoq bo'oldi bu, aziz tuproq.
Vodiylarni yayov kezganda,
Bir ajib his bor edi menda...

1) Qo'shiqni tinglaganingizda ko'z oldingizda nimalar gavdalandi? O'z so'zlaringiz bilan tushuntirib bering.

2) Quyidagi so'zlarni ularning ma'nolari bilan moslashtiring.

vodiy

yayov

chappar

chor

yoqut

diyor



.....




.....



.....



.....



.....



.....



3) She'rni o'qing. Quyidagi mezonlarga diqqat qiling. She'rni ovoz chiqarib ifodali o'qiganda qoidalarga qanday amal qilganingizni (+) belgisi bilan baholang.

So'zlarni to'g'ri talaffuz qilaman	
So'zlarni hijjalamayman, takrorlamayman	
So'zlarni imlo va tinish belgilariga amal qilib o'qiyman	
Tovush toni (baland-pastligiga)ga amal qilaman	
Urg'u va ohangga amal qilaman	
She'r satrlariga barmoq yugurtirmasdan o'qiyman	
Guruh darajasiga mos tezlikda o'qiyman	
She'rni o'qiganimda tasvir jonlangandek bo'ldi	
She'rni nasrdan farqlayman	

4) "O'zbekiston" she'ri matnidagi Sizning diqqatingizni jalb qilgan so'zlarning ma'nolari bo'yicha "BBB" jadvalini to'ldiring. So'zlarning ma'nolarini bilib olish uchun "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan foydalaning.



Bilar edim	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

5) Siz qaysi bandlarni qo'shiq uchun tanlagan bo'lardingiz? Nima uchun?

6) O'zbekistonning yetti mo'jizasini bilasizmi? Shu haqda xorijlik do'stingiz uchun ma'lumot tayyorlang.

7) O'zbekiston xorijliklar nigohida: xorijliklarning intervyulari, xorijiy davlatlar rahbarlari va jamoat arboblarning nutqidan iqtiboslar to'plang.

8) Yuqoridagi usulda Oybekning "O'zbekiston", Shayxzodaning "Toshkentnoma" asarlarini o'qib o'rganing.

9) **Mustaqil ish.** O'quv loyihasini bajaring.



1. O'quv loyihasidan kutiladigan natijalar haqida:
Loyihani bajarish sizga nima beradi?
 - Siz ijodkorligingizni namoyon qilishingiz mumkin.
 - Siz mustaqilsiz: o'zingiz reja tuzasiz, tahlil qilasiz, adabiyotlar bilan ishlaysiz, qarorni ham o'zingiz qabul qilasiz.
 - O'rganayotgan o'zbek tili ifoda tasvir vositalaridan foydalanib o'z fikringizni ifodalashingiz va fikringizni dalillashingiz mumkin.
 - Siz boshqalarning fikrini hurmat qilishga odatlana borasiz.
 - Siz o'zingizni va tengqurlaringizni yutuqlaringiz bilan hayron qoldira olasiz.
 - Loyihaning bajarilishi sizning o'zlashtirishingizga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.
 - Siz bilimdonlikda, taraqqiyot va ijtimoiy madaniyatda yuqoriroq pog'onaga ko'tarilishingiz mumkin.
 - Muhimi, siz ona tilingizdan boshqa tilda taqdimot qilish orqali o'z-o'zingizni rivojlantirib borasiz.

2. Izlanish, muammoli ta'lim, evristik xarakteridagi faoliyat bilan shug'ullaning va quyidagi mavzulardan birini tanlashingiz mumkin:

1. O'zbekiston xaritasi
2. O'zbekistonning shevalar xaritasi
3. O'zbekiston geografiyasi raqamlarda.
4. O'zbekiston Buyuk ipak yo'li chorrahasida
5. O'zbekiston tabiati
6. O'zbekiston sarhadlari va xavfsizligi muammosi.
7. O'zbekiston va qo'shnilar
8. O'zbekiston qadimiy shaharlari
9. Toshkent non shahri(mi)?
10. Toshkent – 2200. Toshkentning qadimiy tarixi haqida nima bilamiz?
11. O'zbekiston aholisi
12. Qo'lni qo'lga berib yashash va o'zlikni saqlash haqida
13. Diaspora haqida nima bilamiz?

II MODUL



Oila

Qadriyatlar

Urf-odatlar

Muqaddas tushunchalar

So'z va uning ma'nolari
O'.Hoshimov.

“Dunyoning ishlari”

Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy va ma'naviy va madaniy merosini avaylab-asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir.

O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasi, 49-modda.

Oila (a. – bola-chaqa, xonadon, urug', avlod) 1. Er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmuyi; xonadon. *Oila boshlig'i*. 2. *ko'chma* bir maqsad, maslak bilan birlashgan ko'p kishilar, xalqlar, mamlakatlar. *Qardosh xalqlar oilasi*. 3. O'simliklar va hayvonlar sistematikasida tuzilish jihatidan bir-biriga o'xshash, kelib chiqish jihatidan ham o'zaro yaqin bir necha urug'ni o'z ichiga olgan guruh. *Dukkaklilar oilasi*. 4. *s.t.* Rafiqa, xotin. *Oilam maktabda o'qituvchi*.

Qadriyat (a. – qiymat, ahamyat; qimmatbaho buyumlar; xalq boyligi) Voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy- ma'naviy ahamyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamyatli bo'lgan barcha narsalar, mas., erkinlik, tinchlik, adolat, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, moddiy va ma'naviy boylıklar va b. qadriyat hisoblanadi. *Milliy qadriyatlar*.

Urf (urf-odat) – umum tomonidan qabul qilingan va amal qilinadigan tartib-qoida; rasm, taomil. *Har bir xalqning o'z urfi bor*.

Irim *etn.* Biror maqsad-niyat bilan qilingan xurofiy tadbir (mas., to'ydan yaxshi niyat bilan biror narsa olib ketish; dard-baloni qaytarish, ziyon-zahmatdan, ko'z tegishdan saqlash uchun biror narsani boshdan o'girib tashlash va b.) *Kelin, irim uchun otangizga uch-to'rt so'm pul berishingiz kerak*. Mirmuhsin, Jaholat panjasi.

O'zbek tilining izohli lug'ati

hisoblaysizmi?
Nima uchun?





Mavzuni o'rganishda quyidagi so'z va so'z birikmalariga e'tibor qarating:

andisha	an'ana	ajrim
burch	farzand	fuqaro
hashar	iftixor	marosim
mojaro	muqaddas	nikoh
oila	qadriyat	qo'shni
sarqit	udum	urf-odat



“Mahallada duv-duv gap” filmidan parcha.



Filmdan parcha tomosha qilish vaqtida Sizda qanday hissiyotlar, fikrlar paydo bo'ldi? Oila qurish haqida filmdagi ota-onalar va yoshlarning fikrlari mos kelyaptimi? Oila qurish haqida Siz qanday fikrdasiz?



Ko'ring: “Oflayn-qaynona” filmidan parcha.



Javob bering:

1. Suhbatdoshlar...

- ☐ bir biri bilan yaxshi tanish.
- ☐ bir birini yaxshi tanimaydi
- ☐ er-u xotin.

2. Birinchi suhbatdosh ...


- ☐ paypog'ini doim yo'qotib qo'yar ekan.
- ☐ paypog'ini bahona qilib suhbatdoshini ichkariga chaqirar ekan.
- ☐ onasi olib kelgan paypoqlarni yo'qotib qo'yar ekan.

3. Ikkinchi suhbatdosh...

- ☐ paypoq sabab birinchi suhbatdoshdan uyaladi.
- ☐ paypoq sabab onasidan uyaladi.
- ☐ paypoq sabab ovsinlardan uyaladi.

4. Suhbatdoshlar ...

- ☐ yoshligini eslab zavqlanishadi.



- ☐ uyalishadi.
- ☐ o'yga tolishadi.

5. Suhbatdoshlar ...

- ☐ ilgari katta oilada yashagan.
- ☐ hozir faqat ikkalasi yashashadi.
- ☐ onasi bilan birga yashashadi.



Qarindosh-urug'chilik darajasini bildiruvchi so'zlarimiz ham juda chalkash. Hozir xolaning o'g'lini ham, tog'aning, hatto amakining o'g'lini ham "jiyan" deb ataydigan bo'lishgan. Bizningcha, *xolavachcha, amakivachcha, jiyan, bo'la; xola, amaki, tog'a, pochcha* kabi so'zlar o'z o'rnida to'g'ri ishlatilgani ma'qul.

Nosir Fozilov.



Matnni o'qing.

Bolaning uvolidan qo'rqing!

Ajralish oqibatida norasida qolgan bolaning uvoli tutadi. Oilaning buzilishi ota uchun iztirob, ona uchun baxtsizlik, eng yomoni, farzandlar uchun katta fojia. Chunki hali hayotning past-u balandini anglab ulgurmagan murg'ak yurakchalar ozorlanadi, umr bo'yi o'ksinib yashaydilar.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ajrashayotganlar o'rtacha 20 – 35 yoshni tashkil qiladi. Bu oilaviy turmushning 4-yili (35,5%) va 5 – 9-yillari demakdir. O'rtacha 2 – 3 nafardan bola yetim qoladi, ona bolalar tarbiyasi, ro'zg'orni yuritish kabi katta mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga majbur.

Oiladagi munosabatlar oila qonunchiligida er-xotinning teng huquqligiga asoslansa-da, milliy qadriyatlarimizga suyanilishi, ko'proq yoshi kattaning gaplariga quloq solish, uni hurmat qilish, erkak kishini oila boshlig'i sanab unga itoat qilish lozim. Shuning uchun nikohlanuvchilarga nafaqat nikoh tuzilishining huquqiy, balki psixologik asoslarini tushuntirish kerak.

Oilalardagi ajrimlar sabablari o'rganilganda, yoshlarimizning oila qurishga tayyor emasligi, sog'lig'iga e'tiborsizlik, yigitlarning oilani boshqarishni, moddiy ta'minlashni, farzandlarni ma'nan va jismonan sog'lom tarbiyalashni o'z burchlari deb bilmasliklari, qizlarning esa uy



bekasi, onalik vazifasini tushunmasligi, aksariyat hollarda qaynana va kelin o'rtasidagi mojarolar ekanligi ma'lum bo'ldi. Qaynana-kelin munosabati juda muhim. Kelin qaynanasini tarbiyaga haqli ona, qaynana esa kelinni ayrim injiqliklari bor qizi sifatida qabul qilsa, qanday soz!

Oilaviy muammolarga kimlarningdir aralashib, ahillikni buzishi, bu — ma'naviyatsizlik! Odamlarda ma'rifat yo'qolsa, mayda gap ko'payadi. Kitob o'qigan, ma'rifatli oilalarda janjal bo'lmaydi. Albatta, yosh masalasi muhim. Zero, yosh, kasb egallamagan, hayot haqidagi tushunchalari sayoz qizlarning turmushga uzatilishi ular hayotining murakkablashuviga olib kelishi isbotlangan.

Manba: <https://tasvir.uz/oilaviy-nizolar-sababi-nima/> (Matn o'zgartirildi)



Gaplarni davom ettiring. Uslubiy muvofiqligiga e'tibor qiling.

1. Oilaning barbod bo'lishi norasidalarining ...

- uvoli tutadi.
- yetim qolishini o'ylamaydigan.
- yetim qolishi demakdir.

2. Oilaning buzilishi farzand uchun katta fojia, chunki u ...

- umr bo'yi o'ksinib yashaydi.
- bolaligini yo'qotadi.
- qalbi yaralanadi.

3. Oilaviy turmushning 5 – 9 yillari ajrashib ketayotganlar ...

- ozchilikni tashkil qiladi.
- 65,5 foizni tashkil qiladi.
- 35,5 foizni tashkil qiladi.

4. Ajrim tufayli bolalar tarbiyasi, ro'zg'orni yuritish kabi katta mas'uliyat ...

- ona zimmasiga tushadi.
- ota zimmasiga tushadi, chunki aliment to'lashi lozim.
- ota va ona zimmasiga tushadi.

5. Oila qonunchiligida ...

- erkak kishi oila boshlig'i deb qayd qilingan.
- er va xotinning teng huquqligi qayd qilingan.



- o oilada ko'proq yoshi kattaning gaplariga quloq solish, uni hurmat qilish zarurligi ko'rsatilgan.

6. Nikohlanuvchi shaxslarga ...

- o nikoh tuzilishining huquqiy asoslari tushuntirilishi zarur.
- o nikoh tuzilishining psixologik asoslari tushuntirilishi zarur.
- o nikoh tuzilishining huquqiy va psixologik asoslari tushuntirilishi zarur.

7. Oilaviy ajrimlarga ko'pincha ...

- o qaynana-kelin munosabati sabab bo'lmoqda.
- o yoshlarning oila qurishga tayyor emasligi sabab bo'lmoqda.
- o yigitlarning oila boshqarishni bilmasliklari sabab bo'lmoqda.

8. Kitob o'qigan, ma'rifatli oilalarda ...

- o kimlardir aralashib tinchini buzmaydi.
- o qizlar turmushga erta uzatilmaydi.
- o janjal bo'lmaydi.



1	Bolali uy – bozor, bolasiz uy-chi?	
2	Gapni kovlasang nima chiqadi?	
3	Bola aziz, nimasi undan aziz?	
4	Nimani tirnoqdan ajratib bo'lmaydi?	
5	Nimani qo'shningga sot, bir chekkasida o'zing o'tirasan?	
6	Chavandoz otini horitmaydi, yaxshi er-chi?	
7	Kim chiyriqdan tashqari?	
8	Er-xotinning o'rtasiga kim tushadi?	
9	Er – bosh, xotin-chi?	
10	Erga tegish oson-u, nimasi qiyin?	



UDUMLAR

Har birimiz qadimiy urf-odatni, qadriyatlarni bilishimiz, saqlashimiz va keyingi avlodga ham yetkazmog'imiz lozim.

Udumlarimizga ko'ra, ota-bobolarimiz mulla chaqirib, tavallud topgan bolalar qulog'iga azon aytirganlar. Azon aytilganda bolalarning qulog'i ochilgan, ismi ilk bor chaqaloqning o'z qulog'iga singdirilgan.



Shuningdek, xatna, quloqtishlar, hashar, beshik to'y, nikoh to'y kabi udum va marosimlar mavjud.

(Sattor Husayn)



“Suyunchi” filmidan parcha.



Film qaysi udumlarimizni eslatdi?

Muhokama qiling: *Quyidagi gazeta maqolasi bilan tanishing.*

KUYOVGA BERILAYOTGAN QALIN


Betakror urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz bor. Ular asrlar davomida saqlanib kelingani ma'naviyatimizning boyligi va madaniyatimizning betakrorligidan dalolatdir.

Yuz bilan yuzlashgan momolarimiz o'gitlarida ilgari kuyov va uning oilasi qizni kelin qilgunga qadar ancha-muncha ter to'kkanligini aytib o'tadilar. Qizning otasi kuyovni o'tin yorish, tosh ko'tarish kabi yumushlar bilan har tomonlama sinagan. Bugun esa kuyov tomon kelin tomonga jihozlash uchun uyni “tayyorlab” qo'yishi urfga kirgan. Go'yo qizlarimiz sepiga, matolari-yu mebellariga qarab baholanayotgandek.

Ma'lumki, bir vaqtlar kuyov tomon bo'lg'usi kelinning ota-onasiga “qalin puli” bergan. Bugun ham yurtimizning ayrim hududlarida ana shunday amallar saqlanib qolgan. Lekin hozir ayrim joylarda bu odat aksincha amalga oshirilayotganligining guvohi bo'lyapmiz.

Gap shundaki, qiz tomon yigitning uyidagi bo'm-bo'sh qilib “tayyorlab” qo'yilgan xonalarni boshdan-oyoq jihozlab berishi kerak. Mabodo keltirilgan jihozlar qaynonaga manzur bo'lmasa, orzu-havas bilan qiz tarbiyalagan sho'rlik onaizorning eshitgan dashnomlari bag'ri-dilini tilka-pora qiladi. Ayrim qaynonalarning ko'ngli “Italyanskiy mebel” tusaydi, ba'zilar esa: “Qudajon, ovora bo'lib yurmang, falon joydagi mebel saloniga boring. O'sha yerda chiroylilari va qulaylari ko'p”, deb o'zi ko'rib, tanlab qo'ygan mebel do'konining manzilini ham beradi.

Yigit tomon qiz tomonga qalin puli bermaydi. Bu eskilik sarqiti. Ammo kelin bo'lmishdan kuyov bo'lmishga qalin, sarpo-suruq, albatta, keladi. Nahotki, g'ururi baland o'g'lonlarimiz kelin tomonning ana



shunday himmatini qabul qilish, xotini jihozlagan uyda yotish, u keltirgan narsalardan foydalanishni o'ziga ep ko'rsa?!

Kimlar uchundir bu gapimiz erish tuyular. Biroq bugun ayol zotini ojiza deb, undan mol-mulk ta'ma qilish hech bir erkakka yarashmaydi. To'g'ri, to'yning tashkiliy ishlarida, quda-anda munosabatlarida ayolning xizmati katta. Ammo hamma narsani ayollar o'ylab topgan deb, erkaklar suvdan quruq chiqa olmaydi.

Shunday bo'lsa-da, qadriyatlarimizning qadrsizlanishiga u yoki bu kishi aybdor, deyishdan yiroqmiz. Aksincha, o'zimiz o'ylab topgan narsalarga o'zimiz qul bo'lib qolayotganimiz-u, yosh oilalarning hayotiga ortiqcha narsalarni aralashtirib yuborayotganimizni aytmoqchimiz, xolos.

(“Oila davrasida” gazetasidan)

*Matnga qo'yilgan sarlavha haqida fikringizni bildiring?
Matndagi asosiy fikrni aniqlang.*

Muhokama qiling:

Qo'ni-qo'shnichilik haqida gazeta va jurnallar, internet sahifalaridan o'qib borasizmi? Quyidagi gazeta maqolasi bilan tanishing.

Qo'shnilar himmati

O'tgan yili qish chillasida bobom vafot etdi. Hammamiz u kishiga juda bog'lanib qolgan edik. Judolik bizga qattiq ta'sir qildi. **Marhumni dafn qilib, qabristondan** uyga qaytib kelganimizdan so'ng bir zumda kech tushganini ham sezmay qolibmiz. Ketadiganlar ketib, qoladiganlar uyga to'plandik. Odam ko'p. Hamma och, lekin bunday paytda **qozon-o'choqqa unnash** hech kimning **ko'ngligayam sig'mas**, xayoligayam kelmas edi. Shu payt qo'shnimiz Abduvohid aka o'g'li bilan yetaklashib kelib qoldi. O'g'li qozon ko'tarib olgan edi.

– **O'tganlarni Olloh rahmat qilsin**, o'tgan o'tdi-ketdi. Endi **tiriklarning g'amini yeylik**, – deb gap boshladi Abduvohid aka hamma o'ziga savol nazari bilan qarab turganini payqagach.



Ular bilan izma-iz Abduvohid akaning xotini, lagan ko'tarib olgan kelini ham kirib keldi. Ular keltirgan narsalarni oshxonada **laganlarga suzib**, olib chiqa boshladilar.

Shunda otam:

– E Abduvohidboy, nima qilardingiz uydagilarni ovora qilib... – dedi-yu, tomog'iga bir narsa tiqilgandek gapira olmay qoldi.

– Biz siz bilan begonamasmiz, – deb dadamning **gapini ilib ketdi** Abduvohid aka. – Otangiz Ahmad bobo bizning ham bobomiz edilar. Qani, **dasturxonga qaraylik**, osh sovimasin.

Osh mahali boshqa qo'shnilar ham qo'lida lagan, tog'ora ko'tarib kelib qolishdi. Kimdir somsa, birovi qatlama, yana boshqasi biron suyuq ovqatdan bir kosa **ilingan**.

Yeguliklarning hammasini idishlarga solib dasturxonga **tortdik**. Onam oshxonada yig'layotganliklarini eshitdim:

– Bizga og'ir kunimizda ham suyanchiq bo'ladigan himmatli qo'shnilarni berganiga shukr.

Marhumning yaxshi xislatlarini **biri olib, biri qo'yib** gapirayotganlarning suhbat mavzusi endi qo'shnilar himmatiga burildi.
(“Oila davrasida” gazetasidan)



Qo'shnisi och yotgan odam musulmon emas, degan hadis mazmuni haqida fikringizni bildiring. Qo'shnichilik haqida maqol va hikmatli so'zlar ayting.


Qadriyatlar haqida suhbatlashing. “Mustaqillik” izohli ilmiy-ommabop” lug'atidan foydalaning.



Yozing: Mosliklarni aniqlang.

Qadriyatlar

unga xizmat qiladigan, o'zi yaratgan, suyanadigan va qo'llab-quvvatlaydigan qadriyatlar dunyosining kengayish, boyish va takomillashish tarixidir.



Qadriyat deganda		kishilarga, ularning xulq-atvorini tartibga solish va to'g'ri yo'naltirishga xizmat qiladi.
Insoniyat tarixi 6y		millatning tarixi, yashash tarzi, kelajagi, uni tashkil etgan avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, milliy ong, til, ma'naviyat hamda madaniyat bilan uzviy holda namoyon bo'ladi.
Qadriyatlar va qadriyat mezonlari		tug'ilgan makon va ona yurtga ehtirom, avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, muomalada mulozamat, hayo, andisha kabilarning ustuvorligi bilan xarakterlanadi
Millat –		mahalliy, milliy, mintaqaviy va umuminsoniy bo'ladi.
Bizning milliy qadriyatlarimiz		inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar tushuniladi (masalan, erkinlik, tinchlik, yaxshilik).
Milliy qadriyatlar		milliy qadriyatlarning sohibi

Mashqlarni bajaring.

1-mashq. *Bir yoki bir nechta to'g'ri javobni tanlang.*

- bur...ch [i] (i)
 an...ana [ʔ] ()
 ifti...or (h) [x]
 qad...riyat (i) [i]
 muka...al [mm] (m)
 mutafa...ir (k) [kk]
 fuqar...(a) [o]
 ta...minlash [ʔ] ()
 ma...kama [h] (x)
 takomi...ashtirish [ll] (l)

2-mashq. *Bir yoki bir nechta to'g'ri javobni tanlang.*



lap...r [a] (o)
 ta...rijiy (t) [d]
 mu...abbat [h] (x)
 ra...bar (x) [h]
 ...iyonat [x] (h)
 chin...kam [a] (o)
 andi...sha (y) [l]
 tashri... [f] (v)
 t...omil (o) [a]
 ur...-odat (p) [f]

3-mashq. Matndagi shevaga xos soʻzlarning adabiy tildagi muqobilini yozing. Jami 10 ta soʻz.


Sultonmurod Olim yozadi: Buxoro oʻzbeklari shevasidagi shu hududda hamma bemalol anglab olaveradigan mana bu jumlaning Xorazm, Toshkent yoki Fargʻonada birov tushunmasligi aniq: "Biron qoʻshan bilan borib, yoznamlarni inaglarini goʻsalasini koʻrmoqchin edik, bobomullom bilan oybiyim qoʻymadila, boxar boʻlingla, yamon chars ekan, tunovun bittasini bir urib, yiqitibdi, madongacha zoʻrgʻa emaklab kelibdi bechora, deb..." Demak, soʻzlovchi fikrining Oʻzbekiston boʻyicha, hatto, dunyoning oʻzbeklar yashaydigan barcha goʻshalarida hamma qiynalmay tushunishini istasa, uni adabiy tilda ifodalashga majbur-da.

4-mashq. Matnda 5 ta soʻz xato yozilgan. Ularni toʻgʻrilab yozing.

1. Ertalab soat 8.00dan toy oshi, besh barmaq.
2. Mazzasini tatib koʻring.
3. Xoʻsh kelibsiz!
4. Yigʻilish soat roppa-rossa 10.00 da boshlanadi.

5- mashq. Moslikni aniqlang.

Tushunchalar	Izoh
--------------	------



ayyor	ilonning yog'ini yalagan
xursand	og'zining tanobi qochgan
to'polon qilmoq	boshiga ko'tarmoq
e'tibor bermaslik	nazariga ilmaslik
chidami tugamoq	sabr kosasi to'lmoq

6- mashq. *Omonimlarga sinonim bo'luvchi so'zni aniqlang.*

Kelur sel, ko'kda goho bo'lsa chaqmoq,
Zarar qilgay danakni tishda chaqmoq.
Yomondir ikki o'rtoq o'rtasida
Urushtirmoq uchun bir-biriga chaqmoq. (Habibiy)

1-misra dagi chaqmoq so'zi ... so'ziga sinonim.

chaqin

yormoq

gijgijlamoq

yashin

maydalamoq

2-misra dagi chaqmoq so'zi ... so'ziga sinonim.

chaqin

yormoq

gijgijlamoq

yashin

maydalamoq

3-misra dagi chaqmoq so'zi ... so'ziga sinonim.

chaqin

yormoq

gijgijlamoq

yashin

maydalamoq

Bilgandan bilmaganing ko'p!

Chaqmoq omonim so'z. I. Tabiat hodisasi, chaqin, yashin.
II. Yormoq, maydalamoq. III. Chaqimchilik qilmoq, gijgijlamoq

7- mashq. *Bo'sh o'ringa mos so'zni qo'ying.*

O'zbekistonimizdagi tojik, qozoq, qirg'iz, turkman kabi millatlar vakillariga nisbatan ... so'zini qo'llash aslo mumkin emas, chunki O'zbekiston – ularning ham o'z qadimiy yurti, asl Vatani.

diaspora, milliy-madaniy markaz, elat

Bilgandan bilmaganing ko'p!

Diaspora – zo'rlab, majburlab ko'chirish, genotsid xavfi va boshqa ijtimoiy-tarixiy, diniy sabablarga ko'ra o'z vatanidan boshqa mamlakatda yashovchi etnik guruh. O'zbek tilining izohli lug'ati. (1-jild, 605-bet).

- Soat jetilar bo'p qoldi.
- Qaliysan, nimaqivassan?

8-mashq. *Berilgan gaplarning qaysilari qarluq lahjasiga mansub?*

Ovqatingdi jemaysama?

Qattasan?

Inobi kasoni alip bar.

Tezraq tirmaship chiqing.

Bettaman.

9-mashq. Qaysi sinonimik qatordagi shevaga xos soʻz qoraqalpoq tilida fonetik oʻzgarish bilan qoʻllanadi?

Ovoz, tovush, sado, nido, **sas**
qidirmoq, axtarmoq, izlamoq, istamoq
oʻrnak, namuna, ibrat, **ulgi**

10-mashq. Boʻsh oʻringa topishmoq javobini yozing.

U nedurur usiz gap tuzib boʻlmas,
Fikrlar daryosida hattoki suzib boʻlmas?

[soʻz]

Bilgandan bilmaganing koʻp!

Oʻ.Hoshimovning bitiklarini oʻqib, oila va jamiyatdagi burchlarimiz haqida suhbatlashing.

Rost va yolgʻon

Haqiqatdan qoʻrqqan odam yolgʻonning panasiga berkinadi.

Xom sut emgan

Odam uchta narsaning qadrini doim kechikib biladi: yoshlik, sogʻlik, tinchlik.

Gunohi azim

Doʻstni xoʻrlash – gunoh. Umr yoʻldoshini xoʻrlash – yuz hissa gunoh. Ota-onani xoʻrlash – ming hissa gunoh. Goʻdakni xoʻrlash – cheksiz gunoh.


Yozing: 1-Vaziyat: 1-topshiriq. Siz 1-bosqichda tahsil olyapsiz.

Salomatligingizga bogʻliq darslardan 2018- yil 13- sentabrdan 15-sentabrgacha ruxsat soʻramoqchisiz. Quyida siz yozadigan hujjatda qoʻllaniladigan qolip soʻzlardan toʻgʻrisini tanlang.

1	Qayerga?	A	 instituti (universiteti), ... fakulteti
---	----------	---	--



	(Hujjat yoʻllanadigan muassasa)	B	 instituti (universiteti): ... fakulteti
		C	 instituti (universiteti) ... fakulteti
		D	... fakulteti
2	Kimga? (mansabdor shaxs nomi)	A	Dekaniga
		B	dekani ...ga
		C	dekani muhtaram ...ga
		D	dekani hurmatli ...ga
3	Kimdan? (murojaat egasining vazifasi, ismi, ota ismi, familiyasi)	A	1-bosqich ... guruhi talabasidan
		B	talaba ...dan
		C	1-bosqich ... guruhi talabasi ...dan
		D	Talabadan
4	Hujjat nomi	A	Tushuntirish xati
		B	Ariza
		C	Kafolat xati
		D	Tilxat
5	Asosiy matn mazmuni	A	Taklif
		B	Iltimos
		C	shikoyat
		D	fikr-mulohaza
6	Ruxsat soʻraladigan vaqt	A	2018 yil 13 sentabrdan 15 sentyabr
		B	13-sentabr – 15-sentabr 2018-yil
		C	13.09.2018 – 15.09.2018
		D	2018-yil 13 – 15 sentabr kunlari
7	Hujjat yozilgan vaqt	A	12.09.2018
		B	12-sentabr 2018-yil
		C	12.09.2018.
		D	2018.12.09.





2-topshiriq. Quyidagi bo'sh o'ringa hujjatni yozing.

2-vaziyat. Tasavvur qiling. Siz tengqurlaringiz bilan to'ylarni ixchamlashtirish haqidagi bahsda qatnashyapsiz. Siz Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi Kengashlarining to'y-hashamlar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar, marhumlarning xotirasiga bag'ishlangan tadbirlar o'tkazilishini tartibga solish tizimini takomillashtirish to'g'risidagi qaroridan (2019-yil 14-sentabr) kelib chiqib o'z fikr-mulohazalaringizni bildiring. Bunda quyidagi manbalardan foydalaning:

1. Videotasvir. "Mahallada duv-duv gap" filmidan parcha
2. UzA.uz, kun.uz, gazeta.uz saytlari va ularning telegram kanallari

Bo'sh o'ringa o'z fikr-mulohazalaringizni yozing.





Nazariy qism SO‘Z VA UNING MA‘NOLARI

Tilning lug‘at tarkibi til birliklari sanalgan so‘zlar (leksemalar) va iboralar (frazemalar)dan iboratdir. So‘z lug‘aviy boylik sifatida leksik birlik deb, ibora esa frazeologik birlik deb ataladi. Bular birgalikda lug‘aviy birlikni tashkil etadi.

So‘z murakkab xususiyatga ega bo‘lgan til birligidir. So‘zning asosiy mohiyatini, ya‘ni uning ma‘nosini va boshqa so‘zlardan farqlanib turadigan belgilarini aniqlash muhim hisoblanadi. So‘zning ikki tomoni bor: 1. Moddiy tomoni. 2. Ma‘nosi.

So‘zning tovushlardan tarkib topishi uning moddiy tomoni hisoblanadi. Har qanday so‘z o‘z tovush qobig‘iga ega. **So‘zning tovush qobig‘idan keyingi ikkinchi muhim belgisi uning biror ma‘noga ega bo‘lishidir.** Lekin barcha so‘zlarning ma‘nolari bir xil emas. Ular so‘zlarning turkumlanishiga bog‘lab belgilanadi. Shunga ko‘ra so‘zlar quydagicha turlarga bo‘linadi.


1. Nomlovchi so‘zlar. Bu turga ot (ba‘zi atoqli otlardan tashqari), fe‘l, sifat, ravish, son turkumidagi so‘zlar kiradi. Bunday so‘zlar narsani (*kitob, bino, daraxt*), belgini (*oq, qizil, yaxshi*), harakatni (*yurmoq, o‘qimoq, haydamoq*), ularning turli belgilarini (*sekin, erta, kech*), son, miqdor nomini (*bir, besh, yuz*) bildiradi.

2. Ifodalovchi so‘zlar. Bunday so‘zlar nomlash ma‘nosini bildirmaydi. Bu turga undov, modal so‘z va yuklama kiradi: *eh, oh, voy; albatta, shubhasiz; diqqat, nahotki, hatto* kabi.

3. Ko‘rsatuvchi so‘zlar. Ular so‘zlar orasidagi grammatik munosabatlarni ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Bu turga bog‘lovchilar (*va, ham, hamda*), ko‘makchilar (*bilan, uchun, kabi*) kiradi.

4. Olmoshlovchi so‘zlar. Olmosh mustaqil so‘zlar turkumiga kiritiladi. Ammo o‘zicha lug‘aviy ma‘noni bildirmaydi. Bunday ma‘noni kontekstda, nutqda oladi. Shuning uchun ham ular olmoshlovchi so‘zlar deb ataladi. Masalan: *men, sen, u, kim, nima* kabi.

5. Atovchi so‘zlar. Ba‘zi atoqli otlar. *Muhabbat* (ayol-qizlar ismi). Ko‘rinadiki, tilning lug‘at tarkibidagi barcha so‘zlar ma‘no jihatidan bir xil emas. Bulardan faqat nomlovchi so‘zlarga predmet, voqea-hodisalar, harakat, holatlar va ularga oid bo‘lgan belgi-xususiyatlar haqidagi tushunchalarni bildiradi. Shuning uchun ular leksik ma‘noli so‘zlar hisoblanadi. **Ifodalovchi, ko‘rsatuvchi,**



olmoshlovchi, atovchi soʻzlar esa bunday xususiyatga ega emas va ular leksik maʼno bildirmaydi. Shunga koʻra leksikologiyani oʻrganish obyektiga kirmaydi. Leksikologiyada faqat nomlovchi soʻzlar oʻrganiladi.

Bilganingdan bilmaganing koʻp! Soʻz taʼrifida

Soʻz gavharining sharofati shunchalar yuksakki, gavhardek qimmatbaho narsa ham unga sadaf boʻla olmaydi. Toʻrt sadaf (**suv, havo, oʻt, tufroq**) ichidagi gavharga quti ham shu soʻz, yetti osmon yulduzlarining burji ham shu soʻz. Soʻz jon boʻlib, ruh uning qolipidir. Tanida ruhi bor odam doim unga ehtiyoj sezadi. Soʻz dunyoda bor barcha koʻngillarning qutisidagi javhar, hammaning ogʻiz qutisidagi qimmatbaho gavhardir. Agar til bamisoli bir poʻlat xanjar boʻlsa, soʻz unga qadalgan injulardir. Til bu chamanning ochilgan lolasi boʻlsa, soʻz durlari unga qoʻngan shabnamlardir.

Alisher Navoiy.

Eng eski zamonlar tarixchisi yunonlik Herodotning hikoya qilishicha, Doroning taslim boʻlish haqidagi talabiga javoban skiflar hukmdori unga **qush, sichqon, qurbaqa va beshta oʻq** yuborganida, bosqinchi buni oʻz foydasiga yoʻygan ekan: qush osmonda uchishi, sichqon yerda, qurbaqa esa suvda yashashidan kelib chiqilsa, ular gapimga kirib, oʻz yer-suv va osmonlari – yurtlarini qurol-aslahalari bilan menga topshirishga rozi boʻlibdilar-da.

Biroq uning dono maslahatchisi mazkur belgilarni oʻzgacha talqin qilgan: agar qush osmon uzra, sichqon yer ostida, qurbaqa botqoq-suv ichra jon saqlaganlaridek ish tutmasangiz, bizning oʻqlarimizdan qutula olmaysizlar.

Herodot rivoyatidagi qush, sichqon, qurbaqa va beshta oʻq ham aslida maʼno-muddaoni belgilar orqali yetkazish boʻlgani shubhasizdir. Keyingi mingyilliklar ichida bu boradagi belgilar tizimi rivojlanib-takomillashib borib hozirgi alifbo darajasigacha yetib kelgan. Demak, belgi-yozuv tilning asosiy koʻrinishlaridan biri, xolos.

Azamat Ziyo.

SOVCHILAR

...Oyi! Opamga sovchilar kelyapti!

...Sovchi xotinlarni uzoqdanoq taniydigan bo'lib qolganman.

Albatta qo'lida tuguni bo'ladi. Keyingi paytda uyimizga bunaqa xotinlar serqatnov bo'lib qolgan: kunora har xili kelib ketadi.

– Oyim voy o'lay, – dedi-yu, ildam o'rnidan turdi. Elakni supraga o'rab, hujraga yugurdi. Zum o'tmay qo'lini yuvib chiqdi-da, mehmonlarni kutib olish uchun shoshildi.

Voy o'rgilaylar! – dedi onam eski qadrdonlarini ko'rgandek, quvonib. – Xush kepsizlar!

...U har ikkala ayol bilan quchoqlashib ko'rishdi. G'ijim ro'molli ayol ko'rishayotganda nima uchundir oyimning sochini hidlagandek bo'ldi. Onam pakana xotinning paranjisini qo'lga oldi. Aylanib-o'rgilib, uyga boshladi. Atlas ko'ylakligi esa negadir lip etib oshxona-ga kirib ketdi. Zum o'tmay chehrasi yorishib chiqib keldi.

– Oyim yaqinda ko'milgan tancha o'rniga qo'yilgan xontaxta atrofiga darrov ko'rpacha yozdi. Tokchadan patnis oldi. Patnisda nimalar borligini aniq bilaman: turshak, chaqilgan yong'oq, jiyda, oltita zog'ora non, bitta likopchada maydalab qirqilgan kalla qand. Qand tanqis bo'lsa ham, oyim bu – mehmonlarga atalgan deb ko'p tayinlagani uchun biz – bolalar unga tegmasdik. Mehmonlar fotiha o'qishdi. Oyim choy quyib uzatdi...

– Endi, o'rgilay, – deb gap boshladi atlas ko'ylakli xotin, uzoq hol-ahvol so'rashganidan keyin, – agar taqdir qo'shgan bo'lsa qarindosh bo'larmiz, degan umidda eshigingizni supurgani keldik.

– Oyim indamadi.

– Olib o'tiringlar, – dedi anchadan keyin dasturxonga imo qilib.

– Eshitdik, o'zim o'rgilay, – dedi pakana xotin, – tag-zotli odamlar ekansiz. Bolalar katta bo'lgandan keyin ota-ona zimmasidagi qarzini uzgisi kelib qolarkan. Bizning o'g'limiz ham yaxshi, mo'min-qobil yigit. Muallim...

U «endi siz gapiring», degandek atlas ko'ylakli ayolga sekin burilib qaragan edi, sochining uchiga taqilgan so'lkavoylari jiringlab ketdi.

– Bizlar ham hurmat ko'rgan odamlarmiz, – atlas ko'ylakli xotin qalin bilaguzuk taqqan qo'llari bilan o'zi keltirgan tugunning bog'ichini

yecha boshladi.

– Ovora bo'lmang, aylanay, – dedi oyim uning qo'lidan ohista tutib. – Nasib etsa, hali ko'p borish-kelish qilamiz.

Oyim hech qaysi sovchining dilini og'ritmas, ammo sovchilar tugib kelgan nonni sindirishga yo'l ham qo'ymasdi. Hozir ham shunday qildi.

– Mayli, sizlar ham so'rang, surishtiring, – dedi pakana xotin choy ho'plab. – Qa'nida turamiz. Shundoq guzar oldidagi qo'shqavat darvoza. Odilxo'ja desangiz hamma biladi. Mahmud bukurning yonidagi hovli.

– Ovsinim kuyov bo'lmishning onalari – Atlas ko'ylakli ayol jilmaydi. – Muborak chevar desangiz, hamma taniydi. «Zinger» mashinalari bor.

...Yarim soatlardan keyin sovchilar ketishdi.

...Uch kundan keyin sovchilar tag'in kelishdi.

...Bu safar sovchilar uzoqroq o'tirishdi, oyim ularni moshxo'rda bilan mehmon qildi. Kechki ovqatdan keyin opam idish-tovoqni yuvish uchun oshxonaga chiqib ketganida oyim dadamga qaysi kungi sovchilar tag'in kelishganini aytdi.

– Yaxshi, tag-zoti ko'rgan odamlarga o'xshaydi. O'g'liyam muallim emish. Uningiz yo'q, buningiz yo'q deb o'tirmaymiz, boriga baraka qilib to'y qilaveramiz deyishyapti.

Dadam anchagacha indamadi.

– Surishtirib ko'rish kerak, – dedi oxiri. – Bu – umr savdosi. – Keyin shisha nosqovog'ini olib, nos otdi. – Qizingni ko'ngliniyam bilish kerak.

...Endi ko'zim ilingan ekan, opamning xo'rsinganini eshitib yana uyg'onib ketdim.

– Nimaga kelishaveradi, oyi!

– Sovchimi? – dedi oyim. – Keladi-da, qizim. Qizlik uy – bozor. Shoh ham keladi, gado ham. Birovning eshigiga umid bilan kelgan odamni xafa qilish gunoh.

Oyimning uyquasi o'chib ketdi shekilli, ovozi ancha balandlatib gapira boshladi.

– Qadim zamonda bir sahoba o'tgan ekan. Oy desa oyday, kun desa kunday, yakka-yu yagona qizi bor ekan. Bir kuni uch joydan uch sovchi kepti. Sahoba sovchilarning dili og'rimasin, deb uchalasigayam rozilik berib yuboribdi. Keyin nima qilishni bilmay, Xudoga nola qipti. O'zi



bitta-yu bitta qizim bo'lsa, uch joyga so'z berib qo'ygan bo'lsam, endi nima qilaman, deb yig'labdi. Shunda Xudoning rahmi kelib bir kechada sahobaning sigiri bilan echkisiniyam qiz qilib qo'yibdi. Uchala qiz bir xil emish, uch sovchi uch qizini to'y-tomoshalar bilan olib ketibdi. Shunda sahoba Xudoga yana nola qipti. Qaysi biri o'zimning qizim ekanini endi qayoqdan bilaman, debdi. Xudodan nido kepti: eshikdan kirib borganingda salom berib kutib oladigan, erini, qaynota-qaynonasini, qayin-bo'yinlarini hurmat qiladigan qiz – o'zingning qizing. Hech kimni hurmat qilmaydigan, shaltoq qiz sigiring. Hech kimni hurmat qilmaydigan og'zi shaloq qiz – echking bo'ladi debdi. Har xil xotinlar o'shandan tarqalgan emish. Biri esli-hushli, chaqqon, biri – shaltoq, biri adabsiz...

– Kennoyiga o'xshaganmi? – deb yuborganimni o'zim ham bilmay qoldim. Bu shunday kutilmaganda bo'ldiki, oyimning cho'pchagi shartta kesilib qoldi. Keyin opam ikkovlari sharaqlab kulib yuborishdi. Opam qaddini rostlab, o'rnidan turdi-da, piligi pasaytirilgan lampali tokcha oldidan o'tib kelib, meni quchoqladi. U yuzimdan, bu yuzimdan o'pdi. Opam urushib beradi, deb qo'rqib turgandim. O'pgani uchun judayam yaxshi ko'rib ketdim...

Ertasiga choydan keyin oyimning mahsi kiyayotganini ko'rib, mehmonga o'tlanayotganini sezdim-u darrov ergashdim.

– Menam, menam boraman!

– Mehmonga ketayotganim yo'q, – dedi oyim bosh chayqab. – Ishim bor.

– Boraman, oborasiz!

Onam bir zum ikkilanib turdi-da, rozi bo'ldi.

– Mayli, ammo charchadim demaysan.

– Ona bola yo'lga tushdik.

...Guzarga yetib keldik.


– Qayoqqa ketyapmiz, oyi?

– Keldik shekilli, – dedi onam atrofga alanglab. – Qurib ketsin, so'raydigan odam ham yo'q.

Ikki betida tollar, teraklar o'sib yotgan loy ko'chadan yana ozgina yurgan edik, obkashda suv ko'tarib kelayotgan semiz xotin ko'rindi.

– Hoy egachi, shu yerlikmisiz? – dedi oyim, yaqinroq borib.

Semiz xotin obkashni yelkasidan oldi. Ustiga chambarak tashlangan ikki paqir suvni yerga qo'ydi. Harsillab oyim bilan ko'rishdi.



– Mahmud bukurning uylari qaysi, o'rgilay? – dedi onam semiz xotinga iltijoli termilib.

Semiz xotinning rangi o'chib ketdi.

– Bukur bo'lsa Xudo qilgan! – dedi harsillab. – Tavba deng!

Shunday dedi-yu, sharaq-shuruq qilib ilgakni ilgancha obkashni ko'tardi. Shartta burilib ketdi. Sirg'alib-sirg'alib borarkan, obkashi bilan qo'shilishib orqaga burildi.

– Ta'na tagi tayg'oq, – dedi harsillab. – Betamiz!

Oyim hang-mang bo'lib qolgan, og'ir-og'ir kiprik qoqar, hozir yig'lab yuboradigan alpozda edi.

– Voy, sho'rim! – dedi pichirlab. – Kelib-kelib xotinidan so'rabman shekilli.

U hamon sirg'angancha obkashini lapanglatib ketayotgan ayolga anchagacha qarab turdi-da, qo'limdan tutdi.

– Yur, keta qolaylik.

Bu yerga nima uchun kelganimizni tushungandek bo'ldim.

Kecha dadam «surishtirib ko'rish kerak» degan edi. Bundan chiqdi oyim sovchilarni qo'ni-qo'shnisidan bilib olmoqchi.

– Choyxona ro'parasida pastak tomiga qora qog'oz tashlangan, derazasining ko'ziga yaltiroq xitoy qog'oz yopishtirilgan sartaroshxona bor ekan...

– Yura qol, – oyim yelkanga qoqdi. – Soching o'sib rangingni siqib yuboribdi...

Oyim eshikdan mo'ralab, sekin yo'taldi.

Sartarosh yelkasi osha burilib qaradi. Mo'ylovi tekis qaychilangan qisiqroq ko'zli kishi ekan.

– Jiyanning sochini olamizmi? – dedi o'rnidan turib. Shundagina uning bitta oyog'i yog'och ekanini ko'rdim. Nosrang galife shimining yog'och oyog'idagi pochasini qayirib qo'yibdi. U taxtalarining orasi ochilib yotgan polni do'pillatib yaqin keldi. – O'tir, jiyani, – dedi eski kursiga imo qilib.

Devorga tirab qo'yilgan xira toshoyna ro'parasiga o'tirdim. Oyim boshimdan do'ppimni yechdi-da, boya sartarosh o'tirgan kursiga joylashdi.

– Ustarada olamizmi, mashinadami? – sartarosh stol ustida yotgan, soch tolalari yopishgan matoni qoqib-qoqib bo'yningga solarkan, onamga yuzlandi.

– Mashinada ola qoling, – dedi oyim.



Sartarosh qutichadan yaltiroq mashinasini oldi.

Chakkamga mashinani tirab shiq-shiq qilgancha sochimni olishga tushdi.

– Nega ixraysan? – Sartarosh boshimni besh barmog'i bilan changallagancha dashnom berdi. – Soldat hamma narsaga chidashi kerak. Za Rodinu, deb atakaga borsang ham ixraysanmi?

Oyimdan panoh kutib, aksini oynada ko'rish umidida mo'raladim. Biroq ko'zgu shunaqangi xira ediki, o'zimning yuzimni zo'rg'a ko'rardim.

– Siz shu yerlikmisiz? – dedi onam bir mahal.

– Sho'tlikmiz, – sartarosh ishini davom ettirarkan, onamga burilib qaradi. – Nimaydi?

– Men bir xayrli yumush bilan keluvdim, – dedi oyim osoyishta ohangda. – Odilxo'ja deganni taniysizmi? Ayollari chevar ekan. Muborak chevar.

– Nega tanimas ekanman! – Sartarosh tantana bilan ovozini balandlatdi. – Shundoq Mahmud bukur bilan qo'shni turadi-da, otxonadan o'tsangiz to'rtinchi darvoza!

– Bir narsani bilmoqchiydik, – oyim bir zum jimib qoldi-da, davom etdi. – Xudoyligingizni aytsangiz: qanaqa odamlar o'zi, tag-zoti qanaqa, asli shu yerlikmi yo boshqa joydan kelishganmi?

– Ha-a-a! Bundoq demaysizmi? – Sartarosh onamning maqsadini tushundi shekilli, bosh irg'adi. – Tag-zoti toza odamlar! Qadimdan shu yerda turishadi. Ota-bobosi bog'bon o'tgan. Katta uzumzori bo'lardi. Shibilg'oni deysizmi, shakarangur deysizmi, echkiemarmi – hammasl shu bog'da bo'lardi. Ana uzum-u mana uzum. Urushning kasofati bilan ko'plari yo'q bo'p ketdi. Qo'li qisqalik qip qoldi bechoralarni!


Sartarosh gapirgan sayin g'ayratga kirar, g'ayratga kirgan sayin mashinani tezroq shiqirlatar, unga sayin sochim ko'proq yulinar edi. Ko'zimdan yosh chiqib ketdi.

– Avlodida yomon odamlar chiqmaganmi? – dedi onam. – Qimorboz, o'g'ri, nashavand deganday...

– Yo'q! – dedi sartarosh qat'iyat bilan. – Hammasi yaxshi odamlar. Onam yengil tortib, xo'rsinib qo'ydi.

Endi sochimning orqasini olishga navbat keldi. Sartarosh kaftini botirib, nuqul boshimni pastga egadi. Boshim egilgan sayin paydarpay burnimni tortaman.

– O'g'li-chi? – dedi oyim asosiy maqsadga o'tib, – To'laganxo'ja



degan o'gli bor emish...

– Vo! – Sartarosh mashina bandiga tiqilgan bosh barmog'ni dikkaytirib ko'rsatdi. – Meravoy bola! Ma'lim! Maktabda ma'limlik qiladi.

– Urushga bormaganmi?

– Yo'q, – sartarosh qitig'imni keltirib tag'in bo'ynimga mashina soldi. Shilt etib burnimni tortdim. – Ma'limlarni urushga olishmagan. Ammo meravoy bola! Nima, quda bo'moqchimisizlar?

– Qaydam, – dedi oyim sekin. – Taqdir qo'shgan bo'lsa...

– Ammo og'iz solishgan bo'lsa shu boladan qolmanglar. Tag-zoti ko'rgan, buning ustiga kimsan, ma'limni kuyov qilasiz-u jon demaysizmi, singil! O'zingiz kimning oilasi bo'lasiz?

...Oyim hammasini batafsil aytdi. Dadamni, asli qayerdan kelib chiqqanimizni...

– Yulduzlar yulduzlaringga to'g'ri kepti – dedi sartarosh mashinani puflab-puflab tozalar ekan. – Xudo xohlasa osh yer ekanmiz-da.

Qutulganimga shukur qilib, dik etib o'rnimdan turdim.

Onam do'ppimni boshimga kiygazib, sartaroshga pul berdi.

– Ie, qudalardan pul olsak qandoq bo'larkin? – Sartarosh pulni shimining kissasiga tiqarkan, tayinladi. – Shulardan qolmang, yaxshi odamlar.

Javob bering.

1) Matn shu kabi tanish qandaydir voqealarni yodingizga soldmii? O'z so'zlaringiz bilan tushuntirib bering.

2) Sovchilik odati haqida nimalar bilar edingiz? Sovchilik bilan bog'liq qanday so'zlarni bilasiz?

3) Roman parchasidan qadimiy an'anamizga oid qanday ijobiy xususiyatlarni bilib oldingiz?



Bilar edim	Bilishni xohlayman	Bilib oldim



4) Matndagi Sizning diqqatingizni jalb qilgan soʻzlarning maʼnolari boʻyicha “BBB” jadvalini toʻldiring. Soʻzlarning maʼnolarini bilib olish uchun “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”dan foydalaning.

5) Siz sovcilikka xos qaysi jihatlarni ijobiy yoki salbiy baholaysiz? Nima uchun?

6) **Mustaqil ish.** *Oʻquv loyihasini bajaring.*

Izlanish, muammoli taʼlim, evristik xarakteridagi faoliyat bilan shugʻullaning va quyidagi mavzulardan birini tanlashingiz mumkin:

1. Mashhur oʻzbek filmlarida oila munosabatlari haqida.
2. Mashhur oʻzbek filmlarida qoʻshnichilik munosabatlari haqida.
3. Mashhur oʻzbek filmlarida urf-odatlar haqida.
4. Irimlar haqida mening qarashlarim.



III MODUL

Til bilgan el biladi

Til – xazina

Leksik qatlamlar, o‘zbek iboralari

Eshqobil Shukur “Boboso‘z izidan”



Til – xazina

Erlarda jamol lison va tildur.

(Hadisdan)

*Chun toptim ul kalom ichra kamol,
Turk alfozi bila surdum maqol...
Turk nazmida chu men tortib qalam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam...*

(Alisher Navoiy)

*O'zbek tili kambag'al emas,
balki o'zbek tilini kambag'al
deguvchilarning o'zi kambag'al. Ular
o'z nodonliklarini o'zbek tiliga
to'nkamasinlar.*

(Abdulla Qodiriy)



YUNESKO tashkiloti ekspertlari 1953-yilda “davlat tili” va “rasmiy til” tushunchalarini farqlashni taklif etgan. Unga ko‘ra:

Davlat tili – siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda ma’lum bir davlatda integratsiya (birlashtiruvchi) vazifasini amalga oshiradigan, shuningdek ushbu davlatning ramzi sanaladigan tildir.

Rasmiy til – davlat boshqaruvi, qonunchilik, sud jarayoni tilidir.

Ushbu ikki ta’rif tushuntirish-tavsiya sifatida qabul qilinadi, barcha mamlakatlar uchun majburiy emas.

**So‘z
Ma’no
Ibora
Jumla**



*Kasbiy faoliyatingizda ona tili,
davlat tili va chet tillarni bilishning
ahamiyati qanday deb o'ylaysiz?*

Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin.

Sh.Mirziyoyev

Mavzuni o'rganishda quyidagi so'z va so'z birikmalariga e'tibor qaring:

<i>barhayot</i>	<i>davlat tili</i>	<i>elat</i>
<i>ezgu</i>	<i>fazilat</i>	<i>ijtimoiy vazifa</i>
<i>jahon tili</i>	<i>jonli til</i>	<i>joziba</i>
<i>manqurt</i>	<i>maqom</i>	<i>milliy til</i>
<i>monelik</i>	<i>muammo</i>	<i>munosabat</i>
<i>munozara</i>	<i>muntazam</i>	<i>muvofiq</i>
<i>muvozanat</i>	<i>ramz</i>	<i>rasmiy til</i>
<i>ruh</i>	<i>tahrir</i>	<i>ulush</i>
<i>xalq tili</i>	<i>xalqaro til</i>	



Alisher Navoiy haqida videoroliklarni tomosha qiling.

Gapiring:

1. Nima uchun o'zbek tili taraqqiyotini Alisher Navoiy hayoti va ijodi bilan bog'laymiz?

Ko'ring: AQSH elchisining Navoiy she'rlaridan yod aytgani tasvirlangan videoyozuvni tomosha qiling.

Gapiring:

1. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning: "O'zingiz ayting, elchi degan odam o'zbek xalqining boy tarixi, madaniyati, milliy qadriyatlari, vatandoshlarining dard-u tashvishlarini yaqindan



bilmasa, ularni yuragidan o'tkazmasa, qanday qilib O'zbekistonni dunyoga tanitishi mumkin... Deylik, Alisher Navoiydan, Boburdan, Abdulla Oripov, Erkin Vohidovdan ikki qator she'r ayta olmasa, eng yomoni, ona tilimizni mukammal bilmasa, qanday qilib haqiqiy elchi bo'lishi mumkin?" degan edi. AQSH elchisining Navoiy she'rlaridan yod aytishi sizga qanday ta'sir qildi?

Ko'ring: *"Mahallada duv-duv gap" filmidan parcha.*

Gapiring: *O'tgan asrda tasvirga olingan filmda omborxona eshigiga yopishtirilgan yozuv haqida mulohazalaringizni bildiring?*

Fikrlashing: *Quyidagi she'riy parchalar va hikmatli so'zlarni o'qib munosabatingizni bildiring.*

*Xushlamaydur olimlar bizni oyg'on turkini,
Oriflardan eshitsang, ochar ko'ngul mulkini.
Oyat, hadis ma'nosi turkiy bo'lsa muvofiq,
Ma'nosiga yetganlar yerga qo'yar bo'rkini. (Ahmad Yassaviy)*

So'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o'lchab ko'rsatadigan tarozisidir. (A.Navoiy)


*Har tilni biluv emdi bani odama jondur,
Til vositayi robitayi olamiyondur.*

*G'ayri tilini sa'y qiling bilgali, yoshlar,
Kim ilm-u hunarlar rivoji andin ayondur.*

*Lozim siza har tilni biluv ona tilidek,
Bilmakka ani g'ayrat eting foydayi kondir. (Avaz O'tar)*

Har birimiz bizni voyaga yetkazgan, bizga eng bebaho boyligini – tilini hadya etgan onalar oldida qarzdormiz. (Ch.Aytmatov)

Jamiyatda til sezgisi va so'z sevgisi barqarorlashmog'i zarur. (Nizomiddin Mahmudov)



Fikrlashing.



**Zuhridin
Isomiddinov,**
filolog olim.

O'zbekistonda davlat tili to'g'risidagi qonun 5.187 belgidan iborat bo'lsa, Qozog'istonda 15.013 belgi, Ozarboyjonda 12.000, Turkmanistonda 15.468, Qirg'izistonda 14.063, Tojikistonda 8.600, Rossiya Federatsiyasining davlat tili to'g'risidagi qonuni 10.158 belgidan iborat. Qarang, Markaziy Osiyodagi eng "kichkina" qonun shu mintaqadagi eng katta davlatga tegishli bo'lib chiqyapti.

Nodir

Jonuzoq,
O'zbekiston
Yozuvchilar
uyushmasi raisi
o'rinbosari.



Dunyoga dong'i ketgan dog'istonlik adib Rasul Hamzatovning ushbu bitiklarini keltirish o'rinli deb o'ylayman: "Shaharda yashayotgan ayrim o'rtoqlarim boshqa tilda gaplashayotganiga, yozayotganiga nima deysiz? Men bu bechoralar holiga qarab sezdimki, ular avar tilida ham yozishmaydi, lekin bu rus tili ham emas... Ha, ular o'z ona tilining qashshoq va qamrovi torligidan nolib, o'zlariga boy va qamrovi keng til izlab yo'lga chiqishgan. Xuddi avar ertagidagi echkiga o'xshaydi. Ertakda echki bo'riga o'xshab dum o'stirish uchun o'rmonga ketadi va o'rmonda ikkala shoxi sinib, to'qol bo'lib qaytadi..."



O‘ZBEKISTONDA MILLIY TILLAR RIVOJI

O‘zbekiston – ko‘p millatli davlat. Respublikada 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Aholining 80 foizdan ortig‘ini o‘zbeklar tashkil etib, ularning umumiy aholi sonidagi ulushi muntazam oshib bormoqda. Shuningdek, boshqa millatlarning katta jamoalari ham mavjud. 10 foizdan ortig‘i – Markaziy Osiyo xalqlarining boshqa vakillari (5 foizga yaqini – tojiklar, 3 foizga yaqini – qozoqlar, 2 foizi – qoraqalpoqlar, 1 foizi – qirg‘izlar, shuningdek turkmanlar va boshqalar). Rus va boshqa slavyan xalqlari vakillari respublika aholisining 10 foizini tashkil qiladi. Davlat tili hamda zamonaviy O‘zbekiston hududida keng tarqalgan va huquqiy maqomiga o‘zgartirishlar kiritilgan rus tili bilan bir qatorda hududlarda boshqa tillardan ham foydalanib kelinadi. Misol uchun, Qoraqalpog‘iston Respublikasida qoraqalpoq tili ham rasmiy til hisoblanadi. Aholining aksar qismi etnik tojiklar bo‘lgan hududlarda tojik tilida ta’lim olib boriluvchi maktab, o‘rta maxsus ta’lim muassasalari mavjud. Surxondaryo, Samarqand, Buxoro, Namangan va boshqa hududlarda tojik tilidagi OAV, maktablar, o‘rta maxsus ta’lim muassasalari va oliy ta’lim muassasalarining bo‘limlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Toshkent va Navoiy viloyatlarida, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasida qozoq tilida o‘qitiladigan maktablar va oliy ta’lim muassasalarining bo‘limlari mavjud. Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasida turkman tilida ta’lim beriluvchi maktablar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Bilgandan bilmaganing ko‘p!

***21-oktabr – O‘zbek tiliga davlat
tili maqomi berilgan kun
(1989-yil)***

***21-oktabr – O‘zbek tili bayrami
kuni (2019-yil)***

21-fevral – Xalqaro ona tili kuni (1999-yil)



O'zbekistonda o'zbek va boshqa tillarga e'tibor haqidagi ma'lumotlarni davom ettiring. (qisqa ma'lumotlarni almashing)
Masalan:

- o'zbeklar, dunyo aholisining atigi yarim foizini tashkil etadi.
- ikki davlat tilli mamlakatlar bor: Kanada (ingliz, fransuz), Belarus (belorus, rus), Kipr (yunon, turk), Isroil (ivrit, arab), Hindiston (hindi, ingliz), Iroq (arab, kurd) va h.k.

Savollarga javob bering va mashhur maqollarimiz mazmuni haqida suhbatlashing.

Tilga e'tibor nimaga e'tibor?
Til nimaning bezagi?
Til nimadan o'tkir?
Tilga hurmat kimga hurmat?
Til nimadan o'tkir?
Yaxshi naqlning tomiri ...?
Er boyligi yo'lda bo'lsa, so'z boyligi nimada?
Kishining o'zi yetmagan yerga nimasi yetar?
Nimaning ko'rki – maqol?
Tilga ixtiyorsiz kimga e'tiborsiz?

So'z, gap, ma'no, ibora, jumla. Bu so'zlarni to'g'ri qo'llaymizmi?
Fikringizni bildiring.



1-mashq. Bir yoki bir nechta to'g'ri javobni tanlang.



bar...ayot [x] [h]
...zgu [i] [e]
...azilat [p] [f]
j...ziba [a] [o]
fax...r [] [i]
huk...mat [u] [i]
...ohish [x] [h]
i...timoiy [j] [sh]

sa...ifa [h][x]
ge...ostrategik [] [y]

2-mashq. Bir yoki bir nechta to‘g‘ri javobni tanlang.

manqur... [t] [d]
mun...sabat [o] [a]
al...oz [f] [v]
muv...zanat [o] [a]
mun...zara [o] [a]
mu...mmo [a] [o]
istiq...mat [o] [a]
mone...lik [] [y]

3-mashq. Matnda 9 ta so‘z xato yozilgan. Ularni to‘g‘rilab yozing.

Hindistonlik Sharada Prasad “Bizning tillarimiz **istqboli** qanday bo‘ladi?” degan maqolasida bu mamlakatda taxminan 40 yoshdan oshganlar **xisobka** olinmasa, yetishib kelayotgan yosh **avlot** nafaqat shaharlarda, balki chekka o‘lkalarda **xam** o‘zaro **inglis** tilida gaplashishga, **inglis** tilida chop etilgan adabiyotlarni o‘qishga, televizorda **inglischa** ko‘rsatuvlarni ko‘rishga harakat qilayotgani to‘g‘risida **pikr** yuritib, agar **avhol** shu tarzda davom etaversa, Hindistondagi milliy tillar yaqin kelajakda Sanskrit va tulu tillari qatoridan joy olib qolishi mumkinligi haqida tashvishlanib yozadi.

4-mashq. Matnda 7 ta so‘z xato yozilgan. Ularni to‘g‘rilab yozing.

Sen tuganmas **shashmadirsan**, **ox**, ona tilim,
Yetmishikki tomirimga **mavijlaring** bordi.
Bir kun **tinip** qolgan edi bog‘da **bulbulim**,
Sandulochim! – degan edim **sayrab** yubordi. (A.Oripov)

5-mashq. Moslikni aniqlang.



6-mashq. Bo‘sh o‘ringa sinonimik qatordan mosini qo‘ying.

Til shuncha sharafi bilan nutqning ...idir. Agar nutq noma‘qul bo‘lib chiqsa – tilning ofatidir.

aslaha, **qurol**, qurol-yarog‘, qurol-aslaha

7-mashq. Bo‘sh o‘ringa sinonimik qatordan mosini qo‘ying.

Odam – tili bilan boshqa ...lardan imtiyozlidir. Uning tili orqali boshqa odamlardan afzalligi bilinadi.

hayvon, maxluq, **mavjudot**

Tilga ixtiyorsizlik –
elga e‘tiborsizlik.
(A. Navoiy)

Tilini tiyolgan odam –
donishmand, oqil (A.
Navoiy)



9-mashq. Qolipga mos gapni aniqlang.



ega+aniqlovchi+to'ldiruvchi+to'ldiruvchi+to'ldiruvchi+to'ldiruvchi+aniqlovchi+ kesim

So'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o'lchab ko'rsatadigan tarozisidir. (A.Navoiy)

O'z ona tilidan ajramoqlik milliy hissiyotlarini yo'qotish natijasidir. Bu ish esa insoniyat olami oldida ulug' xiyonat, kechirilmas jinoyat hisoblanadi. (Alixonto'ra Sog'uniiy)

10-mashq. Bo'sh o'ringa to'g'ri javobni yozing.



... tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdir. Bobolarimizga yetushg'on va yaragan muqaddas til va adabiyot bizga hech kamlik qilmas. (A.Avloniy)

11-mashq. Berilgan so'zlarning qaysi tilga mansubligini aniqlang.

Ajdar, ajdaho, qonun, govmush, rahbar, satr, she'r, jo'ja, satira, kaptar, ramz, naqqosh, kalla, chehra, maqola, mayiz, gilos, qasida, sayqal, do'kon, gul, quyosh, poliz, g'alaba, oshpaz, himoya, muxbir, sahifa, savol, yakshanba, juma, qasr, muqaddam, makon, noma, poytaxt.

12-mashq. Quyidagi ruscha-baynalmilal so'zlarning o'zbek tilidagi sinonimlarini topib, namunadagidek qilib yozing va qorqalpoq tilida qo'llanilishi haqida mulohaza yuriting.


N a m u n a: progressiv – ilg'or.

Pedagog, baza, konkret, fraza, affiks, fakt, sujet, agitatsiya, funktsiya, lingvistika, aktiv, avtor, abstrakt, agent, redaktor.



O'zbekiston haqida gazeta va jurnallar, internet sahifalaridan o'qib borasizmi? Quyidagi internet xabari bilan tanishing.

Matnga qanday sarlavha qo'yish mumkin?



Matndagi asosiy fikrni aniqlang.

 **1-vaziyat.** Siz bilan internet yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali bog'lanib turadigan, o'zbek tilini o'rganayotgan do'stlaringizga shu kabi ma'lumotlarni to'plab ixcham shaklda yozma xabar tayyorlang.

Bilasizmi, O'zbek tili 2018-yilda Yaponiyaning 8 universitetida, Turkiyaning 18 ta (ilgari faqat Istanbul universitetida bo'lgan), Amerikaning 8 ta, Germaniyaning, 4 ta universitetida o'zbek tili o'qitilgan, ...eng keyingi ochilgan o'zbek tili va adabiyoti fakulteti Xitoydagi Millatlar universiteti bo'lsa, bugungi kunda dunyoning "Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Shvetsiya, Rossiya, Ukraina, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Hindiston, Turkiya, Afg'oniston, Ozarbayjon, Tojikiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston kabi davlatlarning 60 ga yaqin universiteti va 100 dan ziyod maktabida o'rganilmoqda. O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan chet ellik olim va tadqiqotchilar soni yil sayin ko'paymoqda.

2-vaziyat. Bir multfilmda Ayiq Asalarilar iniga panjasini tiqib, so'ng o'kirib qochadi. Siz bu vaziyatning til siyosatiga bog'liq jihatlari bor deb o'ylaysizmi? Nima uchun?

3-vaziyat. Quyidagi matndagi asosiy fikrni aniqlang.

"Ommaviy madaniyat" haqida haqli ravishda ko'p gapiramiz. Ammo bu olamning ishlarini tushungan kishi tashqaridagisidan emas, ichkarisidagidan qo'rqishi kerak. Til, umuman tarix, madaniyat va ma'naviyatdek o'ta muhim, o'ziga xos sohalarda katta-kichik, ko'pincha ko'z ilg'amas kamchiliklarimiz ommaviy tus olib, kuchayib borar ekan, bizga chet g'animning keragi yo'q. Dushman ularni qo'zg'ash, yanada chuqurlashtirish, kengaytirishdan manfaatdor! O'z ota-onasi tilining qimmatini bilmaydigan, uni qo'riqlolmaydigan inson va millat o'zining ham qadriga yetolmaydi, o'zini himoya qilolmaydi. Tili, madaniyati, tarixi, an'analari, urf-odatlarini asrarkan, aslida u o'zini avaylaydi. O'lgan inson, avlodni tiriltirib bo'lmasligi-yu til, madaniyat, tarix, an'analarni tiklash mumkinligining o'ziyoq ko'p narsaga ishora...



LEKSIK QATLAMLAR, O'ZBEK IBORALARI

Tilning lugʻat tarkibi muayyan tilda mavjud boʻlgan soʻz va iboralar majmuidan iboratdir. Soʻz va iboralar birgalikda tilning lugʻaviy birliklarini tashkil etadi. Soʻz – leksik birlik, ibora esa frazeologik birlik deb yuritiladi.

Oʻzbek tili lugʻat tarkibi keng maʼnoda adabiy tildagi soʻzlar bilan bir qatorda shevalar hamda kasb-hunarga, shuningdek, maʼlum ijtimoiy guruhga oid soʻzlarni ham oʻz ichiga qamrab oladi. Kishi ismlari, laqablar, taxalluslar (antroponimlar), joy nomlari (toponimlar), yulduz va sayyoralar nomlari (astroponimlar), hayvonlarga berilgan maxsus nomlar (zoonimlar) kabi atoqli otlar ham tilning lugʻat tarkibiga kiradi. Lugʻat tarkibi tilning boyligini oʻzida aks ettiradi. Qaysi til soʻzga boy boʻlsa, oʻsha til shunchalik taraqqiy etgan hisoblanadi.

Oʻzbek adabiy tilida barcha soʻzlar quyidagi ikki qatlamga boʻlinadi:

1. Oʻz qatlam. 2. Oʻzlashgan qatlam.

Oʻz qatlam – oʻzbek tili leksikasining umumturkiy soʻzlar va sof oʻzbek soʻzlaridan iborat qismlari.

T.r.	Oʻz qatlamning xususiyatlari	Misollar
1.	<i>H, f</i> tovushi (harfi) va tutuq belgi turkiy soʻzlarda ishtirok etmaydi. Taqlid va undov soʻzlarda qatnashadi.	Fazo, ehtirom, aʼlo kabi soʻzlar oʻzbekcha emas. Uf, oh kabi soʻzlar.
2.	<i>V, g, z, l, r</i> tovushlari bilan boshlanmaydi.	Vatan, gap, zal, lola, raʼno kabi soʻzlar oʻzbekcha emas. Goʻzal soʻzi bundan mustasno.
3.	Unlilar yonma-yon kelmaydi.	Soat, shoir, maorif, oila kabi soʻzlar arabcha soʻzlardir.



4.	Bir bo'g'inda yonma-yon o'zbekcha so'zlar kelmaydi. rq,st, rk, rt, rch, lt kabi qo'llanish uchraydi.	Qirq, ost, ust, berk, bo'rt, art, arch, elt kabilar o'zbekcha so'zlardir. Baxt, go'sht kabilar tojikcha so'zlardir.
5.	Turkiy so'zlar ko'pincha omonim bo'ladi.	Tut, yoz kabi.
6.	So'zlarning asosi asosan 1-2 bo'g'inli bo'ladi.	Sevinch, quvonch kabi.
7.	Bir bo'g'inli so'zlar asosan undosh+unli+undosh shaklida bo'ladi.	Kel, ket kabi.
8.	Ikki bo'g'inli so'z asosan ochiq bo'g'inlardan tuziladi.	Bola, dala kabi.
9.	So'z oxiri e, o, o' tovushlari bilan tugamaydi.	Mavqe, obro', xudo kabi so'zlar o'zbekcha emas.
10.	Fe'ldan yasalgan har qanday so'z turkiy so'z bo'ladi.	Taroq, qo'rqoq, tiniq kabi.
11.	Fe'l, son, taqlid so'zlar o'z qatlamga mansubdir.	Olmoq, ming, g'iz-g'iz kabi.

O'zlashgan qatlam o'zbek tiliga qardosh bo'lmagan tillardan olingan so'zlardan tashkil topadi. O'zlashma so'zlar, asosan, arab, fors-tojik, rus va jahon tillaridan olingan.

Arabcha so'zlarning xususiyatlari

<i>h, f</i> tovushlari, tutuq belgili so'zlar bo'ladi.	fursat, maftun, hayot, hakam, ma'no, sa'va
<i>-ot, -at, -illo, -ullo, -iy, -viy</i> qo'shimchalari bilan tugaydigan so'zlar bo'ladi.	adabiyot, shaxsiyat, Abdullo, ilmiy, tarbiyaviy

Faqat unlilar o'zgartirilib yangi so'zlar hosil qilingan bo'ladi.	hukm, hokim, hakam, mahkama, hokimiyat; kitob, kutubxona, maktab
So'z boshida <i>ik, iq, ak, mu, ma</i> kabi unsurlar bo'ladi.	Ikrom, iqror, akram, maktab, mahorat
Ikki unli yonma-yon keladi.	tabiiy, manfaat, mudofaa
Arabcha so'zlar tarkibida <i>j, ch, p, ng</i> tovushlari uchramaydi.	ajdar, padar, tong kabi so'zlar arabcha emas.
Diniy atamalar, turli soha nomlari, ismlarning ko'pchiligi arabcha so'zlardir.	halol, qodir, qonun, san'at, ilhom, muhandis, odob, amal, inson

Fors-tojikcha so'zlarning xususiyatlari

Sirg'aluvchi <i>j</i> tovushi ko'p uchraydi.	gijda, mujda
Bir bo'g'inda ikki undosh keladi.	baxt, daraxt, farzand
Cho'ziq <i>o</i> unlisi mavjud so'zlar ko'p uchraydi.	bahor, non
<i>-xo'r, -noma, -do'z, -namo, -boz, -dor, -mand, no-, -bon, ba-, be-, -bon</i> kabi qo'shimchalar bo'ladi.	ijaraxo'r, aybnoma, zardo'z, telbanamo, masxaraboz, minnatdor, kasalmand, noto'g'ri, bog'bon, befarosat, baodob, betakalluf.

Rus-Yevropa tillaridan kirgan *advokat, traktor, stol, konsert, stul, palto, parta, mashina, zavod, fabrika, teatr* kabi so'zlar alohida qatlamni tashkil qiladi.

IBORA HAQIDA

Tilshunoslikning frazeologizmlarni ilmiy tadqiq qiluvchi sohasi frazeologiya (grekcha phrases – “ibora”, logos – “ta'limot” ma'nosida) deyiladi.

Ibora – frazema frazeologik birlik sifatida frazeologiya bo'limida o'rganiladi. Ibora tuzilishiga ko'ra so'z birikmasiga o'xshab ketsa ham nutq birligi sanalgan bunday birliklardan tamoman farq qiladi. U so'z

birikmasi kabi har gal nutqning o'zidagina vujudga kelmaydi. Til birligi sifatida nutqqacha tayyor holda mavjud bo'ladi.

Ibora o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- iboralar qo'llanish jihatidan so'zga, so'z birikmasiga, gapga teng keladi;
- ko'chma ma'no ifodalaydi va ta'sirchanlikka, obrazlilikka ega bo'ladi;
- gap tarkibida yaxlit ko'rinishda bitta so'roqqa javob bo'ladi va bitta gap bo'lagi vazifasini bajaradi;
- ayrim iboralar tarkibini o'zgartirish mumkin: ko'zi tushdi – ko'zi menga tushdi; burni ko'tarilgan – burni ko'tarilib ketibdi;
- iboralar ko'proq so'zlashuv va badiiy uslubda ishlatiladi. Frazelogizmlar badiiy adabiyotda obrazli va ta'sirchan vosita sifatida ko'p qo'llaniladi.



BOBOSO'Z IZIDAN

Eshqobil Shukur

ONA TIL TUYG'USI (Yoxud maqoldan eposgacha)

Millatning ming yilliklarini his etish uchun uning tilini his etish kerak, qalbini anglash uchun tilini anglash kerak. Ona Tilimiz o'z ko'lamida juda buyuk tarixlarni mujassam qilgan.

Bor-yo'g'i uchta-to'rtta so'zdan iborat bo'lgan kichkinagina bitta maqol xalqning butun bir avlodi kechmishidan xabar beradi. Ya'ni shu ixchamgina bitta jumlagi katta bir avlodning muayyan yo'nalishdagi yuz yillik tajribasi to'plangan bo'lsa, ajab emas. E'tibor qilsangiz, tilimiz maqollarga juda boy. Ming-minglab maqollarimiz bor. Birgina "O'zbek xalq maqollari" kitobining o'zida o'n mingga yaqin maqol jamlangan. Holbuki bu kitobga kirmay qolgan qanchadan qancha maqollar tilimiz bag'rida yashab yuribdi. Maqoli ko'p til qudratli bo'ladi.

Shuning uchun bolalarga maqollarni ko'p yodlatish kerak. Shunda ular ham hikmatni anglaydi, ham o'z tilining ranglarini sezadi, tafakkur




doirasi kengayadi. Chunki bu ajoyib durlar fikr chig'anog'i ichida asrlar mobaynida paydo bo'lgan. Maqol aytish oson, anglashga kelganda esa u qalb va fikr mehnatini talab qiladi va busiz o'z sirlarini ochmaydi. Qaysi millatning maqoli ko'p bo'lsa, uning ma'naviyati shuncha teran bo'ladi. Duch kelgan odamdan hikmat chiqmagani kabi maqol ham har joyda qo'ziqorinday potirlab chiqavermaydi. Bu mo'jazzgina ajoyibotlarning paydo bo'lishi uchun tafakkur va tuyg'uga to'yingan tuproq kerak.

Xalqning katta dostonlariga ham maqol onalik qilgan. Zero, daryo birdan paydo bo'lmaydi, u jilg'alardan, kerak bo'lsa tomchilardan yig'iladi. "Alpomish"day dostonni yaratolgan Til, shubhasiz, ijod va tafakkur tilidir. "Alpomish"day monumental dostoni bor xalqlar jahon ayvonida unchalik ham ko'p emas. Bu mangu tirik ma'naviy obidada tarixning bir necha ming yillik manzaralari butun mohiyati bilan, ha, butun mohiyati bilan namoyon bo'ladi. "Alpomish"ning o'zida aytilganiday ushbu doston yaratilgan zamonlarda "bu dunyolar yosh edi". Shunday olamshumul dostonni bizning Ona Tilimiz jahonga berdi. O'zbek qalbi, o'zbek ruhining qiyofasini ko'raman degan odam "Alpomish"ga qarashi kerak. Qolversa, bu doston bugungi kunda haqiqiy ma'noda yashayapti. Baxshilarimiz "Alpomish"ni kuylayotganda uning sahifalarida olis ajdodlarimiz kechinmalari bilan bizning kechinmalarimiz uchrashini his etsa bo'ladi.

Ona tilimiz xalq ijodiyotidan tortib, qadimgi yozma yodgorligimizga qadar, yozma yodgorligimizdan tortib bugungi adabiyotimizga qadar millatning chinakam xazinalarini bag'rida saqlab kelmoqda. Qadimgi bitiktoshdagi yozuvlar, Er Bilga Alp Ertunga kabi qahramonlar tarixi o'sha davrlardayoq yuksak san'at bilan adadiyatga muhrlangan "Devoni lug'atit turk" o'zingiz ko'p ishlatadigan ko'nglingizga yaqin qadrdon so'zlarga duch kelasiz. Bu qadrdon so'zlar ming yil nariroqdan bobolar nigohi bilan qarab turganini his etasiz. "Qutadg'u bilig"da yashab kelayotgan muhtasham adabiyot bundan keyin ham jahon adabiyotini nodir manbalar bilan ta'minlashga qodir. Bu til ming yillar mobaynida qanday go'zal mo'jizalarni yaratib kelayotgani uning ma'naviy obidalaridan ayon ko'rinib turadi.

Har qanday odam o'z Vatanini Ona Tili orqali taniydi, dunyoni ham, o'zini ham shu ulug' kuch vositasida anglaydi. Onasidan birinchi so'zni o'rgangan go'dakni tasavvur qiling. U shu so'z bilan Ona Til sari ilk qadamini tashlaydi. Ona Til esa uning qo'lidan tutib asta sekin olam



sari yetaklab ketadi. Tili chiqayotgan go‘dak bilan boshqa tilni o‘rganayotgan katta odamni solishtirib ko‘rsangiz g‘aroyib holga duch kelasiz. Til o‘rganayotgan katta odam o‘sha tilning qonun-qoidalarini yillar mobaynida hijjalab o‘qib-o‘rganadi. Shu Tilni tushunish, unda gaplashish uchun qattiq mehnat qiladi. Aqlini xotirasini ayamay ishlatadi. Tili chiqayotgan esa hech qanday qiyinchiliksiz Ona Tilini aql bovar qilmas darajada tez o‘zlashtiradi. Unga birov na bu tilning grammatikasini na stilistikasini na boshqa qoidalarini o‘rgatadi. U hammasini o‘zi anglab oladi. Bunga sabab Ona tili uning qonida bor, ruhida bor, uning jonida shu til yashamoqda. Ona Til shuning uchun ham aziz va muqaddas. Bir paytlar o‘qigandim. Uyqisida gapiradigan bir ayolning eri o‘zgacha bir holni sezib, ruhshunos vrachga murojaat qiladi. Shifokor unga xotining uyqisida gapirgan tushunarsiz gaplarini magnitofonga yozib kelishini so‘raydi. Er shunday qiladi. Shifokor magnit lentasiga yozilgan ovozni mutaxassilarga eshittirib ko‘radi. Qarangki, ayol tushida sof ispan tilida ravon gaplashar ekan. Holbuki, ayol aslida Ispan tilidan biror so‘zni ham bilmas ekan. Uning bu tildan mutlaqo xabari bo‘lmasa, qanday qilib tushida shu tilda ravon gaplasha olishi mutaxassislarni hayron qoldiradi. Uzoq tekshiruv va surishtiruvlardan so‘ng shu narsa ma‘lum bo‘ladiki, bu ayolning momosining momosi ispan bo‘lgan ekan.

Demak, Ona Til tuyg‘usi xuddi vatan tuyg‘usi kabi odamning ruhida yaralgan bo‘ladi. Odamning dunyoqarashi, tuyg‘ulari, tafakkuri, olamga va odamga munosabati, shubhasiz, o‘z Ona Tilining holati bilan bog‘liq bo‘ladi. Deylik, Alisher Navoiyning “Xamsa” sini oling. Bu asar millat tafakkurini bir necha bosqich darajaga ko‘tarib yubordi. Agar tariximizda “Xamsa” yaratilmaganda tilimizning darajasi bu qadar katta ko‘lamga ega bo‘lolmasdi. Milliy tafakkur taraqqiyoti shu ko‘lam bilan bog‘liq edi. “Alpomish”, “Xamsa” kabi gigant asarlar qancha bo‘shliqlarni to‘ldirganini oddiy gap bilan izohlab bo‘laydi. Buni yurakdan his qilish kerak. 52000 misradan iborat bu asar o‘zbek tilida yaratilishi ma‘naviyatimiz tarixidagi katta hodisa edi. Zero, “Xamsa” yaratishga bardosh berolgan tillar barmoq bilan sanarli. O‘n beshinchi asrga kelib Alisher Navoiyning “Xamsa”si bilan bu til yana qudrat va adabiyat yorlig‘ini olgan edi.

Millat tarixidagi eng buyuk hodisalardan biri Ona Tilimizga davlat tili maqomining berilishi bo‘ldi. Tili e‘tirof etiladigan xalqning o‘zi



e'tirof etiladi. Millatning birinchi ma'naviy shahodatnomasi ham uning tilidir.

Har birimiz o'z tilimizga, bu til mening onam deb qaray bilishimiz kerak. Bolalarimizni ham shunga o'rgataylik. U bizning qalbimiz va tafakkurimizni parvarish qilgani kabi biz ham uni sevishimiz shart. Zero, bu aziz Til aziz Vatanimizning tilidir.

“O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasi 2010 - yil.

1) Maqoladan olgan taassurotlaringizni o'z so'zlaringiz bilan tushuntirib bering.

2) Maqola matnidagi Sizning diqqatingizni jalb qilgan so'zlarning ma'nolari bo'yicha “BBB” jadvalini to'ldiring. So'zlarning ma'nolarini bilib olish uchun “O'zbek tilining izohli lug'ati”dan foydalaning.



Bilar edim	Bilishni xohlayman	Bilib oldim


3) O'zbek tili haqida: xorijliklarning intervyulari, xorijiy davlatlar rahbarlari va jamoat arboblarning nutqidan iqtiboslar to'plang.

4) Halima Xudoyberdievaning quyidagi she'rini yod oling.

«ESKI O'ZBEK TILI»GA YOZUV

Mening tig' tilgan tilim,
Mening kesilgan tilim,
Bahaybat to'g'on tushib,
Yo'li to'silgan tilim.
Qushning unut patiday
To'kilgan unut jonim,
Kitoblarning qatida
Rangi-ro'yi somonim.
«Eski o'zbek tili»mas,
Dedilar eskirgan til,
Qo'rqib chiqarmoqqa sas,

Sandiqlarga kirgan til.
Senda bodom isi bor,
Senda bobom isi bor,
Bolam na rus, na o'zbek,
Arosat belgisi bor.
Besh yuz yillar avvalgi
Xatni men anglayman, bas,
Men bugun aytganimni
Bolam ba'zan tushunmas.
Ko'kragimda dod qotgan,
Yaqinlashar katta xavf,



O'z tilini yo'qotgan
Xalq bo'lmasmi yerdan daf.
Oldga, safarbarlikka
Qanday yaraydi bolam,
Ortidagi jarlikka
Qanday qaraydi bolam.
Uni kim qilib qo'ydim,
Kim bo'ldi og'am-inim,
Tomir-tomirim kuydi,
Sindi bo'g'in-bo'g'inim.

Guli unut xalq bo'ldik,
Yo'li unut xalq bo'ldik,
Ommaviy gunglik sodir,
Tili unut xalq bo'ldik.
Umrinning shom, kechiga
Shu o'y sanchilib turib,
«Lug'atit-turk» ichiga
Yoshim tomchilab turib,
Dedim: – Tig' tilgan tilim,
Mening kesilgan tilim.

4) **Mustaqil ish.** *O'quv loyihasini bajaring.*

Izlanish, muammoli ta'lim, evristik xarakteridagi faoliyat bilan shug'ullaning va quyidagi mavzulardan birini tanlashingiz mumkin:

- O'zbekistonning til xaritasi
- Xorijda o'zbek tilini nima uchun o'rganishadi?
- O'zbek shevalari

Nosir Fozilov qalamiga mansub maqolani o'qib mulohazalaringizni bildiring.

Til bog'lansa... qo'l yecholmas

Yozuvchi bamisoli asalariga o'xshaydi. Yozuvchi olam ko'rib, odam ko'rib, ular bilan muomalada bo'lib, o'zi yashab turgan zamon va zaminning sir-u asrorini odamlar bilan bab-barobar his qilib, uning nozu ne'matlarini tatib ko'rib, topgan gapini ijodiy laboratoriyasida qayta sayqallab, yana odamlarning o'zlariga ulashadi.

Yozuvchi uchun jumla grammatika darsliklarida ta'riflanganiday “Egasi, kesimi va ikkinchi darajali bo'laklari”... o'z o'rnida bo'lgan jumlar, til esa odamlarning bir-birlari bilan muomala qiladigan vosita quroli emas. Yozuvchining gapi boshqacha, ya'ni yozuvchining gapida xarakter, o'y, fikr, istehzo, o'xshatish, jonlantirish va hatto kerak bo'lsa, o'ylatib qo'yish qobiliyati ham bor. Shunday bo'lgandagina badiiy til deymiz.



Bir kuni radio eshitib o'tirsam, bir joyda "tuyaning ayroni" degan so'zni ishlatib yubordi. Shunaqa hafsalam pir bo'ldiki, radioni shartta o'chirdim. Buni qarang-a, tuyaning "ayroni" mish. Tuyaning suti bo'ladi, sutini achitib, qimron (chubot) qilishadi. Chorva va chorvachilik haqidagi eshittirish va materiallarda chunonam chalkashliklar bo'ladiki, o'qib, tepa soching tikka bo'lib ketadi. Ayniqsa, "har bosh ona qo'ydan...", "Ona cho'chqa balchiqda maza qilib ag'anab yotardi..." kabi jummalarni eshitganingda, o'qiganingda, o'zingni qo'yarga joy topolmay qolasan.

Dunyoda "ona"dan ham mo'tabar zot bormi? "Ona" degan so'z ilohiy so'z. Shunaqa ekan, chorva mollarining o'z atamaları turgan bo'lsa-yu, nima uchun "ona"ni yonma-yon qo'yish kerak? Axir xalqda ba'zi jurnalistlar tap tortmay aytayotgan "ona qo'y"ni "sovliq" deyiladi-ku!

Qaysiyam bir yili "Alifbe" kitobini varaqlab turib, "t" harfi qismida biyaga suykalib turgan qulunga ko'zim tushib qoldi: rasmning tagiga: "Mana bu katta toy, mana bunisi kichkina toy", deb sharh berilibdi. Buni o'qigan bola qanday qilib otlarning turini bilsin?! Ularni qanday qilib farqlasin?! Shu munosabat bilan, menda yangi "Alifbe"ni ham bir ko'ray-chi, qani unda o'sha sharhni tuzatganmikin, degan qiziqish paydo bo'ldi. "Alifbe"ni topib varaqlasam, xayriyat, uni tuzatishibdi.

Qarindosh-urug'chilik darajasini bildiruvchi so'zlarimiz ham juda chalkash. Hozir xolaning o'g'lini ham, tog'aning, hatto amakining o'g'lini ham "jiyan" deb ataydigan bo'lishgan. Bizningcha, xolavachcha, amakivachcha, jiyan, bo'la; xola, amaki, tog'a, pochcha kabi so'zlar o'z o'rnida to'g'ri ishlatilgani ma'qul.


«Globallashuv davrida o'zbek tilining mavqeyi» mavzusidagi esselar tanlovi uchun esse yozing.



IV MODUL

TARIX MURABBIY

- *Tarix va zamonamiz*
- *Soʻz tarkibi, soʻz yasalishi*
- *Adabiy oʻqish: A.Qodiriy. “Oʻtgan kunlar”*





Mamlakatimizdek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo'q.

Sh.Mirziyoyev.

TARIX **O'TMISH**

ASR (a – davr, zamon) 1 yuz yillik davr, yuz yil. *Yigirmanchi asr. sht o'tgan asrning so'nggi kuzi qorabuloqqa ochiq chehra bilan keldi. M.Ismoilij, Farg'ona tong otguncha.*

Asr (a. tushdan keyingi, quyosh botishiga yaqin vaqt) 2 Quyosh botish chog'idan 1 soatcha oldingi payt va shu paytda o'qiladigan namoz. *Kechki soat to'rtlar asrdan bir oz ertaroq hukumat askari bilan xalq orasida urush boshlandi. A.Qodiriy, "O'tgan kunlar".*

AJDOD (a – bobo so'zining ko'pligi) 1. Ilgari o'tgan nasl-nasab, ota-bobolar (avlodga nisbatan). *Mustaqilligimiz yillarida Imom al Buxoriy kabi buyuk ajdodlarimizdan az-Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshbanlarning tavvalud sanalarining nishonlanganligi jamyatimizning madaniy-ma'rifiy yuksalishiga ijobiy ta'sir etmoqda.*
2. biol. O'simlik va hayvonlarning qadimgi bo'g'ini.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”





Mavzuga kirish:
Tarixni nima uchun o'rganamiz?

Mavzuni o'rganishda quyidagi so'z va so'z birikmalariga e'tibor qarating:

Ajdod, ashyo, allomalar, eksponat, favqulodda, gilamdo'zlik hasharot, islohot, jalb qilish, jihozlash, me'mor, moziy, muloqot, mo'tadil, noyob, san'at, sovg'abop, taraddut, ta'mirlash, sharh

Ko'ring: Ozodbek Nazarbekov. Mendirman o'sha.

Gapiring: *Qo'shiq matni sizda qanday tuyg'ularni uyg'otdi?*


Ko'ring: "Navoiy" filmidan parcha.

Gapiring: *Filmda qaysi tarixiy shaxslar haqida so'z yuritildi?*

Bilganingdan bilmaganing ko'p!

Shavkat Mirziyoev Islom Karimovning zamonaviy O'zbekiston tarixida tutgan o'rini quyidagicha ta'rifladi:

«Zamonaviy O'zbekistonning tarixi — bu mamlakatimizning haqiqiy mustaqillikka erishish yo'lida Islom Abdug'anievich Karimov rahnamoligida olib borilgan o'ta murakkab va og'ir kurashlar tarixidir. Buyuk Yo'l boshchimiz haqli ravishda demokratik talablar va xalqaro





mezonlarga to'liq javob beradigan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ham asosiy muallifi edilar».

O'qing. *Matnni o'qing.*

Har bir xalq hozirgi darajasiga yetgunga qadar juda katta taraqqiyot bosqichini bosib o'tgan. Bundan o'zbek xalqi ham mustasno emas. Markaziy Osiyo hududlarida azaldan yashab kelgan o'g'uz, qipchoq, uyg'ur, nayman, uyshin, barlos, yuz, qirq, ming kabi ko'plab qabilalar o'zbek xalqining shakllanishida muhim o'rin tutgan.

Darhaqiqat, O'zbekistonning qayeriga borsangiz, darxon, kenagas, jaloyir, bahrin, nayman kabi joy – urug' nomlariga duch kelishingiz mumkin. Bu nomlar shu joylarda muayyan qabila vakillarining yashab o'tganligidan aks sado berib turadi.


Birgina «qipchoq» atamasini olib ko'raylik. Qipchoqmahalla, Qipchoqqishloq, Qipchoqovul, Qipchoqariq singari nomlar har bir tumanda, hatto har bir jamoa xo'jaligida mavjud. Bu nom o'zbek xalqining shakllanishida qipchoq qabilalarining munosib o'rin tutganligidan dalolat berib turibdi. Bu gapni o'g'uz, qorluq-chigil-uyg'ur qabilalariga nisbatan ham aytish mumkin.

Naql qiladilarki: «O'tmishini unutgan, avlod-ajdodlarini bilmagan kimsalarning quldan farqi yo'q». Shunday ekan, xalqimizning kechmishini, uning tarixini puxta bilib olishga intiling. Zotan, kelajak Sizdan shuni talab qilmoqda.

Muhokama qiling: *O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, Baxtiyor HAYDAROVning maqolasi bilan tanishing.*

Sh.M.Mirziyoyev: Mana, Amir Temur bobomiz bilan hammamiz faxrlanamiz. Lekin, xolisona aytaylik, ulug' Sohibqironning Tuzuklar"ini qancha askar o'qigan? – Yoki buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdining hayoti va harbiy mahorati haqida hamma ham yetarli bilimga egami? Vaholanki, bu ajdodlarimizning g'alabalari, strategiya va taktikalarini dunyodagi ko'plab harbiy maktab va akademiyalarda bugun ham o'rganishadi.

Darhaqiqat, dunyo tamadduniga ulkan hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Ammo ochig'ini aytganda, olamshumul zotlar haqidagi bilimlarimiz ko'pincha shu



faxrlanish bilangina tugashi sir emas. Masalan, tibbiyotchilarimiz stolida Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari” turadimi? Harbiylar, umuman rahbar xodimlarning necha foizi “Temur tuzuk-lari”dan xabardor? Astronomlar “Ziji Jadidiy Ko‘ragoniy” asarini xuddi karra jadvalidek bilishadimi? Al-Xorazmiyning “Al jabr val muqobala” asarini, Abu Rayhon Beruniy asarlarini har bir maktab o‘quvchisi yaxshi bilishi uchun nimalar qilishimiz kerak? “Suvorov maktabini Temurbeklar deb o‘zgartirdik. Gap nomda emas, g‘oyada, mafkurada, g‘ururda!

Bog‘chadayoq bolalarimiz Vatanni, tarixni, madhiyani, bayroqni, Amir Temurni, Birinchi Prezidentimizni... yaxshi o‘rganishsin...”

Ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutidagi beshta mustaqil fondlarda jami 25 ming atrofida qo‘lyozmalar, 40 mingdan ortiq toshbosmalar, 5000dan ortiq tarixiy hujjatlar ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylab kelinadi. Ularda jami 300 mingdan ziyod asarlar nusxalari mavjud, deyiladi. Ushbu institut YUNESKOning insoniyat milliy-madaniy va moddiy boyliklari ro‘yxatiga kiritilgan. Ushbu beqiyos boyliklarimiz sinchiklab o‘rganilsa, qanchalab tarixiy filmlar, ko‘rsatuvlar uchun dastur bo‘lishi mumkin! Shu o‘rinda Nobel mukofoti sohibi, fizik olim Pyer Kyurining mana bu so‘zlari esga tushadi: «Musulmonlarning Andalusiyasidan bizga 30 ta kitob qoldi. O‘sha kitoblarni o‘qib, atomni parchalashga erishdik. Agar biz yoqib yuborgan ana o‘sha buyuk Islom sivilizasiyasiga tegishli yarim million kitoblar ham qolganida nima bo‘lardi?

Darhaqiqat, agar o‘sha kitoblarni yoqib yubormaganimizda, hozir fazodagi galaktikalar orasida sayr qilib yurgan bo‘lardik».

Islom tamadduniga ulkan hissa qo‘shgan allomalarning juda ko‘pchiligi bizning ajdodlarimiz – Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, xorazmiylar, nasafiylar, buxoriylar, termiziylar, shoshiylar ekanini nazarda tutsak, G‘arb olimining fikri haqligi hamda biz qanchalik ulkan xazina sohibi ekanimiz ayon bo‘ladi. Masalan, Abu Rayhon Beruniy yozgan asarlar ro‘yxatining o‘ziyoq, agar mayda harflar bilan yozilsa, oltmish varaqlik kitobcha hosil bo‘lar ekan! Buyuk Britaniyaning mashhur Kembrij universitetida Xorazmiy va Ibn Sino stipendiyalari ta’sis etilishi aslo bejiz emas.



Mashqlarni bajaring.

1-mashq. *Bir yoki bir nechta to'g'ri javobni tanlang.*


ma...rum (x) [h]
ta...did [h] (x)
bo'ys...nish (i) [u]
mozi... (i) [y]
arxit...ktura [e] (i)
ref...rendum (i) [e]
mu...toj [h] (x)
e...tiyoj (x) [h]
e...tiros (x) [h]
gard...n [u] (i)
Buyuk...pak yo'li (I) [i]

2-mashq. *Bir yoki bir nechta to'g'ri javobni tanlang.*

d...duksiya [e] (i)
asse...ment (s) [ss]
sul...la (a) [o]
...ojat (x) [h]
gum...n (a) [o]
riy...ziyot [o] (a)
astr...log [o] (a)
muna...im [ji] (j)
hand...sa [o] (a)
mua...ix [rr] (r)

3-mashq. *Oy nomlariga e'tibor qiling, qavs ichidagi so'zni to'g'rilab quyidagi maydonga yozing.*

1. Qobulda qirchillama qish boladigan **dalv – may** oyida ham Dehlida bahor paytidagiday mayin, atrof ko'm-ko'k edi. 2. **Savr – sentabr** oyi yomg'irli ob-havosi boshqa oylarga nisbatan ajralib turadi. 3. O'zbekiston terma jamoasi **sunbula – mart** oyi oxirida Turkiyada uchrashuv o'tkazadi. 4. **Hamal – yanvar** oyi O'zbekiston xalqi uchun bayramlarga boy oy hisoblanadi.



4-mashq. Noto'g'ri so'zni topib, to'g'rilab quyidagi maydonga yozing.

O'z tarixi mabaynida Xivo ancha qiyin kunlarni boshidan keshiradi, ammo doimo o'zini tiklap olgan bu shahar juda ham boy va ajabtavur qadimiy asori atiqalar joylashgan joydir.

5- mashq. Ko'p ma'noli so'zdan yangi so'z yasalganda yasama so'z ham ko'p ma'noli bo'lishi mumkin. **Balandlamoq** so'zi qanday ma'no ifodalamoqda? Qavs ichiga mos javobni tanlang.

Ko'tarma ko'zga ko'rinib, suv balandlab (...) bordi (I.Rahim).

kuchaymoq

ortmoq

yuqorilashmoq

qimmatlashmoq

83

Hamsuhbatim gapini shivirlab boshlasa ham, bir zumda ovozi balandlab (...) ketdi ("Mushtum"dan).

yuqorilashmoq

kuchaymoq

ortmoq

qimmatlashmoq

Narx-navo ancha balandlab (...) qoldi (So'zlashuvdan).

yuqorilashmoq

kuchaymoq

ortmoq

qimmatlashmoq

6-mashq. *Bo'sh o'ringa mos qo'shma so'zni qo'ying.*

Odamlarni hasharga aytib qo'ydim. Belida ... bori kelaveradi.

(O'.Hoshimov)

sheryurak

belbog'i

quvvati

kuchi

Sanam gapning tarzidan onasining kampir bilan ... ekanini anglagan edi.

(Sh.Xolmurzaev)

hamsuhbat

hamfikir

fikrdosh

7-mashq. *Qolipga mos gapni tanlang. To'ldiruvchi+kesim, to'ldiruvchi+kesim*

Baxshining qadrini xalq bilar,

Xalqning qadrini mard bilar. (*O'zbek xalq maqoli*)

Do'stga zor qilma, nomardga – muhtoj (*O'zbek xalq maqoli*)

8-mashq. *Qolipga mos gapni aniqlang.*
To'ldiruvchi+aniqlovchi+ aniqlovchi + aniqlovchi +aniqlovchi+ kesim

Buyuk ipak yo'liga o'zaro hamkorlik, hamjihatlik, do'stlik asoslaridan biri sifatida qaraganlar. (e-tarix.uz)

Karvonlarning bir qismi Samarqanddan chiqib, Baqtriyaga borar va Qashqadaryo vodiysidan o'tib Termiz shahriga kelar edi... (e-tarix.uz)

9- mashq. *Bo'sh o'ringa ibora bilan javob yozing.*

Toshkentdagi istiqlol davrida qurilgan inshootlarni ko'rib,

[og'zim ochilib qoldi]

Muhokama qiling: *Quyidagi matn bilan tanishing.*

SAMARQAND

Bir necha asrlar mobaynida Samarqand Movorounnahr poytaxti va markazi bo'lib kelgan. Samarqand eramizdan avvalgi VIII asrda tashkil topgan bo'lib, hozirda u yurtimizning san'at va moziy uyg'unlashgan go'shalaridan biri hisoblanadi. Uni umrida bir bor ko'rgan inson hech qachon yodidan chiqarmaydi. Tarixda Samarqand Marokanda, So'g'diyona nomlari bilan atalgan. "Avesto"da yozilishicha Samarqand So'g'd davlatining poytaxti sifatida ta'kidlangan. Yunon va rim tarixchilari yozib qoldirgan yodgorliklarida u birinchi bor Marokanda nomi bilan tilga olinadi. 1220- yilda mo'g'ullar tomonidan butunlay yuk qilingan shahar vaqt o'tishi bilan yana o'zini tiklab oladi va qayta tug'iladi. Uning gullab yashnashida Temuriylar davri alohida o'rin tutadi. Amir Temur bu shaharni Movorounnaxrdagi ilm fan, tijorat, me'morchilik va madaniyat rivojlangan eng katta shaharga aylatiradi.

Samarqand shahri asrlar davomida Buyuk Ipak Yo'lining yirik savdo markazi sifatida tilga olingan. Samarqand shahrining tarixiy va madaniy qiymatini hisobga olgan holda O'zbekiston hukumati ushbu qadimiy va hamisha navqiron shaharning tarixiy va madaniy yodgorliklarini saqlashga alohida e'tibor qaratmoqda. Xususan, 2007 yilda YuNESKO boshchiligidagi bir qator xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda nishonlangan Samarqand shahrining 2750 yilligi oldidan Shohi Zinda majmui, Hazrat Xizr masjidini qayta tiklash bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borildi.



Shaharning markazida joylashgan Registon maydoni o'zining go'zalligi bilan barchani e'tiborini tortadi. Registon maydoni o'rta asrlarda shahar markazi vazifasini o'tagan bo'lsa, hozirda u uch me'morchilik ansanblidan tashkil topgan kompozitsiya hiosblanadi. U erda joylashgan uch madrasa: Ulug'bek madrasasi, Tilla Qori madrasasi va Sherdor madrasalari uzining alohida yaratilish tarixlariga ega. Go'ri Amir maqbarasida esa buyuk bobakalonimiz Amir Temur oxirgi qo'nim topgan joy hisoblanadi. Bibi xonim madrasasi esa o'zinign betakororligi va mem'orchilik namunalari bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Yozing: *Xiva, Buxoro va shu kabi qadimiy shaharlar haqida kichik matn tayyorlang.*

Samarqand

Sifat

Fe'l

Gap

Sinonim

SO'Z TARKIBI, SO'Z YASALISHI


So'z tarkibi asos va qo'shimchalardan iborat bo'ladi.

O'zbek tili lug'at tarkibidagi (shuningdek nutqimizda qo'llanadigan) so'zlar dastlab tub va yasama so'zlarga bo'linadi.

Masalan: paxta – tub so'z, paxtakor esa yasama so'z; bug'doy, rang so'zlari alohida-alohida olinganda tub so'zlar, ammo bug'doyrang (rangning bir turi) – yasama so'z; tog' – tub so'z, ammo tog'ma-tog' – yasama so'z; besh, o'n tub so'z; o'n besh yasama so'z; qo'l so'zi alohida tub so'z sanalsa, qo'l qo'ydi yaxlit holda yasama so'z hisoblanadi.

So'z yasovchi affiksi bo'lmagan so'zlar tub so'z deyiladi.

Ma'lum bir so'z negizida ma'no jihatidan (ba'zan ham ma'no, ham grammatik jihatdan) undan farqlaydigan yangi so'z (yangi leksik birlik)



hosil qilish soʻz yasash deyiladi, qiyoslang: ish – ishchan, jon – jonlandi, oq – oqla, gʻalla – gʻallazor.

Hozirgi oʻzbek tilida soʻz yasashning asosan ikki usuli ajratiladi:

1) affiksatsiya (yoki morfologik) usuli;

2) kompozitsiya (yoki sintaktik) usuli;

Oʻzakka soʻz yasovchi qoʻshimcha qoʻshish orqali yangi leksik birlik hosil qilish affiksatsiya usuli bilan soʻz yasashdir.

Masalan: *mevali* daraxt, *serhosil* yer kabi birikmalardagi *mevali*, *serhosil* yasama soʻzlar boʻlib, ular *meva* oʻzagiga **-li**, *hosil* oʻzagiga **ser-** affikslarini qoʻshish orqali yasalgan soʻzlardir.

Ikki va undan ortiq soʻz formalarining (koʻpincha mustaqil soʻzlarning qoʻshilib (yoki tizilib) bir soʻzga aylanishi kompozitsiya usuli bilan soʻz yasashdir.

Masalan: *belbogʻ*, *oshqozon*, *mehmondoʻst*, *soʻz boshi*, *bir yuz oʻn*, *ahd qilmoq*, *bir oz* va boshqalar.

Juftlik modeli (qolipi)da qoʻllangan ayrim soʻzlar ham yasama soʻz sanaladi, masalan: *yildan-yilga*, *zoʻr-bazoʻr*, *uyma-uy* kabi.

1-mashq. *Moslikni aniqlang.*

Tushunchalar	Izoh
Morfemika	Soʻzning eng kichik maʼnoli qismlari haqidagi taʼlimot.
Oʻzak morfema	Soʻzning leksik maʼnosini bildiruvchi asosiy qism.



	Qo'shimchalar o'zak bilan birgalikda qo'llanadi.
Affiksial morfema	Mustaqil qo'llanmaydi. O'zakka qo'shib kelib, grammatik yoki leksik ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi.
Shakl yasovchilar	Yangi so'z yasamaydi, balki so'zga grammatik ma'no qo'shadi.

2-mashq. Sinonim qo'shimchalarni bilib oling.

Ko'makchi – ko'makdosh, so'msachi – somsapaz, adabiyotchi – adabiyotshunos, chorvachi – chorvador, suratchi – suratkash, xizmatchi – xizmatkor, sutli – sersut, serharakat – harakatchan, beg'ubor – g'uborsiz, sezgir – sezuvchan, bilag'on – bilarmon, notinch – betinch, mardona – mardlarcha, tiriklay – tirikligicha.



O'TGAN KUNLAR


Abdulla Qodiriy

ISTIQLOL DARDI

...Hamma ish joyida, lekin bir narsagina ko'ngilning ingichka yerini jarohatlaydi. Azizbek ko'ziga hozir yorug' dunyo qorong'u, bu qorong'uliq ichida boyog'i shirin xayollar, ishlatiladigan toj-u taxtlar va boshqalar ko'rinmay qoldilar: yetmish kunlik qipchoq urushi ming turlik yo'llar bilan yig'ilg'an xazinani barbod bergan, xazina qipchoqlar ustidan g'alaba va istiqlol mastliklari yo'lida qurig'an, fuqaroning jon otib, qipchoqlarni qirib yo'g'ganlari uchun in'omlarg'a, ehsonlarga va oziq-ovqatlarg'a qurbon qiling'an.

Mana shu edi Azizbekning ko'z o'nglarini qorong'ulatadurg'an jarohat!

Bu ishning kengashiga emas, berilgan qarorni amalga oshirib berishlik uchun Yusufbek hojiga yigit yuborib, hozir uni to'rt ko'z bilan kutub o'lturar edi. Nihoyat yarim soatlik bir kutishdan so'ng Yusufbek hoji eshik ostidan ko'rindi. Azizbek odatiy qarshilash yonig'a bir navozish(marhamat) ham



ilova qilib, hojiga yuqoridan joy ko'rsatdi. Bu favqulodda navozish sababini o'ylamoqqa hojining vaqti yo'q, chunki o'zining qayg'usi o'ylashqa, yetarlikdir. Ko'zining oqu-qorasi bo'lg'an Otabekning holi nima kechdi, qorong'u zindonlarda, rutubatliq, zah yer ostlarida ochlikdan, tashnalikdan, sovuqlikdan aziz ko'kragini yerga berib, jon berdimikin?—Zolim beklar, qonxo'r hokimlar, rahmsiz jallodlar, mash'um dorlar va qo'rqqoq xalqlar orasida kekxa otasini ko'ralmay dunyodan ketdimikin?

— Mana shunday ming turlik vasvasalar ichida qarshisidag'i Azizbekni ham unutmoqda edi. Azizbek bo'lsa, "javohir qadalg'an tojlar, oltin taxtlar, nozanin parivashlar, dong'dor mahramlar" haqidag'ina o'ylar edi.

— Hoji, — dedi Azizbek so'z ochib, — manim sizni o'rdag'a chaqirg'an sababini albatta bilmagandirsiz?

Yusufbek hoji xayolidan ko'z ochdi:

— Taqsir... chaqirishingiz, albatta fuqaroning tinchlig'i, raoyoning(hukmdorning qo'l ostidagi xalq) rohati, hukumatning barqaror turmog'i uchundir.

Hojining bu so'zi Azizbekni yashindek urdi. Uning ko'z o'nglari qorong'ilanib, haligi shirin xayollar tag'i qorong'ilikda yashirindilar. Ul ortiqcha o'ng'aysizlandi va tilar-tilamas:

— Shundog'...— dedi va biroz o'ylanib qolgandan keyin: — yetmish kunlik qamal bilan xazinamiz juda g'ariblandi, hatto shu keyingi kunlarda sipohlarning ozig'i uchun qiynalib qoldik. Mana shu to'g'rilarda sizni kengashka chaqirg'an edim., — dedi.

— Ma'qul, taqsir.

— Men bu to'g'rida bir qarorg'a ham kelib qo'ydim.

— Qarorlari muborak bo'lg'ay.

— Qarorim shundan iboratdirkim, ertadan boshlab yurtka o'ttiz ikki tangadan soliq sochasiz.

Yusufbek hoji yurt besaranjonlig'i va o'g'ul qayg'usi bilan asabiylashkan edi. Azizbekning bu ablahona qaroriga qarshi qizishdi. Azizbekning bu zolimona buyrug'ig'a qarshi qattig' so'zlar aytishka o'ylasa ham achchig'ini qanday kishiga aytilishini o'ylab, o'zini biroz yig'di.

Taqsir, amringizga qarshi tushadig'an joyim yo'q, — dedi, — lekin shunisini biroz o'ylamoq kerakki, yurt yetmish kun qamal kechirdi. Onadan tug'ma azoblar, ochliqlar o'tkardi va o'tkarmakda. Menga qolsa bu kunlarda o'ttuz ikki tanga emas, o'ttuz ikki qora pul solish ham og'irdir. Yurt besh



- o‘n kun orqa – o‘ngini olsin, so‘ngra... – Hoji so‘zini tugata olmadi. Hojining ters so‘ziga chidalmagan Azizbek vahshiylarcha hayqirdi:
- Nima deysan?!

Xoji ishning bunchalik yomong‘a ketishini o‘ylamag‘an edi. Shu daqiqada ishning oldini olmasa, endi gap faqat Azizbekning jallod chaqirishig‘a kelib qoldi:

– Taqsir, siz yig‘, der ekansiz ertaga emas, bu kundanoq yig‘a boshlayman. Yurt qani bermasin-chi? Faqat menga sizning buyrug‘ingiz kifoyadir.

– Bu so‘z sihr kabi ta’sir qildi, dahlizda turg‘uchi yigit orqaliq jallod chaqirishg‘a jo‘blangan tili o‘z zarariga harakatlandi:

– O‘rda begiga ayt, hojiga bir kimxob to‘n chiqarib kiydirsin! – dedi.

1) Asar olgan taassurotlaringizni o‘z so‘zlaringiz bilan tushuntirib bering.

2) Matndagi Sizning diqqatingizni jalb qilgan so‘zlarning ma’nolari bo‘yicha “BBB” jadvalini to‘ldiring. So‘zlarning ma’nolarini bilib olish uchun “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan foydalaning.



Bilar edim	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Bilganingdan bilmaganing ko‘p!

“Xalqimizning ko‘p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining oynasi, xalqning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga, munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, ahloqiy – estetik va falsafiy qarashlari, donishmandligini aks ettirgan maqollar qadim-qadimdan yozma va og‘zaki adabiyotda ham, og‘zaki nuqtda ham qo‘llanib kelgan va hozir ham shunday. Biz xalq maqollari bilan tanishish orqali ulardan Vatan, xalq, ona, ilm, g‘urur kabi muqaddas tushunchalar ekanligini bilib olamiz Xalqimizning o‘tmishi bilan, [urf-odatlari](#), kasb-kori bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lamiz” Axir yillar davomida tajribadan o‘tgan, badiiy jihatdan mukammallashib hikmatli so‘zlar



majmuasiga aylangan har bir maqolning o'zi biz uchun bebaho darslik va eng yaqin maslahatgo'y emasmi? Birgina "Yeridan ayrilgan yetti yil yig'lar, Yurtidan ayrilgan o'lguncha yig'lar", degan xalq maqolining o'zidaolam ma'no bor. Bu maqolni diliga jo qilgan inson hech qachon o'z vatanini tark etmaydi, el-yurtiga xiyonat qilmaydi, o'z yurtini ko'z qorachig'idek ardoqlaydi. Bu maqollarning naqadar katta tarbiyaviy kuchga ega ekanligining yorqin ifodasidir.

Bilganingdan bilmaganing ko'p!

Bizning o'z harbiy atamalarimiz bo'lgan. Qo'shin, to'p, to'pchi, to'pchiboshi, bahodir, turo, buljor (tayinlangan muddatda qo'shin yig'iladigan yer), qo'l (markaz), o'ng qo'l, chap qo'l, mang'lay, ug'ruq (oboz) va boshqalar. Ko'pchilik o'rganib qolgan parol ajdodlarimiz tilida o'ron deyilgani ham qiziqish uyg'otish tabiiy. Qisqasi, davlat rahbarimizning O'zbekiston tarixini puxta egallash borasidagi oqilona va uzoqni ko'zlangan topshiriqlarini bajarishga qattiq kirishsak, yoshlarimizda ham, yurt himoyachilarida ham tarixiy tafakkur paydo bo'ladi. Tarixiy tafakkur esa til tafakkuri bilan chambarchasdir.

3) Mustaqil ish. O'quv loyihasini bajaring.

«O'zbekiston tarixi» telekanalini tomosha qilasizmi? Undagi ko'rsatuvlaridan olgan taassurotlaringizni bayon qiling.



5- MODUL. ZIYORAT VA TURIZM. MUZEYLAR

Madaniy maskanlar

Morfologiya

Adabiy o'qish: O'.Hoshimov. "Daftar hoshiyasidagi bitiklar"

MADANIYAT (a. – sivilizatsiya) 1. Jamiyatni ishlab chiqarish, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmuyi. *Bugun Toshkent – yirik sanoat, fan va madaniyat markazlaridan biri.* 1. Biror ijtimoiy guruh, sinf yoki xalqning ma'lum davrda qo'lga kiritgan yutuqlari darajasi. *Musiqqa madanyati, nutq madanyati.*

3. O'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik, ma'rifat. *Madanyatdan orqada qolmoq. Madanyatga erishmoq.*

4. Madanyatli shaxs talablariga javob beruvchi sharoit. *Deputatning xalq farovonligini oshirish, turmush madaniyatini yuksaltirish borasidagi ishlaridan mehnatkashlar mamnun.* (Gazetadan).

5. O'simlik yoki ekinning turlarini yetkazish, o'stirish, yetishtirish. *Xususan, dehqonchilik madanyati bobida ilgarilab ketdi ular.* N.Hayitqulov, "Yer tafti".

SAN'AT

OBIDA



Mavzuga kirish:

Yurgan – daryo, o‘tirgan – bo‘yra, deganda nimani tushunasiz?

Mavzuni o‘rganishda quyidagi so‘z va so‘z birikmalariga e‘tibor qarating:

Ziyorat, turizm, sayohat, obida, teatr, muzey, qadamjo, musiqa, sahna, tomosha, kutubxona, ekoturizm

Ko‘rish: Videotasvir. “Omonxona”.

Fikrlash. Intervyu sizda qanday hissiyot paydo qildi? Siz yashaydigan joyda qanday go‘zal maskanlar bor? Ularni ta’riflab berung?

O‘qing:

I.V. Savitskiy nomidagi Davlat san’at muzeyi

Qoraqalpoq xalqining faxri bo‘lgan ma’rifat o‘choqlaridan biri I.V.Savitskiy nomidagi Davlat san’at muzeyi 1966-yili O‘zbekiston FA Qoraqalpog‘iston filialining xalq amaliy san’ati bo‘limi asosida tashkil etilgan. 1984-yildan boshlab muzeyga uning asoschisi I.V.Savitskiyning nomi berilgan. U butun umri davomida Orolbo‘yi mintaqasida olib borgan ijodiy izlanishlari davomida ota-bobolarimizdan qolgan moddiy va ma’naviy boyliklarni asrab-avaylash, ularni kelajak avlodga bus-butun yetkazish, san’at va madaniyatimizni rivojlantirishga munosib hissa qo‘shgan.

Muzeyda bugungi kunda 95 mingdan ortiq noyob eksponatlar saqlanmoqda. Ular orasida xalq ijodi va san’ati, madaniyatiga oid qimmatbaho yodgorliklar, O‘rta asrlarga taalluqli haykaltaroshlik, zargarlik, kashtachilik namunalari borki, shu bois, dunyo xalqlari tomonidan “Qum qa’ridagi gavhar“, “Sahrodagi Luvr” deb baholanmoqda.

“Dunyoning eng yaxshi muzeylaridan biri” deb tan olingan bu madaniyat maskaniga har yili olti-yetti minglab xorijlik sayyohlar tashrif buyurib, boy tariximiz bilan tanishmoqda.



Muzeyda oltita bo'lim faoliyat ko'rsatmoqda:

1. Tasviriy san'at bo'limi;
2. Arxeologiya bo'limi;
3. Ommaviy-ma'rifiy bo'lim;
4. Xalq amaliy san'at bo'limi;
5. Ta'mirlash bo'limi;
6. Hisobga olish va saqlash bo'limi.

2015-yil 18-may – Xalqaro muzeylar kuni munosabati bilan Toshkent shahrida o'tkazilgan tadbirda muzey “Yilning eng yaxshi muzeyi” nominatsiyasiga ega bo'ldi. Yana shu yili Igor Vitalyevich Savitskiy tavalludining 100 yilligi keng nishonlandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 16-sentabrdagi “2012-2013-yillari I.V.Savitskiy nomidagi qoraqalpoq davlat san'at muzeyining 2-navbatdagi qurilishini loyihalash to'g'risi”dagi qaroriga binoan muzeyning ikkinchi va uchinchi binolarini qurish uchun 53 milliard so'mlik mablag ajratildi. Hozirgi kunda muzeyning yangi binolarini qurish ishlari yakunlanib, ekspozitsiya zallarini jihozlash, zamonaviy asbob-uskanalar bilan bezash, tevarak-atrofini obodonlashtirish ishlari yakuniga yetish arafasida.


Mashqlarni bajaring.

1-mashq. *Bir yoki bir nechta to'g'ri javobni tanlang.*

me...mor [ʼ] ()
 mozi... (i) [y]
 san...at (a) [ʼ]
 ash...yo (ʼ) [ʼ]
 noyo... [b](p)
 gilamd...zlik (u) [oʼ]
 taraddu... [d](t)
 sovgʻabo... (b) [p]
 jal... qilish (p) [b]
 ta...mirlash [ʼ] ()

2-mashq. *Bir yoki bir nechta to'g'ri javobni tanlang.*

eksp...nat [o](a)



...asharot [h](x)
favqulod...a [d](t)
ajdo... [d](t)
shar... [h](x)
isl...hot [o](a)
mul...q ...t [o](a)
a...omalar [ll](l)
ji...ozlash (x) [h]
m...tadil [o'](u)

3-mashq. Matnda 4 ta so'z xato yozilgan. Ularni to'g'rilab yozing.

Muzey fontidagi mavjud ashyo va kallektsiyalarni saqlashning o'ziga xos meyoriy tartib va talabi bor.

Xatosi	To'grisi
Fontidagi	Fondidagi
Kallektsiyalarni	kolleksiyalarni
Meyoriy	me'yoriy
Tartip	Tartib

4-mashq. Matnda 5 ta so'z xato yozilgan. Ularni to'g'rilab yozing.

Muzey kurgazmalari orqali moziiga sayoxat qilasiz. O'zida katta tarixni mujasam etgan muzeydagi osori atiqalarning eng qadimgisi antik davrga, aniqrog'i, eramizgacha bo'lgan I asr va eramizning I – XIII asrlarga taluqlidir.

Xatosi	To'grisi
Kurgazmalari	ko'rgazmalari
Moziiga	Moziyga
Sayoxat	Sayohat
Mujasam	Mujassam
osori atiqalarning	osori-atiqalarning
Taluqlidir	taalluqlidir




5-mashq. Moslikni aniqlang.

Tushunchalar	izoh
O'zbekiston davlat tarixi muzeyi	120 yildan ortiq tarixga ega, eng ulkan va ko'hna ilmiy-ma'rifiy muassasa.
Temuriylar tarixi davlat muzeyi	1996- yil 18- oktabrda sohibqiron tavalludining 660 yilligi munosabati bilan bunyod etilgan.
Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyi	Qoraqalpoq xalqi amaliy san'ati asarlari negizida 1966- yilda tashkil topgan.
O'zbekiston amaliy san'at muzeyi	XIX asrning birinchi yarimidan hozirgi kungacha bo'lgan davrni qamrab olgan bebaho san'at durdonalari yig'ilgan.
O'zbekiston davlat san'at muziysi	1974-yilda qurilgan. 1997-yilda ta'mirlangan. Muzey ekspozitsiyasi san'at janri va turlariga ajratilgan.

6- mashq. Moslikni aniqlang.

Tushunchalar	Izoh
Morfologiya	So'z turkumlarini va grammatik ma'no va shakllarni o'rganadi.
Mustaqil so'zlar	Alohida lug'aviy ma'no anglatuvchi so'zlardir.
Yordamchi so'zlar	Lug'aviy ma'no anglatmaydigan, mustaqil so'zlarga qo'shib, ularga qo'shimcha ma'no beruvchi vositalardir
Ot	Egalik, kelishik, ko'plik shakllari bilan o'zgaradi
Sifat	Daraja va kuchaytirish shakllariga ega



Son	Tartib, to'lda, taxmin, taqsim kabi grammatik shakllarga ega
Olmosh	Ayrim so'z turkumlari, so'z birikmalari, gaplar o'rnida almashinib keluvchi so'zlar
Fe'l	Shaxs-son, zamon, mayl, nisbat, bo'lishli, bo'lishsizlik shakllariga ega
Ravish	O'zgarmaslik xususiyatiga ega. Daraja shakli mavjud

7-mashq. *Bo'sh o'ringa ot va sifat so'z turkumiga oid mos so'zlarni qo'ying.*

Bilim – ... keltirar.

baxt

sog'liq

xotirjamlik

boylik

2. Bilimsiz kishiga ish yo'q, ... kishiga osh yo'q.

ishsiz

bekorchi

dangasa

landavur

8-mashq. *Bo'sh o'ringa son so'z turkumiga oid so'zlarning mosini qo'ying.*

97

Bilagi zo'r ... yiqar, bilimi zo'r ... yiqar.

ikkini

birni

yuzni

mingni



... birov beradi, ... mehnat.

ikkini

birni

yuzni

mingni

9- mashq. Olmoshlar nimaga ishora qilayotganligini aniqlang.

Bizga qalin do'st kitob, u goyo nurli oftob.

sifat

fe'l

so'z birikmasi

ot

gap

O'zbekistonimiz jannatmonand yurt. Siz ana shu makonni yanada gullatayotgan insonlar sog'ligining posbonisiz.

Sifat, ot

fe'l

ot

gap

10- mashq. Bo'sh o'ringa mos olmoshni yozing.

... ishi to'g'ri bo'lsa, u doim bexavotir bo'ladi.

[Kimning]

Nimani qilsang xor, ... bo'lasan zor.

[o'shanga]

Chegara



Odamzod nima uchun kaftdek hovlisiga gul ekadi? Undan ko'ra sholg'om eksa, qozoniga tushadi-ku.

Odamzod nima uchun bulbul chax-chaxini eshitganda entikib ketadi? Undan ko'ra bulbulni sho'rvaga solib pishirsa, nafsini qondiradi-ku.

Odamzod nima uchun osmonda charaqlab yotgan yulduzlarni ko'rib, ko'ngli zavqqa to'ladi? Yulduzlar uning hamyonidagi tillalar emas-ku.

Odamzod nima uchun kitob o'qiyotib, suyukli qahramoni o'lib qolsa yig'laydi? Uni yozuvchi "ichidan to'qib chiqargan"ini biladi-ku?

Odamzod nima uchun o'zga yurtlarga borib behisob mol-dunyo orttirsa-yu, ittifoqo bolaligi kechgan kulbasi tushiga kirib qolsa, tuni bilan yig'lab chiqadi? Axir u shohona qasrda yashaydi-ku.

Odamzod nima uchun bolasining boshida alla aytadi? Go'dak alla eshitmasa uxlamaydimi?

Odamzod nima uchun nevarasini yetaklab necha zamon avval o'tib ketgan bobosining qabrini ziyorat qiladi? Marhumlar ularni ko'rmaydi-ku?

Gap shundaki, Odamzodni hayvonotdan ajratib turadigan chegara bor. Bu chegaraning nomi Ma'naviyat deb ataladi!

(O'tkir Hoshimov)

Hamkorlikda ishlang

ADABIYOT MUZEYI


1968-yilning kuzida Toshkentda Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi ochildi. Bu muzey xalqimizning buyuk shoirga, uning ijodiga bo'lgan muhabbatiga yorqin misoldir.

Muzey sahnidagi ko'kalamzor, gulzor bog'da Alisher Navoiy haykali o'rnatilgan. U marmar hovuzga qarab turibdi. Hovuz atrofida taniqli ilodkorlarning byustlari qo'yilgan.

To'rt qavatli ko'rkam binoga kiriladigan ikki katta eshik g'oyat go'zal ishlangan.

Muzeyning "Navoiy Astrabodda", "Navoiy Hirotda", "Navoiy Samarqandda", "Navoiy lirikasi" deb nomlangan zallarida Navoiyning buyukligi o'z asarlarining o'lmasligi aks ettirilgan. Umuman, Navoiy hamda unga zamondosh shoir va olimlarning ijodiy me'rosini yoritish uchun muzeyda o'n uchta bo'lim ajratilgan.

Navoiydan keyingi ijodkorlar va ularning asarlarini yoritishga bag'ishlangan materiallar 22 bo'limda to'la aks ettirilgan.



XX asr o'zbek adabiyotiga oid noyob materiallarni binoning to'rtinchi qavatidagi 13-bo'limda ko'rish mumkin. Muzey xodimlari jahon kutubxonalarida saqlanayotgan o'zbek adabiy merosini yig'ish va ularni adabiyot ixlosmandlariga taqdim etish borasida ko'p yaxshi ishlarni amalga oshirmoqdalar.

Adabiyot muzeyi boshqa muzeylar kabi doimo tashrifchilar bilan gavjum. Xalqimiz unda jamlangan boy materiallarni qiziqib o'rganadi va ular bilan haqli ravishda faxrlanadi.

1-topshiriq. *Rasmni kuzating. Bu qaysi bino ekanligini aniqlang. Binoning yaratilishi va shu maskan haqida suhbatlashing.*




2-topshiriq. *Mashhur ma'rifatparvarlarning ijodi bo'yicha quyidagi rolli vaziyatni ijro eting.*

– Assalomu alaykum.
– Vaalaykum assalom. Keling, xizmat. Sizga qanday kitoblar kerak?
– Bizga mashhur o'zbek ma'rifatparvarlarining asarlari bilan tanishib chiqish topshirilgan edi. Kutubxonada qaysi ma'rifatparvarlarning asarlari bor?

– Kutubxonada A.Navoiyning “Xamsa” dostoni, “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari va ruboiylar to‘plami, Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari, Abdurauf Fitratning “Abulfayzxon” asari, Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” romanlari bor.

– Juda yaxshi. Agar mumkin bo‘lsa, shu kitoblarning barchasini bersangiz.

– Yaxshi, lekin bu kitoblarning beshtasini o‘n kun muddatga beraman. Chunki kutubxonamizning qonun-qoidalari shunday.



– Mayli unda menga Alisher Navoiyning “Xamsa” dostoni, Boburning “Boburnoma”si, Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari, Fitratning “Abulfayzxon” dramasi va Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” romanini bersangiz.

– Marhamat, mana siz so‘ragan kitoblar.

– Rahmat, xayr, sog‘ bo‘ling.

3-topshiriq. *Matn bilan tanishing. Siz bo‘lgan tarixiy joylar, muzeylar haqida og‘zaki ma‘lumot bering.*

Maysazordagi teatr

Teatr uzoq taraqqiyot davrini boshdan kechirgan. Drama g‘oyasining o‘zi dinda ibtido topgan. Xitoyliklarda ilk tomoshalar ibodatxona raqslari ko‘rinishida bo‘lgan. Keyinchalik maxsus maydonchalardan foydalana boshlashgan. Bular pardalarsiz, chiroqlarsiz oddiy sahnalar bo‘lib, faqat tomi bor edi, xolos.

Yaponlarda ham qadimgi davrlarda teatr bo‘lgan. Tomoshalarning bu turi “no” deb atalgan. Ular ham ibodatxona ko‘rinishidagi teatrlarga borishgan.

Qadimgi Hindistonda dramatik tomoshalar orqa fonida matosi bor maxsus qurilgan maydonchalarda qo‘yilgan.

Qadimgi yunonlar teatr rivoji uchun ko‘p ishlar qilishgan. Tomoshabinlar tepalik yonbag‘irlarda o‘tirishgan. Pyesa voqealari esa maysazorda yuz bergan. ”Skane” deb atalgan maxsus imoratdan aktyorlarning chiqishi, kiyinishi, dekoratsiyalar uchun foydalanishgan.

Elizaveta I boshqaruvi davrida Angliyada teatr ancha rivojlandi. 1576-yilda aktyor Jeyms Berbij tomoshalar uchun birinchi maxsus binoni qurdi. U oddiygina “Teatr” deb atalgan. Ko‘p o‘tmay boshqa teatrlar qurildi. Ular orasida “Globus” bo‘lib, unda Shekspirning ko‘plab pyesalari qo‘yildi. Hozirgi zamonaviy teatrga Angliyadagi ana shu ilk teatr orqali asos solingan.

(“Tasvir” gazetasidan)

4-topshiriq. *Shahringizda joylashgan teatrlar haqida ma‘lumot to‘plang. Ularda namoyish qilinayotgan sahna asarlari ma‘naviyatimizni boyitishga qay darajada xizmat qilayotganligi haqida suhbatlashing.*



MORFOLOGIYA

Grammatika soʻzlarning gapda oʻzgarishi va ularning oʻzaro birikib, soʻz birikmasi, gap hosil qilishi haqidagi qoidalar toʻplamidir.

Grammatika 2 qismdan: morfologiya va sintaksisdan iborat. Morfologiyada soʻz turkumlari va ularga xos boʻlgan shakllar haqida bahs, yuritilsa, sintaksisda soʻzlarning bir-biri bilan bogʻlanib, gap soʻz birikmasi yuzaga kelishi tekshiriladi.

Leksema yoki leksik soʻz maʼno va ifoda birligidan iborat boʻlganidek, masalan: «kitob» soʻzi -1) oʻqish quroli, 2) k, i, t, o, b tovushlaridan iborat, soʻz shakl yaʼni grammatik soʻz ham grammatik maʼno va grammatik ifoda birligidan, boshqacha aytganda grammatik maʼno va shakl birligidan iboratdir. Jumladan, «oʻqish quroli» tushunchasi anglatuvchi kitob soʻzi ot, birlik son, bosh kelishik maʼnosini ham bildiradi. Bunda kitob soʻzining «oʻqish quroli» tushunchasini ifodalashi uning leksik maʼnosi sanaladi va shu soʻzning otga mansubligi, birlik son va bosh kelishikda ekani uning grammatik maʼnosi hisoblanadi.


Soʻzning grammatik maʼnosi uning leksik maʼnosi bilan belgilanmaydi. Masalan, suv, havo, shamol, bulut kabi soʻzlarning leksik maʼnolari turlicha, ammo grammatik maʼnolari bir xil, yaʼni ularning barchasi birlikdagi, bosh kelishikdagi otlardir.

Va aksincha, birgina leksik soʻz, leksema turli shakllarda qoʻllanib, har xil grammatik maʼnoni ifodalaydi. Masalan, oʻqimoq feʼlining tuslanishli shakllari quyidagi grammatik maʼnolarni anglatishi mumkin: oʻqiyapman – hozirgi zamon davom feʼlining I shaxs birlik maʼnosi, oʻqiyapsan – hozirgi zamon davom feʼlining II shaxs birlik maʼnosi, oʻqiyapti – hozirgi zamon davom feʼlining III shaxs, birlik maʼnosi.

Shunday qilib, soʻzning grammatik maʼnosi uning leksik maʼnosidan farq qiladi, ammo ular bir-biri bilan zich bogʻlangan boʻladi. Demak, soʻzning maʼlum bir turkumga mansubligini koʻrsatuvchi hamda uning biror shaklidan kelib chiquvchi maʼnosi soʻzning grammatik maʼnosi deyiladi.

Oʻzbek tilida soʻzning grammatik maʼnosi quyidagi vosita va usullar orqali ifodalanadi:

1. Affiksatsiya usuli. Bunda grammatik maʼno turli shakl yasovchi affikslar yordamida ifodalanadi: maktablar, maktabga, oddiyroq.



2. Yordamchi soʻzlardan foydalanish. Mustaqil maʼnoli soʻzlar yordamchi soʻzlar (koʻmakchilar, yuklamalar) vositasida maʼlum grammatik maʼnoga ega boʻlishi mumkin: Maktab tomon piyoda yurildi.

3. Takrorlash orqali ham grammatik maʼno anglashiladi: dasta-dasta (gul), ... (koʻplik maʼnosi)

4. Suppletivizm. Bunda oʻzaro bogʻlangan, maʼlum bir tizimni tashkil qilgan grammatik maʼnolarni ifodalash uchun alohida-alohida soʻzdan foydalanish usuli. Masalan: men – sen, sen – siz; rus tilida: человек – люди, хороший – лучше; ingliz tilida good – better – best – uent...

5. Urgʻu grammatik maʼnoni ifodalash uchun xizmat qilishi mumkin: fizik (ot) – fizik (sifat), yangi (sifat) – yangi (ravish).

Soʻzlarning leksik-sematik, morfologik va sintaktik tamoyiliga koʻra guruhlariga ajratilishiga soʻz turkumlari deyiladi. Demak, hozirgi oʻzbek tilidagi barcha soʻzlar shu uch tamoyilga tayangan holda soʻz turkumlariga ajratilgan shunga koʻra soʻzlar quyidagi guruhlariga boʻlinadi.

1. Mustaqil soʻzlar: Ot, sifat, son, olmosh, feʼl, ravish. Mustaqil holda leksik maʼno ifoda eta oladigan, biror morfologik shaklda kelib, gap boʻlagi vazifasini bajaradigan soʻzlarga mustaqil soʻzlar deyiladi.

2. Yordamchi soʻzlar: koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklamalar. Ular leksik maʼno ifoda etmaydi va gap boʻlagi vazifasini bajarmaydi. Soʻz va gaplar orasidagi munosabatni belgilaydigan yoki ularga qoʻshimcha maʼno qoʻshadigan soʻzlarga yordamchi soʻzlar deyiladi.

3. Modal soʻzlar. Soʻzlovchining aytilayotgan fikrga boʻlgan turli munosabatni bildiradigan soʻzlar deyiladi. Modal soʻzlar yuklamalar singari modal maʼno ifodalash uchun xizmat qiladi, lekin yuklamadan farqli ravishda gapda gap boʻlagi, butun bir gap tarzida kela oladi. Modal soʻzlar biror soʻzning atamasi emas.

4. Undov va taqlid soʻzlar. Undov soʻzlar soʻzlovchining his-hayajonini, buyruq-xitobini bildirsa; taqlid soʻzlar turli tovush, shuʼla-harakat, holat kabilarga tovush orqali taqlidni bildiradi. Undov taqlid soʻzlar gap boʻlagi sifatida ham qoʻllanadi. Lekin mustaqil soʻzlar kabi biror hodisaning atamasi, nomi boʻla olmaydi. Shuning uchun ham undov va taqlid soʻzlar ham alohida guruhni tashkil etadi.



DAFTAR HOSHIYASIDAGI BITIKLAR

Oʻ.Hoshimov



(O'.Hoshimov "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" annotatsiyasida shunday yozadi: "Aziz o'quvchim! Bu kitobchani qariyb qirq yil yozdim. Bular mening Kuzatuvlarim. O'ylarim ... Bir qadar armonli, bir qadar istehzoli, bir qadar tabassumli Xulosalarim ...Aslida, ularning har birini alohida asar qilsa ham bo'lardi-ku ... mayli ... Men bularni uzoq o'ylab yozganman. Iltimos, Siz ham kitobni shoshilmasdan, o'ylab o'qisangiz..." Quyidagi voqeani ham shunday o'qing.)

OT MINGAN ODAM

Bobotoqqa borganimda qiziq voqea bo'lgan. Yarim kechagacha cho'ponlar bilan hangamalashtik.

Tandir tanovul qildik... Mezbonlar qop-qora, chayir bir yigitni ko'rsatib, mana shu Bo'rivoy kiyik bolasini qo'li bilan tutib olgan, deganlarida, to'g'risi, ishonmadim. Toshkandan kelgan «oqbilak»larga nima desang laqillayveradi, deb o'ylashsa kerak-da. Odam kiyikka yeta olarkanmi? Shunaqa-ku, ertasiga ... Hammamiz otliq, yanayam teparoq yaylovga yo'l oldik. Ancha yurdik. Bir mahal belga uradigan o'tloq o'rtasidagi «qora uy» oldiga kelib hamma otdan tusha boshladi. Men ham o'zimni yerga tashlagan edim, chap oyog'im uzangiga qisilib qoldi. Men uchun bu kulgili holat edi. Qo'lim yerda. Oyog'im uzangi bilan ot qorni orasiga qisilib qolgan. Harchand uringanim bilan chiqarolmayman. Kulib yubordim.

Qarasam, otdan tushgan mezbonlar turgan joyida qotib qolibdi. Hammasining ko'zida dahshat...


O'ttiz qadamcha narida turgan Bo'rivoy, ishonsangiz, to'rt hatlashda tepamga yetib keldi.

Otimning jilovini mahkam changalladi. Shu orada boshqalar ham kelishdi. Oyog'imni uzangidan ajratib, turg'azib qo'yishdi. Yo'l bo'yi jimgina kelgan ot esa, birdan quloqlari chimrilib, kishnab yubordi. Bo'rivoy jilovni qo'yib yuborishi bilan dumini gajak qilgancha, duch kelgan tomonga yugurib ketdi.

Men hamon hech nimaga tushunmay turardim.

— Bir o'limdan qoldingiz, aka! — dedi Bo'rivoy hansirab. — Oyoq uzangiga qisilib qolsa, ot hurkadi. Hurkdimi — tamom! Osilib qolgan odamni tepib, yuguraveradi. Odam tepki yeb, toshlarga urilib, bir xalta etga aylanadi... Yaxshiyam vaqtida ulgurdik...

Siyrak soqolli kekxa cho'pon esa yelkamga qoqdi.



— Xudoyg'a bir yozg'aning bor ekan, ulim! Otqa minuvdan oldin egardan tushuvni o'ylab qo'yuv kerak...

To'g'ri javobni tanlab gapni yakunlang.

1. Mehmon ...

- A) ishonuvchan.
- B) mulohazakor.
- D) sinovchan.

2. Mezbbonlar ...

- A) maqtanishni yaxshi ko'rishadi.
- B) hamqishloqlari bilan g'ururlanishadi.
- D) hangoma bo'lsin, deb gapiraverishadi.

3. Tandirni tanovul qilish ...

- A) aslo mumkin emas.
- B) mumkin-da.
- D) bu juda g'alati.

4. Bo'rivoyning kiyik bolasini qo'li bilan tutib olganligiga mehmon...

- A) laqqa ishondi.
- B) ishonmadi.
- D) emas, toshkanlik "oqbilak"lar laqqa ishonadi.

5. Qora uy oldida ...


- A) juda antiqa tomosha bo'ladi.
- B) mehmon chap oyog'i uzangida, qo'li yerda maza qilib kuladi.
- D) mehmon chap oyog'i uzangida, qo'li yerda holda uyalib qoladi.

6. Siyrak soqolli kekxa cho'pon otga minishdan oldin tushishni o'ylab qo'yish kerak deganida...

- A) ot minishning qoidalarini eslatadi.
- B) yozuvchi uning tag ma'nosini ham nazarda tutgan.
- D) ot minishning qoidalari borligini anglatadi.

7. Bo'rivoy mehmon mingan ot jilovini ...

- A) changallab, mehmonning oyog'ini uzangidan chiqarib oldi.



- B) mahkam changalladi.
- D) changalladi va boshqalar nima bo'lishini kutib turdi.

8. Yozuvchi bir qarashda ...


- A) odamga baho berishga shoshilmaslik kerak demoqchi.
- B) hayotiy voqeani hikoya qilgan.
- D) mehmondorchilik odobi haqida so'z yuritgan.

9. Hikoya so'ngida mehmon qop-qora, chayir bir yigitning kiyik bolasini qo'li bilan tutib olganligiga ...

- A) ishondi deb o'ylayman.
- B) biribir ishonmaydi.
- D) ishongan bo'lishi mumkin.

10. Yozuvchining...

- A) bir qadar armonli xulosalari bayon qilingan.
- B) bir qadar istehzoli xulosalari bayon qilingan.
- D) bir qadar tabassumli xulosalari bayon qilingan.





6- MODUL. SAVDO VA XIZMAT KO‘RSATISH

Xizmat ko‘rsatish turlari


Sodda gap sintaksisi

Adabiy o‘qish: X.Do‘stmuhammad. “Bozor”

xizmat ko‘rsatish

savdo-sotiq

tijorat



Mavzuni o'rganishda quyidagi so'z va so'z birikmalariga e'tibor qarating:

Savdo, xizmat, bozor, oziq-ovqat do'koni, xizmat ko'rsatish turlari, xizmat ko'rsatish madaniyati, nashriyot, matbaa markazi, shoxobcha, sifat, savdo rastasi

Mediapark haqidagi reklamani tomosha qiling. Reklama matni bilan tanishing. Biron narsaning reklamasini ixcham, diqqatni tortadigan tarzda ifodalovchi matn tuzing va uni ifodali o'qing yoki qoraqalpoq tilida berilgan reklama matnini o'zbek tiliga tarjima qiling.

Javob bering.

1. Eski matohni yangilash uchun borishga ...

- A) bozor uzoq.
- B) mashina yo'q.
- D) pul yo'q.

2. Eski buyumni yangilash uchun bozorga borish

- A) hojat emas.
- B) keyingi kunga qoldirildi.
- D) shu bugun zarur.

3. Mediapark bozoriga ...



- A) uy bekasi bormaydigan bo'ldi.
D) emas, ishga borish kerak bo'lib qoldi.
D) er-xotin borsa kerak.

4. Mediapark bozori ...

- A) boshqa supermarketlardan farq qilmaydi.
B) boshqa supermarketlardan narxi arzon.
D) xuddi bozor kabi.

5. Bu ma'lumot ...

- A) oziq-ovqat sotib olayotganlarni qiziqtiradi.
B) meva-cheva sotib olayotganlarni qiziqtiradi.
D) texnika sotib olayotganlarni qiziqtiradi.

Hamkorlikda ishleng.

Tadbir bilan mushkul ish oson bo'lar,	
Tadbirsizning holi nima bo'lar?	
Mehnat nima keltirar?	
Hunari yo'q kishining, ...?	
Kosibning qozon qaysi kuni quyuq qaynaydi?	
Qassob kimga suyak sotar?	
Zar qadrini kim bilar?	
Yetilmagan xamir qayerda turmas?	
Otang – bozor, onang-chi?	
Oyda-yilda bir bozor, uni nima buzar?	
Ishni asbob qiladi, egasi-chi?	

O'qing.

XIZMAT KO'RSATISH TURLARI

Hozirgi kunda xizmat ko'rsatish turlari ancha ko'paygan. Masalan: **kiyim tikish, gilam to'qish, gilam tozalash, sartaroshlik, oshxona xizmati, taksi xizmati, kompyuter xizmatlari, paynet** va boshqalar.

Ma'lumki, O'zbekiston avtomobil ishlab chiqaradigan davlatlar qatoridan joy olib, ko'chalarimizda eng so'nggi **rusum**dagi zamonaviy



mashinalar harakatlanayotgan ekan, mashinalarimizni toza, saranjom tutish har birimizning kundalik vazifamizdir! Shaxsiy avtomobilga ega bo'lgan har bir kishi undan samarali va uzoq muddat foydalanishi uchun transport vositasini doimo toza va texnik soz holatda ushlashi zarur. Avtomobillarga xizmat ko'rsatishdan foydalanish, ya'ni avtomobillarni yuvish-tozalash, yoqilg'i-moy mahsulotlari bilan ta'minlash, o'z vaqtida **ehtiyot qismlarini** almashtirish kabi ishlarni tartibli va bir tizimda amalga oshirish maqsadida avtoservis korxonalari tashkil qilingan.

Avtomobillarni yuvish shoxobchalari avtomobil kuzovi va salonlarini tozalash, dvigatelini yuvish, avtomobilning osti va ustidan yuvish-quritish va yaltiratish, shinalarni qoraytirish kabi bir qator xizmatlar ko'rsatadi. Xizmatlarni ko'rsatish turlari maxsus belgilangan **sifat talablariga** javob berishi shart. Shoxobcha hajmiga qarab, uzoq navbatlarni bartaraf etish uchun yaxshi dastgohlardan foydalanishi zarur. O'rnatilgan maxsus dastgohlar kun davomida sakkiz soat ishlashga mo'ljallangan. Bundan tashqari, kecha-kunduz ishlashga moslashgan dastgohlar mavjud. Muayyan malakaga ega mutaxassislarga dastgohda ishlashi kerak. Mashinalarning turiga qarab 30 daqiqa yoki bir soat davomida yuvib-tozalanib, egasiga topshiriladi. Buning uchun belgilangan narxlar ham turlicha.

(“Tasvir” gazetasidan)

Muhokama qiling.

Muvaffaqiyatli insonlardagi bosh umumiylik nima? Ijobiylik! Ular kelajak sari doimo ijobiy kayfiyatda borishadi. Ijobiylik odamga imkoniyatni yorqinroq ko'rishga yordam beradi. Bugungi yoshlarning ko'pi ish topa olmasligini pesh qilib nolishadi. Bu – xato! Atrofga qarang – biz imkoniyatlar asrida yashayapmiz! Sizning eng kuchli jihatingiz bor – siz yoshsiz! Bu imkoniyatlar orasida nimanidir boshqacha qila olishingizga ishonsangiz, bu to'g'risida o'qib-o'rganishdan erinmang.

Haqiqiy tadbirkorlik – mehnat degani. Muvaffaqiyat qozonishni istasangiz, boshqalar uxlab yotganda siz o'rganing, tong saharda shahar uyqudaligida siz imkoniyatlaringizni kengaytirish uchun ertaroq uyg'oning. Hayotda yiqilishdan qo'rqmaslik kerak. Ayniqsa, yoshlikda! Yiqilasiz, yana oyoqqa turasiz. Har qanday xato – beqiyos foyda!

Har bir inson uchun erta – bu zabt etilmagan kelajak. Olg'a borish kerak, harakat qilish kerak. Atrofdagilar sizga ishonsa-ishonmasalar, siz o'z orzularingiz ro'yobiga ishoning, jamoani bunga ishontiring!



Yashashni ham unutmang. Biz hayotga ishlash uchun emas, baxtiyor bo'lish uchun kelganmiz. Puldan qayg'urmang! Agar siz orzularingiz ortidan quvsangiz, pul sizning ortingizdan quvadi!»

Jek Ma

Mashqlarni bajaring.

1-mashq. *Bir yoki bir nechta to'g'ri javobni tanlang.*


s...vdo (o) [a]
b...z...r [o] (a)
...ziq-...vqat do'koni [o] (a)
xizmat k... rsatish madaniyati [o'] (o)
matb... markazi (a) [aa]
nashriy...t (a) [o]
sho...obcha (h) [x]
sart...roshlik (o) [a]
sar...njom tutish (o) [a]
yuv...sh-tozalash (u) [i]

2-mashq. *Bir yoki bir nechta to'g'ri javobni tanlang.*

poya...zal tikish (v) [f]
attorlik buy...mlari (i) [u] (i)
meta...-buyumlar [ll] (l)
buyur...tmaga ko'ra [] (i)
so'nggi rus...mdagi (i) [u]
maxsus dastgo...lar [h] (x)
manzilin...iz [g] (gg)
ta...mirlamoq ['] (-)

3-mashq. *Noto'g'ri yozilgan so'zlarni belgilang.*

Avtomobilarga xizmat ko'rsatishdan **foydolanish**, ya'ni avtomobillarni yuvish-tozalash, **yog'ilg'i-moy** **maxsulotlari** bilan ta'minlash, o'z vaqtida



extiyot qismlarini almashtirish kabi ishlarni tartibli va bir tuzimda amalga oshirish maqsadida avtoservis karxonalari tashkil qilingan.

Xatosi	To'g'risi
avtomobilarga	Avtomobilarga
foydalanish	foydalanish
yog'ilg'i-moy	yoqilg'i-moy
maxsulotlari	mahsulotlari
extiyot	ehtiyot
tartibli	tartibli
tuzimda	tizimda
karxonalari	korxonalari

4-mashq. Noto'g'ri yozilgan so'zlarni belgilang.


Nashriyotimiz barsha o'quv muassasalari – maktablarni, kollej va akademik litseylarni, oliy o'quv yurtlarining kutibxonalarini o'zaro hamkorlikga taklif etadi. Ushbu korxona va muassasalar hamda savdo shahobshalari respublikamiz miqiyosida tarqatilayotgan kitoblarimizni bizdan eng orzan narhlarda xarid qilishlari mumkin.

Xatosi	To'g'risi
barsha	barcha
maktablarni,	maktablarni,
kutibxonalarini	kutubxonalarni
hamkorlikga	hamkorlikka
shahobshalari	shahobchalari
miqiyosida	miqyosida
orzan	arzon
narhlarda	narxlarida

5-mashq. Bo'sh o'ringa mos so'zlarni tanlang.

Shogird so'radi:

— Baxt pulda emas, deganlari to'g'rimi?



Ustoz javob berdi:

— Ha. Buni isbotlash oson. Chunki pulga yotar joy sotib olish mumkin, lekin ...; Ovqatni lekin ... emas; dorilarni, lekin salomatlikni emas; xizmatkorlarni, lekin ... emas; xotinlarni, lekin sevginimas; uyni, lekin osoyishtalikni emas; o'yin-kulgini, lekin ... ! Va aytilganlar ro'yxatni tamomlamaydi.

uyqunimas, iyqinimas,
ishtahani, ishtaxani emas
do'stlarni, dustlarnimas
shodliknimas, shadliknimas

“Hikmatlar javohiri” kitobidan.

6-mashq. Dialoglarni o'qing va shu mazmundagi suhbatda qatnashing.

Savdo rastasida

- Assalomu alaykum.
- Vaalaykum assalom. Keling xizmat?
- Yangi kitoblar keldimi? Menga Alisher Navoyning “Xamsa”si, Boburning “Boburnoma”si, Tohir Malikning tanlangan asarlar to'plami kerak edi.
- Hozircha Tohir Malikning “Tanlangan asarlar”idan 1-,2-,3- jildlari bor. Qolganlari yaqin orada kelib qoladi.
- Ayting-chi, narxlari qanday?
- Jami ellik ming so'm bo'ladi.
- Plastik kartochkamdan to'lasam bo'ladimi?
- Albatta.
- Marhamat, plastik kartochkamni oling.
- Rahmat.
- Do'konimizga yana kelib turing.

Modalar uyida

- Xizmat?
- Mana bu fasondagi ko'ylak uchun qancha mato kerak bo'ladi?
- Ikki metr.
- Tikish haqi qancha bo'ladi?




- Narxnoma bo'yicha 30000 so'm bo'ladi.
- Necha kunda tikasiz?
- 5 kunda.

7-mashq. Qoliqli hujjatlar – odatda oldindan tayyorlangan bosma ish qog'ozlarini to'ldirib ko'rganmisiz. Quyida ko'rsatilgan maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari bilan bog'liq biror bosma ish qog'ozini to'ldirish zaruriyati paydo bo'lganmi? Bunday hujjatlardagi o'zgaruvchan va o'zgarmas axborot haqida ma'lumot bering.

- Yakka tartibda poyafzal tikish;
- tikuv, mo'yna trikotaj va teri buyumlarini, bosh kiyimlar va to'qimachilik, attorlik buyumlarini yakka tartibda tikish;
- uy-ro'zg'or mashinalari va asboblarini ta'mirlash, metall-buyumlarni tayyorlash va ta'mirlash;
- transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish;
- mebel ta'mirlash va xizmat ko'rsatish;
- kalitlar tayyorlash;
- kimyoviy tozalash;
- kir yuvish xonalari xizmati;
- turar joylar (xonalar va uylar)ni ta'mirlash;
- fotografiya va fotokinolaboratoriya xizmati;
- hammom va yuvinish xizmati;
- ijaraga berish shoxobchalari xizmati;
- transport xizmatlari.

SODDA GAP SINTAKSISI



Gap jamiyatning eng muhim, uni hayvonotdan farqlovchi faoliyati – fikrlash qobiliyatini namoyon qiluvchi asosiy vositadir. Gapning asosiy funksional belgisi kommunikativlik, ya'ni fikr ifodalash va bayon qilish vazifasidir. Tilning bu vazifasini yuzaga chiqaruvchi asosiy vosita gap hisoblanadi. Zero, soʻz ham, soʻz birikmasi ham bu vazifani bajara olmaydi. Ularning vazifasi narsa va hodisalar, belgi, harakatlarni nomlash, ya'ni nominativ vazifadir. Bu jihatdan gap fikr ifodalovchi kommunikativ birlikdir. Gap fikr ifodalovchi asosiy sintaktik qurilma boʻlishi bilan birga, eng kichik sintaktik birlik hamdir. Gapdan kichik sintaktik kategoriyalar fikr ifodalash xususiyatiga ega emas. Nutqdagi bundan keyingi boʻlinish, aniqrogʻi, gapning qismlarga ajralishi uning fikr bayon qilish xususiyatini yoʻqotadi, chunki gap gap boʻlaklari, soʻz birikmalari, shuningdek, ular bilan grammatik aloqaga kirishmaydigan ayrim boʻlaklarga boʻlinadi, xolos. Bular esa, bizga maʼlumki, nominativ vazifa bajaruvchi sintaktik hodisalardir.

Grammatik jihatdan shakllangan, tugallangan intonatsiyaga ega boʻlgan bir soʻz yoki soʻzlar bogʻlanmasidan iborat fikr ifodalovchi eng kichik va asosiy sintaktik birlik gap deyiladi.

Gap tasniflanadi.

Gaplarning tuzilishiga koʻra turlarini belgilashda grammatik asos, ya'ni ularning necha grammatik asosli ekanligiga qaraladi. Bunga koʻra gaplar dastlab ikki katta guruhga boʻlinadi:

1. Sodda gaplar.
2. Qoʻshma gaplar.

Sodda gaplar bir grammatik asosdan, bir predikativ markazdan iborat boʻladi. Bu grammatik asos ega-kesim munosabati yoki kesim sostavi (yoki kesimning oʻzi) bilan ifodalanagan boʻladi. Masalan: *Qoʻngʻiroq chalindi. Hamma oʻz oʻrnini egalladi. Oʻqituvchi kirib keldi. Salomlashdik. Dars boshlandi.*

Gapning ifoda maqsadga koʻra turlari. Gaplar kommunikativ maqsadiga koʻra quyidagi turlarga boʻlinadi: darak, soʻroq, buyruq, istak gaplar.

Darak gap. Borliq hodisalarini tasdiq yoki inkor bilan xabar qiluvchi gaplar darak gap deyiladi: Bu yil institutimizning yubileyi boʻldi. Darak gaplar xabar, orzu-umid, taajjub, tashvish, gina, kinoya kabilarni ifoda qiladi. Darak gap baʼzan istak, gumonni ifoda qilishi mumkin: Zulfiya tezda kelib qolar.



Darak gapning kesimi ko'pincha aniqlik maylining o'tgan, hozirgi, kelasi zamon shakllari bilan ifodalandi. Darak gap xabar intonatsiyasi bilan aytiladi. Bunda ohang gapning birinchi qismida ko'tariladi, ikkinchi qismida esa pasayib boradi. Darak gap nutqda, gapning boshqa turlariga qaraganda, ko'p qo'llaniladi. Hatto, butun-butun matnlar ham darak gaplardan tashkil topadi.

So'roq gap. So'zlovchiga noma'lum bo'lgan biror voqea-hodisa, harakat-hodisa belgi haqidagi so'roqni ifoda qiluvchi gaplar so'roq gaplar deyiladi: Inson nima uchun yaralgan?

So'roq gaplarda quyidagilar ifoda qilinadi:

1) sof so'roq: Dars boshlandimi? Qachon yo'lga chiqmoqchisiz?

So'roq gaplarda so'roq bilan bir qatorda taajjub, gumon, shubha anglashilishi ham mumkin: Nahotki, siz shu ishni qildingiz?

2) ritorik so'roq. Bunda so'roq mazmunidan uning mazmuni anglashilib turadi. Bunday gaplar emotsional nutq uchun uslubiy vosita bo'lib xizmat qiladi: Xalq orzusini amalga oshirishdan kattaroq baxt bormi! (Oybek).

3) so'roq-buyruq. Bunda so'roq-buyruq ottenkasiga ham ega bo'ladi: tez-tez o'qimaysanmi?

So'roq gaplar quyidagi vositalar bilan tuziladi:

– so'roq yuklamalari (-mi, -chi, -a, -ya) yordami bilan: Siz mehmonmisiz?

– nahot, nahotki yuklamalari bilan: Nahotki, shu qiz Muborak bo'lsa?


– so'roq olmoshlari yordamida: Qaysi kitobni o'qimoqchisan?

– so'roq intonatsiyasi yordamida. Bunda intonatsiya ko'tariluvchi, pasayuvchi, ko'tariluvchi-pasayuvchi xarakterida bo'ladi. So'roq gap ko'tariluvchi intonatsiya bilan aytilganda mantiqiy urg'u olgan bo'lak gap oxirida bo'lib ohang ko'tarilib boradi: Mehmon keldi?

So'roq gap pasayuvchi intonatsiya bilan aytilganda, mantiqiy urg'u olgan bo'lak gap boshida kelib, ohang pasayib boradi: Hammasidan xabarimiz bor?

So'roq gap ko'tariluvchi-pasayuvchi intonatsiya bilan aytilganda, mantiqiy urg'u olgan bo'lak gap ichida keladi. Ohang bungacha ko'tarilib, keyin pasayadi: Hammasidan xabarimiz bor?

So'roq gap so'roq olmoshlari va so'roq yuklamalari yordamida hosil bo'lganda, so'roq intonatsiyasi ta'kidlanish zarur bo'lgan bo'laklarda ko'tariladi: Qachon? U nima dedi?



So‘roq gaplar oxirida yozuvda so‘roq belgisi qo‘yiladi. Ritorik so‘roq gaplar oxiriga so‘roq va undov belgilari qo‘yiladi. So‘roq gaplar ko‘proq dialogik nutq uchun xarakterlidir.

Buyruq gap. Buyurish, iltimos, maslahat kabilarni ifoda qiluvchi gaplar buyruq gap deyiladi: Hamma zalga to‘plansin.

Buyruq gaplarda buyruq, maslahat, iltimos, g‘azab, do‘q kabilar ifoda qilinadi: 3-sahifadagi qoidani o‘qi! (Buyruq) Yangi nashr qilingan asarlarni o‘qib boring (Maslahat) – Tur o‘rningdan! Chiq uydan! (Do‘q, g‘azab).

Buyruq gapning kesimi odatda buyruq mayli bilan ifodalanadi. Bunda fikr ko‘proq tinglovchi shaxsga qaratilgan bo‘ladi. Shuning uchun ham bunday gaplarning kesimi buyruq maylining II-shaxs shakli bilan ifodalanadi: O‘zingning aybingni o‘zgalardan qidirma.

Ba’zi buyruq gap kesimi buyruq maylining I va III shaxs shakllari bilan ifodalanadi: hasad bilan emas, havas bilan yashaylik! A’lochilar mukofotlansin!

Buyruq gap intonatsiya bilan aytiladi. Ohang darak gapdagiga nisbatan kuchli, so‘roq gapdagiga nisbatan kuchsiz bo‘ladi. Bunda ham gapda ifodalangan mazmunga qarab, ohang o‘zgarib turadi: buyruq, do‘q, g‘azab ifodalanganda, ohang kuchli, maslahat, iltimos ifodalanganda ohang kuchsiz, xabar intonatsiyasiga yaqin bo‘ladi. Birinchi holatda yozuvda gap oxirida undov belgisi, ikkinchi holatda nuqta qo‘yiladi.

Gap ohangiga, his-hayajonni ifodalashiga ko‘ra 2 xil: 1) his-hayajonli; 2) his-hayajonsiz. His-hayajonli gap eh, oh, uh, o, uf, obbo kabi undov, qanday, qancha, naqadar, shunday kabi so‘z yoki faqat his-hayajon ohangi bilan hosil bo‘ladi: Eh, bahorning gashtiga nima yetsin! Farg‘ona vodiysi naqadar go‘zal! Paxta terimi boshlandi! His-hayajon ohangi bilan aytilgan darak, so‘roq, buyruq gap his-hayajonli darak/so‘roq/buyruq gapga aylanadi: Dalada qancha odam bor? Dalada qancha odam bor! His-hayajon gap so‘roq gap bo‘lsa, tinish belgisi quyidagicha qo‘yiladi: 1) so‘roq mazmuni kuchli bo‘lsa, oldin so‘roq, keyin undov belgisi qo‘yiladi: Nima bo‘ldi, gapirsangiz-chi?! 2) his-hayajon kuchli bo‘lsa, oldin undov, keyin so‘roq belgisi qo‘yiladi: Farzand qanday oqlar ona haqqini!? 3) ayrim holda his-hayajonning o‘ta kuchliligini ifodalash uchun uchta undov belgisi ketma-ket qo‘yiladi: *O‘lim – yovga!!!* Biror sabab bilan uzilib qolgan his-hayajon gapning oxiriga undov belgisi va undan keyin ketma-ket ikkita nuqta qo‘yiladi: *Men yetim o‘sganman, oh, u yetimlik!..* His-hayajonsiz gapda yuqoridagi xususiyatlar bo‘lmaydi.



Gaplarning voqelikka munosabat jihatidan turlari. Gaplar voqelikka munosabat jihatidan quyidagilarga bo'linadi: tasdiq (bo'lishi) gaplar va inkor (bo'lishsiz) gaplar. Tasdiq gaplar borliq hodisalari orasidagi munosabatning mavjudligini ifodalaydi, inkor gaplar esa bunday munosabtlarning mavjudligini inkor qiladi. Qiyos qiling: Mehmon keldi – Mehmon hali kelmagan.

Tasdiq va inkor kategoriyali orasida bog'lanish mavjud: har qanday tasdiqdan inkor, har qanday inkordan tasdiq ham kelib chiqadi: U yaxshi odam (Demak, yomon emas). U yomon odam (Demak, yaxshi emas).

Inkor gaplar tasdiq asosida maxsus inkor ko'rsatkichlari yordamida hosil bo'ladi, tasdiq gaplar esa bunday ko'rsatkichlarga ega emasligi bilan xarakterlanadi.

Inkor gaplar quyidagicha hosil bo'ladi:

1. Kesim tarkibida kelgan –ma shakli emas va yo'q so'zlari orqali: Men uni tushunmadim. U bu gapni bejiz aytgani yo'q.

2. Maxsus inkor ifoda qiluvchi so'zlari orqali: Odatda, bu so'zlarning o'zlarigina inkor ifoda eta olmaydi, balki kesimlar ham inkor shaklida keladi: Uni **hech kim** tanimas edi.

1. Takrorlanib kelgan na yordamchisi orqali: U na o'qidi, na yozdi.

Gapda ikki inkor vositasining qo'llanishi tasdiq mazmunini beradi: U bu gapni aytmay qo'ymadi. Salimaning yangi zirak olish fikri yo'q emas edi.

Ritorik suroq va undov gaplarning ba'zi tiplarida kesim inkor shaklida bo'lsa ham, gapda tasdiq anglashilishi mumkin. Maqtov kimga yoqmaydi deysiz?

Ikkinchi darajali bo'laklarning ishtirokiga ko'ra gaplar yig'iq va yoyiq sodda gaplarga bo'linadi.

Yig'iq sodda gaplar faqat bosh bo'laklarning o'zidangina iborat bo'ladi. Yig'iq sodda gapning uch xil ko'rinishi bor:

A) ega va kesimning o'zidan tashkil topgan gaplar. *Bahor keldi. Otam-o'qituvchi.*

B) kesimning o'zidangina tashkil topgan fe'l asosli sodda gaplar: *Chekilmasin. Shovqin qilmang.*

V) kesimning o'zidangina tashkil topgan ot asosli gaplar: *Tun. Kuz. Urush.*

Bosh bo'laklardan tashqari ikkinchi darajali bo'laklar ham ishtirok etgan gaplar yoyiq sodda gaplar hisoblanadi. Buning asosan uch xil ko'rinishi bor: A) ega – to'ldiruvchi (hol) kesim: Ziyodulla yozishni



o'rganyapti.; B) to'ldiruvchi (hol) – kesim; V) aniqllovchi – bosh bo'lak: Uy ishini tayyorladim. Qirq birinchi yilning bahori. Sokin tun.

№	Gapning asosiy turlari	Turning bo'linishlari
1.	Gapning tuzilishiga ko'ra	1. Sodda gap; 2. Qo'shma gap
2.	Gapning maqsadiga ko'ra	1. Darak gap; 2. So'roq gap; 3. Buyruq gap
3.	Gapning voqelikka munosabatiga ko'ra	1. Tasdiq (bo'lishli) gap; 2. Inkor (bo'lishsiz) gap
4.	Gapning sostaviga (bosh bo'laklariga) ko'ra	1. Bir sostavli (1 bosh bo'lakli) gaplar; 2. Ikki sostavli (bosh bo'lakli) gaplar. Bir sostavli gaplar: 1. Kesim sostavidan: a) shaxsi aniq; b) shaxsi noaniq; v) shaxsi topilmas; g) shaxsi umumlashgan, d) nominativ (atov) gap.
5.	Ikkinchi darajali bo'laklarning mavjudligiga ko'ra	1. Yig'iq gap; 2. Yoyiq gap; a) aniqllovchili; b) to'ldiruvchili; v) holli; g) aralash.
6.	Emotsionallikka ko'ra	1. His-hayajonsiz gaplar: darak, so'roq, buyruq gaplar. His-hayajon gaplar: darak, so'roq, buyruq gaplardan hosil bo'lgan undov gaplar.
7.	Zaruriy bo'laklarning ifodalanishiga ko'ra	2. 1. To'liq gap. 2. To'liqsiz gap.
8.	Bo'laklarga bo'linish-bo'linmasligiga ko'ra.	1. Bo'laklarga bo'linadigan gaplar; 2. Bo'laklarga bo'linmaydigan gaplar: A) so'z-gaplar: tasdiq, inkor, his-tuyg'u, urf-odat, so'roq, tabrik, xitob, tahsin, buyruq ifodalovchi so'z shaklidagi gap; 3. B) vokativ gaplar: do'q, g'azab, ajablanish, shodlik, ta'na, o'pka-gina, piching, afsuslanish, ta'qiqlash ma'nolarini intonatsiya orqali ifodalaydigan undalma xarakteridagi gap.

9.	Murakkablashish va murakkablashmasligiga ko'ra	1. Murakkablashmagan gaplar; 2. Murakkablashgan gaplar: a) uyushiq bo'lak-li gaplar, b) ajratilgan bo'lakli gaplar, v) undalmali gaplar, g) kirish konstruksiyali gaplar, d) kiritma konstruksiyali gaplar
----	--	---



Bozor

Xurshid Do'stmuhammad

...Or

..Zor

.Ozor

bozor...

- Qani, kep qoling, asalidan opqoling!
- Asal bo'lsa, sotarmiding, anoyi?!
- Beshik bormi, beshik?
- Sumagi qoldi, opoqi, sumagi!..
- Teri bormi, teri?
- To'yga qalampir ola keting!
- Qo'y terisi kerak, teri!
- Qopqon opketaqol, tozi!
- Sho'rtang qurut keragidi?
- Jevachka olsang-chi, opovsi!..

Bozor-da, har kim keragini so'raydi, har kim topganini sotadi, eplaganini oladi. Bozor maydonlari, rasta oralari qo'tonga yangi qaytgan podani eslatadi – shom qorong'isida adashib-netgan ona-bola qo'y-qo'zi singari xaridor sotuvchisini, sotuvchi xaridorini qulog'i ding, ko'zi jonsarak yelib-yugurib izlaydi, Haliamon **quyosh lang'illagan shoyi etagini yigishtirib** olamni, olamga qo'shib bozorni, bozorga qo'shib tumonatni zulmat ixtiyoriga topshiradi, olomon esa hoziroq xarid qilmasa joni bo'g'zidan chiqib ketadigandek baqiradi-chaqiradi, turtinadi-surtinadi, aldaydi-aladanadi, so'kadi-so'kish eshitadi...

Bozor-da, izdihom: odamlar to'rt tarafdin kelaveradi, to'rt tarafga o'taveradi – oq, qora, malla, zangori... semiz, xipcha, oriq... novcha, o'rtabo'y. pakana... mayib-majruh... xushro'y, xunuk... Na aft-angori, na



engil-boshi, na fe'li, na-da, yurish-turishi o'xshaydi... Alloh taolo bandalarini bir-biriga o'xshamaydigan qilib yaratgan, bozor esa go'yo tangri taolo panjasiga panja urmoqqa qasd qilgan gumrohdek, bani ba-shar vujudidan «nafs» degan bir baloyi azimni topgan... bu yorug' dunyoda nafs to'q odamning o'zi yo'q, u dunyo-yu bu dunyo biri-biriga tariqcha o'xshamagan tirik jon borki, nafs o'xshaydi, nafs bir xil, nafs odamlarni birxillashtiradi, tafovutlarni yo'qqa chiqaradi, bozor manman degan insoni komilni ham yalpisiga – bitta qo'ymay bozorga soladi: odamlarni bir-biriga ro'para qiladi, og'iz-burun o'pishtiradi, gij-gij-laydi, mushtlashtiradi va shu tariqa ne ko'ylarga solib, sinovdan o'tkazadi. Boshi yumaloq, puti ayri kas-nokas borki, «Olaman!» deydi. Sotayotgan ham, olayotgan ham, bekorchi ham, daydi-yu tilanchi ham olish ko'yida izg'iydi. Har kim qurbi yetganicha oladi – qo'l uchida, changalida, hovuchida, quchog'ini to'ldirib oladiganlarning sanog'i yo'q... bozorga kirdi deguncha kafti, hovuchi, quchog'i bolalab ketadiganlari qancha!..

Fozilbek bozordan beri kelmaydi, olomon oqimiga qo'shildi deguncha joni orom oladi. Demak, u ham o-la-di! U o'zining hamma qatori oluvchi ekanidan tonmaydi, faqat miyig'ida kulib, aybdor odamdek o'ng'aysizlanib, «Har kim didi-farosatiga yarasha oladi» deb falsafa so'qiydi. Bozorning har qarichida milliyon falsafa ko'radi.




1) Matndagi bozor tasviri va siz kundalik ko'rib yurgan sershovqin bozoq o'rtasida qanday o'xshashlik va farq bor, deb o'ylaysiz? O'z so'zlaringiz bilan tushuntirib bering.

2) Bozorda milliyon falsafa ko'rish deganda nimani tushunish mumkin?

3) Matndagi qaysi so'zlarning ma'nosini chuqurroq o'rganishni xohlaysiz? Jadvalni to'ldiring.

12

Bilar edim	Bilishni xohlayman	Bilib oldim





4) Quyidagi sh'eriylar matnlarni o'rganing.

YAPON

A.Oripov.

Boshimda doppi-yu, egnimda chopon,
Mehmon bo'lib keldim, men senga yapon.

Sake sharobingdan bir qultum yutdim,
Oroldan orolga sakradim, o'tdim.

Yaponcha salom bu – qaddim – toki yo
Senga ehtiromim bo'lsin, Tokio.

Sayr etdim Kioto ko'chalarida,
O'y surdim yomg'irli kechalarida.

Qadrdon ko'rinding menga chindan ham,
Kamtarin tog'amday yo mushfiq xolam.

Ixcham qadamlaring, qisiq ko'zlaring.
Buncha tilga yaqin o'g'il – qizlaring.

Sira parvo qilmay o'tar umrga,
Jon berib turibsan toshga, temirga.

Rulsiz mashinada asra omonda,
(Haydovchi o'ltirar boshqa tomonda.)

So'rayman o'rta qoyib vijdonni:
Sen qanday zabt etding butkul jahonni?

She'r yozib, gap sotib turibman shu on,





Yapon – chi, ish bilan mashg'uldir yapon!

OSAKODA O'ZBEK CHOYXONASI

Osako shahrining qoq o'rtasida
O'zbek choyhonasi bunyod bo'lmishdir.
Betator maza bor osh, xo'rdasida,
Tanovul qilganlar kuchga to'lmishdir.
Tandir gurillasa o't yoqqan oni,
Axir qo'zg'atmaydi kimning havasin.
Kichkina quyoshdek o'zbekning noni
Qizdirib turipdi yapon havosin.



She'rlar matnidagi Sizning diqqatingizni jalb qilgan so'zlarning ma'nolari bo'yicha "BBB" jadvalini to'ldiring. So'zlarning ma'nolarini bilib olish uchun "O'zbek tilining izohli lug'ati" dan foydalaning.

Bilar edim	Bilishni xohlayman	Bilib oldim





VII MODUL. TA'LIM VA TARBIYA

Zamonaviy dunyoda ta'lim
Qo'shma gap sintaksisi, matn
Muhammad Ali. Sarbadorlar



Mavzuga kirish:
Ota-onangga rahmat, degan gapni ko'p eshitasizmi?

Mavzuni o'rganishda quyidagi so'z va so'z birikmalariga e'tibor qarating:

Baholash, davlat budjeti, idora, inspeksiya, kunduzgi ta'lim shakli, konsepsiya, loyiha, maxsus sirtqi, mushohada, ommalashtirish, rag'batlantirish, savodxonlik, sivilizatsiya, tavsif, tabiiy, tahsil olmoq, , tadbiq etish, Xalq ta'limi vazirligi, qabul kvotasi, o'quv dasturi.

Ko'ring. "Shum bola"

Javob bering.

"Shum bola" filmidan olingan parchani tomosha qiling. Har bir topshiriq uchun to'g'ri javobni tanlang.

1. Eshonning ahvoliga...

- A) bola juda achindi
- B) befarq qaradi.
- D) bola hayron qoldi.

2. Eshonvachcha bolani nima deb chaqiradi?

- A) Qoravoy
- B) Shum bola
- D) Bo'g'irsoq



3. Eshonning “Bir burda noning bormi?” degan savoliga berilgan javob...

- A) Man endi sizga hamroh bo‘lolmayman
- B) Mayli
- D) Qayoqda?

4. Bolaning Toshkent haqidagi gapi...

- A) eshonga yoqib tushadi.
- B) eshonning e’tiroziga sabab bo‘ladi.
- D) eshonni qiziqtirmaydi

5. Eshon tomonidan aytilgan qishloq odamlarining hurmat qilishi haqidagi gaplari...

- A) bolaning havasini keltiradi
- B) bolada eshonga nisbatan ishonch paydo qila boshlaydi.
- D) bolani ishontirmaydi

6. Eshon qishloq haqida... deydi.

- A) u yerning odamlari seni yutib yuborishadi-ku
- B) odamlari halol, serhimmat
- D) rasvo qilishdi ablahlar

7. Eshon “Endi topganimiz o‘rtada” deb, uni taqsimlaganiga ko‘nganida Shum bola...

- A) 2 qismini olgan bo‘lardi
- B) 3 qismini olgan bo‘lardi
- D) eshonga tobe bo‘lib qolardi

8. Eshonvachcha bolani to‘xtatib...

- A) o‘qigin deb maslahat beradi.
- B) o‘zi bilan qolishini so‘raydi.
- D) bir burda non so‘raydi.

9. Eshonning “O‘qigin” degan nasihati...

- A) Shum bolaning ensasini qotiradi.
- B) Shum bola uchun shu topda ahamiyatsiz.
- D) ...ni Shum bola qulog‘iga olmaydi.



10. Shum bola Eshonning “Sen yaxshisi men bilan birga bo‘l!” degan taklifiga nima uchun rozi bo‘lmadi deb o‘ylaysiz?

- A) Shum bola sarguzashtlarni yaxshi ko‘radi.
- B) Shum bola o‘g‘rilik qilib oson pul topishni ma‘qul ko‘radi.
- D) Shum bola o‘z fikriga ega, o‘z yo‘lida davom etib kelajak sari intiladi.

Bilganingdan bilmaganing ko‘p!

Universitet – *nem.* Universitat < lot. universitas, universitatus – jami, barchasi; yig‘indi, majmua/ **1** Tarkibida bir qancha tabiiy-matematik va ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi fakultetlari bo‘lgan, ayni yo‘nalishlarda yuksak malakali mutaxassislar tayyorlaydigan ko‘p tarmoqli oliy o‘quv-ilmiy muassasa. *O‘zbekiston Milliy universiteti.* **2** Umumiy ma‘lumotni va siyosiy bilimni oshirish sohasidagi bir qator o‘quv muassasalarining nomi. *Xalq universiteti.* **3 Ko‘chma** Bilim, malaka, tajriba va sh.k. ni egallash, oshirish uchun manba bo‘lgan dargoh, joy. *Qizilqum ko‘pgina yigit-qizlar uchun universitet ham bo‘ldi.* S.Anorboyev.

(“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan)

O‘qing.

Vaqtni qadrlang

Soch-soqoli kumushdek oq, qad-qomati xiyol bukchaygan, yerga qarab bir-bir qadam bosib borayotgan choldan xiyobonda sayr qilib yurgan xandon-xushon yigit-qizlar “Nimani qidiraysiz, otaxon?”, deb so‘raganlarida, nuroniy “Yoshligimni, bolalarim, yoshligimni”, deb javob qaytargan ekan.

Ilmi, mehnati orqali katta obro‘-e‘tiborga erishgan, o‘nlab kitoblar bitgan, yuzlab shogirdlar yetishtirgan olim, murabbiy o‘z talabalariga hazil-mutoyiba aralash: “Kaminaga ixlos-u havasingiz bu qadar baland ekan, u holda almashish taklif qilmoqchiman. Mayli, Siz ilm-u a‘mollarim, unvon-u nishonlarim, kitob-u shogirdlarim – barini oling-u, evaziga faqat “kichik bir narsa”ni – yoshligingizni bera qoling” deya hazillashishni xush ko‘rarkan.

Mustaqilligimiz qanchalik noyob ne‘mat ekanligini, ezgu orzu-umidlar, sillani quritguvchi uzoq kutishlar, kurashlar, har qanday kamsitish,



nafsoniyatga tegish, tahqir va haqoratlar, mislsiz qurbonlar, armonlar evaziga kelgan buyuk ne'mat ekanligini aslo yodingizdan chiqarmang, chiroqlarim. Siz Istiqlolni qo'lga kiritgan istiqbolli yurtning egalarisiz. O'zingizni Mustaqillik atalmish salobatli azim binoning tarxini chizuvchi me'morlardan, uning poydevoriga g'isht quyuvchi mohir ustalardanman, deb biling.

O'quv yurtingizdagi faoliyatingizda uch jihat muhim:


1. O'quv jarayoni. 2. Yotoqxonada yashash (uzoqdan kelgan talabalar uchun). 3. Jamoat ishlari.

Ular o'zaro chambarchas bog'liq tutash ildizlar bo'lib, bir-birini to'ldiradi, boyitadi, taqozo etadi. Aslida uchovi ham ta'lim-tarbiya ataluvchi yaxlit murakkab jarayonning uch tarkibiy qismi. Shu uch jihatga birdek e'tibor bergan talabadan kelgusida yetuk mutaxassis, yaxshi inson, faol jamoatchi chiqishini uzoq yillik tajribalar ko'rsatib turibdi. Faqat o'qish bilan bo'lib jamoat ishlaridan chetlashib yurgan talaba keyinchalik o'zini o'ylaydigan xudbin mutaxassis bo'lsa ajab emas. Yotoqxonasini orasta tutmagan qizdan bilimdon kishi chiqishi mumkindir-u, uy-ro'zg'orni yaxshi eplaydigan, saranjom-sarishtali kelin bo'lishiga kafolat berish qiyin. O'ta faol "ashaddiy" jamoatchi bo'lib, asosiy vaqtini badiiy havaskorlikka, sport o'yinlariga, dastyorlikka, katta-kichik boshliqlar, domlalarining xizmati, topshirig'ini bajarishga sarflaydigan, tovonidan o't chaqnagan bo'z bola yigit bilingki, ishbilarmon, tadbirkor rahbar bo'ladigan cho'ti bor. Vaqti kelib u amaldor bo'lib yetishar ham, lekin bilimi bo'shligi har qadamda pand beradi.

Bugungi ishni ertaga qo'ymang. Zero, ertaning o'z yumushi, vazifasi, kutilgan va kutilmagan tashvish-taraddudlari bor, qolgan ishga qor yog'ar. O'zbekning bitta yomon so'zi bor "E...e" degan! Mana shu birgina "E!" bilan olamshumul ishlar ortga chekilib, ba'zan hatto yo'q bo'lib ketadi. Noyob tafakkur chechaklari so'nadi. Ishtiyoq barham topadi. G'oya o'ladi. Bu ishyoqmaslik tanballik, dangasalik, hafsalasizlik alomati. Dangasalikning boshlanishi baxtsizlikning debochasidir.

Vaqt sizning taqdiringizda, azizim talaba (student), betakror va benazir ahamiyat kasb etadi. Sajdagohingiz – minbar, qurolingiz – kitob, manzilgohingiz – kutubxona, kasbingiz – mutolaa bo'lmog'i darkor. Tahlil, mushohada, bahs... sizning asosiy mashg'ulotingiz – shu.

(“Tolibnoma”dan)



Dam olish daqiqasi

FALSAFA IMTIHONI

Falsafa o'qituvchisi imtihonda "Tavakkalchilik nima?" degan savolni so'rabdi. Barcha talabalar qog'ozni to'ldirib nimalarnidir yozishibdi. Lekin talabalardan biri sinov boshlanishi bilanoq qog'ozni topshirgan bo'lsa-da, hammadan yuqori ball olgan edi. Uning qog'ozida ism va familiya yozilgan bo'lib, bo'sh qog'ozning pastki qismida "Mana shu tavakkalchilik bo'ladi" degan qayd bor edi.

Keyingi imtihonda o'qituvchi yana shu savolni so'ragan ekan, boshqa talabalar bo'sh qog'oz topshirishibdi. Lekin o'qituvchi bu safar ularga past ball qo'yib shunday javob bergan ekan: "Bir xil shartlar ostida ikkinchi marta bir xil tavakkal qilish ahmoqlikdir".

("Abituriyent" gazetasidan)

HARVARD UNIVERSITETI

Oliy ta'lim muassasalari bo'yicha reytingda birinchi o'rinni egallagan bu universitet dunyoning eng nufuzli universiteti sanaladi. Unung tashkil qilinishi Buyuk Britaniyada ta'limning cho'qqilarini zabt etishga imkon yaratdi. Talabalarning ijodiy fikrlashi va iste'dodi qabulning asosiy shartlaridan. Ushbu dargoh 100 dan ortiq fakultet, 100 ta laboratoriyani qamrab olgan. Talabalar laboratoriyalarda yangi ixtirolarini kashf qilishadi. Dunyoning eng katta kutubxonalaridan biri ham shu yerda joylashgan.

Mashqlarni bajaring.

1-mashq. Bir yoki bir nechta to'g'ri javobni tanlang.

12

Xalq ta'limi ...azirligi (V) [v]

konsep...iya [s] (ts)

bah...lash (a) [o]

...nspeksiya (e) [i]

...mmalashtirish [o](a)

tab...y (i) [ii]

loyi...a (x) [h]

savo...xonlik [d] (t)

davlat b...djeti (yu) [u]
o'quv dast...ri [u] (i)

2-mashq. *Bir yoki bir nechta to'g'ri javobni tanlang.*

ta...sil olmoq (x) [h]
siv...lizatsiya [i](e)
ra...batlantirish (x) [g']
ma...sus sirtqi [x] (h)
id...ra (a) [o]
ta...biq etish (t) [d]
tavsi... (v) [f]
musho...ada [h] (x)
kund...zgi ta'lim shakli (i) [u]
qabul kv...tasi [o] (o')

3-mashq. *Matnda 6 ta so'z xato yozilgan. Ularni to'g'rilab yozing.*

Shaxsning **inteliktual** **saloxiyatini** o'stirish, jismoniy sog'lomligini ta'minlash, madaniy-ma'naviy **yetikligini** tarkib toptirishni maqsad qilib qo'ygan **uzliksiz** ta'limning bosh **bo'g'uni** **boshlang'ish** ta'lim hisoblanadi.

Xatosi	To'grisi
Intelliktual	intellektual
Saloxiyatini	salohiyatini
Yetikligini	yetukligini
Uzliksiz	uzluksiz
bo'g'uni	bo'g'ini
boshlang'ish	boshlang'ich

4-mashq. *Matnda 6 ta so'z xato yozilgan. Ularni to'g'rilab yozing.*

Nazariyaning **amaliyat** bilan bog'lanish mexanizmini **tushintirishda** Kelvin fikrini keltirsak, maqsadga **mubofiq**. Ya'ni u nazariyani tegirmon toshiga qiyoslaydi, amaliyot natijalarini esa shu tegirmon toshiga tushayotgan donga. Bundan shu **tushunsha** kelib chiqadiki, tegirmon toshi

o'zi qancha aylanmasin hech qanday foyida berolmaydi. Undan chiqadigan un donning sifati bilan aniqlanadi, agar don chirigan bo'lsa, sifatli un berolmaydi. Shuning uchun ham yaxshi eksperiment, tajriba ilg'or nazariya tuzishga asosiy shart hisoblanar ekan.

Xatosi	To'grisi
Amaliyat	amaliyot
Tushintirishda	tushuntirishda
Mubofiq	muvofig
Tushunsha	tushuncha
Foyida	foйда
Eksperiment	eksperiment

5- mashq. Moslikni aniqlang.

Tushunchalar	Izoh
PISA	15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash
TIMSS	4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash
PIRLS	Boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash
TALIS	Rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini o'rganish
Antiplagiat	Internet tarmog'ida joylashtirilgan elektron resurslar orasidan originallikka tekshiriliyotgan matnga o'xshash bo'lgan matnlarni aniqlash uchun mo'ljallangan dasturiy-texnik kompleks

6- mashq. Moslikni aniqlang.



Tushunchalar	Izoh
Soʻz birikmasi	ikki yoki undan ortiq mustaqil soʻzning tobe grammatik aloqa asosida birikishi natijasida hosil boʻlgan, borlikdagi narsa va hodisalarning nomini bildiradigan sintaktik tuzilma – nutq birligi
Darak gap	Maʼlum voqea-hodisa, belgi-xususiyat haqida tasdiq yokli inkor yoʻli bilan xabar beruvchi gaplar.
Soʻroq gap	Soʻzlovchi oʻziga nomaʼlum boʻlgan voqea-hodisa haqida maʼlumot olish maqsadida ishlatiladigan gap.
Buyruq gap	Kesimi buyruq maylidagi feʼllardan ifodalangan gaplar.
Sodda gap	Bir kesimlik xususiyatiga ega boʻlgan gap.

7- mashq. *Bosh boʻlaklar haqidagi toʻgʻri hukmni toping.*

Kecha guruh rahbari talabalar bilan nima haqida gaplashdi?

Javoblar:

bir bosh boʻlak: kesim (gaplashdi)

ikki xil bosh boʻlak: ega va kesim (guruh rahbari gaplashdi)

ikki xil bosh boʻlak: ega va kesim (talabalar gaplashdi)

8- mashq. *Quyidagi gap bir bosh boʻlakli gaplarning qaysi turiga mansub?*

Dars vaqtida oʻrindan ruxsatsiz turilmasin.

Javob:

shaxsi umumlashgan gap

shaxsi maʼlum gap



shaxsi topilmas gap

9-mashq. *Qolipga mos gapni tanlang.*

**ega+aniqlovchi+to'ldiruvchi+aniqlovchi+ aniqlovchi+
to'ldiruvchi+kesim**

So'z birikmasi komponentlarining tarkibiga ko'ra sodda va murakkab turlarga bo'linadi.

Kanalimizga a'zo bo'ling va eng so'nggi ta'lim yangiliklaridan xabardor bo'ling. (idum.uz)

10- mashq. *Bo'sh o'ringa to'g'ri javobni yozing.*

Xalqaro tashkilot ... ta'lim, ijtimoiy va gumanitar fanlar, madaniyat, axborot va ma'lumot texnologiyalari sohalarida o'z faoliyatini yuritadi.

[YUNESKO]

Muhokama qiling

CHARXPALAK

Maktabimiz biqinida ariq oqardi. Ariqda charxpalak bor edi. Katta tanaffusda charxpalakni tomosha qilishni yaxshi ko'rardim ... Yog'och gardishi ko'hna, temir paqirchalari zanglab ketgan.

Parraklariga ko'kimtir suv o'tlari yopishgan... Birov yolg'ondan turtib yuborsa, rostdan qulab ketadigandek... Charxpalak nolali g'iyqillab aylanadi. Kaftida suv ko'tarib, yuqoriga olib chiqadi... Tepaga chiqib olgan suv ortiga qaytmaydi... Charxpalak ham bunga ranjimaydi.

Yangidan yangi suv tomchilarini yuqoriga ko'tarib beraveradi... Nolali g'iyqillaydi...

Oradan ko'p yillar o'tib, o'sha charxpalak tushlarimga kiradigan bo'ldi. Nega shunday bo'lganini uzoq o'yladim...

So'ng... bir haqiqatni angladim. Men charxpalakni emas, ustozlarimni qo'msar ekanman. Suv – suv emas, men ekanman! Charxpalak – charxpalak emas, o'qituvchilarim ekan!



Meni – bir tomchi suvni katta hayot yo‘liga olib chiqib qo‘ygan ustozlarim – charxpalak zahmatini oqlay oldimmikan?.. Bilmadim.
...Ko‘hna charxpalak hamon tushlarimga kiradi . . .



QO‘SHMA GAP SINTAKSISI, MATN

Qo‘shma gaplar ikki yoki undan ortiq gaplarning mazmun va grammatik jihatdan birikuvidan tuziladigan sintaktik birlikdir. Qo‘shma gapni tashkil qilgan qismlar (gaplar) intonatsiyaga ko‘ra ham bir-biri bilan birikkan bo‘ladi.

Qo‘shma gaplar tuzilishiga ko‘ra va fikr ifodalash xarakteriga ko‘ra sodda gaplardan farqlanadi. Bu farqlar quyidagilardan iborat:


1. Gapni tashkil qiluvchi asosiy belgilardan biri bo‘lgan predikativ aloqa (ega va kesim munosabatini ko‘rsatuvchi aloqa)ning miqdori sodda gaplarda bitta bo‘lsa, qo‘shma gaplarda esa predikativ munosabatdagi markaz ikki yoki undan ortiq bo‘ladi.

Misol: 1) *Biz rostgo‘ylikni, halollikni ulug‘laymiz.* 2) *Ko‘klamning sayroqi qushlari tabiat ko‘rinishlarini kuylamoqdalar, ko‘m-ko‘k ko‘katlar silkinib qushlarni olqishlamoqdalar.*

Keltirilgan misollarning birinchisi birgina predikativ markazli (*Biz qadrlaymiz*), ikkinchisi esa, ikki predikativ markazli (a) *qushlar kuylamoqdalar*, b) *ko‘katlar olqishlamoqdalar*) gaplardan tashkil topgan. Shunga ko‘ra birinchi misol sodda gap hisoblansa, ikkinchi misol qo‘shma gap sanaladi. Chunki uning tarkibida birdan ortiq predikativ markaz mavjud.

Qo‘shma gaplar quyidagi xususiyatlarga ega:

Qo‘shma gap tarkibidagi komponentlar (qismlar) mazmunan bir-biriga bog‘liq bo‘ladi. Birdan ortiq predikativ markazga ega bo‘lgan gaplarni qator keltirish bilan qo‘shma gapni hosil qilib bo‘lmaydi. Masalan: «*Bahor keldi*» va «*daraxt barglari sarg‘aya boshladi*» gaplarini birlashtirib – «*Bahor keldi va daraxt barglari sarg‘aya boshladi*» deb qo‘shma gap tuzish mumkin emas, chunki bu ikki gap orasida mazmunga ko‘ra bog‘lanish yo‘q. Mazmuniy bog‘lanish uchun bu gaplarni «*Bahor keldi va kunlar isiy boshladi*» kabi qo‘llasak, birdan ortiq komponentlar orasida mazmuniy bog‘lanish mavjudligi uchun qo‘shma gapni hosil qilgani aniq ko‘rinadi.



Shuni ta'kidlash lozimki, qo'shma gap komponentlari orasidagi mazmun munosabati tugal xarakterga ega bo'lmay, u nisbiy tugal mazmun ifodalaydi.

3. Qo'shma gapning yana bir asosiy belgilaridan biri shuki, qo'shma gapning qismlarida (komponentlarida) gaplarga xos bo'lgan intonatsiya mavjud bo'ladi. Bu intonatsiya qo'shma gap orasida nisbiy tugallik xarakteriga ega bo'ladi. Yuqorida aytilgan predikativ qolipdagi birliklarda gaplarga xos bo'lgan intonatsiya mavjud emas.

Demak, qo'shma gap bo'lish uchun komponentlar semantik jihatdan bir-biriga bog'liq bo'lib, nisbiy tugal mazmunni ifodalashi; har bir komponentda predikativ markazning mavjud bo'lishi va gaplarga xos bo'lgan nisbiy tugal intonatsiyaga ega bo'lishi kerak.

Shularga ko'ra, ikki yoki undan ortiq sodda gaplarning mazmun va grammatik jihatdan, shuningdek, intonatsiyasiga ko'ra birikuvidan tuzilgan sintaktik birliklar qo'shma gap hisoblanadi.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da *matn* so'zi arabchadan o'zlashganligi, eskirgan kitobiy so'z ekanligi va aynan *tekst* so'zi anglatgan ma'noga tengligiga ishora qilinadi.

Matnlarning og'zaki va yozma matn turlarini farqlash lozim. Har qanday matnni unda ifodalangan axborotning hajm belgisiga ko'ra minimal matn va maksimal matn tiplariga ajratish mumkin. Badiiy uslubda yozilgan matnda minimal matn deb biror mavzuni yoritishga bag'ishlangan qatralar, xalq donishmandligini ifodalaydigan maqol, matal va aforizmlar, miniaturalar, hajviy asarlar, nomalar, she'r va she'riy parchalar, umuman, kichik mavzuni qamrab oluvchi bir necha gaplardan iborat butunlik tushuniladi. Maksimal matn deyilganda, keng ko'lamdagi voqealarni yoritish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan butunlik nazarda tutiladi. Badiiy uslubda hikoya, qissa roman, epopeya kabi yirik hajmli asarlar maksimal matn hisoblanadi. Bunday matn tarkibida epigraf, so'z boshi, muqaddima, so'ngso'z (epilog) kabi yordamchi qismlar ham ishtirok etishi mumkin. Shuningdek, matn lingvistikasiga oid ishlarda ma'lum bir matn tarkibidagi murakkab sintaktik butunlikka nisbatan mikromatn, yaxlit matnga nisbatan esa makromatn atamasi qo'llaniladi.

Matnlarni tiplashtirishda ularning lisoniy strukturasi nazarda tutilishi kerak. Shunga ko'ra tipologik jihatdan turg'un strukturali matnlar (ma'lumotnoma, dalolatnoma, patent kabilar) va erkin strukturali matnlar (maqola, hikoya, she'r roman kabilar)ni farqlash mumkin. Matnlar mazmuni



va ifoda maqsadiga ko'ra ham farqli tiplarga birlashadi. Bu nuqtayi nazardan matnlarni nutqiy muloqotning asosiy shakllariga uyg'un ravishda hikoya, tasviriy, muhokama matnlarga ajratish tilshunoslikda an'anaga kiritilgan. Matn funksional uslubiy mohiyatiga ko'ra ilmiy matn (tezis, maqola, ma'ruza, taqrizlar), badiiy matn, nasriy (nazmiy, nasriy asarlar), rasmiy matn (ma'lumotnoma, qaror, buyruq, tavsiyanoma, tavsifnomalar), ommabop matn (maqola, suhbat, tabrik, xitob nutqi) kabi tarmoqlarga bo'linadi.



SARBADORLAR

Muhammad Ali

... Abu Bakr Kalaviy minoralari yuksak, muhtasham binolari savlat to'kkan katta shaharga kirib borar ekan, ro'paradan tugun ko'tarib kelayotgan yigitdan turkiyda: "Bu qaysi shahar?" –deb so'radi. Haligi yigit suryoniy tilida nimadir dedi. Abu Bakr Kalaviy tushunmadi, takror – bu safar arab tilida gapirdi. "Bu yer Dimishq!" – deb javob berdi haligi yigit. Suhbat shundoq shaharga kiraverishda, katta bog'ning yonida ro'y bermoqda edi.

– Men musofirmen, Samarqanddan kelmakdamen... – Abu Bakr Kalaviy yigitga tikildi. – Shu shaharda vatandoshim bordir, mening ustozim... – Balki bilursiz?


– Kimdir ul kishi? Men etikdo'zman, ko'p ichida yuraman, balsam mumkin, - musofirga iltifot ko'rgizdi yigit.

– Muallimi soniy, Abu Nasr al-Forobiy... Turkistondan...

– O... kim bilmaydi deysiz bu ulug' zotni! – Qulfi dili ochilib ketdi etikdo'z yigitning. – Ul zotning kichikfe'lligi, kamtarinligi, tortinchoqligi hammani lol qoldiradi. Olamga mashhur alloma ekanliklariga qaramay, faqirona kun kechiradurlar. Xalab hokimi Sayfuddavla allomani saroyga chorlab, o'sha yerda istiqomat qilishga da'vat etibdur. Ammo muallim ko'nmabdi. Hokim xazinani ochdirib, istagancha boylikdan olingiz deb farmon qilibdur. Ul zot kuniga to'rt dirhamdan tanga tilabdur, xolos... Ajabki, u dirhamlarni ham yetim-yesirlar bilan baham ko'rar ekanlar...

– Shundoqmi? – so'radi Abu Bakr Kalaviy.

– Xudoning bir kuni Dimishq bozorida aylanib yurib, bir etikdo'z yigitga ko'zi tushibdur. Yigit tagcharimni tishida tortib etik tikayotgan ekan.



“Juda qattiq mehnat qilar ekansen. Bir kunda necha dirham topasen?” – deb so‘rabdilar Al-Forobiy. “Ikki dirham,” – deb javob beribdi yigit. Allomaning rahmi kelib, o‘zining to‘rt dirhamini ham berib turadigan bo‘libdi... Kamina o‘sha etikdo‘z durmen. Shundan beri hamsuhbatmiz... men har kuni pirimdan boxabardurmen, yegulik olib kelamen...

– Muallimi soniy qayerda istiqomat aylaydilar?..

– Mana shu yerda, – dedi yigit o‘ng tomonda yastangan katta bog‘ni ko‘rsatib. – Shu boqqa bog‘bonlik qiladilar.

– Iye! Yonlariga kelib qolibmen-ku! – hayratda bog‘ tomonga qaradi Abu Bakr Kalaviy.

– O‘zlari kim bo‘ladilar? – so‘radi yigit o‘z navbatida.

– Men shogirdlari bo‘lamen, Abu Bakr Kalaviy Uvays...

Tanishib olgach, yigit uni boqqa boshladi. Yo‘l – yo‘lakay Abu Nasr al-Forobiy haqida hikoya qilib bordi:

– Bir marta pirimdan so‘rabdilar: “Sen ko‘p bilasenmi yoki Arastu?”

U javob beribdi: “Agar men o‘sha davrda yashaganimda, u bilan uchrashib saboq olganimda, muallimning eng yetuk shogirdi bo‘lardim”. Yana bir marta juda qiziq bo‘lgan ekan. Sayfuddavla, Xalab podshosi saroyida fozilu fuzalolar majlisini chaqirtiribdi. Al-Forobiy anjumanga kirganda, podsho taxtda o‘ltirgan ekan. U kirgan odamning kimligini bilmabdi, tanimasni siylamas, deganlariday, beparvo allomaga joy topib o‘ltirishni buyuribdi. Al-Forobiy so‘rabdi: “Qandoq joy topay – o‘zimning martaba-yu mansabimga qarabmi yoki sening martaba-yu mansabingga, obro‘yingga qarabmi?” “O‘zing martabangga qarab joy top!” – debdi podsho. Pirim barcha amiru allomalarni ortda qoldirib, taxtning oldiga kelibdi-da, tiz cho‘kibdi. Podshoning dili qattiq ranjib, vazirga ko‘pchilik bilmaydigan pinhon tilda asta shivirlabdi: “Mana bu turk saroyda o‘zini qanday tutishni bilmadi, beodoblik ko‘rgizdi, majlisdan so‘ng bir ta‘zirini berib qo‘yinglar! Toki ikkinchi bundoq qilmasin!”. Buni eshitgan Al-Forobiy podshoga savol beribdi: “Men beodoblik qilmadim, qaysi aybimga ta‘zirimni bermoqchisizlar?” Podsho hayratdan barmog‘ini tishlabdi: “Avomunnosda bu til pinhondir, sen qayoqdan bilursen?” “Juda ko‘p til mening halvomdir, xotirjam bo‘lg‘il!” debdilar pirim. Shu payt majlis ahlidan kimdir o‘rtaga masala tashlabdi, mubohasa boshlanibdi. Savolga hech kim javob bera olmabdi. Al-Forobiy masalani barchaga tushuntirib, sharhlab beridi. Hamma qoyil qolibdi. Shundan hayron bo‘lgan Sayfuddavla pirimga murajaat qilib: “Sen muallimi soniy emasmusen? Chunki sen qilgan



ishlar yolg'iz o'shaninggina qo'lidan keladur, xolos", debdi. Pirim tasdiqlab bosh tebratibdi. Podsho tanimaganligi uchun darhol uzr so'rabdi.


Matnni o'qing. Mazmunini guruhingiz bilan muhokama qiling.

VIII MODUL. KASB-HUNAR

Ustoz maktabi

Nutq uslublari

A.Suyun "Ustod va shogird"





Mavzuga kirish:

Qo'lingiz dard ko'rmasin degan jumlani qanchalik ko'p foydalanasiz?

Dedilar: Dunyoda asli kim aziz?

Aytdilar: Uztozdir, ustoz begumon.

Tag'in aytdilarki, aziz, shubhasiz,

Ustozin qadriga yetolgan Inson. (A.Oripov)

Mavzuni o'rganishda quyidagi so'z va so'z birikmalariga e'tibor qarating:


Advokat, duradgor, diplomat, hamshira, haydovchi, hisobchi, hunar, iqtisodchi, kasb, kasb etikasi, mas'uliyat, muhandis, menejer, nanotexnolog, pedagog, sartarosh, tikuvchi, sha'ni, obyekt, shifokor

Abdulla Qahhorning fikrlarini o'qib kasb-hunarlar haqida munosabatingizni bildiring.

13

Oltmishga kirib bildim: umrim bekorga o'tmapti, odamlarga kerakli ekanman, hayotda iz qoldiribman.

Ko'pgina hunarmandlar qariganida suygan hunaridan mahrum bo'ladi: uloqchi ot chopolmaydi, surnaychi yaxshi puflolmaydi, o'yinchi oyog'ini





ko'tarolmay qoladi. Yozuvchi dutor yoki vinoga o'xshaydi – eskirgan sayin ochiladi, quvvati oshadi.

Eson-omon oltmishga kirganimga xursandman. Bu to'g'rida birdan-bir xursand bo'ladigan joyim bor: yozuvchilikda qirq yillik tajriba orttirdim. Bu tajriba umrimning qolgan qismini samarali o'tkazishimda menga juda qo'l keldi.

O'qing **KASBLARNING ICHIDA ENG SHARAFLISI**


Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo'l avvalo ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu haqda gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosni eslash bilan birga, ota-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo'lgan yana bir buyuk zot – o'qituvchi va murabbiylarning oliyjanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz.

Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifani ado etishda birinchi galda ana shu mashaqqatli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o'rnimizga keladigan yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanini o'zimizga yaxshi tasavvur qilamiz.

Bu yorug' olamda har bir odam o'zining mehribon ota-onasiga, ustoz va muallimlarga nisbatan hamisha minnatdorlik tuyg'usi bilan yashydi. Inson o'z umri davomida qanday yutuq va natijalarga erishmasin, qayerda, qanday lavozimda ishlamasin, maktab dargohida olgan ta'lim-tabiyasi uning yetuk shaxs va malakali mutaxassis bo'lib shakllanishida ulkan ahamiyatga ega ekani shubhasiz.

Muxtasar aytganda, maktab degan ulug' dargohning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi va ta'sirini, nafaqat yoshlarimiz, balki butun xalqimiz kelajagini hal qiladigan o'qituvchi va murabbiylar mehnatini hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ma'rifatparvar bobolarimizning fikrini davom ettirib, agarki dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o'qituvchilik va murabbiylikdir, desak, o'ylaymanki, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Chindan ham, o'qituvchi nainki sinf xonasiga fayz va ziyo olib kiradigan, balki ming-



minglab murg'ak qalblarga ezgulik yog'dusini baxsh etadigan, o'z o'quvchilariga, haqiqatan ham, hayot maktabini beradigan mo'tabar zotdir. Ona tilimizda "maktab ko'rgan", "maktab yaratgan" degan chuqur ma'noli iboralarning mavjudligi ham bu muqaddas dargohning, zahmatkash o'qituvchi mehnatining davlat va jamiyat hayotida qanchalik muhim o'rin tutishidan dalolat beradi.

Biz yurtimizda 1-oktabr sanasini O'qituvchlar va murabbiylar kuni sifatida umumxalq bayrami deb e'lon qilganimizning chuqur ma'nosi bor, albatta.

Bu bayram avvalo o'zining bilim va tajribasi, iste'dod va mahorati, insoniy fazilatlarini, ko'z nuri va qalb qo'ri, butun borlig'ini ayamadan, ma'rifat yo'lida beminnat xizmat qiladigan ustoz va murabbiylarimizga nisbatan xalqimizning azaliy hurmat-ehtiromining yaqqol namunasidir.

(“Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asaridan)

Mashqlarni bajaring.

1-mashq. *Bir yoki bir nechta to'g'ri javobni tanlang.*

shif...kor (a) [o]
adv...kat [o](a)
...amshira (x) [h]
dura...gor (t) [d]
tik...vchi (i) [u]
sart...rosh (o) [a]
mu...andis (x) [h]
...aydovchi [h](x)
iqtiso...chi [d](t)
...isobchi (x) [h]

14

2-mashq. *Bir yoki bir nechta to'g'ri javobni tanlang.*

pedago.. (k) [g]
...unar (x) [h]
men...jer [e] (i)
kas... (p) [b]
sha...ni () [ʃ]



mas...uliyat () [']
kasb et...kasi [i](e)
dipl...mat (a) [o]
ob...ekt [y] (')
n...notexnolog (o) [a]

3-mashq. Matnda 5 ta so'z xato yozilgan. Ularni to'g'rilab yozing.

Oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim sifatida ham raqabat bo'lishi uchun O'zbekistonda bugungi davlat oliy ta'lim muasasalari sonicha xusisiy institut va universitetlar bo'lgani ma'qul.


Xatosi	To'grisi
yurtlaridagi	Yurtlaridagi
Sifatida	Sifatida
Raqabat	Raqobat
muasasalari	Muassasalari
Xusisiy	Xususiy

4-mashq. Matnda 5 ta so'z xato yozilgan. Ularni to'g'rilab yozing.

Kasb sha'ni odamning mutahassis sifatida o'ziga va o'z kasbiga munosabatini, mutaxassisga jamiyatning munosabatini yoritadigan pazilatdir. Kasb sha'ni odamning o'zi va uning jamoasi erishgan abro'-e'tibarini qo'lab-quvvatlashini talap qiladi.

Xatosi	To'grisi
mutahassis	Mutaxassis
pazilatdir	Fazilatdir
abro'-e'tibarini	obro'-e'tiborini
qo'lab-quvvatlashini	qo'llab-quvvatlashini
Talap	Talab

5-mashq. Moslikni aniqlang.



Tushunchalar	Izoh
Kasbiy burch	Kasb egasining o'z mehnatiga munosabatini aks ettiradi va kasbning barcha imkoniyatlaridan Vatan qudratini rivojlantirish va mustahkamlash uchun foydalanishini taqozo qiladi.
Kasb sha'ni	Mutaxassis sifatida o'ziga va o'z kasbiga munosabatini, mutaxassisga jamiyatning munosabatini yoritadigan fazilatdir. Kasb egasi tomonidan o'z burchlarini fidokorona bajarilishining yuqori ijtimoiy ahamiyatini anglashi.
Kasb mas'uliyati	Shaxsning ish sifati va natijalar uchun javobgarligi, kasb vazifalarini vijdonan bajarishi.
Kasb etikasi (odob-axloqi)	Shaxsning jamoadagi kasbiy faoliyatidan kelib chiqadigan o'zaro munosabatlarni boshqaradigan axloqiy me'yorlar to'plami, xulq-atvor qoidalari

6- mashq. *Bo'sh o'ringa mos javobni tanlang.*

Kasbiy faoliyatda va ilmiy etikada zarur bo'ladigan jummalarni bilib olganingiz ma'qul.

O'zganing fikriga qo'shilish:

Bu borada fikringizga ... qo'shilaman.

Bu fikrga ... mumkin emas.

Bu fikrga ... to'g'ri keladi.


Bunga hech qanday ... yo'q.

Fikringizni

Bu borada men Siz bilan

Siz, ... , haqsiz.

to'la,



mutlaqo

afsuski

qo'shilmaslik

ma'qullamaslik

qo'shilishga

ma'qullashga

e'tirozim

qo'llab-quvvatlayman

hamfikrman

shubhasiz

NATIJAGA:

Bu borada fikringizga to'la qo'shilaman.

Bu fikrga qo'shilmaslik mumkin emas.

Bu fikrga qo'shilishga to'g'ri keladi.

Bunga hech qanday e'tirozim yo'q.

Fikringizni qo'llab-quvvatlayman.

Bu borada men Siz bilan hamfikrman.

Siz, shubhasiz, haqsiz.

7-mashq. *Bo'sh o'ringa mos javobni tanlang.*

Kasbiy faoliyatda va ilmiy etikada zarur bo'ladigan jummalarni bilib olganingiz ma'qul.

O'zganing fikriga qo'shilmaslik:

Fikringizga ... qo'shilmayman.

Fikringizga, ... , qo'shila olmayman.

Bu borada mening fikrim ... boshqacha.

Fikringiz

Men bu masalaga ... qarayman.

Bu menda


Mening ... bor.

Men bunga ... e'tiroz bildiraman.

Men bunga

umuman

albatta



afsuski
butunlay
to'la
bahstalab
boshqacha
shubha tug'dirdi
e'tirozlarim
qarshiligim
qat'iy
qarshiman

NATIJAGA:

Fikringizga **umuman** qo'shilmayman.
Fikringizga, **afsuski**, qo'shila olmayman.
Bu borada mening fikrim **butunlay** boshqacha.
Fikringiz **bahstalab**.
Men bu masalaga **boshqacha** qarayman.
Bu menda **shubha** tug'dirdi.
Mening **e'tirozlarim** bor.
Men bunga **qat'iy** e'tiroz bildiraman.
Men bunga **qarshiman**.

8-mashq. Qolipga mos gapni tanlang.
Sodda gap+sodda gap=qo'shma gap

Fanning ibtidosi – aql, aqlning ibtidosi esa sabr-toqatdir.

(Efendi Kapiyev, dog'istonlik yozuvchi.)

14

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila.
Aylamak oson emas haqin ado ming ganj ila.
O'rganish – bir hunar, O'rgatish – ikki hunar.

To'g'ri yo'l turgan joyda, qiyshiq yo'ldan yurma. (Maqol)

9- mashq. Qolipga mos gapni aniqlang.
Kesim+to'ldiruvchi+ega+kesim

O'qish azobi – vaqtinchalik. Bilmaslik azobi – abadiy.

Ilm talabida ta'til ham, nafaqa ham bo'lmaydi.

"Ko'p bilgan emas, bilimi manfaat keltiruvchigina donodir".

(Esxil, qadimgi yunon dramaturgi.)

Hamma narsani o'rganmoqchi bo'lgan emas, nimani o'rganmoqchi bo'lgan – olim.

10- mashq. Bo'sh o'ringa to'g'ri javobni yozing.

Faoliyatingizda amal qiling.

... emas, adolat yengar. (Maqol)

[Adovat]

Bilimga eltuvchi yagona yo'l bu – ... (Bernard Shou.)

[faoliyatdir]

Nutq uslublari



O'zbek tilidagi "nutq" va "notiq" so'zlarining asosi kelib chiqishi nuqtai nazaridan birdir. Nutq ustasining, nutqiy madaniyatni mukammal egallagan shaxsning nomi "notiq" bo'lib, Sharqda nutqqa ustalik an'anasi san'at darajasiga ko'tarilgan, "notqlik san'ati" deb yuritilgan. Har qanday va'zning, nutqning bosh maqsadi muayyan bir fikrni boshqalarga etkazish, shu fikrni "yuqtirish", unga ishon tirishdan iboratligi tabiiy. Masalan, necha ming yillardirki, o'qituvchining oliy vazifasi yosh avlod shuuriga ikki yo'nalishdagi bilimlarni, ya'ni o'zi o'qitadigan fandagi ilmiy haqiqatlarni va ayni paytda jamiyatda qaror topgan ma'naviy qadriyatlarni olib kirishdir.

Kishilar har qanday sharoitda va faoliyatning barcha sohalarida aloqa qilish jarayonida tildagi leksik, frazeologik, grammatik va fonetik vositalarni tanlash va ishlatishda bir-birlaridan ma'lum darajada farq qiladilar. Umumxalq tili doirasida til vositalarining bunday tanlab olinishi nutqda xilma xil ko'rinishlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Bunday xilma-xil nutq ko'rinishlari nutq uslublari deb yuritiladi.

O'zbek adabiy tilida quyidagi asosiy nutq uslublari bor: *so'zlashuv uslubi, badiiy uslub, rasmiy uslub, ommabop uslub, ilmiy uslub* (ayrim uslublarda so'zlashuv uslubidan boshqa barcha uslublar kitobiy uslub degan nom ostida beriladi).

Uslub («stil») atamasi qadimgi davrlardan boshlab qo'llanilgan bo'lsa ham u barcha davrlarda bir xil ma'noda qo'llanilmadi. Qadimgi rimliklar va yunonlar uni ishontirish san'ati ma'nosida, hindlar nutqni chiroyli tuzish, ifodali gapirish san'ati sifatida, arablar esa diniy marosimlarda kiyiladigan kiyimlar ma'nolarida qo'llay boshlaganlar. «Stilistika», «stil» atamalari filologik atama sifatida ancha keyin qo'llana boshladi.

Nutq uslublari tilning vazifasi – funksiyasi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham ular funksional uslublar deb yuritiladi.



USTOD VA SHOGIRD (hikoyat)

A.Suyun

– Polvonlikning qirq sir-hunarini
Mana, o'g'lim, o'rgatdim senga.
Endi borg'il, hech qanday polvon
Tusha olmas sening oldingga!
Shogird ketdi elni oralab,
Oylar, yillar soy kabi oqdi.
Bir kun ustoz eshigin tirab
Kimdir tarang musht bilan qoqdi.
... Ostonada sersavlat shogird
Turar mag'rur uyub qovog'in.
Yerga qarab so'z boshladi xit:
– Nima bo'lar endi bu yog'i...
Yurtlar kezdim, uluslar kezdim,
Qolmadi men yiqmagan polvon.
Kuragini yerga tekkizdim,
Bo'lsa hamki hatto arslon
Va lekin tan bergan yo'q el-yurt,
Siz qolibsiz – yiqmasam bo'lmas.
Siz borsizki, dovrug'im bebut,
Siz borsizki, toleyim kulmas...



Ustoz polvon shogird polvonga
 Bir soʻz demay, chiqdi kiyinib.
 Mardlar joyi – shonli maydonga
 El-olomon keldi yigʻilib.
 – Oyo, falak!..
 Ustoz shogirdin
 Bir zarb bilan urdi koʻtarib.
 Qalqib tushdi dunyoyi gardun,
 Qulab tushdi koʻk toʻntarilib.
 Toʻxtang! Aytgum bu ne sinoat:
 Saqlab qoʻygan edi bus-butun
 Qirq birinchi usulin ustod
 Shunday nomard shogirdlar uchun!


Javob bering.

1) Sheʼrdan olgan taassurotlaringizni oʻz soʻzlaringiz bilan tushuntirib bering.

2) Sheʼr matnidagi Sizning diqqatingizni jalb qilgan soʻzlarning maʼnolari boʻyicha “BBB” jadvalini toʻldiring. Soʻzlarning maʼnolarini bilib olish uchun “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”dan foydalaning.



Bilar edim	Bilishni xohlayman	Bilib oldim





IX MODUL. KITOB MUTOLAASI

Adabiyot – ma'naviyatni yuksaltiruvchi manba

Badiiy uslub

Oybek. Navoiy

Mutolaa, o'qish, uqish, idrok



Kitobni quyoshga tenglashtirishlariga o'z munosabatingizni bildiring?

Xonadonda chiroq bo'lmasligi mumkin. Lekin kitob bo'lmasa, bu go'shaning kunduzlari ham zimistondir.

(Ozod Sharafiddinov)

Mavzuni o'rganishda quyidagi so'z va so'z birikmalariga e'tibor qarating:

Adib, badiiy, bema'nilik, barkomollik, bezavon, batafsil, doston, jozibador, mubolag'a, mutolaa, mushoyira, sujet, simpozium, sermahsul, tuyuq, shoh va shoir, shoir, , she'riyat, chambarchas, g'azal, dastavval, firdavs, hissiyot, kamolot, mutolaa, mubalag'a, muddao, sarchashma, quvvat, targ'ibot, shaytanat, shashmaqom

O'qing

YUNESKO tavsiyasiga ko'ra, xalqaro statistikada hajmi 48 sahifadan kam bo'lmagan, taboqlab tikilgan davriy nashrlarni shartli ravishda kitob deyish qabul qilingan. Kitob o'zining ma'no darajasiga ko'ra ilmiy, siyosiy, badiiy, ommabop turlarga bo'linadi. Aqli raso, intellektual, madaniyatli kishilar hech qachon kitobdan o'zlarini ayro tutmaganlar. Boshqalarni bilmadim, agar men har kuni kitob o'qimasam, nimanidir yo'qotgan, lug'at fondim (so'z zaxiram) kamayib qolganday

tuyulaveradi. Shuning uchun kamina har qanday sharoitda kamida ellik varaq kitob o'qishni kanda qilmayman.

Kitobga mehr uyg'otishning omillaridan biri – adabiyot muallimlari haqida buyuk fizik olimi Albert Eynshteyn shunday degan edi: “Men aql egalari bo'lgan matematiklar oldida bosh egaman, qalb egalari bo'lgan adabiyotchilar oldida tiz cho'kaman”. Nima uchun buyuk daho matematiklar oldida bosh egyapti, adabiyotchilar oldida esa tiz cho'kyapti. Matematika fanining fizika faniga bog'liqligi hech kimga sir emas, hamma biladi. Xo'sh, adabiyot-chi? Bu fanni o'rgatuvchi adabiyotchilar oldida Eynshteyn nega tiz cho'kyapti? Qolaversa, matematika, fizika aniq fanlar, adabiyot esa ijtimoiy ahamiyatga ega. Bizningcha, ulkan olimning qalbida ezgulik urug'ini sochishda, vatanni, hayotni sevishga, buyuk kashfiyotlar qilishga ilhomlantiruvchi manba adabiyot, xususan, kitob bo'lgan.

Shu o'rinda o'zbek adabiyoti beshigini tebratgan ulkan yozuvchilardan biri Abdulla Qahhor: “Adabiyot atomdan kuchli” deganini eslaylik. Dunyoda shunday mamlakatlar bo'ladi, ularni na to'p, na o'q, na atom bilan egallab bo'ladi. Bunday mamlakatni buyuk so'z bilan, adabiyot bilan egallash mumkin. Adabiyot xalqlar do'stligini mustahkamlaydi, arzimagan kelishmovchilik bilan urush yoqasiga kelib qolgan davlatlarni yarashtiradi. Mashoixlar aytganidek, kelajakni faqat go'zallik qutqaradi. Ana shu go'zallikni kishilar qalbiga jo qiladigan kuch adabiyot emasmi?

Kitob – aql chirog'i, ko'p kitob o'qishda hikmat ko'p. Kitobga nisbatan hurmat-e'tiborda hech kim yaponlarning oldiga tusha olmasa kerak. Buni pedagog olim Jo'ra Yo'ldashevning bir gapi ham tasdiqlaydi. U kishi o'z ma'ruzalaridan birida shunday ibratomuz gapni aytgan edi: “Yaponiyada soatiga 360 km tezlikda poyezd ketyapti. Vagonda hamma kitob o'qiyapti. Qarasam, bitta men kitob o'qimayotgan ekanman. Uyalganimdan men ham shartta diplomatimni ochib, kitob o'qishga tushdim”.

(“Ma'rifat” gazetasidan)

ATOMDAN KUCHLI

Bugun insonning tafakkur olami kengayishiga o'ziga xos hissa qo'sha oladigan asarlar juda ko'p. Ularning qisqacha ro'yxati sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin.



O'zbek nasriy adabiyotidan Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlari; Abdulla Qahhor hikoyalari; Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasini" romani, "Adolat mezonini" qissasi; Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romani, "Yulduzlar mangu yonadi", "Oydinda yurgan odamlar" qissalari; Murod Muhammad Do'stning "Lolazor" romani; O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romani, "Dunyoning ishlari" qissasi; Xurshid Do'stmuhammadning "Bozor" romani, qissa va hikoyalari...

Jahon adabiyoti namunlaridan Aleksandr Dyumaning "Graf Monte Kristo" romani; Vilyam Shekspir dramalari; Lev Tolstoyning "Urush va tinchlik" romani; Gabrial Garsia Markesning "Yolg'izlikning yuz yili" romani; Mixail Bulgakovning "Usta va Margarita" romani; Chingiz Aytmatovning "Asrga tatigulik kun", "Qiyomat" romanlari, qissalari...

Maktab yoshidagi bolalar va o'smirlarga Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib", "Shirin qovunlar mamlakatida" romanlari; Chingiz Aytmatovning "Oq kema", "Sohil bo'ylab chopayotgan olapar" qissalari; Artur Konan Doylning Sherlok Xolmsning sarguzashtlari haqidagi hikoyalari; Tohir Malikning "Jinoyatning uzun yo'li", "Alvido, bolalik" qissalari kabi kitoblarni tavsiya qilish mumkin.

(“Oila davrasida” gazetasidan)

Topshiriq. Siz qaysi yoshdagi kitobxonga qaysi kitoblarni o'qishni tavsiya qilasiz, ularning ro'yxatini tuzing.

Muhokama qiling.

Xalq hikmatlari – “Turmush onasining dard chekib tuqqan to'ng'ich o'g'li” – degan edi Abdulla Qodiriy.


Mashqlarni bajaring

1-mashq. *Bir yoki bir nechta to'g'ri javobni tanlang.*

sho...ir (y) [i]

adi... (yozuvchi) [b] (p)

suje... (d) [t]



serma...sul (x) [h]
she...riyat [ʃ] ()
badii... [y] ()
gʻaz...l (e) [a]
tuy...q [u] (i)
jozi...ador [b] (v)
mub...lagʻa (a) [o]

2-mashq. *Bir yoki bir nechta toʻgʻri javobni tanlang.*

sho... va shoir (x) [h]
chambar...as [ch] (sh)
mutola... [a] ()


bark...mollik (o) [a]
bata...sil (v) [f]
musho...ira (y) [l]
beza...on (v) [b]
sim...ozium [p] (f)
d..st...n (a) [o]
bema...nilik () [ʃ]

3-mashq. *Bir yoki bir nechta toʻgʻri javobni tanlang.*

mutol... (a) [aa]
...issiyot (x) [h]
qu...at [vv] (v)
kam...lot [o] (a)
sarch...shma (o) [a]
nus...a [x] (h)
ma..sulot (x) [h]
mudda... (a) [o]
targʻib...t [o] (a)
ilm...u donish () [-]

4-mashq. *Bir yoki bir nechta toʻgʻri javobni tanlang.*

mub...lagʻa [o] (a)



firda...s (b) [v]
ir...oniy [f] (v)
globa...ashuv [ll] (l)
dasta...al [vv] (v)
shayt...nat (o) [a]
... ashmaqom (ch) [sh]
shi...atkor [dd] (d)
j...von (o) [a]
ijodiy...t [o] (a)

5-mashq. Noto'g'ri yozilgan so'zlarni to'g'rilab quyidagi maydonga yozing. Grammatik shakllarga ham e'tiborli bo'ling. Matnda 5 ta xato bor.


Kitob – bu insoniyatning qadim tarix moboynda yaratgan eng buyik mo'jizasi va ihtirosidir. U insonni aqlan yetuk bo'lishiga va ma'naviy kamolatiga yordam beradi.

Xatosi	To'g'risi
moboynda	mobaynda
buyik	buyuk
ihtrirosidir	ixtrirosidir
insonni	insonning
kamolatiga	kamolotiga

6-mashq. Noto'g'ri yozilgan so'zlarni to'g'rilab quyidagi maydonga yozing. Grammatik shakllarga ham e'tiborli bo'ling. Matnda 5 ta xato bor.

Dunyoda turfa ilimlar, bilimlar ko'p. Ularni ifoda yetuvchi kitoblarning son-sanoqi yo'q. Ollomalardan biri "Agar inson kitob o'qishdan to'htasa, u fikrlashdan ham to'xtaydi, degan edi.

Xatosi	To'grisi
ilmlar	ilmlar
yetuvchi	etuvchi
son-sanoqi	son-sanog'i
Ollomalardan	Allomalardan
to'htasa	to'xtasa



7-mashq. Matnda 6 ta so'z xato yozilgan. Ularni to'g'rilab yozing.

“Yosh kitobxon” tanlavining murakkap shartlari, qizg'in baxslardan so'ng mutlox g'olib aniqlanip, va'da qilingan Prezident savg'asi – “Spark” o'z egasini topdi.

Xatosi	To'grisi
Tanlavining	tanlovining
Murakkap	murakkab
Baxslardan	bahslardan
Mutlox	mutlaq
Aniqlanip	aniqlanib
savg'asi	sovg'asi

8-mashq. Moslikni aniqlang.

Tushunchalar	Izoh
Bibliografiya	Matbuot hamda yozuv asarlari haqida axborot tayyorlash va berish hamda ularni ma'lum ijtimoiy maqsadlarda targ'ib qilish bilan shug'ullanadigan ilmiy va amaliy faoliyat sohasi.
Badiiy uslub	Voqelikni badiiy obrazlar (timsollar) vositasida aks ettirib, tinglovchi yoki o'quvchiga estetik jihatdan ta'sir qiluvchi uslub
O'zbekiston Milliy kutubxonasi	1870-yil may oyida Toshkent ommaviy kutubxonasi sifatida ochilgan.
Elektron kutubxona	Navigatsiya va qidiruv vositalari bilan ta'minlangan turli xil elektron hujjatlarning tartiblangan kolleksiyasi.



Kutubxona	Bosma va ayrim qo'lyozma asarlardan ommaviy foydalanishni ta'minlovchi madaniy-ma'rifiy va ilmiy muassasa
-----------	---

9-mashq. *Moslikni aniqlang. Adiblarning asarlarini to'g'ri toping, mos raqamni yozing.*

Tushunchalar	Izoh
O'.Hoshimov	"Ikki eshik orasi"
A.Navoiy	"Farhod va Shirin"
G'.G'ulom	"Shum bola"
A.Qodiriy	"O'tgan kunlar"
T.Malik	"Shaytanat"
P.Qodirov	"Bobur"

10-mashq. *Bo'sh o'rinlarga mos so'z va birikmalarni qo'ying.*

"O'qishlar har xil bo'ladi. Birov ...uchun o'qiydi, birov ...chiqarish uchun, birov o'qiyotgan kitobini ... tahlil qilish uchun, ya'ni "burch yuzasidan". Birov bo'lak mashg'ulot bo'lmaganidan, ...uchun, birov nimanidir ...uchun, birov asardagi voqeaga, qahramonning taqdiriga ...o'qiydi". (Asqad Muxtor)

ermak

rohat

hordiq

badiiy

ilmiy

vaqt o'tkazish


so'rab olish

bilib olish

qiziqib

berilib

11- mashq. *Bo'sh o'ringa sinonimik qatordan mosini qo'ying.*



Eng qimmat kitob fransuz Jozef Fore tomonidan ... qilingan ... “Apokalipsis” kitobi hisoblanadi. 100 million ... frank miqdorida baholangan ushbu kitob Parijning zamonaviy san’at muzeyida saqlanadi.– 120 kilogramm.

Nashr, noyob, eski, vazni

Bosma, antiqa, qadimgi, og‘irligi

Chop, o‘zgacha, oldingi, o‘lchovi

Chop, noyob, eski, og‘irligi

12-mashq. *Bo‘sh o‘ringa sinonimik qatordan mosini qo‘ying.*

Dunyodagi eng ... kitob Londonning Britaniya muzeyida ... geografik atlas hisoblanadi. Kitobning ... bir metrdanva og‘irligi 320 kilogrammdir.

Vaznli, asraladigan, uzunligi, ziyod

Og‘ir, saqlanadigan, bo‘yi, ortiq

Katta, asrab-avaylanadigan, balandligi, oshiq

13-mashq. *Qolipga mos gapni tanlang. Ega+ kesim+kesim+ega*

“**Kitob – boylik. Lekin sotib olingani emas, o‘qilgani**” (A.Muxtor)

Ustiga kitob ortilgan eshak, Na olim va na donodir beshak. (S. Sheroziy)

Kitob ko‘rmagan kalla – giyoh unmagan dala. (Maqol)

14- mashq. *Qolipga mos gapni aniqlang.*

Sultonmurod Olim odam, til, so‘z, lug‘at haqida chiroyli ta’riflab yozgan edi. Ta’riflarning ketma-ketligini aniqlang.

Ketma-ketlik: *odam – til – so‘z – lug‘at – izohli lug‘at*



Ollohning eng buyuk ixtirosi – Ollohning eng buyuk ixtirosi –
Ollohning eng buyuk ixtirosi – Odamning eng buyuk ixtirosi – Odamning
eng buyuk ixtirosi

Ollohning eng buyuk ixtirosi – Odamning eng buyuk ixtirosi – Tilning
eng buyuk ixtirosi – Soʻzning eng mukammal xazinas



BADIIY USLUB


Badiiy uslub kishi hayotining hamma tomonlarini qamrab olishi, umuminsoniyatga xosligi, barchaga barobarligi, oʻquvchi yoki tinglovchiga hissiy-estetik taʼsir etishga yoʻnaltirilganligi bilan boshqa uslublardan ajralib turadi. Badiiy uslubda muallif asarning estetik taʼsirini kuchaytirish maqsadida tilning leksik va grammatik vositalaridan ustalik bilan va ijodiy foydalanishi, turli ifodaviy vositalarni qoʻllashi yoki oʻzi yangilarini yaratishi mumkin boʻladi. Shuning uchun ham bu uslubda yozuvchilar mavjud soʻzlarni obrazli ishlatishdan tashqari oʻziga xos soʻz va iboralar ham ijod etadilar. Badiiy nutqda til obraz, xarakter, manzara yaratishda, yuksak obrazlilikni namoyon qilishga xizmat qiladi.

Bu uslubda har bir yozuvchining voqelikni badiiy idrok etish koʻlami, ijod usuli, poetik mahorati badiiy nutqning janr xususiyatiga muvofiq tarzda bir-biridan farqlanadi. Shunga koʻra badiiy nutq uslubi nisbatan keng imkoniyatlarga ega oʻta qamrovli va boy nutq koʻrinishidir. Barcha turdagi sanʼat va adabiyot asarlari shu uslubda yaratiladi.

Badiiy uslubning oʻziga xos sintaktik belgilari umumxalq tilining boy imkoniyatlaridan qanchalik oʻrinli foydalanilganligini aniqlash orqali ochiladi.

Umumxalq tili yozuvchi ixtiyoriga gap qurilishining tayyor va qatʼiylashtirilgan usullaridan tanlab foydalanish imkoniyatlarini ham beradi.

Badiiy uslub sintaksisi sifatlovchining keng qoʻllanishi, soʻz tarkibida teskari, subyektiv tartibga keng yoʻl qoʻyilishi, ritorik soʻroq va undov gaplar, sintaktik shakllarning koʻp qoʻllanishi kabi holatlar bilan xarakterlidir.



Oqshom o'z xonasida bir ko'p do'stlari, yaqinlari, mulozimlari bilan, "rasm kushodi(ochilish marosimi)"ni o'tkazish haqida kengash qildi. Tajribali mulozimlar qancha ot, qo'y va qancha qoramol so'yilishi, qancha meva-cheva va hokazo kerakligi ham qanday tartib bilan o'tkazish to'g'risida ma'qul fikrlarni o'rtaga otdilar. Navoiy shu kundan boshlab tayyorgarlik ko'rishga ruxsat berdi.

Jum'a kuni injil yoqalari ajoyib katta yig'ilishni ko'rdi. Bu yerda a'yonlar, akobirlar, ulamolar, shoirlar, san'atkorlar, turli hunar-kasb vakillari, xullas, vazirlardan tortib Hirot yetimlarigacha qurama xalq hozir bo'ldi. O'nlab bahaybat qozonlarda taomlar tayyorlandi. Qanor-qanor pista - bodom va minglarcha quyum halvolar mehmonlar oldiga to'kildi. Ziyofatdan keyin xalq guruh-guruh bo'lib, binolarni tomosha qildi.

Madrasa va xonaqoh binolaridan iborat bir dasta binoga "Ixlosiya", kasalxona va hammom "Shifoiya", kutubxona ham buning qanotida, shoir o'zi, do'stlari, mulozimlari yashashi uchun soldirgan imoratlarga "Unsiya" deb nom qo'yildi.

San'atning uchta muazzam va ko'rkam guldastasi bo'lgan bu binolarning ta'rifi xalq tilidan tushmadi. Ularning dong'i qo'shiqlarda, qasidalarda yangradi, jonli so'zning qanotlarida uzoq yurtlarga shamolday uchdi.

Bu binolarning ilm va madaniyat o'chog'iga, ijodiy fikr manbaiga aylantirmoq yana ko'p g'ayrat talab qildi. Shoir "Ixlosiya" madrasasiga zamonning eng oldingi olimlarini – "Xazinai ulum va funun(ilm fanlarning xazinasi yoki katta olimlar ma'nosida)"larni mudarris tayinladi. Bular orasida Sultonmurod ilmi mantiq ham riyoziyot mudarrisi bo'lib kirdi. "Shifoiya"da xastalarni davolamoq uchun Xurosonning eng yaxshi tabiblarini jalb etdi. Bu yerda tib ilmidan dars etmak uchun buyuk tabib mavlono G'iyosiddin Muhammadni belgiladi. Olimlarning foydalanishi uchun kutubxonani hamma qimmatli asarlar bilan to'ldirishga kirishdi. O'nlab kotiblar qimmatli nodir kitoblarni bu kutubxona uchun ko'chirmoqqa boshladilar.

Madaniy muassasalarni boshqarish uchun har xizmat, har vazifaga alohida kishilar belgilandi. O'z mulklaridan keladigan daromadning bir qismini doimiy vaqf tariqida bu muassasalarga bag'ishladi.

Yillar o'tdi. Shoir qalamining ovozi cho'llar, tog'lar, dengizlarni oshdi. Uning g'azallardan terma kitoblar karvonlarning qimmatli xazinasini bo'lib, uzoq o'lkalarga, turli qavmlar, qabilalar, xalqlar orasiga yetdi. Navoiy unga qadar o'z xalqining hech bir shoiriga bajarish nasib bo'lmagan bir vazifani – she'r tog'ining yorqin cho'qqisiga chiqishni hayol qilardi. Bu – o'z ona tilida “Xamsa” yaratish edi. Adabiy muhozalar asnosida Eron xalqining o'lmas adabiy xazinalari – “Shohnoma”lar, - “Hamsa”lar allaqanday g'urur ham cheksiz muhabbat bilan yodlanarkan, Navoiy bir qarich yoshidan har vaqt o'ksinar edi: “Nega xalqim shunday xazinalardan benasib bo'lsin! Xalqimning chuqur idroki bor, toza zavqi bor g'ururi, an'anasi bor. O'lanlarda, laparlarda jaranglagan go'zal tili bor...” – o'ylardi ichida. Shoir qirq yoshida umrining buyuk g'oyasi, eng kuchli orzusini do'sti mavlono Jomiyga oshdi. Navoiy ilhomining qudratini, hatto uning ilk g'azallaridan tuyub, faxr bilan unga o'xshatmalar yozgan Jomiy bu istakni tabrikladi.

Navoiy sokin ijodiy hayot orzusi bilan yondi. Rasmiy davlat vazifalaridan qariyb bo'shadi. Fikr va g'ayrat toshqini “Xamsa”ga ag'darmoqqa jazm qildi. Biroq xalq ishidan, kurashlar bilan to'la hayotdan chetda tura bilarmidi? Mamalakat hayotining to'lqinlari uni kun sayin kuchliroq tortib ketadi. “Bosh qashig'ali vaqt yo'q!” Dehqonchilik qilib, hosilni kambag'al oilalarga, yetim-yesirlarga tarqatish, cho'llarda rabotlar qurdirish, taqir yerlarga suv chiqarib obod etish, xalqning arzdodini tinglash, yo'l-yo'riq ko'rsatish, ilm va san'at ahliga rahbarlik qilish kabi ishlarning hammasi vaqt va kuchni qamraydi. Bunga qaramasdan, Navoiy “Xamsa” ustida ajoyib, favqulodda bir chidam va g'ayrat bilan qalam yuritdi. Navoiyning boshida tarixning fikr daryolari to'lqinlanadi. Zamonning eng jonli, eng o'tkir, muhim masalalari qalamga hujum qilib keladi. Ular haqida o'ylash, saralash, ularning ildiziga yetish, so'ng she'rning yolqinli tiliga ko'chirish kerak!

“Xamsa” – go'yo ustma-ust qo'yilgan besh tog'... Har poyasi butun bir umrni qamraydi. Navoiy azamat hamlalar bilan hammasi bo'lib ikki-uch yil ichida bu besh tog'ning cho'qqisiga chiqdi.

Javob bering.

1) Romandan olingan parchani o'qib, ko'z oldingizda qanday manzara gavdalandi? Taassurotlaringizni o'z so'zlaringiz bilan tushuntirib bering.

2) Matndagi Sizning diqqatingizni jalb qilgan soʻzlarning maʼnolari boʻyicha “BBB” jadvalini toʻldiring. Soʻzlarning maʼnolarini bilib olish uchun “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”dan foydalaning.



Bilar edim	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

3) Alisher Navoiy haqida: xorijliklarning intervyulari, xorijiy davlatlar rahbarlari va jamoat arboblarning nutqidan iqtiboslar toʻplang.

4) Alisher Navoiyning sheʼrlaridan yod oling.

5) Navoiy bobomiz haqida yana qaysi asarlarni bilasiz, kinofilmlarni tomosha qilgansiz?




X MODUL. NUTQ ODOBI VA ETIKET

Nutq odobi va kasb etikasi

Soʻzlashuv uslubi

Erkin Vohidov. Hozirgi yoshlar

nutq, odob, etiket, voizlik



Tilingda bo'lsa boling, kulib turar iqboling, degan xalq maqoliga qanchalik amal qilyapmiz?

Mavzuni o'rganishda quyidagi so'z va so'z birikmalariga e'tibor qarating:

Andisha, iztirob, kiborlik, muomala, mulohaza, mulozamat, mujassam, mavqeyi, munosabat, muloyim, mustasno, murojaat, muvassal, sukut, taassurot, to'ldirish, tarixnavis, taraddud, tanbeh, xushmuomalalik

1-вазият.

Факультетингизда куйидаги хабарга кўзингиз тушди:
Институтимизда талабаларни таянч ОТМга стажировкага юбориш учун танлов эълон қилинмоқда. Номзодларга қўйиладиган талаблар:

- таълим йўналишининг 2-3-босқичида тахсил олаётганлиги;
- фанларни “Яхши” ва “Аъло” баҳоларга ўзлаштирганлик;
- илмий тадқиқот билан шуғулланиш;
- чет тилларни билиш даражаси бўйича гувоҳномаларга эга бўлиш.

Изоҳ: Бошқа ютуқлар ҳам эътиборга олинади.

Батафсил маълумот учун телефон: +99890xxxxxxx

Бу эълон сизни қизиқтириб қолди. Кўрсатилган телефон рақамига қўнғироқ қилиб бошқа ютуқларингиз бўйича маълумот олишда фойдаланишингиз мумкин бўлган жавобларни танланг ва танловда ғолиб чиқиш учун имкониятларингизни баҳоланг.

1. Саломлашиш

2. Ўзини таништириш

3. Қўнғироқ қилишдан мақсад чет тилини билиш бўйича гувоҳномаларга эга бўлмаганда қандай имконият берилишини сўраш

4. Миннатдорчилик билдириш

5. Хайрлашиш

6. Фан олимпиадасида ғолиб бўлганларга қандай имконият бўлишини сўраш

7. Ёшлар иттифоқи тадбирларида фаол қатнашганлик танловда аҳамиятга олиншини билан қизиқиш

8. Илмий тадқиқот фаолияти билан яқинда шуғуллана бошлаганлик; мақола ва тезислар чоп қилиниш арафасида эканлиги имкониятларини камайтириб қўймаслиги ҳақида хавотирини билдириш

9. Омад тилаш

10. Узр сўраш

2-вазият.

Қувончингизни ифодаланг:

– Сиз таянч университетда стажировкага юбориладиган бўлдингиз.

А) Мен танловдан ўтибман!

Б) Наҳотки, мени танлашди?

С) Яна ким бориши мумкин?

3-вазият.

Эътирозингизни ифодаланг.

– Бу стажировка 2 ҳафтага мўлжалланган.

А) Нима учун?!

Б) 2 ҳафтада нимани ҳам ўрганиш мумкин?

С) Муддатни ўзгартиришнинг иложи йўқми?

4-вазият

Таклифингизни билдиринг.

– Сиз сафарни ташкил қилиш бўйича таклифингизни билдиришингиз мумкин.

А) Мен сафарга икки кун олдин чиқсам дегандим!

Б) Сафардан сўнг шаҳарда ишим бор эди, менга қўшимча икки кунга рухсат бероласизми?

С) Сафар вақтида форум ва анжуманлар ташкил қилсак нима дейсиз?

5-вазият

Афсусланишни ифодаланг.

Сиз сафарда вақтингизда хорижга стажировкага юбориш бўйича суҳбат ўтказилади.

А) Мен бу йил хорижга боришни режалаштирмадим-ку!

Б) Эсиз, суҳбатга улгурмас эканман-да!

С) Майли ким борса, бораверсин.

Muhokama qiling.

Muloqot soʻzi asosan soʻzlashuv maʼnosida qoʻllanadi, bu soʻz arabcha boʻlib, uchrashuv maʼnosini bildiradi. Telefon orqali muloqot desak toʻgʻri boʻladimi? Qoʻllayotgan soʻzlarimizning maʼnolarini har doim ham oʻylab koʻramizmi?

16

Toʻyda yoki azada, marosimlarda nutq odobi qanday boʻlishi haqida fikrlashing.

Oʻqing.

Avtobusdan “reportaj”

Uzoqdan tanish avtobus koʻrindi. U bekatga kelib toʻxtashga ulgurmay, bu yerda turgan erkaklar yosh bolali ayollar-u qariyalarni



unutib, avtobus eshigiga yopishishdi. Ulovga amallab chiqildi. O'rindiqqa o'tirishni o'ylashga hojat yo'q. Beixtiyor o'rindiqqa ko'zim tushib, ularni aksariyat yoshlar band qilganini ko'rdim. Yonginasida yoshi katta ayol tik turganini ko'rib xijolat bo'lgan o'rta yosh ayol unga joy bergandi, opaxon u ko'rsatgan joyga o'tirishdan bosh tortdi. "Ha, keksalar ham hadeb yoshlar bilan joy talashaverishdan charchashibdida!" – deb o'yladim ichimda.

Yonginamda saqich chaynayotgan qiz qulog'iga quloqlik taqib olgancha, qo'shiq eshitib ketyapti. Go'yo butun olamda faqat u va qo'shiq aytayotgan qo'shiqchidan boshqa odam yo'qdek, gohida o'zi ham bosh chayqab kuylab qo'yadi.

"Hoy, tushmaysizmi?" – so'radi uning yonidagi ayol. Qizdan javob bo'lmagach, yana savolni takrorladi. Ayol oxiri jahl bilan uni turti:

– Ey qiz, nima balo, karmisan?!

Boyadan beri o'zbekcha "kuylayotgan" qiz dabdurustdan ruscha javob qaytardi:

– Nu chto, chto nado vam?

– Menga joy "nado" bildingmi?!


Ayolning vajohatidan qo'rqqan qiz unga yo'l berdi-yu, yana **quloqlik**ni taqib oldi.

Undan narida turgan yigit tinmay telefonda o'rtog'i bilan nimanidir muhokama qilib ketyapti. Telefonning puli ketadiyam demaydi, boshqalarga xalaqit beryapman degan fikr xayolining ko'chasiga ham kelayotgani yo'q...

Haydovchi ham yo'lovchilar ichida sergap odamlar ko'pligidan zerikkan, shekilli, magnitofonni baland qilib qo'ygan.

Tez-tez u yoqdan bu yoqqa o'tib, chipta tekshiradigan chiptachining xuddi sportchilardek bahaybatligidan har o'tganida, "Oyog'imni bosib olmasmikin?" deya yurak hovuchlaysiz. Ikki kishilik joyda uchta bolasi bilan o'tirib olgan bir ayol u bilan o'n daqiqa gap talashdi-yov! Chiptachi: "Bolalaringiz katta, hech bo'lmasa, ikkita joyga to'lang!" desa, yo'lovchi ayol: "Yo'q bolalarim kichkina, bitta joyga yo'l kira to'layman!" deb turib oldi. "Iya, mana bu bolangiz kamida ikkinchi sinfga borsa kerak?" – ayolning o'n yoshlar chamasidagi o'g'liga ishora qildi chiptachi. "Yo'q, bolalarim maktabga bormaydi, shunchaki ularning bo'yi baland, xolos..."

Shuncha to'polon ichida bir ayol dugonasiga bamaylixotir shirinlik retseptini maydalaaab tushuntirib ketyapti: "Yo'q, birinchi margarin



solasan, keyin un”. “Qanaqa margarin? Uyingda borini solaver?” Qanaqa un? Uyingda bor undan solasan, faqat elashni unutma. Elanmagan undan pishiriq yaxshi chiqmaydi...”

“Hmm, shunaqa deng, – bosh chayqadi undan nariroqda turgan ikki ayolning biri.

– Demak, keliningiz shunaqa ekan-da?

– Voy, nimasini aytasiz, egachi, men hali hamma gapni aytmadim. U aynan mehmonlar keladigan kuni boshqacha bo‘lib qoladi. O‘zi har safar shunaqa. O‘zinikilar kelsa, yelib-yugurib xizmat qiladi, biznikilar kelsa, qovog‘idan qor yog‘adi. Voy, tushishim kerak, mayli, qolganini keyin gaplasharmiz.

(“Tasvir” gazetasidan)

ULUG‘LAR TARBIYA HAQIDA

Olimlar tarbiyani uch qismdan iborat deb biladilar. Bular: badan tarbiyasi, aqliy tarbiya va axloqiy tarbiya. Lekin bu uch qismni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Ular bir-birlariga shunday bog‘liq va yaqinki, biriga zarar tegsa, boshqalarida ham nuqson paydo bo‘ladi. Biriga foyda tegsa, boshqalari ham undan bahramand bo‘ladilar. Kimki o‘z avlodining tarbiyasi ustida o‘ylayotgan bo‘lsa, farzandlarining jismi, aqli va axloqini bir darajada tarbiyalaydi. Intizom va tarbiyaga rioya qiladi.

Tarbiyaning har bir qismi tug‘ilishdan yetti yoshgacha avval ota-ona zimmasiga tushadi. Sakkiz yoshdan yigirma yoshgacha maktab va madrasa zimmasiga, keyin umrining oxirigacha odamning o‘z boshiga tushadi.

(Abdurauf Fitrat)

Aqlli xotin eri jahli chiqib baqir-chaqir qilayotganda jim turadi. Nihoyat, er hovuridan tushgach, uni ovutish uchun tilga kiradi.

(Plutarx)

Muhokama qiling.

Quyida shoir E.Vohidov qalamiga mansub she’rning qoraqalpoq tiliga tarjimasi berilgan. Tarjimani asliyat bilan taqqoslang. She’r mazmuniga tayanib hayot haqidagi mulohazalaringizni bildiring.

Kishipeyillik haqqida



Aytıńızshı gózlep aspandı,
Ne qılamız menmenlik áylep?!
Iyiledi bir waq kesegе,
Shalqayıp kep tursa da sháynek.

Kemirek bol hátte bir qádem
Bógeledi asıp-tasıǵan.
Sonlıqtan da insan keseni,
Súyer mudam peshanasınan.

(U. Xojanazarov tarjiması)

Duo qilishni biladigan odam (O‘. Hoshimov)

Mahallamizda munkillab qolgan chol bo‘lardi. Ko‘klam pallasi choyxonaning kuchala chiqargan tol tagidagi so‘risida mahsi-kalishli oyog‘ini cho‘zib, choy ichib o‘tirar, biz – maktab bolalari o‘qishdan qaytayotib salom bersak, qiroat bilan alik olar edi:

– Vo alaykum assaloom! Mullo bo‘ling. Umringizdan baraka toping! Sizning yuz yoshga chiqqaningizni ko‘rib o‘zim quvonib yuray, bo‘tam!


Mashqlarni bajaring.

1-mashq. *Bir yoki bir nechta to‘g‘ri javobni tanlang.*

muom...la (i) [a]
mul...haza [o](a)
muloz...mat (i) [a]
muja...am (s) [ss]
mavqe...i () [y]
munos...bat [a] (i)
mul...yim (a) [o]
ta...surot [as](a)
must...sno (o) [a]
mu...assal (v) [f]

2-mashq. *Bir yoki bir nechta to‘g‘ri javobni tanlang.*

suk...t [u] (i)



t...manno (o) [a]
muroj...t (a) [aa]
tarixna...is (f) [v]
taraddu...[d] (t)
tanbe...[h] (x)
...ushmuomalalik [x] (h)
andi...sha (y) [j]
i...tirob (s) [z]
kib...rlik (a) [o]

3-mashq. Matnda 4 ta so'z xato yozilgan. Ularni to'g'rilab yozing.

Agar qaysi til bilan so'z so'zliysan deb so'rasalar, sidq-u sadoqat tili bilan deb aydgil. Agar so'zni qaysi quloq bilan yeshitasan deb so'rasalar, qabul quloqi bilan deb aytgil.

Xatosi	To'g'risi
so'zliysan	so'zlaysan
aydgil	aytgil
yeshitasan	eshitasan
quloqi	qulog'i

4-mashq. Matnda 7 ta so'z xato yozilgan. Ularni to'g'rilab yozing.

Agar qo'l bilan berip hayir qilish iloji bo'lmasa, til bilan ham nav yetkazish mumkin. Odamni bir og'iz yaxshi so'z bilan hursant qilish kerak bo'lgan vaqtda unga xazina bersang ham, u qaramaydi. So'z bilan el o'limdan najod topadi, so'z bilan o'lik tan qayta tiriladi. So'z bilan dinsizlar musulmon bo'ladi, so'z bilan xayvon deganing insonga aylanishi mumkin.

Xatosi	To'g'risi
Berip	berib
Hayir	xayr
Nav	Naf
Hursant	xursand
Najod	najot

Musirmon	musulmon
Xayvon	hayvon

5- mashq. *Moslikni aniqlang.*

Tushunchalar	Izoh
uslubiyat	Til vositasining nutqda qo'llanish imkoniyati.
so'zlashuv uslubi	Kundalik muloqotda keng qo'llanadigan uslub turi.
nutq uslubi	Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum bir sohada qo'llanadigan ko'rinishi.
ik nutq	imo-ishora, tana a'zolari harakatidan aloqa vositasi sifatida foydalanish
toni	z kuchi
ning tozaligi	ning g'ayriadabiy birliklardan – dialektizmlar, varvarizmlar va zit so'zlardan xoli bo'lishi.

6- mashq. *Bo'sh o'ringa mos atamani qo'ying.*

Olimlarning fikriga qaraganda, kishilar muloqotda munosabatning faqat 7 foizinigina ... usulda, ya'ni so'z orqali, qolgan 38 foizini ohang va 55 foizini imo-ishora orqali bayon etadilar. (Bobojonov F.)

verbal

noverbal

aralash

7- mashq. *Bo'sh o'ringa mos so'zni qo'ying.*

Harakatlar va nigohlar nutq mazmuni va toniga muvofiq bo'lgandagina diqqatni tortadi. Muhim masala xususida gapirayotganda derazaga, shiftga

yoki xonadagi boshqa biror buyumga ...ni yo'naltirish nutqning ta'sirchanligiga butunlay putur yetkazadi. Bunday vaziyatda tinglovchilarning ko'zlariga tik qarab gapirish esa aksincha ta'sirchanlikni kuchaytiradi.

diqqat
e'tibor
nigoh

8-mashq. Qolipga mos gapni tanlang.
Ega+hol+aniqlovchi+kesim

Ilmsizga ishonch yo'q, hunarsizga quvonch yo'q. (Maqol)
Bobur nihoyatda dilbar shaxs edi. (Javaharlal Neru)
Andishaning otini qo'rqoq qo'yma. (Maqol)

9- qolipli diktant. (ВЛОЖЕННЫЙ ОТВЕТ)
Qolipga mos gapni aniqlang.
ega+kesim+ ega+ aniqlovchi+ kesim

Nutq odobi muloqot jarayonida nihoyatda zarur.
So'z jondir, ruh uning qolipidir. (Alisher Navoiy)
Komil inson qiyofasini yaratishga yo'naltirilgan milliy imijmeykerlar paydo bo'lishi shubhasiz. (Bobojonov F.)

10- o'z diktant. (ВВОД СТРОКИ)
Bo'sh o'ringa to'g'ri javobni yozing.

Enkayganga enkaygin boshing yerga ..., kekkayganga kekkaygin boshing ko'kka yetguncha.

[tegguncha]



SO'ZLASHUV USLUBI

Uyda, ko'chada, insonlarning o'zaro so'zlashuvida qo'llaniladigan uslub so'zlashuv uslubi deb ataladi. Bu uslublarning adabiy til me'yorlariga rioya qiladigan ko'rinishi adabiy so'zlashuv uslubi deb yuritilsa, bunday meyorlarga rioya qilmaydigan ko'rinishi oddiy so'zlashuv uslubi deb



ataladi. Adabiy so'zlashuv uslubi tilning adabiy me'yorlariga mos, tartibga solingan va ishlangan bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Adabiy so'zlashuv uslubi umumxalq adabiy tilining keng tarqalgan va barcha sohalar uchun bop turi bo'lib, u adabiy me'yorlarga mos, ishlangan va tartibga solingan bo'ladi. Adabiy so'zlashuv uslubi kundalik muloqot uchun xizmat qiladi, o'qitish ishlari, tarbiya va tashviqot shu uslubda olib boriladi, badiiy adabiyot shu uslubda yaratiladi.

Oddiy so'zlashuv uslubida esa betakalluflik bilan erkin muomala – aloqa qilish xarakterli xususiyatdir.

Oddiy so'zlashuv uslubi nutq muomalasi jarayonida (erkinlik bilan) adabiy til hamda sheva elementlari ishtirok etishi, fikriy idrokni keng qamrovli bayon etishi bilan ta'riflanadi. So'zlashuv uslubida ko'pincha turli uslubiy bo'yoqli so'zlar, grammatik vositalar bo'ladi, tovushlar tushib qolishi, orttirilishi mumkin: *Kep qoling! Obbo, hamma ishni do'ndiribsiz-da. Mazza qildik. Keta qool!*

Bu uslubda so'z tartibi qoidaga nomuvofiq bo'lishi (kecha konsert bo'ldi klubda); ko'chma, obrazli emotsional vositalar ko'proq (g'ayrat qil, shalvirama; Alini qarang, og'zi qulog'ida kabi) dialogik shaklda bo'lib, to'liqsiz gaplar va imo-ishoraning ko'p ishlatilishi (Kelyapti (navbatchi), Ketdimi?— Ha, kabi), takrorlar (Kelib-kelib shu gapni topdingmi?), talaffuzda erkinlik (na'lat (la'nat), yangitdan (yangidan), opti (olibdi) kabi) yaqqol namoyon bo'ladi. Oddiy so'zlashuv uslubi badiiy asarda personajlar nutqini individuallashtirishda keng qo'llanadi.

So'zlashuv uslubining quyidagi xususiyatlari bor:


1. Fonetik xususiyatlar.
2. Leksik-frazeologik xususiyatlar
3. Grammatik xususiyatlar

Oddiy so'zlashuvning asosiy sintaktik belgilari quyidagilar:

1. So'zlashuv uslubida fikr ko'proq to'liqsiz gap shaklida ifodalanadi.

Bu uslubiyat, turli imo-ishoralar, oldingi gaplar, so'roqlarga javob bo'lish, suhbatdoshlarning bayon qilinayotgan fikrga bo'lgan munosabati, xabar qilinayotgan voqea bilan qanchalik tanish bo'lishi, suhbatdoshlar bir-birini qanchalik tushunayotganligi kabi omillar bilan belgilanadi. Ixcham va sodda shakldagi gaplar keng qo'llanadi.

2. Faqat kesimdan tashkil topgan to'liqsiz gaplar ko'p qo'llanadi. Bunday gaplar ko'pincha takrorlanib kelib, ifoda ta'sirchanligini kuchaytiradi.



3. Oddiy soʻzlashuvda, ayniqsa, xalq ogʻzaki ijodi asarlarida kesimi koʻpincha sifatdosh /emish, sifatdosh/ekan konstruksiyalari hamda tushlangan ravishdoshlar bilan ifodalangan gaplar koʻp ishlatiladi. Bunda voqea-hodisaning eshitilganligi, hikoya qilinayotganligi ifodalanadi.

4. Maqol va hikmatli soʻzlar, turli xalq iboralari keng qoʻllanadi. Bular, bir tomondan, ifodaning taʼsirchanligini oshirsa, ikkinchi tomondan, ifodaning hayotiy tajribaga asoslanganligini koʻrsatib, nutqning yanada xalqchil boʻlishiga xizmat qiladi.

5. Qoʻshma gaplarga ham tez-tez murojaat qilinadi. Lekin qoʻshma gaplarning qismlari qisqa, ixcham shaklda boʻladi. Bogʻlangan qoʻshma gaplarga qaraganda bogʻlovchisiz qoʻshma gaplar koʻp kuzatiladi. Nutqning bu koʻrinishida koʻchirma gaplar alohida ajratilmaydi. Ular koʻpincha muallif gapi bilan birikkan holda qoʻllanadi.

Oʻtkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asaridan olingan parchalar bilan tanishing. Oʻz munosabatingizni bildiring.

Andisha

Ota-bobolarimiz shunday deb tanbeh beradilar: “Oʻchoqboshini hech qachon qoʻshning devoriga yopishtirib solma. Taom pishirayotganda oʻchogʻingdan chiqqan tutun qoʻshning koʻzini achitsa, yegan ovqating harom boʻladi!”

...Oʻzbekning andishasini isbotlash uchun yana qanday misol kerak?



Qari tolga suyab
Irgʻay asoni,
Oqsoqol soʻriga asta yonboshlar.
Xayoldan oʻtkazar kori dunyoni:
“Eh, hozirgi yoshlar,



Hozirgi yoshlar!”

U asr tengdoshi.
Butun umr endi
Kecha ko‘rgan tushday ko‘zi oldida,
Yigirma yoshida amirni yengdi,
Vodiyga suv ochdi o‘ttiz oltida.
Yoshligini eslar,
Uf tortar sekin.
Salgina chimrilar oq tushgan qoshlar.
“Biz ham yosh bo‘lganmiz bir mahal,
Lekin
Boshqacharoq chiqdi hozirgi yoshlar”.

U kolxoz tikladi,
Yangi yurt qurdi.
Bosmachiga qarshi ot surdi o‘ktam.
Jangu jadallarning barini ko‘rdi.
Ko‘rdi ochlikni ham,
Yupunlikni ham.
“Bizga hayol edi,
Tush edi faqat
To‘kin dasturxonu lazzatli oshlar.
Baxti boqiy bo‘lsin,
Ammo bu jannat
Qadrini bilarmikan hozirgi yoshlar!”

Ko‘z oldidan o‘tar qirq birinchi yil,
Maskov bo‘sag‘asi,
Achchiq qahraton.
Agar qulatmasa daydi o‘q sabil,
Berlindan qaytardi bo‘lib qahramon.
Eslar, har yon olov,
O‘t ichra dunyo.
Majruh gavdalaru uzilgan boshlar.....
“Yurt tinch bo‘lsin,
Bir gap bo‘lsa mabodo,
Bardosh berarmikin



Hozirgi yoshlar!”

Uy – joy qilib berdi mana, Turg‘unga,
Tumushga chiqardi Nazirasini.
Bukun esa oylar dorilfununga
Kirolmasdan qolgan nabirasini.
Domlasiga o‘zi borsinmi sekin
Ordenlarini taqib,
Oqilni boshlab...
“Kim biladi deysiz, bo‘sh-tobroqmikin,
Erkatoyroqmikin hozirgi yoshlar...”


Yana der:

“Bo‘sh qolsak tunlar bo‘lib jam
“Chordarvesh” o‘qirdik qurshab tanchani.
Bular tanimaydi Huvaydoni ham,
Ertayu kech o‘ylar kino, tansani.
Aqli kirarmikin bularning bir kun,
Kim biladi, qachon quyula boshlar!
Og‘ir kun ko‘rmadi.
Balki shuning – chun
Yengilroq o‘sdimi hozirgi yoshlar!”

Tohirni halitdan tinch qo‘ymas qizlar,
Yarim tunda qaytar uyga hamisha,
“Uncha bo‘lmasak ham ilmda bizlar,
Ammo kuchli edi odob, andisha.
Birovning qiziga sal qarab qo‘ysak,
Bizlar atalardik sho‘xu beboshlar.
Ba’zi kinolarmi buzmoqda andak,
Kapalak mijozroq hozirgi yoshlar...”

17

To‘ng‘ich o‘g‘li u kun qizaloq ko‘rgan,
Nomini Sharlotta qo‘yibdi, ajab.
O‘rtanchasi tog‘da yurgani yurgan,
Ba‘zan uch oyda bir kelmaydi yo‘qlab.
Nahot otasidan bo‘lsa azizroq
Qaysidir tog‘dagi qandaydir toshlar...






“Bizning bordi-keldi odatdan yiroq,
Bemehrroq o'sdi hozirgi yoshlar...”

“Kiyimlar-chi...
Qiziq bularning didi.
Ola-chipor kuylak...
Nimasi ko'rkam?
Rost aytsam unchalik yoqmagan edi
Otalarga bizning charm kamzul ham.
Baynalminal aytib, bayroq ko'tarib
Ko'chaga chiqqanda o'ktam safdoshlar,
Keksalar degandi yo'ldan qaytarib:
Nega shumlik qilar hozirgi yoshlar...”

Endi bularga ham har qalay og'ir,
Zamon shitobi tez, parvozi tikka.
Kecha tili chiqqan Nargiza o'qir
Birinchi sinfda matematika.
Bizlar xaftayakdan boshlagan edik,
Bular iks bilan igrikdan boshlar.
Durust, zehni o'tkir, qadami tetik,
O'zimizga tortdi hozirgi yoshlar.

Ginasi noo'rin,
Qarilik qursin.
Bekor yurmagandir tog'larda O'ktam.
Mana, kerak bo'lsa Rustamni ko'rsin,
Bolasidan a'lo jiyan bo'lsa ham.
O'zi qotmagina, niholdek xipcha
Nari borsa o'ttiz, o'ttiz bir yoshlar...
Fan doktori bo'ldi Maskovda kecha...
Balo chiqib qoldi hozirgi yoshlar.

Baxti butun bo'lsin,
Tolei bekam.
Shularning borligi mening iqbolim”.
Chol ko'z yoshin artar,
Shu payt mening ham



Kelajak yillarga uchdi xayolim.
Zamonlar keladir
Yana ajoyib.
Balki paydo bo'lar sun'iy quyoshlar.
U paytlar, kim bilsin,
Qarib – qartayib,
Munkillab qolarmiz hozirgi yoshlar.

Shunda kelajakning bog'lari aro
Biz, ya'ni keksalar suhbat qurgan chog'
So'zlarmiz:
“Qarshi deb atalgan sahro
Bizning qo'limizda bo'lgan edi bog'.
Esingdami Gazli,
Zilzilalar – chi?
Qayta shahar qurgan qardosh-qurdoshlar...
Biz yangi eradan bo'lgandik jarchi,
Nima ham ko'ribdi hozirgi yoshlar!


Qara,
Oq ko'ylakka galstuk taqib,
Agregat yonida turishar bular.
Biz ishladik qo'lni moylarga tiqib,
Endi rohatini ko'rishar bular.
Fanda inqilobni biz qildik ilk bor,
Ilk bor parvoz qilgan bizning yo'ldoshlar.
Ko'kni obod qildik,
Yerni ham gulzor.
Eh, hozirgi yoshlar, hozirgi yoshlar!”

17 Javob bering.

1) She'rdan olgan taassurotlaringizni o'z so'zlaringiz bilan tushuntirib bering.

2) Matndagi Sizning diqqatingizni jalb qilgan so'zlarning ma'nolari bo'yicha “BBB” jadvalini to'ldiring. So'zlarning ma'nolarini bilib olish uchun “O'zbek tilining izohli lug'ati”dan foydalaning.






Bilar edim	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

3) Odob-axloq, etika haqida mashhur shaxslarning nutqidan iqtiboslar to'plang.

4) She'rning o'zingizga yoqqan qismlaridan yod oling.





**XI MODUL. OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI,
INTERNET**

Internet hayotimizda

Publitsistik uslub

O'.Hoshimov. "Nur borki, soya bor"

Gazeta, jurnal, elektron nashr, elektron manzil



Mavzuni o'rganishda quyidagi so'z va so'z birikmalariga e'tibor qarating:

Axborot, annotatsiya, assotsiatsiya, vokansiya, huquqi, madaniyat, mualliflik, muassis, mushohada, obuna, nufuz, noxolis, ommaviy mo'tadil, ommaviy axborot vositalari, nodavlat OAV, tahlil, tashviqot, tafsilot, tezkor, tez sur'atlarda, so'z erkinligi, shiddatkor, nusxa

O'qing.

Matnlar bilan tanishing. Talabalar televideniya, radio va matbuot haqida shaxsiy mulohazalarini o'zbek tilida bayon qilganlar. Siz matnlarda yo'l qo'yilgan imlo va uslubiy xatolarni to'g'rilashga harakat qiling hamda ikkinchi matnni davom ettiring.

Men sevgan dastur

I.

Menga O'zbekiston teleradiokanalining har kuni tongda beriladigan "Assalom O'zbekiston" ko'rsatuvi juda yoqadi. Chunki, u bir nechta rubrikalarga bo'lingan. Har bir alohida mavzuni hikoyo qiladi, boshlovchidan tortib har bir ishtirokchigacha tomoshabinni o'ziga mahliyo qiladi. Turfa xil malumot va yangiliklar odamni hayratga soladi. Tanlangan mavzular, ularning dolzarbligi va uni boshlovchilarning

bayanlash usullari bu ko'rsatuvlarni har kuni ko'rishga chorlayveradi. Mavzular hayotiy vaqea-hodisalarga asoslanib tanlangan. Jurnalistlarning imidji ham o'ziga xos. Aslida har bir narsa tashqi qiyofadan boshlanadi. Ichki va tashqi qiyofa birlashib bir manoni akis etsagina haqiqiy natija beradi. Shuning uchun ham harkuni bu ko'rsatuvni ko'rishni kanda qilmayman.

II.

XXI asr "Texnika va informatsion texnologiyalar asri" deb nomlanmoqda. Bugungi kunimizni radio, televideniya, kompyuter va telefonlarsiz tasavvur qilish qiyin.

Men o'zim ko'pincha radio eshitishga qiziqaman...

Mashqlarni bajaring.

1-mashq. *Bir yoki bir nechta to'g'ri javobni tanlang.*

axb...r...t [o] (a)
mualliflik ...uquqi [h] (x)
nufuz () (s) [z]
mua...is (s) [ss]
musho...ada [h] (x)
ta...lil [h] (x)
tashvi...ot (x) [q]
ob...na (i) [u]
ta...silot (v) [f]
omma...iy axborot vositalari (b) [v]

2-mashq. *Bir yoki bir nechta to'g'ri javobni tanlang.*

18

n...davlat OAV (a) [o]
te...kor [z] (s)
ann...tatsiya (a) [o]
asso...siatsiya [t] ()
tez sur...atlarda () [ʻ]
v...kansiya [a] (o)
ommavi... madaniyat () [y]
m...tadil [oʻ] (u)



n...x...lis (a) [o]
s...z erkinligi [o'] (u)

3-mashq. Matnda 5 ta so'z xato yozilgan. Ularni to'g'rilab yozing.


Agar gazitlarda aniq, qisqa va sifatli axborat berib borilsa, gazitxoning o'zi ixtiyoriy ravishda abuna bo'ladi.

Xatosi	To'grisi
Gazitlarda	gazetalarda
Axborat	axborot
Gazitxoning	gazetxonning
Ihtiyoriy	ixtiyoriy
Abuna	obuna

4-mashq. Matnda 5 ta so'z xato yozilgan. Ularni to'g'rilab yozing.

«Ogox bo'ling, odamlar! – degan davat hamisha bong urgandek yangrab turishi kerak. Faxirlanish mumkin va lozim bo'lgan bebaxo qadriyatlarimizni, o'z mustaqilligimizni, tinchligimizni, jamiyatda millatlar va fuxarolar o'rtasidagi totuvlikni asrang. (I.Karimov)

Xatosi	To'grisi
Ogox	Ogoh
Davat	davat



Faxirlanish	Faxrlanish
Bebaxo	bebaho
Fuxarolar	fuqarolar
Tassarruf	tasarruf

5- mashq. *Moslikni aniqlang.*

Tushunchalar	Izoh
O‘zEOAVMA	ekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi.
WWW	“butun dunyo o‘rgimchak to‘ri”
OAV	Ommaviy axborot vositalari
Intervyu	Biror shaxs bilan suhbat.
Reportaj	Biror qiziq voqea guvohining jonli hikoyasi.
My.gov.uz	Davlat bilan muloqotning tez, samarali va qulay usuli.

6- mashq. *Moslikni aniqlang.*

Tushunchalar	Izoh
Esse	shaxsiy taassurotlar va mulohazalarni aks ettiruvchi uncha katta bo‘lmagan hajmdagi erkin tuzilgan nasriy matn.
Integratsiya	Ayrim qismlarning, elementlarning bog‘liq holatini ularni qo‘shib birlashtirishni ifodalaydi.
Ommabop uslub	Tashviqot-targ‘ibot ishlarini olib borishda qo‘llanadigan uslub, ya’ni matbuot uslubi.
Radio	Ozod yurt to‘lqinlari tasviriy ifodasiga mos tushuncha
“To‘rtinchi hokimiyat”	Muammoga, masalaga yoki qandaydir voqeaga qonunchilik



	hokimiyati, ijro hokimiyati, sud hokimiyatining diqqatini jalb qilishi mumkin bo'lgan "hokimiyat".
--	--

7-mashq. *Bo 'sh o 'ringa eng mos atamani qo 'ying.*

«To'rtinchi hokimiyat» atamasi jamiyatdagi ijtimoiy fikrga matbuotning qanchalik ta'sir ko'rsata olishini ifodalaydigan lirik atama hisoblansa-da, har bir vatandoshimizning diqqatini jamiyatda bo'layotgan ... jarayonga jalb qilib, unda daxldorlik tuyg'usini uyg'ota oladi va bunga haqqi ham bor.

siyosiy-ijtimoiy
ijtimoiy-siyosiy
siyosiy
ijtimoiy

8-mashq. *Bo 'sh o 'ringa mos atamani qo 'ying.*

Hozirgi kunda respublikamizda 1500dan ziyod ommaviy axborot vositasi faoliyat ko'rsatmoqda. Birgina O'zbekiston Milliy ...si tarkibidagi telekanallarning bir sutka davomidagi umumiy efir vaqti 616 soatni tashkil etmoqda. Holbuki, mustaqillikdan oldin bu raqam bor-yo'g'i 48 soatga teng edi, xolos.

Teleradiokompaniya
Teleradiokampaniya
teleradiokompaniya

9- mashq. *Ommabop uslub xususiyatiga mos gapni tanlang.*

«Haqiqat ishtonini kiyguncha yolg'on dunyoning yarmini aylanib ulguradi.

(Mark Tven)

«Muvaffaqiyat faqat intiluvchan odamgagina nasib qiladi. Qiyin sharoitda tushkunlikka tushadiganlarni esa juda kam yo'qlaydi».





10- mashq. Bo'sh o'ringa mos atamani yozing.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo'lgan hamda bosma tarzda (gazeta, jurnal, axborotnoma, bulleten va boshqalar) va/yoki elektron tarzda (tele-, radio-, video-, kinoxronikal dasturlar, umumfoydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlaridagi veb-saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari ..., deb ko'rsatilgan.

[OAV] yoki [Ommaviy axborot vositalari]




PUBLITSISTIK USLUB

Publitsistika keng ma'noda ijtimoiy-siyosiy hayot masalalarini yoritadigan barcha turdagi asarlarni o'z ichiga oladi. Bu uslub ham o'zining yozma va og'zaki ko'rinishlariga ega. Hayotning muhim ijtimoiy-siyosiy masalalariga bag'ishlangan bosh maqolalar, felyeton, murojaatnomalar, chaqiriqlar, deklaratsiyalar uslubning yozma turidagi asarlaridir.

Publitsistik uslubning yozma va og'zaki ko'rinishlari o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lsada, ular publitsistik uslubning umumiy talablariga bo'ysunadi. Chunonchi, bu uslubning ikkala turida ham siyosiy faollik, hozirjavoblik, o'tkir va ta'sirchan notiqlik, mantiqiy salobat, tashviqot va targ'ibot kabi xususiyatlar mavjud bo'ladi.

Publitsistik uslub siyosiy-ijtimoiy doiradagi munosabatlar uchun xizmat qiladi. Bu uslubning yozma turiga publitsistik maqolalar, feleton, murojaatnoma, xatlar, chaqiriqlar kirsada, og'zaki turiga notiqlik kiradi. Bu uslub, avvalo, tashviqot va targ'ibot uslubi bo'lganligi uchun ham unda siyosiy faollik, hozirjavoblik, o'tkir va ta'sirchan notiqlik, mantiqiy mulohaza va dalillar bilan tushuntirish, isbotlash kabi belgilar ustunlik qiladi.

Shunga ko'ra publitsistik uslubda yozma nutqqa xos xususiyatlar (ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalarga oid leksikaning, intonatsion sintaktik vositalarning ishlatilishi) ham, badiiy uslubga xos belgilar (obrazli ifodalar, bo'yoqdor so'zlarni qo'llash) ham o'zaro uyg'unlashadi. Bu





uslubda hayotiy voqea va dalillar oddiygina qayd qilinmay, jo'shqin va haroratli misralarda ifodalanadi, ulardan umumiy xulosalar chiqariladi hamda muhimi, xalqqa murojaat, undash, qiziqtirish orqali tinglovchi yoki o'quvchiga ta'sir ko'rsatiladi.



NUR BORKI, SOYA BOR

O'tkir Hoshimov


Ayasi qanchalik quvonishni, qanchalik duo qilishini ko'z o'ngiga keltirib, o'ziyam suyunib ketdi. Bugun bo'lsa felyetoni bosilib chiqdi. Sherzod ish shunchalik tezlashib ketishini kutmagan edi. Kecha u felyetoninni topshirishi bilan muharrir o'qib chiqdi-yu, navbatdagi sonda bosishga topshiriq berdi. U Moskvaga allaqanday kengashga ketayotgan ekan. Muharrir felyetonni o'zi borida hal qilib ketishni istaganini Sherzod tushundi. Bunaqa ishlar «zam»ga qolsa mujmallashib ketishini, chamasi, redaktorning o'zi ham bilar edi.

Sherzod ertalab barvaqt turdi-da, gastronom oldidagi do'konchadan gazeta sotib oldi. «Maktabning xo'jayini kim?» degan felyeton to'rtinchi sahifada bosilgan edi. Sherzod avtobusda ketarkan, uni yana sinchiklab o'qib chiqdi, Raisning ko'p yillardan beri mo'l hosil yetishtirishga urinib kelayotgani, ishning ko'zini biladigan odam ekanligi ta'kidlab o'tilgan, ammo o'ziga ortiqcha bino qo'yib yuborgani, odamlarga zug'um o'tkazayotgani tanqid qilingan edi. Sherzod o'zining beg'araz yozgani, hech kimga ortiqcha bo'yoq surkamaganiga yana bir bor ishonch hosil qilib, quvondi.

Ammo quvonchi uzoqqa bormadi. U sakkizinchi qavatga chiqishi bilan sekretar juvonga ro'para keldi.

— «Zam»ning oldiga kiring, darrov! — dedi sekretar Sherzodning yo'lini to'sgudek bo'lib.

Sherzod xayolan kulimsirab qo'ydi. Muharrir o'rinbosari yoshi oltmishlarga borgan, o'zi ham, fe'li ham g'ildirakka o'xshagan dum-dumaloq kishi edi. U boshini shiftga, oyog'ini yerga tegizmay yurishga o'rganib qolgan, o'zining soyasidan o'zi qo'rqardi. Muharrir borligida



«zam»ning bor-yo'qligi aslo bilinmas, ammo redaktor biron yerga ketib, ish «zam»ning zimmasiga tushsa, har kuni majlisbozliklar boshlanardi. «Zam» bu bilan bir tomondan o'z hukmini ko'rsatib qo'yishga, ikkinchi tomondan har ehtimolga qarshi yukni xodimlarga ortib, o'zi bir chekkaga chiqib olishga urinar edi. Sherzod buning sababini yaxshi bilardi. «Zam» xato qilib qo'yishdan qo'rqr, hamisha hamma ish sip-silliq bo'lishini xohlardi. Hozir ham u shuni o'yladi-yu, jilmayib so'radi:

– Majlismi?

– Yo'q! – sekretar keskin bosh chayqadi. – Bitta o'zingizni chaqiryaptilar. Boyadan beri uch marta so'radilar.

“Felyeton masalasida chaqirgan”. Sherzodning xayoliga lop etib shu fikr keldi-yu, hamon qo'lida turgan gazetani buklab, pidjagining cho'ntagiga soldi. Redaktor kelib-kelib shu paytda safarga ketganini qarang, hamma narsa shunaqa aksiga oladi o'zi!”

Zamning kabineti o'ziga xos bezatilgan edi. Yerga gilam poyandoz to'shalgan, stol ustida qadimiy marmar siyohdon, choynak-piyola turardi. Charm kresloga oq g'ilof qoplangan, kresloning o'tirg'ichi yumshoq bo'lishiga qaramay, ”zam” uyidan maxsus gardishsimon yostiqcha tiktirib kelgan, shu yostiqchani tagiga qo'yib o'tirardi. Hozir ham u kreslo suyanchig'iga yelkasini tashlagancha, gazeta o'qir, qabariq ko'zoynak ortida ko'zlari g'ayri tabiiy darajada katta-katta ko'rinardi. U yum-yumaloq yuziga g'oyat jiddiy tus berib, to'rtinchi sahifani ko'zdan kechirardi. Sherzod bir qarashdayoq uning feletonga tikilib o'tirganini payqadi. Sekin salom berdi. Muharrir o'rinbosari ko'zoynagini yiltiratib, bosh silkib qo'ydi-da, ”bu yoqqa o'tiring”, degandek imo qildi. Sherzod deraza yonidagi stulga kelib o'tirdi. ”Zam” yana diqqat bilan felyetonni ko'zdan kechirishga tushdi. U hech nima o'qimas, chamasi Sherzodni boplab so'kishga shaylanar, ammo gapni nimadan boshlashni bilmas edi.

– Chaqirgan ekansiz! – dedi Sherzod, nihoyat, toqati toq bo'lib.

“Zam” keskin bosh ko'tardi. Ko'zoynagini oldi-da, qars etib stolga tashladi.

– Siz nima qilib yuribsiz o'zi? – dedi jerkib. – Sizni deb qachongacha gap eshitamiz bizlar!

“Obbo, – deb o'yladi Sherzod undan ko'z uzmay. – Ancha qovuradi shekilli!”

– Yo'q, bunaqa ishlarni ataylab qilasiz shekilli, siz!

U “siz” so'zini g'ijinib, kesatiq bilan ta'kidladi.

– Dejur bo'lganingizda xato o'tkazib yuborasiz! Sahifa o'qiyotganda



allaqanday asarlaringizning suyujiini o'ylab o'tirasiz!

Sherzod kasalxonaga tushish oldidan o'tkazib yuborgan xatosini "zam" hali unutmagan ekan. Yana shuni eslatishi Sherzodning g'ashini keltirdi.

– Shu gapni avvalgi majlisda aytgansiz! – dedi u "zam"ning so'zini bo'lib.

«Zam»ning lablari titrab, sip-silliq lo'ppi yuziga qon urdi.

– Manavi-chi! – dedi feleton bosilgan sahifani kaftining orqasi bilan shapatilab. – Hamma ishni rasvo qilib qo'yibsiz-ku. Kim javob beradi bunga!

– Nima bo'пти? – dedi Sherzod xotirjam gapirishga urinib.


– Yana nima bo'пти deydi-ya! – azbaroyi tutaqqanidan «zam»ning yuzi battar qizarib ketdi. – Kinga osilayotganingizni bilasizmi? Kim bilan olishayotganingizni bilasizmi, o'zi?! Arzimagan bir gapni bahona qilib, butun respublikaga taniqli odamni felyeton qilish shartmidi!

«Rais buva ishga kirishibdi, – deb o'yladi Sherzod «zam»dan ko'z uzmay. – Pitillab qopti! Gap ta'sir qilibdi, yaxshi!»

«Zam» hamon qo'llarini asabiy silkitgancha, shang'ilib gapirar, raisning mashhur odam ekanligi, shundoq odamni feleton qilish mutlaqo noto'g'riligi, mabodo redaktor buyurgan taqdirdayam bu ishni qilmasligi kerakligini gapirar edi. «Raisning tagi baquvvat, shundan qo'rqyapman, deb qo'ya qolmaydimi, bu! Nima qiladi gapni cho'zib?» – deb o'yladi Sherzod, deraza tomonga qarab.

Havo bulut edi. Nashriyot hovlisidagi tut daraxtining shoxlari asabiy silkinar, daraxt ostida turgan kabob ko'rasidan tutun burqsib havoga taralar edi. Shamol borgan sayin kuchayib, yaxlit derazaning allaqayeridan gurillab kirar, shiftdan yergacha osilib turgan qiya ochiq darparda ohista silkinib qo'yar edi. Sherzod derazaning tashqari tomonida, silliq alumin soyabon burchagida hurpayib o'tirgan musichani endi ko'rdi. Musicha bir burchakka qisilib olgan, shamol kuchaygan sari momiq patlarining orasi ochilib kul rang tusga kirar, jajji oyoqlari bilan soyabon qirrasiga yopishgancha, munkib-munkib ketar, munchoqdek ko'zini jovdiratib atrofqa qarab qo'yar edi. Shamol esa kuchaygandan kuchayib borar, musicha sirg'alib-sirg'alib ketar, alumin soyabon qirrasiga yanayam mahkamroq yopishardi.

Javob bering.





1) Jurnalist hayotini qanday tasavvur qildingiz? O'z so'zlaringiz bilan tushuntirib bering.

2) Romandan olingan parcha matnidagi Sizning diqqatingizni jalb qilgan so'zlarning ma'nolari bo'yicha "BBB" jadvalini to'ldiring. So'zlarning ma'nolarini bilib olish uchun "O'zbek tilining izohli lug'ati" dan foydalaning.

Bilar edim	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

3) Mashhur jurnalistlarning nutqidan iqtiboslar to'plang.

Mustaqil ish. O'quv loyihasini bajaring. *"Jurnalist surishtiruvi"*






XII MODUL. INSON, TABIAT, EKOLOGIYA

Tabiat – uyimiz

Atamalar

O.Matjon. “Orolga yordam”

Tabiat, himoya, ekologiya



Mavzuga kirish:
Biz tabiat farzandimiz, unga mehr ko'rsata olyapmizmi?

Mavzuni o'rganishda quyidagi so'z va so'z birikmalariga e'tibor qarating:

Atrof-muhit, baquvvat, globallashuv, dinamik, ekologik, gazlangan salqin ichimliklar, hayajonlanish, immunitet, jismonan, mahsulot, muvozanat, mineral, maktab oshxonasi, noxushlik, nazorati, osoyishta, ovqatlanish, sog'lik, sanitariya-epidemiologiya, salomatlik saboqlari, tibbiyot, uglevod, yarimtayyor mahsulotlar

Muhokama qiling.

1-fikr. Abu Rayhon Beruniy bobomiz **naft** deb aytgan, yozgan suyuqlik atamasining turkchalashgan ko'rinishi rus tilida нефть tusini olib, bizning lug'atimizda ham shu tarzda o'rnatib olgan.

2-fikr. кун.узчилар русча джунгли ни “жунгли” қабилида ўзлаштириб қўя қолганлар. Бу ерда гап кўпчиликка маълум “чангалзор” сўзимиз борлигидагина эмас, чангал эски санскритчадаги жангал дан ясалгани ва бизга форс тили орқали кириб келгани, уни Алишер Навоий ҳам кўп қўллагани, русча джунгли доимгидек инглизчадаги jungle дан ясалгани, охирги атамани эса бобурийлар салтанатини босиб олган улуғбританияликлар ҳиндий ва урду тилларидан кўчирганларини билмасликларида.

Azamat Ziyo

Javob bering. Bu fikrlar o'rtasida bog'liklik bormi? Qanday?



O'qing.

Xalqaro press-klubning navbatdagi sessiyasi Nukus shahridan deyarli 300 kilometr olisda “Orol va Mo‘ynoq taqdiri: dengiz chekinyapti, lekin inson chekinmaydi” mavzusida o‘tkazilib, sun’iy yo‘ldosh orqali jonli efirga uzatildi. Mazkur joyda bundan 50 – 60 yil avval 56 metrlik suv bo‘lgan.

Sessiyada ta’kidlanishicha, Mo‘ynoqda Sudochoye, Mo‘ynoq qo‘ltig‘i, Mejdurechye, Jaltirbas kabi 10 – 17 ming gektarni tashkil qiladigan ko‘llarni saqlab qolish va baliqchilikni rivojlantirish bo‘yicha dastur tayyorlanmoqda. Ko‘llarning baliqlari Mo‘ynoq konserva zavodiga yetkazib beriladi, qamishlar esa tumanda qurilayotgan DSP zavodi xomashyosi bo‘ladi.


Davlat rahbarining Orol muammosini yechishga yangicha yondashuvi bo‘yicha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi spikeri o‘rinbosari B.Alixanov shunday dedi: Yarim asrdan buyon Orol muammosini hal qilish bo‘yicha “pichoqqa ilinadigan” hech narsa ishlanmagan. Minbarlarda, yig‘ilishlarda “Orol, Orol” deb quruq bong urganmiz. Bugun Orolbo‘yi hududini ekologik innovatsiya va texnologiyalar zonasi, deb bejiz aytishmaydi. Orolning qurigan maydonida saksovul ekish, himoya o‘rmonzorlarni barpo qilish 2018 yil 17 dekabrda boshlandi. Jami 507 muhandislik va qishloq-qurilish texnikalari Orolning qurigan maydoniga safarbar qilindi. Shu kungacha 27 ming 215 gektar maydonga saksovul urug‘lari sepildi va ko‘chatlar o‘tqazildi. Samolyotlar yordamida 18 parvoz amalga oshirilib, jami 4 ming 400 gektar maydonga saksovul urug‘lari sepildi. Tegishli olimlar ham jalb qilinib, tuproq tahlillari olinmoqda.

O‘tgan yili Qoraqalpog‘istonga yopirilgan tuz bo‘roni ko‘pchilikni tashvishga solib qo‘ydi. Tuz aralash chang-to‘zonning qishloq xo‘jaligiga zarari mutaxassislar va olimlar tomonidan o‘rganilganda, tuzli qumlar qishloq xo‘jaligi ekinlarini kuydirib, qovjiratib qo‘yganligi ma’lum bo‘ldi. Hududda bronxial astma va allergik renit kasalliklari avj oldi.

Orolning qurigan tubini o‘rmonzorga aylantirish ana shunday ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy muammolar yechimidir.

Saksovuldan chiqqan kislorod havo ifloslanishining oldini oladi, so‘ng hududda yaylovlar paydo bo‘ladi, chorvachilik rivojlanadi.

Arab davlatlarida sahrodan turizmni rivojlantirishda samarali foydalanishadi. Tuyalarda sayr qilish, rallilar tashkil qilish, ov turizmi va boshqa imkoniyatlarimizni ishga solish vaqti keldi.



Манба: <http://uza.uz/oz/society/dengiz-chekinyapti-lekin-inson-chekinmaydi-05-01-2019> (matn o'zgartirildi)

Javob bering.

1. Sessiya ishtirokchilarining fikrlari muayyan masalalar bo'yicha ...
A) qisman mos keldi.
B) umuman mos kelmadi.
D) mos keldi.

2. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi spikeri o'rinbosari B.Alixanovning ta'kidlashicha, ...
A) Orol muammosini yechishga yangicha yondashuv paydo bo'ldi.
B) "pichoqqa ilinadigan" hech narsa ishlanmagan.
D) "Orol, Orol" deb quruq bong urishdan natija chiqmaydi.

3. Orolbo'yi hududini ekologik innovatsiya va texnologiyalar zonasi deb bejizga atashmadi, chunki
A) uning qurigan tubida himoya o'rmoni barpo etilmoqda.
B) tegishli olimlar ham jalb qilinib, tuproq tahlillari olinmoqda.
D) himoya o'rmonzorlarni barpo qilish maqsadidagi ishlar 2018-yil 17-dekabrda boshlandi.

4. Qoraqalpog'istonga yopirilgan tuz bo'roni...
A) qishloq xo'jaligiga ziyon yetkazdi.
B) nafaqat qishloq xo'jaligi, balki odamlar sog'ligiga zarar yetkazdi.
D) ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muammolar yechimiga boshladi.

5. O'rmonlarning barpo etilishi, eng avvalo, hududda ...
A) havoning ifloslanishining oldini oladi.
B) yaylovlar paydo bo'lishi va chorvachilikning rivojlanish omili bo'ladi.
D) sahro turizmini rivojlantirishga yo'l ochadi.

6. "Orol va Mo'ynoq taqdiri: dengiz chekinyapti, lekin inson chekinmaydi" Xalqaro press-klub sessiyasi ...
A) O'zbekiston telekanallari orqali efirga uzatilgan.
B) dunyo hamjamiyatiga namoyish qilingan.
D) MDH mamlakatlariga sun'iy yo'ldosh orqali jonli efirga uzatilgan.



7. Orol muammosi bu – ...

A) jahon muammosi.

B) O'zbekiston muammosi.

D) shu hududda yashovchilar muammosi.

Mashqlarni bajaring.

1-mashq. Bir yoki bir nechta to'g'ri javobni tanlang.

atrof-mu...it [h] (x)

din...mik (o) [a]

muv...zanat (a) [o]

os...yishta [o] (a)

...ayajonlanish (x) [h]

ovq...tlanish [a] (o)

ek...logik (a) [o]

jism...nan [o] (a)

baqu...at (v) [vv]

i...unitet (m) [mm]

2-mashq. Bir yoki bir nechta to'g'ri javobni tanlang.

no...ushlik (h) [x]

sog'li... (q) [k]

ugl...vod [e] (i)

maktab osh...onasi [x] (h)

sanitariya-ep...demiologiya nazorati [i] (e)

salomatlik sab...qlari (a) [o]

yarim...tayyor mahsulotlar (-) [] (yarimtayyor)

min...ral [e] (i)

gazlangan salqin i...imliklar (sh) [ch]

ti...iyot (b) [bb]

3-mashq. Matnda 5 ta so'z xato yozilgan. Ularni to'g'rilab yozing.



Yurak – bu adam, xayvonlar kokrak qavasi ichida joylashgan, ularning qon aylanish sistemasidagi muskil qopchiqqa o'xshash markaziy a'zo.

Xatosi	To'g'risi
adam	odam
xayvonlar	hayvonlar
kokrak	ko'krak
qavasi	qafasi
sistemasidagi	sistemasidagi
muskil	muskul

4- mashq. Matnda 6 ta so'z xato yozilgan. Ularni to'g'rilab yozing.

Ona bo'lish bahti farzantlarni sag'lom va barkomol tarbiyalashdek mashaqatli mehnat bilan chanbarchas bog'liq.

Xatosi	To'grisi
bahti	baxti
farzantlarni	farzandlarni
sag'lom	sog'lom
barkomol	barkamol
mashaqatli	mashaqqatli
chanbarchas	chambarchas

5- mashq. Moslikni aniqlang.

Tushunchalar	Izoh
Sintaksis	Til bo'limlari ichida uslubiy vositalarga, turli xil bo'yoqlarni ifodalashga boy bo'lgan soha.
Qo'shma gap	Ikki va undan ortiq kesimlik belgisiga ega bo'lgan gap
Ikkinchi darajali bo'laklar	Kesim bilan tobe munosabatga kirishib, uning ma'nosini izohlab, to'ldirib, aniqlab keluvchi qism.
Bog'langan qo'shma gap	Qismlari o'zaro teng aloqaga kirishuvidan tuzilgan gap.



Ergashgan qo'shma gap	Ikki yoki undan ortiq sodda gaplar o'zaro hokim-tobelik munosabati orqali bog'lanadi.
-----------------------	---

6- mashq. *Bo'sh o'ringa mos bog'lovchini qo'ying.*

Iste'dod hamisha har xil bo'ladi, iste'dodsizlar ... hamma joyda bir xildir.
(E.Vohidov)

lekin

esa

biroq

ammo

7- mashq. *Bo'sh o'ringa mosini qo'ying.*

Har qanday narsada isrofgarchilik bor, ... yaxshilikda isrof bo'lmaydi.

zero

ammo

biroq

lekin

va

8- mashq. Qolipga mos gapni tanlang. **Ega+kesim**


Tabib tabib emas, dard chekkan tabib. (Maqol)

Bola sog'ligi – ona boyligi. (Maqol)

9-mashq. Qolipga mos gapni aniqlang.

Sodda gap+sodda gap =qo'shma gap

Eng yomoni, maktab atrofida ba'zi «tadbirkor»lar qo'lbola "savdo rastasi" tashkil etib, u yerda saqich, pista, quyoshda erib ketgan sifatsiz shokolad va hatto tamaki mahsulotlarini sotayotganiga guvoh bo'lamiz.



Harakatchan kishilar odatda omadli bo'ladilar; aksincha, qiladigan ishlarini hadeb o'ylayveradigan va sustkashlik qiladiganlarga esa omad kamdan kam nasib etadi. (Gerodot)

10- mashq. *Bo'sh o'ringa to'g'ri javobni yozing.*

... tabiat farzandi ekan, farzandning onaga mehribonlik qilishi umuminsoniy burchdir. (eco.uz)

[Inson] yoki [Odam] yoki [Kishi]



ATAMALAR

Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, ma'lum fan, ishlab chiqarish sohasidagina qo'llaniladigan va asosan o'sha soha kishilari tushunadigan maxsus so'zlar terminlar – atamalar sifatida qaraladi.

“Hozirgacha termin tushunchasi tilshunoslikda turlicha talqin qilinmoqda – deb qayd etishadi. “O'zbek tili leksikologiyasi” asarining mualliflari. – Ba'zi tilshunoslar terminga ilm va texnikaga oid so'z va iboralarinigina emas, barcha uy-ro'zg'or asboblari nomlarini, ishlab chiqarishning hozirgi darajasidagi qurollarnigina emas, balki o'tmishdagi ibtidoiy qurollarning barcha nomlarini, shuningdek, kustarchilik kasb-hunarga oid so'zlarni ham kiritadilar.

Agar masala shu taxlitda qo'yiladigan bo'lsa, har bir konkret predmet nomini termin deb atash lozim bo'lar edi. Gap terminning aniq bir ma'noni ifodalashida emas, bu jihatdan qaraladigan bo'lsa, kasb-hunar leksikasining ilmiy-texnikaviy terminlardan deyarli farqi yo'q, termin har qanday tushunchaning aniq atamasi sifatidagina emas, balki ilmiy tushunchani ifodalovchi vosita sifatida asosan yozma shaklda maydonga keladi”.

Demak, “atama” so'zini “termin” tushunchasi ma'nosida qo'llaganimizda, uni umuman narsa-predmetlar, voqea-hodisalarning nomi sifatida emas, balki aniq bir ilmiy tushunchani ifodalaydigan va ma'lum bir fan sohasiga tegishli bo'lgan birliklarni anglashimiz lozim.

Shu ma'noda kasb-hunarga oid so'zlar atamalardan farqlanadi.

Atamalarning o'zbek tilida son jihatdan ko'pchilikni tashkil etishi ularni mavzuviy guruhlariga bo'lib o'rganishni taqozo qiladi. Chunki o'zbek atamashunoslari S.Ibrohimov, S.Akobirov, Olim Usmon, R.Doniyorov, X.Shamsiddinov, A.Madvaliyev va boshqalar ta'kidlaganlaridek, bunday tahlil atamalarning umumiy boyligini ko'rsatishga ko'maklashadi, sohalarga



bo'lib o'rganishni osonlashtiradi. Dunyoda chetdan so'z o'zlashtirmagan birirta ham til yo'q, degan qarash uning terminologiyasiga ham to'g'ri keladi. "Hamma tillarda ham yangi tushunchani ifodalash uchun yo boshqa tildan tayyor termin qabul qilinadi, yo shu tilning o'zida mavjud bo'lgan so'z yoki termindan foydalaniladi, yo bo'lmasa yangi termin yasaladi" deb yozadi S.Akobirov.

E'tirof etish kerakki, o'zbek tilida chetdan qabul qilingan ilmiy-texnikaviy atamalarning salmog'i katta.

Javob bering.

Ўзбек ва қорақалпоқ тилларида илмий атамалардаги тафовутлар (математика, геометрия, информатика фанлари мисолида)га qarab sohangizga tegishli atamalar ro'yxatini tuzing.

Ўзбек тилида	Қорақалпоқ тилида
мулоҳаза	айтым, пикр
илдиз	корен
мавҳум	анық емес
мусбат	оң
терс	манфий
...	...



OROLGA YORDAM


Omon Matjon

19

8

Bugun buyuklikka da'vogarlar ko'p,
Men bunday to'dadan yiroqman, toqman.
Men ko'kka qarayman mo'jiza istab,
Yeriy hayotga-da eng yaqinroqman.

Ko'r ko'rni panada topadi derlar,



Men ko'zi ochig'u holi chatoqman:
Men ochiq janglarning xos navkariman,
Garchi eski qo'rg'on, yirtiq bayroqman.

Kibr yulduzidan emas tuprog'im,
Men o'z xalqim yashab turgan tuproqman.
Tunga ham oshnoman, yolg'izlatmayman,
Nuri bir sahfga yetgan chiroqman.

Nafsni oldin yurar guruhbozlarning,
Demak men manzildan hali yiroqman.
Ularni hamma tez taniy qoladi –
Men hamon noma'lum, hamon so'roqman.

Orol quryaptimish, qarang, yangilik...
O'n yil burun chiqqan faryodman, ohman.
Necha "orol"larni quritgan zotlar
Bugun "Voh, Orol" der....
O'zim guvohman.

Men o'zim o'ldirgan dengiz nomiga
Sadaqa yig'mayman, evoh, no'noqman.
Har kimning boshida bir orollik bor,
Men – Orol dan battar yalangayoqman...


Men goh ne millatman, bilmay qolaman,
Mayli qarshingizda qoraman, oqman.
Kecha – o'zbek edim har gapga ko'ngan,
Bugun – o'layotgan qoraqalpoqman...

Javob bering.

1) She'rdan olgan taassurotlaringizni o'z so'zlaringiz bilan tushuntirib bering.


2) Matndagi Sizning diqqatingizni jalb qilgan so'zlarning ma'nolari bo'yicha "BBB" jadvalini to'ldiring. So'zlarning ma'nolarini bilib olish uchun "O'zbek tilining izohli lug'ati" dan foydalaning.





Bilar edim	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

3) She'ning o'zingizga yoqqan qismlarini yod oling.





XIII MODUL. SPORT VA SALOMATLIK

Inson va salomatlik

Ilmiy-publitsistik uslub

Tog'ay Murod. "Yulduzlar mangu yonadi"

HARAKAT, SALOMATLIK



Saxiy kishining taomi shifodir. (Hadis)

Mavzuni o'rganishda quyidagi so'z va so'z birikmalariga e'tibor qarating:

baquvvat, dinamik, gazlangan salqin ichimliklar, hayajonlanish, immunitet, jismonan, mineral, maktab oshxonasi, noxushlik, nazorat, osoyishta, ovqatlanish, sog'lik, sanitariya-epidemiologiya, salomatlik saboqlari, tibbiyot, uglevod, yarimtayyor mahsulotlar

O'qing va muhokama qiling.

SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

1. Unutmang: hatto retseptsiz sotiladigan dori-darmonlarni iste'mol qilishda ham shifokor maslahati zarur. Teleko'rsatuvlar, reklamalar yoki tanish-bilishlarning maslahatlari bilan davolanmang.

2. Sizga terapevt bir dorini, okulist – ikkinchisini, stomatolog – uchinchisini, kardiolog esa yana boshqasini yozib bergan bo'lsa, qayta terapevt huzuriga boring. U dori-darmonlarni o'zaro tahlil qilib, qay birini,

qanday yo'sinda ichishni tavsiya etadi. Bu, albatta, ko'pgina ko'ngilsizliklarning oldini oladi.

3. Iloji boricha bir turdagi dorini qabul qilishga harakat qiling.

4. Har doim o'zingizga yaxshi tanish bo'lgan, obdon sinalgan preparatlardan foydalaning. Katta shov-shuvga sabab bo'lgan, reklama orqali maqtovi oshirilayotgan dori-darmonlardan, ayniqsa, ehtiyot bo'ling. Mo'jizakor preparatlar haqidagi afsonalarga ishonavermang. Odatda, ular qimmat bo'ladi va reklamada va'da qilingan xususiyatlarga ega bo'lmaydi.


5. Faqat o'z kasalingizga davo bo'luvchi, shifokor tavsiya qilgan dorilarnigina iste'mol qiling.

6. Dori idishdagi yozuvlarni diqqat bilan o'qib chiqing – ularning hech bo'lmaganda ruscha tarjimai bo'lishi kerak. O'qishda, ayniqsa, tavsiya qilinmaydigan holatlar va teskari natijalar haqida ogohlantiruvchi bo'linga alohida e'tiborni qarating. Dori qabul qilish me'yori va vaqti borasidagi ko'rsatmalarga qat'iy amal qiling. Dorini, (agar bu haqda ko'rsatmada aytilgan bo'lmasa) albatta, suyuqlik bilan iching.

7. O'zingizning tibbiyot borasidagi bilimlaringizni to'ldirib boring. Uyingizda, albatta, ommaviy tibbiyot ensiklopediyasi yoki axborotnomasi bo'lsin.

8. Agar sizda surunkali kasalliklar bo'lsa va ma'lum bir dorining sog'ligingizga ta'siridan xavotirlansangiz (masalan, ORVIning davolovchi preparatlardan), vrach bilan, albatta, maslahatlashing: faqat vrachgina dorining siz uchun foyda-zararini aniq ko'rsatib beradi.

9. Dorilarning saqlash sharoitiga alohida e'tibor bering – bu haqda dori qutisi ichidagi yozuvda aytiladi. Shunday preparatlar borki, ularga nur salbiy



ta'sir ko'rsatadi. Ba'zilarini esa sovuq joylarda saqlash kerak. Va, albatta, barcha dori-darmonlarni yosh bolalar qo'li yetmaydigan joylarda saqlash zarur.

Ingliz faylasufi Frensis Bekon shunday deydi: to'rt jihat jahondagi mavjud narsalarni o'zgartirib, ulkan yangiliklarni boshlab berdi: birinchisi – qog'oz, ikkinchisi – kitob bosmaxonasi, uchinchi – porox, to'rtinchisi – kompas.

(“Zakovat” kitobidan)


IXTIROCHI AYOLLAR

Bugun biz foydalanadigan ayrim buyumlar borki, ularni bir vaqtlar ayollar ixtiro qilganiga ishongimiz kelmaydi. Chunki ularning ko'pidan bugun faqat erkaklar foydalanadi-da. Quyida ayollarning ana shunday ixtirolari bilan tanishasiz!

Usturlab (astrolyabiya, qadimgi astronomik burchak o'lchash asbobi)ni eramizdan avvalgi 370-yilda faylasuf, astronom va matematik olim ayol aleksandriyalik Gipatiya ixtiro qilgan.

Idish-tovoq yuvadigan mashinani 1886-yilda Jozefina Kokreyn ismli ayol ixtiro qilgan. U yaratgan mashina chinni idishlarni sindirmasdan yuva olardi. Ammo uning ixtirosi oradan 40 yil o'tgandan so'nggina ro'zg'orbop uskuna sifatida ommalashgan.

Qor kuraydigan mashinani esa korxonalardan birida kotiba bo'lib ishlaydigan Sintiya Vestover ismli ayol ixtiro qilgan. Odamlarning ko'chada



qiynalib qor kurayotganini ko'rgan ayol hozirgi qor tozalaydigan uskunaning dastlabki ko'rinishini yasagan.

Avtomobil glushitelini esa 1917-yilda El Dolres Jons ismli ayol o'ylab topgan. Ana shu akustik filtrning ixtiro qilinishidan so'ng avtomobillardan chiqadigan shovqin keskin pasaygan.

Zirhnimchani esa 1965-yilda Stefaniya Kvolek ismli doktor ayol ixtiro qilgan. U po'latdan ham besh barobar pishiqroq bo'lgan kevlar sintetik matosini yaratgan. Uning ixtirosi minglab politsiyachi, o't o'chiruvchi va harbiylarning hayotini saqlab qolgan. Hozirda esa unga asoslanib, zamonaviy o'qo'tmas zirhnimchalar ishlab chiqariladi.

Suvosti kemasi periskopini ham ayol kishi ixtiro qilgan. 1845-yilda Sara Meter o'zi yaratgan asbob – kuzatiladigan obyektgacha bo'lgan masofani o'lchaydigan qurilmaga patent olgan.

Aylana arra (sirkulyar arra)ning prototipini 1810-yilda Tabita Bebbit ismli ayol ixtiro qilgan. Uzoq vaqt ikki erkakning arra tortishini kuzatgan xonim: “og'irlik ikkoviga birday tushgani bilan arra faqat bir tomonga tortilganda yog'ochni kesadi, ortiga qaytganda kesmaydi. Bu vaqtни yo'qotadi”, degan fikrga keladi, xullas, uning ixtirosidan bugungi kunda yog'och tilish sanoatida keng foydalaniladi.

Ilk avtomobil oynatozalagichini esa 1903-yilda Meri Anderson ismli ayol ixtiro qilgan. Qattiq bo'ronda mashinada ketayotgan ayol haydovchining dam-badam mashinani to'xtatib, oynasini qordan tozalashini ko'rib, unda oyna tozalaydigan moslamani yaratish fikri tug'ilgan.

(“Oila davrasida” gazetasidan)



Dam olish daqiqasi

Salomatlik haqida sarlavhaga o'xshash qaysi maqol bor edi?

Eshakni yashirsang, hangrashi oshkora qiladi.


Bir odam Afandidan: “Eshagingizni peshingacha berib turing, bir oz yukim bor edi, tashib olay”, – deb iltimos qilib kelibdi. “Eshagim yo'q, sizga o'xshab so'rab kelgan bir odamga berib yuboruvdim”, – debdi Afandi. Shu payt ichkaridan eshak hangrab yuboribdi. “Ie, eshagingiz bor ekan-ku, Afandim”, – debdi haligi odam. “Nima oppoq soqolim bilan maning gapimga ishonmaysiz-u, eshakning gapiga ishonasizmi?!” – deb jahl qilibdi Afandi.

O'qing.

Bo'ri atrofidagi g'iybatlar

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarida shunday gap bor: “Orqasida minglab itning ovozi eshtigani bilan bo'ri itga qayrilib qaramaydi”. Bugungi kun uchun juda asqotadigan hikmat bu. Ba'zan ko'p yaxshi odamlar haqida internetda turli xil g'iybatlar aylanib qolganda Yusuf Xos Hojibning shu gapining soyasida himoyalaniş mumkun. Lekin bu himoyalaniş shaqol yoki tulki uchun emas. Chunki shaqol yo tulki, minglab emas, bor-yo'g'i bittagina it hursa ham ortiga qayrilib qaraydi, o'pkasini qo'ltiq lab qochadi.

Xemenguey toshni chaynardi



Mahmud Koshg'ariy bir maqolni keltirgan: "Toshni chaynashga qodir bo'lmagan odam uni o'pishi kerak"... Maqol ishni oson bitirish uchun aytilgan. Biroq, nima bo'lgadayam toshni chaynashga istasa o'zida kuch topadi. Xeminguey aytgan-ku: "Odamni o'ldirish mumkun, lekin uni yengib bo'lmaydi. Xemenguey hech qachon toshni o'pib o'tirmas edi, uni chaynab tashlardi.

Odamni bilish ilmi

"Devonu lug'atit turk"da bir maqol bor: "Hayvonlar bir-birlarini hidlashib bilsa, odamlar bir-birlarini so'zlashib biladi". Bir narsa aniq, odamni faqat bafurja gaplashgandan so'nggina bilish mumkun". Men qoshi yo yuzi, burun yo qulog'iga qarab odamni bilish mumkun degan gaplarga unchalik ishonmayman. Odam faqat so'zidan bilinadi. Kim bilandir ikki og'iz gaplashdingizmi, uning saviyasi, dunyoqarashi, ma'naviy holi birdan seziladi. Shuning uchun qosh yo ko'z, burun yo quloqqa ko'p ham qarab o'tirmang, odamning so'ziga qarang. Shunda maqsadga erishasiz. Navoiy bobo aytganlar-ku: "So'zchi holiga emas, so'z holiga boq", deb. Odamning so'zi qanday bo'lsa, o'zi ham shunday bo'ladi.

Murutini bolta kesmaydi.

"Murut" yoki "murt" mo'ylov so'zining sinonimi. "Murutini bolta kesmaydi" degan iborani bolaligidan ko'p eshtganman. Badavlat, imkoniyati katta, gapi kesadigan, qo'li uzun odamlarga nisbatan shu iborani




qo‘llar edilar. Murut so‘zi hozir ham janubiy viloyatlarimizda ko‘p qo‘llaniladi. “Turkiy tillar etimologik lug‘ati”da izohlanishicha, tilshunos Vilgelm Bangning fikriga ko‘ra, “Murut” so‘zi dastlab “burut” shaklida bo‘lgan. “Burut” so‘zining ildizi “bur” bo‘lib, “buralgan”, “eshilgan” degan ma‘noni bildirgan. Keyinchalik “b” tovushi “m”ga aylangan.

Qadimgi turkiylar bir-birini alqaganda, “Murting tovli bo‘lsin” deb niyat bildirganlar. “Tovli” so‘zi “eshilgan”, “tovlangan” degan ma‘noni bildiradi. Kimning muruti tovlanadi? Albatta, ishlari o‘ng kelgan, o‘ziga to‘q, pichog‘i moy ustidagi odamning murutiga ham moy tegadi-da.

Rangi quv o‘chdi

Bir qarashda bu ibora har jihatdan tushunarli va uni izohlab o‘tirishga hojat yo‘qday tuyuladi. Biroq, bu iboradagi “quv” so‘zi qanday ma‘noni anglatadi? Bizga “quv” so‘zining “ayyor” degan ma‘nosi ma‘lum. Lekin bu iborada “quv” “ayyor” ma‘nosida kelsa aslo mantiqqa to‘g‘ri kelmaydi. Ya‘ni “rangi ayyor o‘chdi” deyish bema‘nilik bo‘ladi. Ma‘lumki, xalq iboralarida so‘zlar qattiq mixlanadi.

“Turkiy tillar etimologik lug‘ati”da “quv” so‘zi “oq-sariq” degan ma‘noni anglatishi takidlangan. Boshqa manbalardagi izohlarda ham bu so‘z shu ma‘noga yaqin shaklda sharhlangan. Qumiqlar va qirg‘izlar tilida “quv” – “oq” degan, xakaslar tilida esa “rangsiz” degan mazmunni bildiradi. Shuningdek, O‘zbek tilining izohli lug‘atida oqqushining ham “quv” deb atalishi ko‘rsatib o‘tilgan. Tilimizda “ Quv quv bilan uchadi,



g'oz g'oz bilan ko'chadi" degan ma'qol bor. Bu "Quv" so'zining oq rangni ifodalashini dalillaydi.

Gapning "dangal"i

Haqiqatan ham, bittagina so'zda ko'p kechmishlar yashirinib yotadi. Biz "dangal" so'zini bugungi kunda lo'nda, bir so'zli, mard ma'nolarida tushunamiz. Xosh, "dangal" so'zi qanday paydo bo'lgan? Uning dunyoga kelishiga asos nima?

Muhokama qiling.

Eshqobil Shukurning "Boboso'z izidan" kitobidan olingan qiziqarli ma'lumotlar tilshunos uchun ilmiy kitoblarda qanday taqdim qilinishi mumkin edi? So'z va iboralarning izohli lug'atlarida qanday berilgan bo'lardi? Qiyoslab fikringizni bildiring.




ILMIY-PUBLITSISTIK USLUB

20

Ma'lumki, ILMIY-OMMABOP ADABIYOT — xalq ommasini fan va texnika masalalari, yutuqlari hamda fan arboblari tarjimai hollari bilan tanishtirish uchun mo'ljallangan nashrlar (kitob, risola, jur. va b.). Bu nashrlar ilmiy masalaning mohiyatini to'la saqlagan holda uni keng omma uchun tushunarli uslubda bayon etadi, o'quvchining g'oyaviy-ilmiy saviyasini o'stirishga, dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi.

ILMIY-OMMABOP ADABIYOTlar tarixi kitob bosish ixtiro qilinganidan ko'p asarlar muqaddam (Xitoyda mil. av. 12 – 10 asralardan,





qadimiy Misrda miloddan avvalgi 2 ming yillikning o'rtalaridan) boshlangan. O'rta Osiyoda Abu Nasr Forobiy («Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi»), Abu Rayhon Beruniy («Mineralogiya»), Abu Ali ibn Sino («Donishnoma», «Tib qonunlari») asarlari ILMIY-OMMABOP ADABIYOTning ayni namunalari bo'la oladi. O'zbekistonda ILMIY-OMMABOP ADABIYOT nashr etish ishi keyingi yillarda keng avj oldi. Respublikada bunday kitob va risolalarni «O'zbekiston», «Fan», «O'qituvchi», Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti chiqaradi. Mazkur nashriyotlarda «Fan haqida suhbatlar», «Salomatlik – tuman boylik», «Yosh faylasuflar kutubxonasi» kabi turkumlarda ILMIY-OMMABOP ADABIYOTlar nashr etiladi. Respublikada «Fan va turmush», «Tafakkur» jurnallari ilmiy-ommabop vaqtli nashrlar sanaladi.

Tilshunoslikda ilmiy-publitsistik uslubni alohida ajratish bo'yicha olimlar bir yechimga kelishmagan. Biroq aytish mumkinki, ilmiy uslubdagi adabiyotlardan farq qilib ilmiy-publitsistik uslubdagi ishlar faqat ilm ahli, mutaxassislar uchun emas, balki keng xalq ommasi uchun, nomutaxassislar uchun mo'ljallanadi. Bunday uslubdagi adabiyotlar mutaxassislarni ham, nomutaxassislarni ham o'ziga jalb qiladi.



YULDUZLAR MANGU YONADI

Tog'ay Murod

YULDUZLAR MANGU YONADI.


XXI

Bo'ri polvon o'g'liga qaradi-qaradi, hayrat ham quvonch bilan kulimsiradi.

Tavba, xuddi otasiday olishadi-ya! Ayniqsa, o'ynab – o'ynab olishi, hayqirib – hayqirib chil berishi, otasining o'zginasi bo'ldi!

Alp – otadan, zot – onadan-da!
Otamisan – og'ling bo'lsin ekan!

XXII



Davra aylanayotgan Tilovberdi cho'kkaladi. Yerni tavof qildi: ikki kaftini yerga suykab, yuzlariga tortdi.

Davr to'rida o'tirgan chollar ro'parasiga tiz cho'kdi.

Chollar kaftlarini baravar ochdi.

– Omin, belingga quvvat, bilagingga kuch, yuragingga o't bersin, ollohu akbar! – deya duo qildi.

Polvonlar davra aylandi. Qo'l berib ko'rishdi.

Tilovberdi polvon davra chetida birdan burildi. Jelaklari etagini ketiga surdi. Qo'llarini tuflab-tuflab ho'lladi. O'ng ayog'ini lapanglatib – lapanglatib olg'a tashladi. Qo'llarini boshi uzra ko'tardi. Barmoqlarini o'ynatib-o'ynatib Maksim polvonga qarab bordi.

– Ha, barakalla, ota o'g'li! – dedi davra. – O'yna, otangga o'xshab o'yna!

Barmoqlar mardona o'ynadi, chaqqon o'ynadi.

Davra jo'shib – jo'shib qiyqirdi:

– Ha - ha- a-a!

– Otasining uli-da!

Barmoq o'yini – polvonlar san'ati! Bu san'atni hech kim polvonchalik ijro etolmaydi!

– Ha, do'-o'-o'st!

– Tilovberdi polvon Maksimning ichidan chil berib chapga, so'ng, o'ngga ko'tardi, shiddat bilan keyinga surdi. Tag'in bo'lmadi.

Maksim polvon orqasiga tengsarilib – tengsarilib, joyida turib qoldi.

Polvonlar qo'yib yuborishib, yana davra aylandi.

XXIII

Davra bir zum jim-jit bo'lib, tag'in jonlandi.

Davra polvonlar kurashini gapirishib o'tirdi:

– Shu Maksim polvon juda sovuq olishar ekan, nima dedingiz?

– Sportchi-da, seksiyada tarbiya topgan. Ular kitobda nima yozilgan bo'lsa shuni qiladi.

– Televizorda Monreal olimpiadasini ko'rdilaringizmi? Klassik kurashni olib ko'rsatdi. Bir sovug'-e, shuyam olish bo'ldi-yu.

– Hm, juda lanj olish. Klassik kurashda oyoq bilan chil berish degan gap yo'q.

– Yana -tag'in jahon sporti emish deng.

– U fransuzlarniki –a?

– Shu, fransuzlarga ham qoyilman, o'zining olishini butun jahonga yoygan.

– Mo'min muallim, mana, siz o'qimishli odamsiz, uyingizda kitobingiz ko'p, deb eshitaman. Siz ayting, nega endi bir lanj klassik kurash butun jahon



sporti bo'ladi-yu, o'zimizning olishni faqat to'yda yo "Hosil bayrami" da ko'ramiz? O', olishimiz sport emasmi?

– Sport ham gapmi, san'at! Ko'ryapsizmi, Tilovberdining o'ynab olishuvini. Buni hech qaysi trener, seksiya ham o'rgatolmaydi.

– Bali! Uzoqlarga qarab yashaymizu, oyog'imiz ostidagi gavharni ko'rmaymiz.

– Otangizga rahmat! Yaqinda Moskvada o'qiyotgan Jabbor bir olim oshnasini olib keldi. Olishni tomosha qildirdi. Oshnasi hayron bo'lib, nima dedi deng, bular jismoniy tarbiya maktabini bitirganmi, dedi.

– E, ha-ha-ha! Jabbor nima dedi?

– Yo'q, biz o'zi shunday xalq, dedi.

– Men yaqinda sambo olishi haqidagi kitobni ko'rdim. Hamma chillarning rasmi bor. Xoh ishonang, xoh ishonmang, oyog'dan olishdan boshqa hammasi o'zimizning olishda bor ekan – e.

– Mengboy kalning gapida jon bor. Kitoblik Sayfiddin Hodiye'v bor-ku, yaqinda o'sha bilan o'tirib qoldim. Trenerlar meni jahon chempioni qilib yetishtirdim deb suyunadi, bimagdilarki, men bolaligimdan to'ylerde olishib yurgan tayyor polvon edim, deydi.

– Aytganday, shu bola ikki marta jahon chempioni bo'ldi-ya.

– Ha-da, Mo'g'ilistonda qanday qilib jahon chempioni bo'lganligini gapirib berdi. Olish vaqti tugashiga bir necha sekund qolganda yonboshga olib urib ochko oldim, deydi. Bunday hunar boshqa biror olishda yo'q, faqat bizning olishimizda bor, deydi.

– Ota-bovami'zning hunarini mahkam ushlasak, jahonning eng zo'r polvoni biz bo'lamizku –ya, nima dedingiz, sho'ro bova?

– Ko'p noshukurlik qilabermanglar, haliyam zo'rmiz. Ana jahon chempionlari Sayfiddin, Sobir Qurbonov...

– E-e, bo'tam, ular o'zimizning olishdan chiqqani bilan sambo bo'yicha chempion bo'lgan-da.


– Sizga qanday kerak?

– Shu, o'zimizning olish bo'yicha jahon chempioni bo'lsa ekan.

– Gapingizga tushunmadim, Nurmat tog'chi.

– Nima balo, kallang shamolda qolganmi deyman. Masalan, dunyodagi ko'pgina xalqlar o'zlarining hech bo'lmaganda, bitta sportini jahon miqyosiga ko'targan. Bizdan esa jahonga ko'tarilgan bittayam sport turi yoq...

– Bu o'zimizga bog'liq....



Javob bering.

1) Matnni o'qib olgan taassurotlaringizni o'z so'zlaringiz bilan tushuntirib bering.

2) Matndagi Sizning diqqatingizni jalb qilgan so'zlarning ma'nolari bo'yicha "BBB" jadvalini to'ldiring. So'zlarning ma'nolarini bilib olish uchun "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan foydalaning.



Bilar edim	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

3) O'zbek sporti haqida: xorijliklarning intervyulari, xorijiy davlatlar rahbarlari va jamoat arboblarning nutqidan iqtiboslar to'plang.



XIV MODUL. FAN VA INNOVATSIYALAR

Sharq akademiyalari va innovatsiyalar

Ilmiy uslub

O.Yoqubov. "Diyonat"





Mavzuga kirish:
Hayotimizni innovatsiyalarsiz tasavvur qila olamizmi?

Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi.


(O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 42-moddasidan)

Mavzuni o'rganishda quyidagi so'z va so'z birikmalariga e'tibor qarating:

Aviatsiya, dasturiy vositalar, elektron hamyon, futurolog, frilanser, integratsiya, investitsiya, kollaborativ, korrupsiya, novatsiya, onlayn-kurs, pedagogik virtual, texnologiya, transfer, tashabbus, sarmoya, shaffof, robototexnika, (BYOD) qurilmangizni olib keling, ijodiyot, irfoni, ilm-u donnish

Barchamizga ma'lumki, o'zbek tili maqollarga boy til. Tilimizda hayotimiz barcha jabhalarini qamrab oladigan maqollar mavjud.

Ammo vaqt o'tgani sayin zamonga mos kelmaydigan maqollar unutilib, eskilarining yangi talqini, yoki butunlay yangi maqollar paydo bo'lyapti.





Shunday yangi maqollarni Muloqot.Uz a'zosi [Muzaffar Alimov](#) bir joyga to'pladi:

1. Ish ishtaha ochar, dangasa Paynet ochar.
2. Paynetdan kelsa boylik – turmush bo'lar chiroylik.
3. Boshingga Motorola telefon kelsa ham rost gapir.
4. O'gil bolaga 40 sim-karta ham oz.
5. Yuborilgan SMS – otilgan o'q.
6. Yangi telefon olmaguncha eskisini sotma.
7. Hisob kundamas, kunida tugaydi.
8. Abonent yugurgani Paynetgacha.
9. Telefon bor telefonlar naqshidir, telefon bor Nokia 1202 undan yaxshidir.
10. Ming marta gudok tashlagandan ko'ra bir marta SMS yubor.
11. Mingta SMSdan bitta MMS yaxshi.
12. Uydan chiqsang ham xizmat doirasidan chiqma.
13. Hisobingga qarab barmoq uzat.
14. Qolgan SMSga qor yog'ar.
15. O'zga yurtda "Ayfon" tutguncha, o'z yurtida 1202 tut.


Ushbu maqollarning ba'zilar chin, ba'zilar esa hazil. Lekin bilamizki, shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi.

Manba: <https://daryo.uz/2013/03/22/zamonaviy-ozbek-maqollari>

MASOFAVIY TA'LIM

O'qituvchi auditoriyada dars o'tayotib qarasa bitta partada ovoz yozib oladigan jihoz turibdi, ammo o'quvchining o'zi yo'q. O'qituvchi "biron ishi chiqib qolgandir, bo'lmasa kelardi" deb mavzuni tushuntirib beribdi. Keyingi darsda ovoz yozib oladigan jihozlar soni 4-5 taga ortib qolibdi. Ovoz yozadigan apparatlar soni har darsda ortib borardi...

Bir kuni o'qituvchi darsga kirsa, sinf shunday apparatlar bilan to'la, lekin bironta ham o'quvchi yo'q. O'qituvchi juda asabiylashsa-da, ovoz yozadigan apparatlarga dars o'tibdi. Oradan bir hafta o'tib, o'quvchilardan



biri darsga borgisi kelib qolibdi. Auditoriyaga kirib qarasa, hamma joyda ovoz yozadigan apparat..., o'qituvchining stolida esa audiomagnitofon darsni tushuntirayotgan edi.

Mashqlarni bajaring.

1-mashq. *Bir yoki bir nechta to'g'ri javobni tanlang.*

k...llab...rativ (a) [o]
texn...logiya [o] (a)
fut...rolog (kelajakshunos) (i) [u]
pedagogik dast...riy vositalar (i) [u]
v...rtual (e) [i]
shaffo... (v) [f]
onlayn...kurs [i] ()
n...vatsiya [o] (a)
sarm...ya (a) [o]
inv...stitsiya [e] (i)

2-mashq. *Bir yoki bir nechta to'g'ri javobni tanlang.*

tasha...us (b) [bb]
k...rrupsiya [o] (a)
int...gratsiya (i) [e]
(BYOD) qur...lmangizni olib keling (u) [i]
trans...er (v) [f]
av...iatsiya (y) [i]
fr...lanser (e) [i] (erkin xodim)
nova...siya [t] ()
elektron ...amyon (x) [h]
r...b...t...texnika [o] (a)

3-mashq. *Matnda 7 ta so'z xato yozilgan. Ularni to'g'rilab yozing.*




Innovatsiya bo'lmas ekan, hech bir **sahoda raqobad**, rivojlanish bo'lmaydi. Bu sohadagi **uzgarishlarni** xalqimizga keng targ'ib qilmasak, odamlarda ko'nikma **poydo** qilmasak, bugungi davr **shidati**, fan-texnikaning **misilsiz yutiqlari** bilan hamqadam bo'lolmaymiz. (Sh.Mirziyoyev)

Xatosi	To'grisi
sahoda	sohada
raqobad	raqobat
uzgarishlarni	o'zgarishlarni
shidati	shiddati
misilsiz	mislsiz
yutiqlari	yutuqlari
poydo	paydo

4-mashq. Matnda 8 ta so'z xato yozilgan. Ularni to'g'rilab yozing.

Innovatsiyalar **ahamyatini** baholash o'ta murakkab. **Bugungi** kunda siz-u bizning **xayotimizni** o'zgartirgan innovatsiyalarning **aksaryati** ilmiy **laborotoriyalarda** dunyoga kelgan. Olimlar ko'plab **organizimlarning** **ginetik** tarkibini aniqlashga **muvoftaq** bo'ldilar. (ilmiy maqoladan)

Xatosi	To'grisi
ahamyatini	ahamiyatini
Bugungi	Bugungi
xayotimizni	hayotimizni
aksaryati	aksariyati



laboratoriyalarda	laboratoriyalarda
organizmlarning	organizmlarning
genetik	genetik
muvozza	muvaffaq

5-mashq. Moslikni aniqlang.

Tushunchalar	Izoh
Raqamli ta'lim	O'rganuvchiga raqamli texnologiyalar vositasida matn, audio, video va h.k. axborotni qidirish, saralash, qayta ishlash va tanqidiy baholashga o'rgatish orqali ta'lim berish.
SMART-ta'lim	Ta'lim "qulay joyda, qulay vaqtda" tamoyilini amalga oshirishni ta'minlaydi. Mobil platformalardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.
Pedagogik texnologiya	O'qitish natijalariga erishish jarayonini yoritish.
Texnologiya	Mohirlik, bilimdonlik, qayta ishlash metodlarining to'plami, holatlarni o'zgartirish san'atidir.
Raqamli o'qituvchi	Raqamli texnologiyalar vositasida ta'lim oluvchi bilan onlayn va oflayn muloqot o'rnatuvchi, raqamli platformalarda faoliyat yurutuvchi, raqamli ta'lim uchun kontent yaratuvchi.

6-mashq. Moslikni aniqlang.

Tushunchalar	Izoh
Shaxsiy ilmiy ish	Monografiya, maqola, doklad, diplom ishi, dissertatsiya ishi
Ilmiy axborot	Referat, annotatsiya, konspekt, tezis
Ilmiy ma'lumot	Lug'at, katalog, ma'lumotnoma



O'quv-ilmiy adabiyot	Darslik, lug'at, o'quv qo'llanma, ma'ruza
Ilmiy-ommabop	Ocherk, ma'ruza, maqola

7-mashq. *Bo'sh o'ringa mosini va to'g'risini tanlang.*

Maxsus ...lar ilmiy uslubning leksikasini tashkil qiladi, unda ... me'yorga qat'iy rioya etilgani holda ... nisbatdagi fe'llar va ... qurilishli gaplar keng ishlatiladi.

termin
atama
adabiy
abadiy
majhul
aniq
sodda
murakkab

8-mashq. Qolipga mos gapni tanlang. ...+ **uyushgan to'ldiruvchi+...kesim.**

“Faqat o'zingiz yaxshi ko'radigan narsanigina chinakamiga o'rganish mumkin”

(I.Hyote)

Amir Temur davlat va iqtisodiyotni boshqarishda o'ziga xos maktab yaratgandi.

(Temur Tuzuklari)


220

Temur saltanatini idora qilish uchun turli vazirlar faoliyat ko'rsatgan.

(Temur

Tuzuklari)

9-mashq. Qolipga mos gapni aniqlang. ...+uyushgan ega+...+kesim



Raqamli ta'lim jarayonida o'quvchining o'qish jarayonidagi o'zlashtirishini, davomat va tartib-intizomini nazorat qiluvchi dasturiy ta'minotga ehtiyoj mavjud bo'ladi.

XXI asrni “tezlik asri”, “integratsiya asri”, “axborot asri” deb atashadi.

Raqamli ta'lim uchun ta'lim kontenti – axborot xavfsizligi va g'oyaviy immunitetga yo'naltirilgan milliy mahsulot zarur.

10-mashq. *Bo'sh o'ringa mos so'zlarni tanlang.*

Fanlar olamiga sayohat.

Botanika fani. *1- qismi berilgan qo'shma so'zning 2- qismini topib, qo'shma so'zni to'g'ri yozing.*

1-qismi	2-qismi	natijaga
yer	yong'oq	yeryong'oq
gul	dasta	guldasta
ildiz	meva	ildizmeva
qoqi	o't	qoqio't
g'o'za	poya	g'o'zapoya

Geografiya fani. *1- qismi berilgan qo'shma so'zning 2- qismini topib, qo'shma so'zni to'g'ri yozing.*

1-qismi	2-qismi	natijaga
O'rta	Osiyo	O'rta Osiyo
ohak	tosh	ohaktosh
suv	ombori	suv ombori
Yevro	osiyo	Yevroosiyo
tog'	oldi	tog'oldi

Tarix fani. *1- qismi berilgan qo'shma so'zning 2- qismini topib, qo'shma so'zni to'g'ri yozing.*



1-qismi	2-qismi	natijaga
rasad	xona	rasadxona
qo'l	yozma	qo'lyozma
charx	palak	charxpalak
mo'y	qalam	mo'yqalam
rang	tasvir	rangtasvir

Muhokama qiling.


Siz yosh olimsiz. Quyidagi fikrlarning to'g'ri (T) yoki noto'g'ri (N) ekanligini aniqlang. Javobingizni izohlang.

1. Rezyume qisqa xulosa, qisqacha mazmun ma'nolarini anglatadi. –
2. Referatda ilmiy maqolaning qisqacha ma'nosi beriladi. –
3. Kurs ishi bilan referatning maqsadi bir xil. –
4. Kurs ishlari Oliy va maxsus ta'lim vazirligiga qarashli oliy o'quv yurtlarining barcha fakultet, bo'limlarida ta'lim olayotgan talabalar tomonidan bajariladigan, o'quv rejalarida ko'rsatilgan ta'lim-tarbiya jarayoni bilan uzviy bog'liq bo'lmagan yordamchi xarakterdagi yozma ish turlaridan biri hisoblanadi...
5. Referat yozish asosan uch turli bo'ladi...



ILMIY USLUB

Ilmiy nutq uchun fikrni aniq, mantiqiy izchillik bilan ifodalash xarakterlidir. Bunda isbot va xulosa, aniq material va uni umumlashtirish, sabab va natija munosabatlari o'zaro bog'liq holda ifodalanadi. Ilmiy uslubning ancha murakkabligi, unda kuzatish va eksperiment tufayli erishilgan xulosalarni umumlashtirishda turli mantiqiy munosabatlarini



ifodalovchi ko‘plab sintaktik vositalarning keng qo‘llanish sababi ham mana shundadir.

Umuman, ifodaning mantiqan izchil bo‘lishi, bunda mantiqiy uquv, mantiqiy zehn, mantiqiy qobiliyatga mo‘ljallanishi, mana shu maqsadda ifodaning intellektual elementlariga ko‘p murojaat qilinishi ilmiy uslubning asosiy belgilaridan hisoblanadi.

Ilmiy uslub uchun qat’iy izchillik, matn qismlarining uzviy bog‘liq bo‘lishi muhimdir. Ma’lum bir xat boshidagi gaplarning keyingisi oldingi gapda ifoda qilingan fikrni to‘ldirib boradi. Bu hol izchil tizma shaklda bo‘lishini ta’minlaydi.

Ilmiy asarning isbot, xulosa *qismlarida shunday ekan, aytiladi, deb ataladi, masalan, to‘xtab o‘taylik, diqqat qilaylik, diqqat qiling, qiyoslang, qiyos qiling* kabi iboralardan keng foydalaniladi.



DIYONAT

Odil Yoqubov

Vohid Mirobidovning kamqatnov, asoyishta ko‘chaga qaragan ishxonasi domla Shomurodovning ishxonasidan qolishmas, balki undan ham keng, undan ham bahavo, kitoblari ham domlanning kitoblaridan kam emas edi. Qaynotasining ketidan kabinetga kirgan Shukurovning ko‘zi dabdurustdan ro‘paradagi devorni qoplab olgan katta xaritaga tushdi. Bu o‘sha, Sibir daryolaridan O‘rta Osiyoga keladigan bo‘lgusi kanalning surati solingan, ko‘k va qizil chiziqlar bilan to‘lib ketgan xaritaning o‘zginasi, faqat unda na savol, na undov va domlanning arabcha yozuvlari bor edi.



Xaritaning tepasida fil syagidan naqsh qilingan chiroyli dutor osig'liq turardi. Bu dutorni ko'rganda qaynotasining uni eshib chalishlari, o'tirishlarda g'azalllar o'qib, raqsga tushib ketishlari esiga tushdi-yu, Shukurov beixtiyor kulib qo'ydi. Vohid Mirobidov to'rdagi qog'ozga to'lib ketgan katta stol yoniga o'tib, bir dasta kitoblar orasidan o'rtacha qalinlikdagi qora jildli kitobni oldi-da, tikka turganicha dastxat yozdi. Shu topda Vohid Mirobidovning har bir harakatida, ulkan boshini bir tomonga sal egib, shitob bilan qalam tebratishida, butun vajohatida o'ziga ishonch, mamnuniyat, cheksiz bir iftixor barq urib turardi.

– Mana, o'qimasangiz ham varaqlab chiqishga vaqt toparsiz! – Vohid Mirobidov g'olibona iljayganicha kitobni kuyoviga uzatib, o'zini chuqur kresloga tashladi.

Kitob “Ko'hna o'lka kelajagi” deb atalar, uning birinchi betiga xattotlarcha chiroyli husnixat bilan ushbu so'zlar bitilgan edi: “Qadrdon o'g'lim Abrorjonga! Siz va sizning farzandlaringiz, mening sevikli nabiralarim, ushbu kamtarim asarda ilgari surulgan g'oyalarning ro'yobga chiqqanini o'z ko'zlaringiz bilan ko'rasizlar degan umidda, otangiz Vohid Mirobidov”.

Dastxatni samimiyligi ta'sir ettimi yo kitobni azaldan bamisoli bir mo'jiza deb bilgani uchunmi, Shukurov, yuragi beixtiyor shig' etib:

– Rahmat, dada, – dedi ovozi titrab. – yangi ijodiy parvozlar tilayman, sizga!

– Tashakkur, og'lim, tashakkur! – Vohid Mirobidov bosh irg'ab, o'tirgan joyida bir qo'zg'alib qo'ydi.

– Xo'sh, shunday qilib, qadrdonim sizga nima dedilar bu masalada?

Shukurov soatiga o'g'rincha ko'z tashladi: ketadigan vaqti yaqinlashib qolgandi.


– U kishi ortiqcha bir gap aytmadilar. – bir nima degandir axir?

– Dedilar. U kishi, bu masalada uzil-kesil fikr aytishdan oldin uni juda chuqur o'rganib chiqish kerak, Sibir daryolarini janubga burganda ro'y berishi mumkun bo'lgan tebranishlarni, obi-havo, yer, iqlimda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni ilmiy asosda sinab ko'rmoq lozim, dedilar.

–Umumiy gaplar! Bu gaplarni aytmoq uchun dono bo'lish shart emas. Xo'sh, yana nima dedilar?

–Shukurov gap topolmay peshonasini ishqadi.

–Xullas kalom, domlaning aytishicha, bu ishda shoshmashosharlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi, yetti o'lchab bir kesmoq kerak...



–Mas’uliyatdan qochib yuradigan jo‘n olimning jo‘ngina gaplari bu! – Vohid Mirobidov kreslodan sapchib turdi, qo‘llarini shimining cho‘ntagiga tiqqanicha, ota xo‘rozday ko‘krak kerib, xonani bir aylanib chiqdi. – Nadomatlar bo‘lg‘aykim, dadil va keng fikrlash o‘rniga hamma narsadan o‘zini opqochip yuradigan mana shunaqa mayda odamlar ko‘payib ketyapti bizda! Fikrlash qobiliyati nihoyatda tor, masalaga davlat ahamiyati nuqtayi nazaridan yondashishdan qo‘rqadigan bunday jo‘n olimlar hayot ilgari surayotgan ulkan ilmiy muammolardan o‘zlarini doim opqochganlari-opqochgan, ular xuddi Chexovning g‘ilof bandasiga o‘xshab bir nima desam oqibati nima bo‘lar ekan, deb titrab-qahshab turadilaru, yana yetti o‘lchab bir kesmoq kerak deb safsata sotadilar. Holbuki hayot hozir shunday muammolarni ilgari suryaptiki, unga darhol javob bermoq kerak, darhol hal qilmoq kerak! Yo noto‘g‘rimi gapim?

Qiziq. Qaynotasi Shukurovga yoqa boshlagan edi. U Vohid Mirobidovning ota xo‘rozdek ko‘krak kerib turishini zimdan kuzatarkan, uning yosh yigitchaday qizishib, yonib gapirgan gaplariga quloq solarkan, hali-zamon qaynotasi to‘g‘risida o‘ylagan noxush o‘ylari, ko‘nglidan o‘tgan shubhalari – hammasi to‘zg‘ib ketganini his qildi. Shukurov hozir qaynotasining shu alfozda davom etishini, o‘z fikr va e’tiqodlarini yanada chuqurroq asoslab berishini istardi.

– Ha aytmoqchi, domla Sibir daryolarini O‘rta Osiyoga burishdan avval bu yerdagi sug‘orish sistemalarini yangilab chiqish kerak dedilar. Umuman u kishining fikricha hali ichki imkoniyotlar juda ko‘p...

–Ichki imkoniyatlar emish! – dedi Vohid Mirobidov, go‘yo ro‘parasida o‘z kuyovi emas, eski raqibi domla Shomurodov o‘tirgandek kesatib. – Siz shuni bilib qo‘yingki, o‘g‘lim, agar biz hamma buloq, hamma o‘zanlarning suvini tomchilab ishlatganimizda ham, hatto Tyan-Shan tog‘larining muzlarini eritib suv qilganimizda ham saksoninchi yilga, boringki to‘qsoninchi yilga borib hamma imkoniyatlarimiz tugaydi. Mavjud suv zapaslari bizga yana bir million, boringki bir yarim million gektar yer o‘zlashtirish imkonini beradi, tamom –vassalom! Holbuku bizda o‘n milliondan ortiq serhosil bo‘z yerlar mavjud. Holbuki aholi soni misli ko‘rilmagan sur‘atlar bilan o‘sib ketyapti. Bu degan so‘z biz barcha maydachuyda shubha va bahs munozaralarni yig‘ishtirib qo‘yib, Sibir daryolari masalasiga darhol, shu bugun kirishmog‘imiz lozim! Chunki, bu loyihaga shu bugun kirishib, qurilishni shu bugun boshlab yuborganimizda ham Sibir daryolari o‘n besh-yigirma yilsiz kelmaydi! Vaqt ketyapti, vaqt! Buni o‘ylarmikanlar domlangiz!



Javob bering.

1) Matnni o'qib olgan taassurotlaringizni o'z so'zlaringiz bilan tushuntirib bering.

2) Matndagi Sizning diqqatingizni jalb qilgan so'zlarning ma'nolari bo'yicha "BBB" jadvalini to'ldiring. So'zlarning ma'nolarini bilib olish uchun "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan foydalaning.



Bilar edim	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

O'quv loyihasi.

1. Siz qanday ilmiy mavzu tanlayapsiz? Sohaga doir qanday muammolar mavjud deb o'ylaysiz?

3. Ilmiy rahbar tanlash haqida o'ylab ko'rdingizmi?

4. Siz muammo deb hisoblagan masalaning o'rganilishi borasida qanday tadqiqotlar olib borilganligidan xabardormisiz?

5. Yo'nalishingiz bo'yicha yuqori bosqich talabalarining kurs ishlari himoyasida qatnashib ko'rdingizmi? Ular haqida mulohazalaringizni bildiring.


6. Bir ilmiy maqola ustida qoralamalar qiling. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qat'iy belgilangan tartibda tuzilishini unutmang.

1. O'zR qonunlari.

2. O'zR Prezidenti farmonlari.

3. O'zR Hukumati qarorlari.

4. Me'yoriy hujjatlar, yo'riqnomalar.





5. Kitoblar, davriy nashrlarda e'lon qilingan maqolalar.

6. Internetdan olingan axborot manbalari.

Manbalarning bibliografik bayonida quyidagilar ko'rsatiladi: muallifning familiyasi va ismi-sharifi, kitob nomi, nashr qilingan joyi, nashriyot nomi va nashr yili. Agar maqola jurnalda (gazetada) bosilgan bo'lsa, unda jurnal (gazeta) nomi, chiqqan yili, jurnal (gazeta) sahifasi raqami.



XV MODUL. ISH KUNI

Xizmat safari
Rasmiy-idoraviy uslub
“Mehrobdan chayon”.
Xodim, hujjat,



Mavzuga kirish:
Ishxona – ikkinchi uyimiz, desak to‘g‘ri bo‘ladimi?


Mavzuni o‘rganishda quyidagi so‘z va so‘z birikmalariga e‘tibor qarating:

bayonnoma, buyruq, dalolatnoma, farmoyish, guvohnoma, hisobot, hujjat, ko‘rsatkich, kasaba uyushmasi, identifikasiya, ishonchnoma, ma‘muriyat, ma‘lumotnoma, majburiyat, qo‘mita, , tavsiyanoma, tavvallud, tavsifnoma, yig‘majild, yo‘riqnoma, doktrina, deklaratsiya, konsul, kafolat, kongress, konvensiya, muzokara, parlamentarizm, ratifikatsiya, rezolutsiya, sarhad, senator, tajovuzkor, tuzilma, tushuntirish xati, uyushma, ultimatum, shikoyat, chorraha

O‘qing.

XIZMAT SAFARI

Xizmat safari – komandirovka (nemischa jo‘natish degan ma‘noni anglatadi) korxona, muassasa, tashkilot rahbarining farmoyishiga binoan xizmat topshirig‘ini bajarish uchun xodimning doimiy ish joyidan boshqa yoqqa safari. Xizmat safariga yuborilgan xodimning ish joyi va o‘rtacha ish haqi saqlanadi. Xizmat safari yo‘ldagi vaqtni hisoblamaganda 45 kundan oshiq bo‘lmagan muddatga tayinlanadi. Zarur hollardagina 15 kundan oshiq bo‘lmagan muddatga uzaytirish mumkin. Xizmat safariga yuborilgan xodimning safar vaqtidagi xarajatlari uchun sutkalik pul, turar joy ijarasi uchun pul to‘lanadi. Xizmat safarida bo‘lgan kunlar dam olish va bayram





kunlari uchun qo'shib hisoblanadi. Bayram va dam olish kunlari uchun ortiqcha miqdorda haq to'lanmaydi. Yo'lga chiqish va qaytib kelish kunlari sutkalik pul to'lashda bir kunga hisoblanadi. Xizmat safari davrida temir yo'ldagi kira haqi qattiq vagon tarifi bo'yicha, suv yo'llarida 2-klass tarifi bo'yicha, avtomobil yo'llarida o'sha joydagi mavjud kira haqi bo'yicha to'lanadi. Bunda samolyotdan foydalanishga ham ruxsat etiladi.

Xizmat safariga chiqqan kishi safar davomida bajarilgan ishlar bo'yicha hisobot tayyorlaydi va korxona, muassasa buyrug'iga ilova qiladi (hisobot bilan rahbar yoki bo'lim boshlig'i tanishib chiqadi va imzolaydi). Hisobot safar davomida foydalanilgan transport turlari uchun olingan chiptalar bilan birgalikda korxona, muassasa buxgalteriya – hisob-kitob bo'limiga topshiriladi.

Mashqlarni bajaring.

1-mashq. *Bir yoki bir nechta to'g'ri javobni tanlang.*

ma...muriyat () [ʻ]
ko'rsatki... [ch] (sh)
...ujjat [h] (x)
farmo...ish () [y]
q...mita (o) [o']
buyr...q (i) [u]
yi...majild (g) [g']
identi...ikasiya (v) [f]
y...riqnoma [o'] (o)
ta...siyanoma [v] (f)

2-mashq. *Bir yoki bir nechta to'g'ri javobni tanlang.*

ma'lum...tn...ma (a) [o]
his...b...t [o] (a)
bayo...oma (n) [nn]
kasaba uy...shmasi [u] (i)
guvo...noma [h] (x)
majburi...at () [y]
ta...allud [v] (vv)



ta...sifnoma (f) [v]
ish...nchn...ma (a) [o]
dal...latn...ma [a] (o)

3-mashq. Matnda 5 ta so'z xato yozilgan. Ularni to'g'rilab yozing.

Lobar Abduroziq qizi 28.09.2018.dan 500000 so'mlik moosh bilan ... tumoni xalq ta'lmi bo'limining bosh metodisti lavazimiga tayinlansin.

Xato	To'g'risi
28.09.2018.	2018.28.09.
moosh	maosh
tumoni	tumani
ta'lmi	ta'limi
lavazimiga	lavozimiga

4-mashq. Matnda 6 ta so'z xato yozilgan. Ularni to'g'rilab yozing. Komissiya institut talabalar turar joyidagi barsha sport anjamlarining ahvoli va sifatini o'rganib chiqdi va quydagi sport anjomlarini ishlatish uchun yaroxxsiz deb topdi.

Xatosi	To'g'risi
barsha	barcha
anjamlarining	anjomlarining
avholi	ahvoli
quydagi	quyidagi
ishlatish	foydalanish
yaroxxsiz	yaroqsiz

5-mashq. Moslikni aniqlang.

Tushunchalar	Izoh
--------------	------



Ma'lumotnoma	Bo'lgan voqea yoki mavjud holatlarni bildirish, axborot berish mazmunida ifodalaydigan hujjat.
Ariza	Muayyan muassasaga yoki mansabdor shaxs nomiga biror iltimos, taklif yoki shikoyat mazmunida yoziladigan rasmiy hujjat.
Ishonchnoma	Muayyan muassasa yoki ayrim shaxs o'z nomidan ish ko'rish uchun ikkinchi bir shaxsga ishonch bildiradigan yozma vakolatli hujjat.
Dalolatnoma	Muassasa yoki ayrim shaxslar faoliyati bilan bog'liq biron-bir o'tgan (sodir bo'lgan) voqea, hodisa, ish-harakatni yoki mavjud holatni tasdiqlash, unga guvohlik berish maqsadida bir necha kishi tomonidan tuziladigan hujjat.
Tilxat	Pul, hujjat, qimmatbaho buyumlar yoki boshqa biror narsa olinganligini tasdiqlovchi rasmiy yozma hujjat.

6- mashq. Hujjat matniga mos eng to'g'ri javobni tanlang.


1. Ma'lumotnoma shahar soliq boshqarmasiga ... berildi.

topshirish uchun

taqdim etish uchun

vazifani bajarish uchun

2. Men, Kamol Yo'ldoshev, guruhdoshim Abdulla Ahmedovga (pasport ma'lumotlari) Chilonzor tumanidagi 64-aloqa bo'limdan mening nomimga kelgan 150000 (bir yuz ellik ming) so'm miqdoridagi pul jo'natmani olish uchun



ishonaman

ishonch bildiraman

inonaman

7-mashq. Quyidagi gap qaysi hujjat turiga mansub.

1. Kun tartibidagi masalalar har tomonlama muhokama qilindi.
Yigʻilish qaror qiladi.

shartnoma

dalolatnoma

maʼlumotnoma

bayonnoma

2. Xizmat sohasidagi, xizmatga aloqador masalani, uning ayrim jihatlarini yozma izohlovchi va muassasa (boʻlim) rahbariga (ichki) yoki yuqori tashkilotga (tashqi) yoʻllanuvchi hujjatdir.

maʼlumotnoma

tushuntirish xati

dalolatnoma

8- mashq. Qolipga mos gapni aniqlang. **Ajratilgan izoh boʻlakli sodda gap**

Ish qogʻozlari, odatda siyohli, sharikli ruchkada (koʻk, qora, gunafsharang sterjen bilan) aniq dastxat bilan yoziladi.

23

Pul, hujjat, qimmatbaho buyumlar yoki boshqa biror narsa olinganligini tasdiqlovchi rasmiy yozma hujjat **tilxat** deyiladi.

Ariza, tarjimayi hol, bildirgi (raport) kompyuterda yozilmay, faqat qoʻl bilan yoziladi.



Dalolatnoma (akt), bayonnoma, hisobot kabi hujjatlar kompyuterda terilishi mumkin.

Son, odatda, raqam bilan yoziladi.

9- mashq. Qolipga mos gapni aniqlang. **Yoyiq sodda gap**

Yo‘qolgan oltin topilar, yo‘qolgan vaqt topilmas. (Maqol)

Burchga sodiqlik shaxsiy manfaatlardan voz kechishni talab qiladi.

(Viktor

Gyugo.)


Og‘iz – bir, quloq – ikki, bir so‘zlab, tingla qirq ikki. (Maqol)

Faoliyat bilimlarga olib boradigan yagona yo‘ldir. (Bernard Shou.)

Elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan, boshqa rikvizitlarga ega bo‘lgan axborot elektron hujjatdir.

10-mashq. Bo‘sh o‘ringa hujjat qoliplariga mos jumalarni tarjima qilib o‘zbek tilidagi muqobilini yozing.

O‘zbek tilida	Qoraqalpoq tilida
taklif kiritdi	usinis kiritdi
qo‘llab-quvvatlandi	qollap-quwatlandi
bekor qilindi	biykar etildi
ma‘qullashni so‘radi	maqullawdi soradi
... ni tasdiqlashni so‘radi	... ni tastiyoqlawdi soradi
belgilab qo‘yilsinki	atap qóyilsin



O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni o'zbek tilining **siyosiy-ijtimoiy maqomini** ta'minladi va uning rivojlanishi uchun keng **imkoniyatlar yaratdi**. Xususan, 7-,8-,9-,10-, 22-moddalarda hujjatlarning davlat tilida tayyorlanishi, boshqaruv organlari, muassasa, korxona va tashkilotlarda ish davlat tilida yuritilishi ta'kidlangan. Qonunning 7-moddasida O'zbekistondagi barcha **muassasa**, korxona, tashkilot va birlashmalarda ish respublika davlat tilida yuritiladi", deb yozilgan. 22-moddasida esa ish qog'ozlarining matni o'zbek tilida bo'lishi talabi qo'yilgan.

Shuning uchun har bir fuqaro **rasmiy-idoraviy nutq uslubi** xususiyatlari bilan tanish bo'lishi, hujjat matnlarini tuzish ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur.

Rasmiy-idoraviy nutq uslubi jamiyatdagi ijtimoiy, huquqiy munosabatlar, davlat va davlatlararo rasmiy, siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar uchun xizmat qiluvchi uslubdir. Bu uslub hujjatchilik xarakteri bilan ajralib turadi. Shunga ko'ra, yozma nutqning xizmatga doir bu turi davlat **qonunlari, farmonlar, bayonotlar, shartnomalar, idora hujjatlari, e'lonlar** va boshqa rasmiy yozishmalar uslubi hisoblanadi. Rasmiy-idoraviy uslubdagi nutqning o'ziga xos xususiyati rasmiy yozishma va hujjatlar iqtisodiy, yuridik va diplomatik munosabatlarda, **ma'muriy davlat idoralarida** ishlatilishidadir.

Rasmiy uslubning **ma'muriy-devonxona hujjatlari, iqtisodiy-tijorat hujjatlari, huquqiy** hamda **diplomatik hujjatlar** kabi turlari mavjud.




Mehrobdan chayon

Abdulla Qodiriy

Devonda rasmiy mirzo bo'lishning uchinchi yilida Anvar juda katta e'tibor qozong'an edi.

Ayniqsa, turkiy tahrirda mirzolarning har birisidan ustun: chiroylik uslubi, oson tarkib va ifodasi bor edi. Buni mirzolardan boshlab saroy shoirlari, saroy muftilari, bosh munshiy Muhammad Rajabbek, hatto xonning o'zi ham e'tirof qilar edilar.






Xudoyor muhr bosish asnosi yozilg'an yorlig' va nomalarni o'qutib eshitar, munshiylarning eshitilmagan arab va fors so'zlari orqaliq to'qug'an yarim turkiy jumlariga aksar vaqt yozg'an har bir jumlasini musiqiy kabi rohatlanib, tushunib tinglar va "shu bala barilaringdan ham o'qug'anraq chiqar!" deb, boshqa mirzolarining yuragiga o't yoqar edi.

Muhammad Rajab munshiy keyingi kunlarda muhim tazkiralar tahririni Anvarga topshiradig'an bo'ldi. O'zi birar joyg'a ketadigan bo'lsa, devon idorasini Anvar qaramog'ig'a qoldirar, har bir to'g'rida ham boshqalardan ko'ra Anvarga ishonar edi. Zero, Anvar har bir ishni to'g'ri va xolis ado qilar, vazifasidan tashqari ishlarga kirishmas, oladig'an maoshidan ortiqcha tama'ga tushmas edi. Bu o'runda Anvarning bir xususiyatini ataynoq yozib o'tishka burchlimiz: o'rus istibdod idorasi yonidag'i musulmon qozixonalari va ulardagi mirzolari har kim xotirlaydir. O'sha mirzolarining unar-unmaska "qalam uchi" so'rashlari, kichkina ishni ulug'latib mazana chiqarish harakatlari ham bizga ma'lumdir.

Shu qozixona mirzolari, baayni hikoyamizning mavzuyi bo'lg'an Xudoyor saroyi munshiylarining kichkina nusxalari edilar. Xong'a yoziladig'an arzi-dodlar saroy mirzolaridan tashqarida tahrir qiling'an bo'lsa, aksar vaqt ishka oshmas edi. Ya'ni chetda yozilg'an ariza qabul qilinsa ham ariza egasi qalam uchini begona qilg'ani uchun arizani xong'a va sarmunshiyga ko'rsatmay, yirtib tashlar edilar. Ariza egasi natija so'rasa, "arizangizni savodsiz kishi yozg'an ekan; janob iltifotsiz qoldirdilar" deb savodliq kishidan boshqa ariza yozdirib berishka maslahat ko'rsatar edilar. Ariza berguchi ikkinchi martaba harajatlanib, saroy mirzolarining o'zlaridan yozdirishg'a majbur bo'lar edi. Mundan boshqa, bir-birlari ustidan xong'a shikoyat qilish, o'zaro bitmas adovat ham davom etib, aksar bir-birlarining tegiga suv ham quyib turar edilar. Yana aksariyat mirzolar xonning xufiyalik xizmatini ham ado qilib, shaxsiy adovat yoki xong'a yaxshi ko'runish uchun fuqarodan nechalarning gunohsiz qonig'a cho'milib, mudhish foji'alarg'a ham sababchi bo'lar edilar. Shuning uchun xalq ayniqsa, kambag'allar saroy mirzolarig'a nafrat bilar qarar, ular yonig'a yaqinlashishdan qo'rqr, ilojsizlikdan ikki bukulib salom berar edilar.

Lekin Anvar ta'mani, shaytanatni, adovatni ayniqsa, xufiyalikni bilmas, devonda o'ziga topshirilg'an vazifanigina ado qilar, alaxusus mazlumlardodnomasini xong'a eshitdirishka va yaxshi



natijalantirishka tirishar edi. Ul o'zining shu to'g'rilig'i soyasida hamisha anovi mirzolarining ishiga biloqasd xalal berib, chirishni buzub turar, ham shu va boshqacha sabablardan ularning adovatiga yaxshig'ina hadaf ham bo'lg'an edi. Biroq, Anvarning homiysi – Muhammad Rajabbek katta e'tibor va nufuzga molik, ham xong'a inobatlik, shuning uchun mirzolar Anvarga qarshi hech narsa qilolmas edilar. Mirzolar orasida Anvarga tish-tirnog'i bilan qarshi bo'lg'an Shahodat mufti kabi keksa mirzolar yashag'anlaridek uning iste'dod va zakosiga xolis maftun bo'lg'an Sultonali kabi mirzolar ham bor edilar.

Shu yo'sun tajriba yilidan tashqari besh sana saroyda ishlab kelar edikim, mundan o'n besh kunlar muqaddam sarmunshiy Muhammad Rajab poygachi bir haftagina og'rib, vafot etdi. Anvar o'ziga samimiy mehribon bo'lg'an bir kishidan ayrildi. Necha yillardan beri Muhammad Rajabbekning o'lumini yoki boshqacha bir falokatini kutib, undan so'ng bosh munshiylikka o'zini chog'lab yurg'an Shahodat mufti xizmat bilan qishloqqa chiqib ketkanligi uchun, muvaqqat ravishda bosh munshiylik vazifasini Anvar ado qila boshladi. Va shu bir necha kun ichida Anvarning bosh munshiy bo'lish shoyi'asi yurib qoldikim, hozirga bu to'g'rida bir mulohaza aytish qiyindir. Chunki bu mansabga intilguchi kazo va kazolar, shoir va fuzalolar ko'bdir.

Javob bering.

1) Asardan olgan taassurotlaringizni o'z so'zlaringiz bilan tushuntirib bering.

2) Matndagi Sizning diqqatingizni jalb qilgan so'zlarning ma'nolari bo'yicha "BBB" jadvalini to'ldiring. So'zlarning ma'nolarini bilib olish uchun "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan foydalaning.

Bilar edim	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Mustahkamlash uchun testlar

1. Og'zaki so'zlashuv tilining xususiyatlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) erkinligi, ma'lum me'yorlarga amal qilishi shart emasligi, oddiyligi
B) erkinligi va oddiyligi C) ma'lum me'yorlarga amal qilmasligi
D) aniq bir qolipga solinmaganligi
2. Qaysi qatorda turkiy tillar – qarindosh tillar to'g'ri berilgan?
A) boshqird, qorachoy-bolqor B) venger, koreys
C) tojik, uyg'ur D) rus, ozarbayjon
3. Til oilalarining nomlari nimaga asoslanib nomlanadi?
A) bobo tili nomiga asoslanib B) kelib chiqishiga ko'ra
C) qaysi hududda joylashishiga ko'ra D) til oilasidagi eng qadimiy til nomiga asoslanib
4. Qaysi qatorda turkiy tillari oilasining guruhlanishi to'g'ri ko'rsatilgan?
A) qipchoq tillari guruhi, o'g'uz tillari guruhi, qorluq tillari guruhi
B) chigil tillari guruhi, o'g'uz tillari guruhi, qorluq tillari guruhi
C) yag'mo tillari guruhi, o'g'uz tillari guruhi, qorluq tillari guruhi
D) chigil tillari guruhi, yag'mo tillari guruhi, o'g'uz tillari guruhi
5. Qorluq tillari guruhiga mansub tillar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) o'zbek tili, uyg'ur tili B) turkman, ozarbayjon
C) no'g'oy, qoraqalpoq D) qozoq, qirg'iz
6. Tatar, boshqird, xakas, chuvash tillari qaysi guruhga mansub?
A) qipchoq tillari guruhiga B) chigil tillari guruhi,
C) o'g'uz tillari guruhi D) qorluq tillari guruhi
7. Turkiy tillar oilasida nechta til mavjud?
A) 30 ga yaqin til B) 30 ta C) 30 dan ortiq D) 24 ta
8. Turkiy tillarda so'zlashuvchilar yashamaydigan mintaqani ko'rsating.
A) Afrika B) Avstraliya C) Osiyo D) Yevropa
9. Turkiy tillarning xususiyatlari qaysi qatorda to'liq va to'g'ri berilgan?

A) Agglutinatív til hisoblanadi. Har qanday grammatik ma'no alohida qo'shimcha yordamida ifodalaniladi. B) Flektiv til hisoblanadi. Har qanday grammatik ma'no alohida qo'shimcha yordamida ifodalaniladi. C) Flektiv til hisoblanadi. Qo'shimchalar asosan o'zakdan keyin qo'shiladi. D) Agglutinatív til hisoblanadi. Har qanday grammatik ma'no alohida qo'shimcha yordamida ifodalaniladi. Qo'shimchalar asosan o'zakdan keyin qo'shiladi.

10. "Davlat tili haqida"gi qonunning yangi tahriri qachon qabul qilindi?

A) 1989-yil 21-oktabrda B) 1995-yil 21-dekabrda

C) 1992-yil 21-oktabr D) to'g'ri javob berilmagan

11. "Davlat tili haqida"gi qonunning qaysi moddalarida O'zbekistonda boshqa tillarning ham amal qilinishi himoyalaniadi?

A) 2-,4-,6-,10-,14-moddalarda B) 2-,4-,6-,10-,14-, 24-moddalarda

C) 2-,4-,6-,10-moddalarda D) 2-,6-,10-,14-moddalarda

12. "Davlat tili haqida"gi qonunning qaysi moddasida "Respublikaning ma'muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko'chalar va geografik obyektlarining nomlari davlat tilida aks ettiriladi" deb ko'rsatilgan?

A) 19-moddada B) 23-moddada C) 6-moddada D) 10-moddada

13. "Ushbu Qonun tillarning turmushda, shaxslararo muomalada, diniy va ibodat bilan bog'liq udumlarni ado etishda qo'llanishini tartibga solmaydi". Ushbu jumlar davlat tili to'g'risidagi qonunning nechanchi moddasidan olingan?

A) 19-moddada B) 23-moddada C) 3-moddada D) 10-moddada

14. Turkiy tillar qadimda qaysi til bilan birgalikda bitta oilani tashkil qilgan?

A) mo'g'il tili bilan B) tungus-manjur C) koreys D) tojik

15. Qaysi yozuvlar hozirgi turkiy tillarning barchasi uchun umumiy sanaladi?

A) o'rxun-enasoy, uyg'ur (qisman moniy), so'g'd B) avesto, o'rxun-enasoy, uyg'ur C) qadimgi xorazmiy, o'rxun-enasoy, uyg'ur D) arab, o'rxun-enasoy, uyg'ur

16. Turkiy tillarning fonetikasi, leksikasi, grammatikasi, dialektal xususiyatlari haqida to'la ma'lumot beruvchi asar...?

A) A. M.Koshg'ariy, "Devonu lug'otit turk" B) Y.X.Hojib, "Qutdg'u bilig" C) A.Yugnakiy, "Hibat ul- haqoyiq" D) A.Yassaviy, "Hikmatlar"

17. 1930-yilgacha xalqimiz qanday yozuvdan foydalanib keldi?

A) lotin grafikasiga asoslangan turkiy yozuvdan B) arab grafikasiga asoslangan turkiy yozuvdan C) rus grafikasiga asoslangan turkiy yozuvdan D) o'rxun-enasoy yozuvidan

18. Rus grafikasiga asoslangan o'zbek yozuvi qachon amalga tatbiq etildi?

A) 1940-yildan B) 1940-yil may oyidan C) 1930-yil may oyidan D) 1929-yildan

19. Hozirgi o'zbek adabiy tili markaziy dialektlarga qaysi jihatga ko'ra asoslanadi?

A) fonetik B) leksik C) grammatik D) uslubiy

20. Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi undosh tovushlar nechta harf bilan ifodalanadi?

A) 23 harf, 3 harfiy birikma B) 20 harf, 3 harfiy birikma

C) 20 harf, 2 harfiy birikma D) 21 harf, 2 harfiy birikma

21. Ruscha-baynalmilal so'zlardagi *u* harfi uchun qanday belgi olingan? Barcha to'g'ri javoblarni belgilang.

A) s B) ts C) ss D) st

22. O'zbek tilidagi urg'u qanday urg'u hisoblanadi?

A) barqaror urg'u hisoblanadi B) ko'chib yuruvchi urg'u hisoblanadi

C) doimo so'z ma'nolarini farqlashga xizmat qiladi D) boshqa tillardagi urg'udan farq qilmaydi

23. Quyida keltirilgan qaysi so'zlarda urg'u barqaror o'ringa ega?

A) tadbir, monitoring, reklama, tijorat, ma'lum, bahor B) o'rik, o'rikzor, o'rikzorlar, o'rikzorlarga C) bog'lar, hozir, akademik, yangi, etik

D) to'g'ri javob berilmagan

24. O'zbekcha so'zlarning fonetik tuzilishidagi o'ziga xoslik qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) so'zning boshida ketma-ket ikki undosh bir joyda keladi B) so'zning oxirida st, lt, rt kabi undoshlar yonma-yon keladi C) so'zning oxirida har qanday qo'sh undoshlar yonma-yon keladi D) A va B

25. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" necha bo'limdan iborat?

A) 80 ta B) 7 ta C) 82 ta D) 8 ta

26. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" necha banddan iborat?

A) 80 ta B) 9 ta C) 82 ta D) 8 ta

27. Qaysi qatordagi barcha so'zlardagi nuqtalar o'rnida y undoshi yoziladi?

A) do...im, bo...is, ma...iz, do...ira B) sho...ir, gi...oh, fo...iz, foji...a

- C) sa...id, ma...ib, hoshi...a, radi...o D) ha...it, ba...ir, bu...um, ma...it
28. Qaysi qatorda barcha soʻzlarda til oldi, jarangli, portlovchi j undoshi qatnashgan?
- A) jon, jahon, vaj, juma, gʻijjak B) jurnal, ajdar, tiraj, garaj, ajoyib
- C) jiyda, tijorat, projektor, jirafa, jalyuzi D) rivoj, jahon, vaj, juma, gijda
29. Til oldi, jarangsiz, qorishiq undosh qatnashgan soʻzlarni toping.
- A) jon, jahon, vaj, juma B) jiyda, tijorat, projektor, jirafa,
- C) shahar, shimol, shoshmoq, osh D) chumoli, soch, choy, achchiq
30. Faqat ogʻzaki nutqqa xos uslubni koʻrsating.
- A) soʻzlashuv B) ilmiy C) publitsistik D) badiiy
31. Badiiy uslubga xos soʻzlarni toping.
- A) qaroq, dudoq, kamon B) nigoh, irin, binobarin C) salom, ota, bilan
- D) maktab, bayram, juda
32. Professor, prorektor, dotsent soʻzlari qaysi uslubga xos
- A) rasmiy uslubga B) ilmiy uslubga C) badiiy uslubga
- D) soʻzlashuv uslubiga
33. Soʻzlardan tashqari mimika ham ahamiyatli boʻlgan uslubni koʻrsating.
- A) soʻzlashuv B) badiiy C) ilmiy D) rasmiy
34. Yozma publitsistik uslubga xos shakllarni koʻrsating.
- A) sharhlovchi nutqi, dekloratsiyalar B) feleton va pamfletlar
- C) murojaatnomalar, notiqar maʼruzasi D) bosh maqola va boshlovchi nutqi
35. Sheva, tarixiy soʻzlar qaysi uslublarga koʻproq xos?
- A) soʻzlashuv uslubiga B) badiiy uslubga C) ilmiy uslubga D) rasmiy uslubga
36. Komunikativ vazifadan tashqari ekspressiv vazifa ham bajaruvchi uslub
- A) badiiy uslub B) soʻzlashuv uslub C) rasmiy uslub D) ilmiy uslub
37. Ijtimoiy hayotning maʼlum sohasi doirasida chegaralanmagan uslubni toping.
- A) soʻzlashuv uslubi B) badiiy uslub C) ilmiy uslub D) rasmiy uslub
38. Qaysi uslubda adabiy tilning barcha imkoniyatlarini oʻz ichiga olish bilan birga, oʻzbek shevalariga, kasb-hunarga doir leksik birliklar, isteʼmoldan chiqib ketgan tarixiy soʻzlar ham personajning nutqida ishlatiladi.

A) badiiy B) ilmiy C) rasmiy D) hech bir uslubda bunday birliklarning barchasi qo'llanilishi mumkin emas

39. Axborot uzatish, da'vat etish, buyurish vazifalari qaysi uslubga xos

A) publitsistik uslubga B) so'zlashuv uslubiga

C) badiiy uslubga D) ilmiy uslubga

40. ToshDU desam, darhol tushadi esga, Mening yigit vaqtim, sening qiz vaqting... Berilgan matnning turini aniqlang.

A) dialogik matn B) monologik matn C) minimal matn D) maksimal matn

Yopiq test

1. Buloq, bulog'i, tilak, tilagi kabi so'zlarning imlosini tushuntiring. –

2. Erk, ishtirok, huquq, ravnaq kabi so'zlarda egalik qo'shimchasi qo'shilganda qanday hodisa kuzatiladi? –

3. Nisbat qo'shimchasi qo'shilganda tovush tushishi yuz beradigan so'zlarga misol keltiring. –

4. Parvo, obro' so'zlariga qaysi shaxs egalik qo'shimchalari qo'shilganda tovush orttiriladi? –

5. -dir nisbat qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli so'zlarga qo'shiladi. Bu qoidadan mustasno so'z qaysi? –

6. Uch xil aytiladigan va yoziladigan qo'shimchalar qaysilar? –

7. Imlo xatosini toping. Qo'ng'ir tog', Qizilqum Fosforit kombinati, Navro'z Bayrami, O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasi raisi, Yevropa ittifoqi kengashi, Davlat Test Markazi, Oltin yulduz medali, kundan-kunga, damba-dam, 8 mart, deng-iz, Nam-DU, X-bob, XXI-asr

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Rahbariy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi «Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида»ги PQ-3271-son. <https://lex.uz/docs/-3338600>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5850-sonli farmoni. <https://lex.uz/docs/4561730>

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5847-sonli farmoni. <https://lex.uz/docs/4545884>

4. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonuni // O‘zbekistonning yangi qonunlari: To‘plam. – T.: 1996. 20-30 b.

5. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш -юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017. – 48 б.

6. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз – Т.: Ўзбекистон, 2016. – 56 б.

7. Олий таълимнинг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида /Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори / ЎзР ҚХТ, 2001. – 15-16-сон, 104-модда; 2013. – 28-сон, 363-модда, 52-сон, 691-модда; 2015. – 2-сон, 21-модда.

8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Т.: «Ўзбекистон» НМИУ. 2018. – 88 б.

9. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Т.: «Ўзбекистон» НМИУ. 2019. – 88 б.

10. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Т.: «Ўзбекистон» НМИУ. 2020. – 88 б.

11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2017 й. 6-сон, 70-модда. – 20-сон, 354-модда.

12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 12 майдаги «Буюк алломалар, адиб ва мутафаккирларимиз ижодий меросини кенг ўрганиш ва тарғиб қилиш мақсадида ёшлар ўртасида китобхонлик танловларини ташкил этиш тўғрисида»ги ПҚ-3721-сон қарори. <https://nrm.uz>

13. Ўзбекистон Республикаси узлуксиз мажбурий таълим тизимининг Давлат таълим стандартлари. – Т., 2017.

Ilmiy-uslubiy asarlar

14. Abdurahmonov X., Shodmonov E., Rafiyev A. O'zbek tili. – Т.: O'qituvchi, 1988.

1. Adilova S., To'xtamirzayev M. O'zbek tili. / Bakalavriatning barcha yo'nalishlari rusiy zabon talabalari uchun o'quv qo'llanma. – Т.: TDPU, 2007. 167 b.;

2. Ahmedova G.T., Karimjonova V.A. O'zbek tili. – Т.: Ijod dunyosi NU, 2001.

15. Bobojonov F., Rajabova K. O'zbek tili. – Т., Mumtoz so'z, 2017.

16. Bo'ronov M. Ibrahimova Z. Til o'rgatishning lisoniy-didaktik omillari. – Nukus: Bilim. – 2001.

17. Bo'ronov M. O'zbek tili o'qitish metodikasidan. – Nukus.: Bilim. 1995.

18. Bolalar ensiklopediayasi. – Т.: O'zbekiston milliy ensiklopediaysi Davlat ilmiy nashriyoti, 2007-yil. – 662 bet.

19. Hojiyev A., Muhitdinova X. O'zbekcha-ruscha-o'zbekcha rasmlilug'at. – Т.: O'qituvchi, 2009.

20. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik / Jamolxonov X. – Т.: Talqin, 2005. – 272 b.

3. Husanov N., Adurahmonova M., Lafasov U., Asilova G. O'zbek tili. Fan dasturi (barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun). – T.: 2017.
4. Kabulova D. O'zbek tilidan didaktik materiallar. – Nukus, 2016
21. Madvaliyev A., Mahmudov N., va b. O'zbek tilida ish yuritish (munshoot). – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 1990. – 223 b.
5. Mirzayev I., Boltayev M. O'zbek tili. Oliy o'quv yurtlarining rus guruhlar talabalari uchun darslik. T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2004.
22. Muhitdinova X.S., Salimova Z., Po'latova X. O'zbek tili. – T.: O'qituvchi, 2006.
23. Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug'at. – T.: Sharq, 2006.
24. Nazarov K., Sayfullayev R., Ubaydullayeva M. O'zbek tili (Ixtisoslik grammatikasi). – T.: O'qituvchi, 1993.
25. Qoraqalpog'iston. – T.: Ma'naviyat, 2011. – 318 b
26. Qudratov T. Nafasov T. Lingvistik tahlil. – T.: O'qituvchi, 1981.
27. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Universitet, 2006.
28. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1978.
29. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva P.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiyalar, 2009. – 275 b.
30. To'xliiev B., Qurboniyozov G. O'zbek tili. (Oliy o'quv yurtlarining qoraqalpoq guruhi talabalari uchun). – T.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2012.
31. Toponimika: O'quv qo'll. / S.Qorayev. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 153-bet.
32. Usmonova M. va b. O'zbek tili. Darslik. – T.: O'qituvchi, 1992.
33. Xo'janiyozov E., Yuldasheva Sh. O'zbekiston Respublikasi «Davlat tili haqida»gi Qonunining demokratik tamoyillari. //Fan va jamiyat. 2008. № 3-4. B. 30-31.
34. Xolbekova M. Hozirgi o'zbek tili uslubiyati. – Guliston. 2010.
35. XXI asr: istiqbolimiz timsollari. – T.: O'zbekiston, 2001.

36.Yo'ldoshev M., Isoqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.

37.Yuldasheva Sh. O'zbek tili ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari. Ma'ruzlar to'plami. – Nukus. 2017

38.Yuldasheva Sh., Kabulova D. O'zbek tili. – T., Mumtoz so'z, 2016.

39.Yuldasheva Sh., Kabulova D., Sabirova M. O'zbek tili. – Nukus, Bilim, 2013.

40.O'zbek tili grammatikasi. 1-jild. Morfologiya. – T.: Fan, 1975. – 581 b

41.O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-5 jild. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2005 – 2008.

42.O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 1-12 jildlar. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.

Badiiy adabiyotlar

43.Abdullayev A., Daqiqa qadri. – T.: Davr Press nashriyoti, 2008. – 335 b.

44.Adabiyot .6-sinf uchun darslik. – T.: – Ma'naviyat , 2013 –

45.Ahmad S. Toshlarda qotgan hayrat: Adabiy o'ylar, xotiralar, hikoyalar. – T.: G'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – 208 b.

46.Do'stmuhammad Xurshid. Bozor. – T.: –Sharq nashriyoti, 2000. –191 b.

47.G'aybullo as-Salom. Tolibnoma. – T.: 2002.

48.Hoshimov O'. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – T.: Sharq, 2009. – 334 b.

49.Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. –T.: 2005.

50.Hoshimov O'. Nur borki, soya bor. –T.: Adabiyot va san'at, 1977. –240 b

51.Maxtumquli. Dunyo o'tib boradur. – T.: Sharq, 2007.


52.Muhammad Ali. Sarbadorlar.T.: – Sharq nashriyoti, 2011.– 620 b.

53.Muhammad Yusuf. Saylanma. – T.: Sharq nashryoti, 2005. – 288 b

- 54.Navoiy A. Hayrat-ul abror. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1974. – 145 b.
- 55.Oila xurjun. Hajviyalar. “Oila davrasi”da gazetasi kutubxonasi. – Toshkent.: Ijod-Press, 2016.-196 b
- 56.Omon Matjon, Erkin havolarda. –T.: Adabiyot va san‘at,–T.: 1997–358 b
- 57.Oripov A. Adolat ko‘zgusi. – T.: Adolat, 2005, 300 b.
- 58.Qahhor A. Tanlangan asarlar. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. – 208-b.
59. Qodiriy A, O‘tgan kunlar– T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at, 2018– 490 b.
- 60.Qodiriy A. Mehrobdan chayon. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at, 1994– 149 b
- 61.Qodirov P. Yulduzli tunlar. Bobur. – T.: Sharq, 2002.
- 62.Sattor M. O‘zbek udumlari. – T.: 2007.
- 63.To‘xtaboyev X. Besh bolali yigitcha. – T.: G‘.G‘ulom nashriyoti, 2009. – 252 b.
- 64.To‘xtaboyev X. Sariq devni minib. – T.: Yangi asr avlodi, 2009. – 240 b.
- 65.Tog‘ay Murod. Tanlangan asarlar (Yulduzlar mangu yonadi). –T.: Sharq, 2018 –701 b.
- 66.Tohir M. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2004. – 446 b.
- 67.Vohidov E. Asarlar 2 jild. –T.: Sharq, 2015– 415 b
- 68.Vohidov E. Mening juldizim. Qaraqalpaqstan baspasi. – Nokis. 1972.
- 69.Yoqubov O. Diyonat. – T.: Yosh gvardiya, 1979. – 288 b.

Gazeta va jurnallar

70. Amu tonggi.
71. Jahon adabiyoti.
72. Kitob dunyosi
- 73.Ma‘rifat.
- 74.Oila davrasida.
- 75.Til va adabiyot ta‘limi.
- 76.Turkiston.
- 77.Xalq so‘zi.
- 78.O‘zbek tili va adabiyoti.



Internet materiallari

79. <http://WWW.ziyonet.uz>.

80. <http://uza.uz>

81. [http:// lex.uz](http://lex.uz)

82. ziyouz.com. Xurshid Davron kutubxonasi.





**Yuldasheva Shaxlo Shukurlayevna,
Kabulova Durdona Satimovna,
Yusupova Gulara Ataxanovna**

O'ZBEK TILI
B2. O'rtadan yuqori daraja uchun

Darslik

Nashriyot muharriri:
Kompyuter ustasi:
Musahhih:



